

9 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY  
AXBOROTLARI  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL  
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL



ANIQ FANLAR  
TABIY FANLAR  
FALSAFA  
PEDAGOGIKA  
PSIXOLOGIYA  
IJTIMOIY-GUMANITAR  
FANLAR

**ISSN 2181-9580**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**ILMIY AXBOROTLARI**  
**ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**  
**ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN**  
**OF THE TASHKENT**  
**STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**2021**

9-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil  
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

**MUNDARIJA**

<b>Mirqosimova M.M.</b> Tarbiya jarayonini takomillashtirish mexanizmlari	4
<b>Burxanova F.A.</b> Badiiyatda mohiyat talqini	9
<b>Abduvalitov N.B., Beysenova R.A.</b> Jahon va sharq folklori namunalarini qiyoslab o‘rganish metodikasi	16
<b>Fozilova M.F.</b> Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xosligi	24
<b>Karimova N.M.</b> Millatlararo munosabatlarning jamiyatimizdagi o‘rni	31
<b>Nigmanova U.B.</b> Millatlararo totuvlik g‘oyasining tarixiy-huquqiy asoslari va uning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati	35
<b>Anorqulova O.N.</b> Ota konseptining “Qur’oni Karim” oyatlaridagi talqini	41
<b>Axrorova A.N.</b> O‘zbekistonda ayollarning qatag‘on qilinishi	51
<b>Xudoyberdiyeva D.M.</b> Yesenin she‘riyatidan o‘zbek tiliga ilk tarjimalar tarixi, ahamiyati va poetikasi	55
<b>Shomirzayev M.X.</b> Milliy tarbiyada kashtachilik san‘atining o‘rni	62
<b>Avazov J.D.</b> Bo‘lajak muhandis tayyorgarligining kasbiy kompetentlik sifati	68
<b>Yoqubov A.F.</b> “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”da o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari	76
<b>Badelbayeva Y.O.</b> Oliy ta‘lim tashkilotlarida madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagoglarning o‘rni va ahamiyati	82
<b>Safarova M.A.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini shakllantirish	87
<b>Rahimova F.A.</b> Ilmiy maktablar-buyuk ajdodlar ilmiy salohiyati, ma‘naviyat, ma‘rifat omili sifatida	95
<b>Kuchkarova R.R., Kadirova Sh.Z.</b> Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinflarida “Kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik, indeks haqida tushuncha” mavzusini o‘qitish uslubiyati	99
<b>Shernazarov I.E.</b> Bo‘lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish	104
<b>Гафурова Н.</b> Формирование здорового образа жизни участников образовательного процесса	114
<b>Muratova S.Ch.</b> O‘zbek milliy raqs san‘atining kiyinish elementlariga oid estetik jihatlar tavsifi	121
<b>Soliyev.O.F.</b> O‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarining ahamiyati	126
<b>Mardonqulov J.A.</b> Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari	131
<b>Eshonqulov Sh.U.</b> Freymilar texnologiyasini modellashtirishning pedagogik	141

asoslari va muammoli o'qitish g'oyasi	
<b>Kadirova Y.B.</b> Subyektli axloqiy yondashuv asosida o'quvchilarning huquqiy immunitetini rivojlantirish	147
<b>Allaberganova N.M.</b> Reklama matnlarining tilshunoslikda o'rganilishi	151
<b>Yuldasheva.F.I.</b> Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	156
<b>Almamatova Z.X.</b> Talabalar ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirishda didaktik qonuniyatlari va tamoyillardan foydalanishning ustuvorligi	160
<b>Paxratdinova R.O.</b> O'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy ijodkorlik faoliyatini loyihalashtirishda qo'llaniladigan o'qitish shakllari va metodlari	166
<b>Alqarov I.Sh.</b> Ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirishning tarixiy ildizlari va uning mazmun mohiyati	176
<b>Xurramov U.K.</b> Xalq cholg'ularida ijrochilik an'analarini shakllanish jarayonlari	185
<b>Panjiyev Q.B.</b> Oilaviy marosim qo'shiqlarining umumnazariy masalalari	192
<b>Egamberdiyev I.Y.</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	201
<b>Xonimkulov A.R.</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirish	205
<b>Uzoqov A.A.</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish	210
<b>Xasanov M.S.</b> Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish	215
<b>Saloxidinov M.S.</b> O'zbekistonda sanoat dizayni ibtidosi	221
<b>Abduazimov A.S.</b> XX asr turkiston ta'lim tizimida ma'naviy-madaniy hayotning ilmiy-nazariy asoslari	229
<b>Sultonova O'.N.</b> Kompetensiyaviy yondashuv asosida grafik va eksperimental masalalar yechish	233
<b>Qorayeva L.Z.</b> Kreativlik-bola shaxsini rivojlantiruvchi kategoriya sifatida	239

## **TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI**

**Mirqosimova M.M. - O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi professori**

**Annotatsiya.** Shaxsni maqsadli shakllantirish jarayonida tarbiyalanuvchilarni jamiyatga kerakli va foydali shaxs sifatida shakllantirish maqsadi bugungi kunning ustuvor vazifasidir. Maqolada bunday jarayonni samarali tashkil qilish mexanizmlari boshqariladigan va nazorat qilinadigan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni va faol tarbiya muhitini yaratish mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** moddiy va ma’naviy madaniyat, ma’naviy qadriyatlar tizimi, uzluksiz ta’lim, ijtimoiy faollik, an’anaviy ta’lim, “yetkazib beruvchi”lik roli, sust ishtirokchi, ijtimoiy omillar, tarbiyaviy jarayon mexanizmi.

## **МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

**Миркосимова М.М. - профессор Международной исламской академии Узбекистана**

**Аннотация.** В процессе целенаправленного формирования личности сегодня приоритетной задачей является формирование воспитанников как нужных и полезных для общества людей. Механизмы эффективной организации такого процесса требуют интерактивных действий, которые управляются и контролируются. В статье описаны механизмы создания активной воспитательной среды.

**Ключевые слова:** материальная и духовная культура, система духовных ценностей, непрерывное образование, социальный активизм, традиционное образование, “поставщик”, слабый участник, социальные факторы, механизм воспитательного процесса.

## **MECHANISMS FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Mirkosimova M.M. - Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan**

**Annotation.** In the process of purposeful personality formation, the priority task today is to form pupils as necessary and useful people for society. Mechanisms for organizing such a process effectively require interactive activities that are

controlled and monitored. The article describes the mechanisms for creating an active educational environment.

**Key words:** material and spiritual culture, the system of spiritual values, continuing education, social activism, traditional education, "supplier", weak participant, social factors, educational process, educational work.

XXI asrda jahon miqyosida texnogen sivilizatsiyaning taraqqiy etishi natijasida moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishida qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Texnik sivilizatsiya taraqqiyotida talabalarning o'quv-biluv faoliyatining muayyan omillariga ularning axloqi, ma'naviy qadriyatlari tizimi nuqtayi nazaridan emas, balki texnokratik fikrlashning muhimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoni ilmiy-texnik o'zlashtirish ta'siri ostida inson tafakkuri maqsadga yo'naltirilgan, oqilona, sof instrumental qobiliyatga aylanmoqda va fan-texnika madaniyatining strategik mo'ljallarini tanqidiy tahlil qilish qiyin kechmoqda. Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat'iy xulosaga kelindi[2;7].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy-metodik ta'minoti yaratildi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim o'rin egallaydi[1].

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "yetkazib beruvchi" rolda endi o'qituvchi emas, balki talaba (talaba) namoyon bo'ladi. Talaba (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Talaba (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau

va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Tarbiya – shaxsni maqsadli shakllantirish jarayoni. Bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning pirovard maqsadi jamiyatga kerakli va foydali shaxsni shakllantirish bo'lgan, maxsus tashkil qilingan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan o'zaro hamkorligi[3; 7].

Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda tarbiyani:

- umumiy falsafiy ma'noda – insonning hayot sharoitlariga moslashishi;
- ijtimoiy ma'noda – katta avlodning hayotiy va xulq-atvor tajribalarini yosh avlodga uzatishi sifatida;
- keng pedagogik ma'noda – insonga barcha ta'sirlar jarayoni va natijasi sifatida;
- tor pedagogik ma'noda – tarbiyachilar jamoasi tomonidan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilar ongi, xulq-atvori va irodasiga ta'sir ko'rsatishning tizimli tarzda amalga oshiriladigan, maxsus tashkil qilingan, boshqariladigan ta'siri sifatida;
- amaliy ma'noda – (tarbiyachilar, murabbiylar, yetakchilar, guruh rahbarlarining) aniq tarbiyaviy masalalarni hal qilishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat jarayoni va natijasi sifatida tushunish kerak.

Bugungi kunda tarbiyaga ijtimoiy hodisa sifatida qarashdan anglanadiki, tarbiya jamiyat manfaatlarini ko'zlab va uning rivojlanganlik darajasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra yosh avlodni hayotga tayyorlash, bolalar, yoshlar va kattalarni mavjud sharoitlariga va bu sharoitlarni takomillashtirishga moslashtirishdir[4;107]. Yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, tarbiyaning jamoatchilik (ijtimoiy) tavsifi, bir tomondan, tarbiyaning o'zi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash sifatida amalga oshirilishi; ikkinchi tomondan, jamiyat tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'lum yo'nalishda tarbiyalashga ko'maklashadigan qilib tashkil etilishida o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, tarbiya faqat tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabat sifatida tushunilmasligi lozim. U nafaqat keng ijtimoiy doirada amalga oshiriladi, balki tabiatiga ko'ra amalda barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarni o'zida



qamrab olinadigan ijtimoiy hodisa sanaladi: tarbiya hayot uchun va uning davomiyligini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarbiya jarayoni ijtimoiy omillariga quyidagilar kiradi:

- mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlari;
- tarbiyaning ijtimoiy shartlanganligi;
- tarbiya ijtimoiy boshqarish sifatida (L.F.Spirin), nazorat qilinadigan va boshqariladigan ijtimoiylashtirish;
- tarbiya ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvor namunalariga odatlantirish sifatida;
- kichik (mikro muhit), o'rta (mezo muhit) va katta (makro muhit) guruh va hamjamiyatlar orqali tarbiyalash.

Tarbiya jarayoni – shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi – har tomonlama va uyg'un kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida mashg'ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo'lagidir[5; 42].

Tarbiyaviy ish (TI) - bu tarbiyaning tizimliliigi, to'laligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tilning asosiy xususiyati - zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yozilishicha, “Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”[2; 34].

Shu sababli ta'lim muassasalari tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ishlar uslublari, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni tarbiyaviy ishlar amaliyotida qo'llash masalalari pedagogik jamoalarning eng muhim muammosi bo'lib qolmoqda.

Tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to'g'ri tashkil qilish va qo'llashga bog'liq. Bu



esa o'z navbatida ta'lim muassasalari uchun tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiyoti zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratilishini talab etadi.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi – majmuaviy yondashuv esa faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy "qo'shib" ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axloqiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv – uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirish)ni; rejalashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bevosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

Tarbiyaviy ishlar amalga oshirilayotgan davrning ijtimoiy vaziyati – tarbiyaviy ishlarni maqsadli ko'zlashning va loyihalashning muhim manbai hisoblanadi. Bu vaziyat mamlakat va dunyodagi ijtimoiy hodisalar, davlat bayramlari, yubiley sanalari, hukumat qarorlari, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan g'oyalar hamda mahalliy hayotga doir hodisalar sababli yuzaga keladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning va o'tkazishning ikkinchi manbai bo'lib, tur sifatida shakllanayotgan shaxsning zaruriy fazilatlarini va xislatlarini shakllantirishning pedagogik tashxisi sifatida xizmat qiladi. Yana bir manba – o'quv-tarbiyaviy muassasa ma'lum muddatga belgilagan ishlarining umumiy yo'nalishidir. Mazkur manbalarning mushtarak holati tarbiyaviy ishlarni hayotbaxsh kuch bilan to'ldiradi, ularning dolzarb ekanligini va muayyan maqsadga yo'naltirilganligini aniq belgilab beradi. Asosiy tarbiyaviy maqsad (ko'pincha, axloqiy tarbiya maqsadi) aniq ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya ajralib turadi va u tarbiya umumiy yo'nalishining (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va b.) biri bilan mos keladi.

Maqsadni ko'zlash bosqichida tarbiyachining vazifasi – ijtimoiy vaziyatni baholash, o'zining tarbiyaviy faoliyatini asosiy maqsadga bo'ysundirish, tarbiyalanuvchilarning kelajakda muayyan tarbiyaviy ta'sirlarni qabul qilishga tayyorlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

Tavsiyalar: Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda quyidagi uslubiy tavsiyalarga amal qilishni tavsiya qilamiz:

1. Tarbiyaviy ishlarning aniq vazifalarini chuqur anglash - uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Mazkur vazifalar mahorat bilan talqin etilgan va tarbiyalanuvchilarga yetkazilgan bo'lishi kerak. Tarbiyaviy ish tashkilotchilari tarbiyalanuvchilarga o'z nuqtayi nazarlarini majburan o'tkazmasliklari kerak: tarbiyalanuvchilarni zarur qarorlari qabul qilishga, go'yo o'z qarorlari sifatida qabul qilinadigandek ishontirish zarur.

2. Har qanday tarbiyaviy ish ishchan va majmuaviy yo‘nalish asosida loyihalashtiriladi. Birinchi yo‘nalish, yuqorida ta’kidlanganimizdek, tarbiyalanuvchilarning jonli, ijodiy, qiziquvchan faoliyatini talab etadi va zarurat tug‘ilganda tirishqoqlikni, harakatchan ishlarni tanlashga yo‘naltiradi. Ikkinchisi esa tarbiyachiga bir vazifadan har tomonlama samara olishga imkon beradi.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan barcha vazifalar turli ahamiyatga ega bo‘lishiga intilish shart emas, chunki tarbiya tizimini birdaniga bir necha mezonlar orqali optimallashtirib (muqobillashtirib) bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ishda har qanday ishdagi kabi bosh vazifa ajratib olinadi va uni aniq maqsadga uzviylashtirish orqali qolgan vazifalar hal etiladi.

Tarbiyaviy ishlar mazmunini uning vazifalari va amalga oshirish sharoitlari bilan bog‘liq holda belgilab olish nihoyatda muhimdir. Mavzu va materiallarni tanlashda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Tarbiyaviy ishlarda turli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning qarashlarini va qiziqishlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – B.39.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.34.

3. Подласий И.П.Педагогика. –М.: ВЛАДОС, 2004, кн. 2. Процесс воспитания. – С.7.

4. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теория и методика. М.:Академия, 2002. – С.107.

5. Ishmukhammadov R.J., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T., 2010.

### **BADIIYATDA MOHIYAT TALQINI**

**Burxanova F.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)**

**Annotatsiya.** Maqolada buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning yuksak badiiy mahorati, o‘ziga xos uslubi “Qiyomat” romani tahlili misolida

yoritilib, ilmiy – nazariy xulosalar chiqarilgan. Romanda tabiat, jamiyat, inson va iymon, adolat va diyonat, ezgulik va yovuzlik kabi umumbashariy muammolarning fojiaiy ko‘rinishlari badiiy tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy-estetik qarashlar, asar, badiiy parallelizm, detal, neomifologizm, obraz, roman, sinkretiklik, subyektivlik, ramz, fojia, xronotop, qissa, hikoya.

## ТОЛКОВАНИЕ СУЩНОСТИ В ИСКУССТВЕ

**Бурханова Ф.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета, (PhD)**

**Аннотация.** В статье на примере анализа романа “Судный день” освещаются высокое художественное мастерство великого кыргызского писателя Чингиза Айтматова, его неповторимый стиль, делаются научно-теоретические выводы. Роман художественно исследует трагические проявления таких универсальных проблем, как природа, общество, человек и вера, справедливость и религия, добро и зло.

**Ключевые слова:** литературно-эстетические взгляды, произведение, художественный параллелизм, деталь, неомифологизм, образ, роман, синкретизм, субъективность, символ, трагедия, хронотоп, рассказ, повествование.

## INTERPRETATION OF ESSENCE IN ART

**Burkhanova F.A - Teacher of Tashkent State Pedagogical University, (PhD)**

**Annotation.** The article highlights the high artistic skills of the great kyrgyz writer Chingiz Aytmatov, his unique style on the example of the analysis of the novel “Resurrection” and draws scientific and theoretical conclusions. The novel artistically explores the tragic manifestations of universal problems such as nature, society, man and faith, justice and religion, goodness and evil.

**Key words:** literary-aesthetic views, work, artistic parallelism, detail, neomythologism, image, novel, syncretism, subjectivity, symbol, tragedy, chronotope, story, narrative.

Bashariyat tarixida o‘zining umrboqiy asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan buyuk yozuvchilardan biri Chingiz Aytmatovdir. Yozuvchi hayoti va ijodi yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talaba yoshlar tomonidan chuqur o‘rganiladi. Yozuvchi asarlarini qirg‘iz va rus tillaridan Asil Rashidov,

Ibrohim G'afurov, Suyun Qorayev, Mahkam Mahmudov, Nurali Qobul, Yoqubjon Xo'jamberdiyev kabi mohir tarjimon va adabiyotshunos olimlar tarjima qilib, o'zbek kitobxonlarini bu nodir ma'naviy merosdan bahramand qilganlar. Adib asarlari 180 dan ortiq tillarga tarjima qilingani va XX asr turkiy adabiyotida Chingiz Aytmatov darajasidagi dunyo miqiyosida tan olingan boshqa yozuvchini topish dushvorligi haqida fikr yuritgan iste'dodli ijodkor Nazar Eshonqul adibning yuksak badiiy mahoratiga to'xtalib quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Chingiz Aytmatov o'zining fazoviy tafakkur tarzi, inson kamoloti hamda taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlarni jasorat bilan fosh qila olgan, ayni paytda dunyo adabiyotining ilg'or an'analarni ham milliy, ham umumturkiy adabiyotga dadillik bilan olib kirgan, bu an'analarning nafaqat qirg'iz, balki butun turkiy adabiyotda sintezlashishiga ulkan hissa qo'shgan, asarlarida o'rta tashlangan masalalar qanchalik milliy bo'lsa, shunchalik umuminsoniy ekanligi, umuman, adib Yer sayyorasiga, banibasharga taalluqli eng og'riqli, eng iztirobli, eng dolzarb muammolarni badiiy va falsafiy mushohadaga aylantira olgan, mazkur muammolarga o'sha paytning o'zidayoq oltita qit'aning ham e'tiborini qaratgan, adabiyotning zamon bilan uyg'un keladigan nuqtalarini topa olgan ulkan va betakror iste'dod ekanligi — noyob adabiy hodisaligi bilan alohida ajralib turadi"[9].

Yozuvchining yuksak badiiy mahorati, tug'ma iste'dodi, nafaqat o'z davrining jarohatlarini, balki kelajakka qadalgan o'tkir nigohi yaratgan badiiy asarlarida dardchil nidolar bilan poetiklashtirilgan. Jumladan, yozuvchining "Qiyomat" romanida nafs balosiga berilgan insoniyatning ma'naviy tuban qiyofasi turfa xil rakurslarda ifodalanadi. Romanda tabiat, jamiyat, inson va iymon, adolat va diyonat, ezgulik va yovuzlik kabi umumbashariy muammolarning fojiaiy ko'rinishlari badiiy tadqiq etilgan. Asarda insonning tuban xatti-harakatlari Mo'yinqum dashtida yashagan bo'ri oilasi, ya'ni Toshchaynar va Akbaraning fojeaviy qismati bilan parallel tasvirlanadiki, bu bilan yozuvchi asarda inson va tabiat o'rtasidagi murakkab ziddiyatni, tobora vahshiy hayvondan-da tubanlashib borayotgan inson qiyofasini tasvirlash orqali kitobxonni e'tiqodsizlik, ekologik xavf, "ijtimoiy kuchlarning qora ko'lankasidan (sayg'oqlarga, tabiatning har bir go'shasiga qiron keltirish nazarda tutilyapti –F.B)" giyohvandlik, "vahshiylashuv" kabi qiyomat qoyimga sabab bo'luvchi global xavf-xatarlardan ogoh etadi.

Bug'ularni o'ldirish epizodi "Oq kema" asarida ham, "Qiyomat" romanida ham bor. Umuman, yozuvchi ko'pgina asarlarida texnokratlashayotgan dunyoni, moddiy quliga aylanayotgan, iymonidan yiroqlashayotgan insonning bu tuban sa'y-harakatlari natijasini ekologik inqiroz, ma'nan va ruhan manqurtlashish, tubanlashish kabilar bilan uzviylikda tasvirlab, insoniyatni fojiaiy oqibatlardan ogoh etib, asar dramatismini kuchaytirishga, estetik ta'sir kuchini oshirishga erishadi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida mif va afsonalardan, neomifologizmdan ham mahorat bilan

foydalanib asardagi asosiy konsepsiyani yuquvchan ifodalaydi. “Yozuvchi mahorati tabiat va jamiyat, o‘tmish va bugun, asotir va yangilik, fantaziya va reallik, afsona va haqiqat uzviyligi badiiy tasvirda namoyon bo‘ladi”[8].

Aytish joizki, mazkur romanda ham adib rivoyat va miflar bilan bir qatorda o‘zi yaratgan topilmalar, ya’ni neomifologizmlardan ham unumli foydalangan. Neomifologizm, ya’ni “neomif (avtorning shaxsiy afsonasi) bilan xalq afsonasini parallel qo‘yib badiiy parallelizm yaratish, xalq dostonlari va ertaklari sujeti va obrazlariga realistik voqelikni anolog qilish, metafora, polifonik badiiy qatlam yaratish kabi qator yangiliklar ko‘zga tashlanadi”[6].

Romandagi bo‘rilar yoki monastirdagi qo‘shiq haqidagi afsonalar fikrimizni isbotlaydi va adib uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Demak, yozuvchi uslubining bir jihati asarlarida mif va rivoyatlardan, neomifologizmlardan unumli foydalanishda ham namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, Chingiz Aytmatov yaratgan ijod maktabi, yozuvchi asarlari ko‘plab o‘zbek yozuvchi va ijodkorlariga ijodiy ozuqa va ta’sir bo‘lgani tabiiy. Adib asarlaridagi g‘oyaviy konsepsiya, sujet, obrazlar tizimidagi mutanosiblik haqida fikr yuritar ekan, adabiyotshunos olim Y.Solijonov ularning o‘zbek nasrnavislari asarlariga hammaslak ekanligini, mushtarak munosabatlar borligini ta’kidlaydi. Shu jihatdan, Parda Tursun, Mirzakalon Ismoilov, Yo‘ldosh Shamsharov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Tog‘ay Murod, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Normurod Norqobilov kabi ijodkorlar asarlariga muqoyasalab tahlil qilar ekan, buning asl sababini o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining azaldan yonmayon yashagani, bir maqsad sari intilgani, yaxshi-yomon kunlar zahmatini birgalikda tortganining badiiy isbotidir, degan xulosani ilgari suradi[4].

Olim fikrlariga qo‘shimcha sifatida Chingiz Aytmatov ijodiy merosi yosh o‘zbek qalamkashlarining ham ijodiy yuksalishi va ijodiy ta’siriga sabab bo‘layotgani va bu jarayon muttasil davom etishini qayd etish lozim.

“Qiyomat” romanining xronotopini asosan Qirg‘iziston va Qozog‘iston, qisman Rossiya hududlarida, xususan, Mo‘yinqum sahrolari, Moskva shahri, Issiqko‘l atroflari, Ola Mangu tog‘larida 1980-yillar tashkil etishini asardagi ishoralardan va voqealardan anglash mumkin.

Roman kompozitsiyasi uch qismdan iborat bo‘lib badiiy mazmuni shakllantirish va ifodalashga qaratilgan. Sujet asosan to‘rt voqelik liniyasidan iborat. Bo‘rilar Akbara va Toshchaynar, diniy seminariyadan ketgan Avdiy Kallistratov, Hazrat Iso va so‘nggi liniya halol va mehnatkash cho‘pon Bo‘ston kabi personajlarning hayoti va fojialari tasviriga asoslangan.

Dastlab bo‘rilar hayoti ularning Mo‘yinqum cho‘llaridagi uch farzandlari bilan osuda va baxtli onlarini buzgan ijtimoiy kuchlarning “ochilmagan rezervlar”ni, ya’ni go‘sht planini topshirish niyatida qirg‘inbarot sayg‘oq ovlari-yu buning



natijasida uch farzandidan ayrilgan bo'ri oilasining, tabiatning ayanchli holati tasvirlanadi. So'ng asarga ezgulik g'oyalarini tarannum etishni o'ziga a'mol deb bilgan Avdiy Kallistrov obrazi kirib keladi. Umuman bu obrazni dastlab yozuvchi Mo'yinqumdagi bang o'tini, ya'ni nashaning shirasini yig'ib yurgan kezlarida Akbara oilasi bilan nogahoniy uchrashuvi orqali olib kiradi. Keyinchalik ma'lum bo'ladiki, Avdiy Kallistrov yangicha fikrlari sababli diniy seminariyadan haydalgan, bir muddat muxbir bo'lib ishlab insoniyatni ma'naviy tubanlashuviga sabab bo'layotgan giyohvandlik va og'ufurushlik jinoyatini fosh qilish maqsadida jinoyatchilar guruhiga qo'shilib nasha yig'gan, yosh, navqiron, ammo ma'nan qashshoqlashgan yigitlarga achinib, ularni bu yo'ldan qaytishga undagani tufayli to'da boshlig'i Grishan va og'u ta'siridagi yigitlarning ayovsiz kaltaklariga duchor bo'lib, poezddan uloqtirishlari, buning natijasida shifoxonaga tushib hayotining mazmunini tashkil etgan muhabbati Inga Fyodorovna bilan tanishgani kabi voqealar tasvirlanadi. So'ng sayg'oq ovchilarini ma'naviy tuban va vahshiyliklari, aroqxo'rlarning bu manfur ishlariga chidab turolmay qilgan isyoni natijasida vafot etishi lavhalari o'lim oldidan ham Akbaraning mungli nigohi bilan uchrashuvi tasvirlanadi. Yozuvchi Avdiyning diniy qarashlari va o'zining ayanchli holatlarini xayol vositasida xochga mixlab tashlangan Iso Masihga o'xshatishi va Rim noibi Pontiy Pilat bilan kechgan qizg'in suhbatini xotirasida namoyon etib payg'ambarlik da'vosidan voz kechmagan va o'z fikrlariga sodiq qolgan Iso himoyasiga ishongan xalq tomonidan toshbo'ron qilinib xochga mixlangan tasvirlarini parallel keltiradiki, har ikki holatda ham ezgulik taratuvchilarining fojeaviy qismatlarini tasvirlash orqali kitobxonga qiyomat qoyim bo'lishiga sabab bo'luvchi qilmishlar haqida achchiq saboq beradi.

Adibning mahorati shundaki, romanda nafaqat insonlarning ruhiy kechinmalarini, ong osti hayollarini jonli va haqqoniy tasvirlashda balki Akbara va Toshchaynar ya'ni bo'rilar ruhiy olamining o'ziga xos jihatlari, hayvonlarning ham kechinmalarini jonli va ishonarli tasvirlashda ham namoyon bo'ladi. Xususan, adib Akbaraning ruhiy holatini, sezgirligi, onalik baxti nasib qilishini anglashdan oldingi kechinma va sezimlarini, baxt nashidasini tuyish holatlari, rashk tufayli yuzaga kelgan nafrati, farzandlaridan ayrilgandagi iztiroblari, vafodor arloning o'limidan keyingi ruhiy holatini o'tkir nigoh bilan ilg'ab bunda nozik jihatlarni ham jonli va ishonarli qilib tasvirlashga erishgan.

“Vujudi ichra yana bir vujud bitganini sezgan Akbara tinchini yo'qotdi. Yuragi gursillab ura boshladi. Ko'kragi ostida voyaga yetayotgan bolalarini xavfu xatarlardan asrash va qo'rish ishtiyoqida g'ayrat-shijoatga mindi... Tabiat ato etgan naslini asrash sezimi kuchga kirgan edi. Shunda u mehr butun vujudiga issiq qonday yugurganligini his qildi, endi dunyoga keladigan bolalarini erkalagisi, bag'riga olib isitgisi, ularni to'ydirib-to'ydirib emizgisi keldi”[1;6-7-betlar].

Onalik baxti nasib etayotgan bo‘rining ichki his-tuyg‘usi, sezim va kechinmalari, ruhiy holatini bu qadar nozik tasvirlarda jonli lavhalarda tasvirlash adibning yuksak poetik mahoratidan darak beradi, albatta. Asarda bo‘rilar oilasi Toshchaynar va Akbaraning xarakter xususiyatlari yetarlicha yoritilgan va bu hayvonlarning tragik obrazlari xarakter darajasiga ko‘tarilib asardagi obrazlar sistemasining asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Umuman asarda yovvoyi tabiat, xususan bo‘rilar olami har tomonlama mahorat bilan yoritilib, badiiy kashf etilgan. Akbara oilasi uch bora nasl ko‘rib, uch bora ham insonlarning cho‘llarni o‘zlashtirishi, istaklari, nafslari sabab farzand dog‘ida qolishadi. Birinchi gal sayg‘oq ovida bo‘rivachchalari otib o‘ldirilgan bo‘lsa, keyingi safar Tog‘dagi kongga yo‘l ochish maqsadida qamishzorga o‘t qo‘yilishi natijasida qamishzor bilan birga besh bo‘ri bolasi ham nobud bo‘ladi. Shunda Akbara va Toshchaynar bu yerlardan uzoqqa, inson qadami yetishi qiyin bo‘lgan tog‘larga chiqib ketadi.

Bo‘rilarning nasl qoldirishdagi so‘nggi imkoniyatini ham aroqxo‘r va manfur cho‘pon Bozorboy o‘z nafsini yo‘lida yo‘q qiladi. Akbaraning farzand dog‘idagi iztiroblari kitobxonni ham qalbini larzaga soladi. Romanning shu liniyasida mehnatkash cho‘pon Bo‘ston bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Ma‘lum bo‘lishicha Bo‘ston yetimlikda o‘sgan, mehnatkash, ilg‘or cho‘pon, adolatparvar inson sifatida gavdalangan. Biroq taqdirning shavqatsiz hazillari, atrofidagi Bozorboydek manfur insonlarning qilmishi uning hayotini ham fojeaviy yakun yasashiga sabab bo‘ladi. Asarning eng ta‘sirli va kulminatsion cho‘qqisi sifatida Bo‘stonning yolg‘izgina ovunchog‘i Kenjashdan ayrilish epizodini belgilash mumkin.

“Qichqiriq, quv-quv bo‘rining qonini jo‘shirdi, unda bo‘ri vahshati uyg‘ondi, u o‘ljasini qo‘ldan chiqarmaslikka qaror qildi. Bolakayning yoqasidan mahkam tishlagancha, bo‘ri shiddat bilan tog‘larga qochib tobora uzoqlashib borardi, orqasidan miltiq otilib, o‘q boshi ustidan chiyillab o‘tganda ham o‘ljasini tashlamaydi... Uning qaddi birdan yetti bukildi, gung faryod ko‘tarib o‘zidan-o‘zi chayqala boshladi. Akbara hali tirik edi. Uning yonginasida ko‘kragini o‘q teshib o‘tgan bola o‘lib yotardi... Gung edi dunyo gungsirab yotardi. Dunyo g‘oyib bo‘ldi, uning o‘rnida faqat olov zulmot qoldi. Bo‘ston ko‘zlariga ishonmay bukchaydi va yerdan qonga belangan o‘g‘lini ko‘tardi va bag‘riga bosganicha orqasiga tisarildi, shunda u nima uchundur jon berayotgan bo‘rining ko‘zlari ko‘k ekanligiga ajablandi” [1;425-426-betlar].

Keltirilgan parchada Akbara va bolakay Kenjashning o‘limi epizodi orqali adib nafs, zulmat urchiyotgan dunyoning, ma‘nosi yo‘qolayotgan inson hayotining fojeiyliklaridan insoniyatni ogoh bo‘lishga chorlaydi. “Gung edi dunyo gungsirab yotardi”. So‘z o‘yini asnosida yaratilgan ushbu xulosada ham katta ma‘no singdirilgan. Dunyoning gungsirashi aslida insonning o‘z nafsiga berilib, qalbini



kirlanishi, iymonini yo‘qotishi, uning gungligi esa dunyoning, hayotning, inson umrining mazmunini yo‘qolishidan darak beradi.

Umuman asar konsepsiyasi va badiiyatiga Chingiz Aytmatovning inson ruhiyatining murakkab tilsim ekani, hayotning ma’nosi, insonning olamdagi vazifasi, dunyoning o‘tkinchiligi, ezgulikning doimiy g‘alabasi, Yer kurrasida inson qo‘li bilan sodir bo‘lgan va bo‘layotgan har qanday jinoyat, yovuzlik butun insoniyatga taalluqli ekani haqidagi falsafiy teran fikrlari yuksak mahorat bilan singdirilgan.

“Odamning umri nima?” degan savolga javob topib berish qiyin. Inson munosabatlari shunchalar turfa, tabiati, fe’l-atvori shunchalar rang-barang va murakkabki, hatto eng mukammal, eng zamonaviy kompyuter sistemalari ham eng oddiy inson tabiatining umumiy chizig‘ini ajratib berolmaydi”[1;42-betlar].

“... har bir inson oldida muqarrar bir vazifa ko‘ndalang bo‘lib turibdi –odam bo‘lish”[1;132 b.]. “Xudo insonga muhabbat orqali namoyon bo‘larkan...”[1;51-b.] “Yashashning o‘zigina emas, hayotning asl ma’nosini tushunish og‘irlashib borardi” [1;346-b.]. “Haqiqatning yo‘li – kamolotga erishmoqlikning kundalik yo‘lidir” [1;265-b.].

Xulosa qilib aytganda, asardagi falsafiy, ayni paytda hayotiy haqiqatni aks ettiruvchi ushbu jumlar Chingiz Aytmatov ijodiy tafakkurining yuksakligidan darak beradi.

Aslida qiyomat diniy e‘tiqodga ko‘ra foniy dunyo tugagach boqiy dunyoda hamma tirilib, so‘roqqa tortiladigan kun, oxirat, mahshar hisoblanadi. Yozuvchi o‘z diniy e‘tiqodiga sodiq qolib asarda Akbara va Toshchaynar, hazrati Iso, Avdiy Kallistrov, Ernazar va Bo‘ston O‘rkunchiyevlarning ayanchli taqdiri misolida insonlarni qiyomat ko‘pchishidan, iymon-e‘tiqodidan yiroq tushmaslikka chorlaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Aytmatov Ch. Qiyomat. –T.: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 498.
2. Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. T.: Fan, 2018. – B.352.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘afur G‘ulom, 2015. –B.354
4. Solijonov Y. <http://www.adolatgzt.uz/society/5271>
5. Qo‘ronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010. –B.398
6. Qo‘chqorova M. Nurilla Chori hikoyalarida neomifologizm unsurlari // <http://ziyouz/ilm-va-fan/adabiyot>
7. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – B.308
8. Хамдамов А.// [http:// e-adabiyot.uz/jahon](http://e-adabiyot.uz/jahon)
9. Eshonqul N. <http://xs.uz/uzkr/post/chingiz-ajtmator-saboqlari>
- 10.<http://ziyouz/ilm-va-fan/adabiyot>
- 11.<http://xs.uz/uzkr/post/chingiz-ajtmator-saboqlari>

## **JAHON VA SHARQ FOLKLORI NAMUNALARINI QIYOSLAB O‘RGANISH METODIKASI**

**Abduvalitov N.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti katta  
o‘qituvchisi (PhD)**

**Beysenova R.A. - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon va sharq folklori namunalarini qiyoslab o‘rganish metodikasi keng yoritib berilgan. Jumladan, Ezopning masallari, Luqmoni Hakim haqidagi rivoyatlar, Gulxaniy ijodi hamda hind xalq eposi “Kalila va Dimna” asaridagi masallar qiyoslab o‘rganish metodikasi asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** masal, epos, ertak, sintez, asar tili, obraz, qiyosiy tahlil, sujetlararo o‘xshashlik, universallik, funkcionallik, umumlashmalik, ixchamlik.

## **МЕТОДИКА СРАВНИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ МИРОВОГО И ВОСТОЧНОГО ФОЛЬКЛОРА**

**Абдувалитов Н.Б. - старший преподаватель Ташкентского  
государственного педагогического университета (PhD)**

**Бейсенова Р.А. - магистр Чирчикского государственного  
педагогического института Ташкентской области**

**Аннотация.** В статье подробно описана методика сравнительного изучения образцов мирового и восточного фольклора. В частности, басни Эзопа анализируются в сравнении с легендами о Лукмане Хакиме, произведением Гулхани и индийским эпосом “Калила и Димна”.

**Ключевые слова:** пример, эпос, язык произведения, образ, сравнительный анализ, междисциплинарное сходство, универсальность, функциональность, обобщение, лаконичность.

## **METHODOLOGY OF COMPARATIVE STUDY OF SAMPLES OF WORLD AND EASTERN FOLKLORE**

**Abduvalitov N.B. - Senior Lecturer, Tashkent State Pedagogical  
University (PhD)**

**Beysenova R.A. - Master of Chirchik State Pedagogical Institute of  
Tashkent region**

**Annotation.** The article describes in detail the method of comparative study of samples of world and oriental folklore. In particular, Aesop's fables are analyzed in

comparison with the legends of Lukman Hakim, the work of Gulhani and the Indian epic Kalila and Dimna.

**Key words:** example, epic, language of the work, image, comparative analysis, interdisciplinary similarity, universality, functionality, generalization, brevity.

Yurtimiz qadimdan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalarda turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro muloqot va tajriba almashish o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek adabiyoti, san'ati va madaniyatining dunyo miqyosida tarqalishi va o'zining munosib o'rnini egallashiga yoxud o'zga xalqlar adabiyoti va madaniyatining xalqimiz milliy tafakkuri va ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash mumkin. Dunyo xalqlari ma'naviy merosini o'rganish milliy adabiyot imkoniyatlarini baholashga hamda qiyoslashga zamin yaratadi. Binobarin, jahon xalqlari adabiyotidagi tajribalar va yo'nalishlar boshqa xalqlar an'analari bilan sintezlashib, milliy adabiyotning boyishi va tasvir ko'lamining takomillashishiga ham olib keladi. Demak, har qanday adabiy ta'sir muayyan xalqning milliy an'analari hamda ijodkorning individualligiga asoslanishi qatorida qayta evrilishlar, qisman yangilanishlarga asoslangan hodisa sanaladi. Bu jihatlar, ayniqsa, jahon va o'zbek folklori namunalari sujetidagi mushtarakliklar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muayyan ijodkor hayotiga oid motivlar yoki asarlari sujetidagi o'xshashliklar dunyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining og'zaki va yozma adabiyotida ham ko'plab uchraydi. Bu esa yozuvchi tarjimai holi yoki ijodining muhim belgilarini o'rganishda muhim sanaladi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinfida mashhur yunon masalchisi Ezop shaxsiyati, muallif "men"ining badiiy aksi ko'z ochgan bir qator hikoyatlar o'zbek xalq ertaklari yoki xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlar sujetining qiyosiy o'rganilishga imkon beradi. Masalan, bunda Ezop tarjimai holini quyidagi hikoyatlar bilan muvofiqlashtirib o'rganish mumkin bo'ladi:

"Ezopning xo'jayini Ksanf unga dunyodagi eng ajoyib narsani xarid qilishini buyurganida, u cho'chqaning tilini sotib oladi. Tilni qaynatib, qovurib va gazak o'rnida tayyorlab dasturxonga tortadi. Buning sababi so'ralganida "Tildan ham yaxshi va ajoyib yana nima ham bo'lishi mumkin? Axir, butun falsafa-yu ilm dunyosi tilga tayanmaydimi? Tilsiz hech nima qilib bo'lmaydi – na olish, na berish, na xarid qilish mumkin. Davlatdagi tartib-qoidalar, qonunlar, ko'rsatmalar – hammasi til tufayli mavjud. Butun hayotimizning asosi – til. Dunyoda tildan ham yaxshiroq narsa yo'q" deb javob beradi.

Keyingi kuni eng yomon narsadan taom pishirishni buyurishganida Ezop yana til pishirib keladi. "Dunyoda tildan ham bo'lmag'ur narsa bor ekanmi? Til bizga janjal, fitna, yolg'onlar, qirg'inlar, hasad, nizo, urush keltiradi: tildan ham yomonroq yana nima ham bo'lishi mumkin?"[7, 134-b.]

Kuzatishlar davomida o'quvchilarning Ezop shaxsiyati, dunyoqarashiga uyg'un syujetli boshqa asarlar bilan ham tanish ekanliklari ma'lum bo'ldi. Jumladan, Sharq xalqlari orasida o'zining donoligi va oqilligi bilan nom qozongan Luqmoni hakim haqidagi rivoyatlarda ham yuqoridagi kabi mazmunga o'xshashlikni, ya'ni uning xojasi bergan savolga "Eng shirin go'sht ham, eng bemaza go'sht ham, yurak va tildir", deb aytgan hikmatli so'zi rivoyat qilinishi haqidagi javoblar olindi.

O'qituvchi tomonidan nafaqat sujetlararo o'xshashlik, balki asardagi farqli jihatlar qay darajada aks etganiga doir topshiriqlarning qo'yilishi yaratuvchi mansub xalqning milliy xususiyatlari, e'tiqodlari, tafakkur tarzi, orzu-intilishlari va o'sha davr uchun muhim bo'lgan muammolar ijodkorning ifoda yo'sini, uslubi va asarning poetik xususiyatlarida namoyon bo'lishi shuningdek, ma'lum darajada davlatning boshqaruv tizimi, jamiyat a'zolarining ma'naviy qiyofasi bir necha asrlar muqaddam barchaning diqqat-markazida bo'lganligini uqishiga zamin yaratiladi. Masalan, sharqona ruhdagi "Til va yurak" ertagida axloqiy muammolar talqini quyidagicha yoritilgani kuzatiladi:

"Luqmoni Hakimni bir kishi sotib olib, dargohida xizmat qildirardi va undagi ilm-u hikmatni gohi-gohida sinab ko'rardi. Bir kuni imtihon tarzida buyurdi:

– Ey Luqmon, menga bir qo'yni so'yib, eng yaxshi a'zosini olib kelgin.

– Bosh ustiga, – dedi Luqmon va qo'yni so'yib, tili bilan yuragini xojasiga eltdi.

Ancha muddat o'tgandan keyin xoja uni yana chaqirib, dedi:

– Ey Luqmon, bir qo'yni so'ygin-da, menga uning eng yomon a'zosini olib kelgin.

Luqmon qo'yni so'yib, yana til bilan yuragini ko'tarib keldi.

Xoja dedi:

– Nega qo'yning eng yaxshi a'zosini so'rasam ham, eng yomonini so'rasam ham til va yurakni ko'tarib kelding?

Luqmon dedi:

– Ey xoja, agar pok bo'lsa, hech narsa til va yurakdan yaxshi emas. Agar nopok bo'lsa, hech narsa ulardan yomonroq emas".

Ko'rinadiki, ertakda ajdodlarimizning o'zgacharoq, ya'ni masalaga faqat bir tomonlama emas, balki bir-birini taqozo etuvchi yondosh xususiyatlarni nazardan qochirmaganliklari ham yaqqol seziladi.

Aytish mumkinki, turli xalqlarga mansub asarlar davr va hudud jihatidan boshqa-boshqa bo'lgan xalqlar adabiyotida uchrashini syujetdagi ko'chmalik tarzida baholashga imkon yaratsa, yana bir jihatdan, asarlar o'rtasidagi mavjud tipologik o'xshashliklardan dalolat beradi. Demak, folklor asarlaridagi mushtaraklik ildizlari turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'siri natijasida paydo bo'lgan deyishga ma'lum ma'noda asos bo'ladi.

Ezopona yondashuvlarni dunyo xalqlari folkloridan ijodiy oziqlanish hodisasi sifatida baholash mumkin bo'lsa ("Kalila va Dimna"dagi masallar syujeti bilan uyg'unlik), ikkinchi tomondan, uning ijodiga xos sujetga asoslanish turli xalqlar adiblari ijodidagi an'anaviylikdan ham dalolatdir. Masalan, bu xususiyatni o'zbek adabiyotida Gulxaniy asarlarida ham kuzatish mumkin. E'tibor qilinsa, Gulxaniy ijodida Ezop an'analariga ergashish barobarida obrazlar tizimi, muallif maqsadi, g'oyasi tasviridagi o'zgachalik farqlanadi. Sayyor sujetlar masalasi 6-sinfda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini o'rganish chog'idagi qiyoslashlarga ham sharoit yaratadi.

Folklor an'analaridan umumli foydalanish hodisasiga Ezop ijodidagi bir qancha masallarda duch kelinadi. Jumladan, Ezopning "Burgut, zag'cha va cho'pon" masalini hind xalq eposi "Kalila va Dimna" bilan qiyoslab o'rganishda asar tili, obrazlar tizimi yoki xulosalardagi uyg'unlik tahlilga tortiladi. Masallarga e'tibor qilaylik:

#### **"Burgut, zag'cha va cho'pon" masalidan**

"Yuksak qoyadan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi. Zag'cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o'zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag'cha jon-jahdi bilan chinqirganicha borib qo'chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o'ralashib qoldi-yu, uchishga ham, qochishga ham imkoni bo'lmay qoldi. Uning jon xalfida pitirlyotganini ko'rgan cho'pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib, o'zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: "Bu qanday qush?" – deya so'rganlarida, cho'pon aytdi: "Men-ku buning zag'chaligini bilaman-a, biroq uning o'zi o'zini burgut hisoblaydi-da?!".

Alqissa, o'zingdan zo'rroqlar bilan bellashaman, deb chiranganing bilan hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo'lganing qoladi, xolos"[1, 41-b.].

#### **"Kalila va Dimna"dan:**

"Bir kir yuvuvchi bor edi. U har kuni suv labida kir yuvar va o'sha suvda qurt-qumursqalarni tutib yeb yuradigan bir g'ozni ko'rar edi. Bir kuni bir lochin semiz kaklikni tutib kelib, go'shtidan bir oz yedi-da, qolganini tashladi. Buni ko'rib, g'oz o'ziga o'zi dedi: "– Bu qush kichkina jussasi bilan katta qushlarni tutib yeydi, men bo'lsam shu shakl va haybatim bilan mayda-chuyda narsalarga qanoat qilib yuribman. Endi kattaroq kabutar, kakliklar tutishga harakat qilay.

Shu payt bir kabutar suv labiga qo'nmoqchi bo'lgan edi, g'oz uning ketidan quvdi. Ammo kabutar chap berib uchib ketdi. G'oz suv labiga yiqildi, og'zi loyga botib qoldi. Qutulishga harakat qilib zo'r bergan sari battarroq bota boshladi, kir yuvuvchi yugurib kelib uni ushlab oldi-di, uyiga olib ketdi. Yo'lda uchragan bir do'sti undan so'radi:

– Qo'lingdagi nima?

Kir yuvuvchi dedi:

– Bir lochin ishini qilmoqchi bo‘lgan g‘oz. O‘z ehtiyojidan ortiqcha narsa ketidan yugurib o‘z hayotini barbod qildi. Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo‘y: o‘z ishing bilan mashg‘ul bo‘lmay, senga to‘g‘ri kelmaydigan hunarga yopishmoqchi bo‘lsang, oqibati xuddi shunday bo‘ladi”[2. 243-b.].

Demak, o‘xshash sujetlar ma‘lum sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan vaziyatlardan xulosalar yasash yoki turli xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar ifodasi sifatida yuzaga kelgan, degan qarashlarni ilgari surishga zamin yaratadi.

Masallarni qiyosiy o‘rganish jarayoni quyidagicha rejalashtiriladi:

1. O‘quvchilarni qiyoslanayotgan asar matni bilan tanishtirish;
2. Asar tahliliga doir savol-topshiriqlar tuzish;
3. Mualliflarning fikrini obrazli aks ettirish mahoratini baholash;
4. Taqqoslanayotgan obrazlarning muhim xususiyatlarini belgilash;
5. Masallarga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash.

### **Masallarning qiyosiy tavsifi**

<b>Qiyoslash obyekti</b>	<b>“Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masalida</b>	<b>“Kalila va Dimna” masalida</b>
<b>Asar tili</b>	<b>Sodda, qisqa va tushunarli</b>	
<b>Obrazlar tizimi</b>	Cho‘pon	Kir yuvuvchi
	Zag‘cha	G‘oz
	Burgut	Lochin
	Qo‘zichoq	Kaklik
	Cho‘ponning bolalari	Kir yuvuvchining do‘sti
<b>Xulosa</b>	Qo‘lidan kelmagan ishga urinib, nom qozonmoqchi bo‘lgan, oqibatda ayanchli va kulgili ahvolga tushgan kishilar obrazi majoziy tarzda gavdalantirilgan.	

Obrazlar ustida ishlash orqali masallarda insonlar fe‘l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora qilish, allegoriya bu janrga xos yetakchi xususiyat ekanligi o‘quvchilarga turli usullarda yetkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda fanlararo integratsiya imkoniyatlaridan foydalanish ham qo‘l keladi.

O‘quvchilarga masallarda ishtirok etgan qahramonlarning rasmini chizish, turli lug‘atlardan ularga xos ta‘rif va tavsiflarni o‘rganish topshiriqlarini berish mumkin. Shunda muallif nima uchun obraz tanlayotganda aynan shu turdagi jonzoatlarga murojaat qilganligi, taqqoslash uchun asos bo‘luvchi omillar ham ayonlashadi. Jumladan, bu borada o‘quvchilarga “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”dan qushlarga xos xususiyatlarni aniqlash va ularning majoziy



ma'noda keltirilishi sabablarini quyidagicha jadvalda aks ettirish vazifasini yuklatish mumkin:

Masallardagi majoziy obrazlar	Ularga xos yetakchi xususiyatlar	
	Biologik	Allegorik
<b>Zag'cha</b>	<p>(Corvus monedula) – chumchuqsimonlar turkumining qarg'asimonlar oilasiga mansub qush. Tanasining uzunligi 30–39 sm. Rangi, asosan, qora, bo'yni to'q kulrang. 4 ta kenja turi bor. Yevropa va Osiyoda uchraydi. Zag'cha ko'chib yuruvchi qush. O'zbekistonda bola ochadi va kishlaydi. Jarlarning yon bag'irlariga, uylarning peshtoqlari yoki daraxt kovaklariga uya soladi. Aprelda 4–6 ta tuxum qo'yadi. 18–20 kunda jo'jalari tuxumdan chiqadi. Qo'ng'iz, kapalak va ularning qurtlari, o'simlik urug'lari bilan oziqlanadi. Zararkunanda hasharotlarni qirib, foyda keltiradi. [5, 74-75-b.]</p>	<p>Hayotda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydigan, nojoiz xatti-harakatlari bilan boshqalarga o'zini ko'rsatmoqchi bo'ladigan insonlar obrazi. Masalda qushdagi “ko'chib yuruvchilik” xususiyatidan unumli foydalanilgan.</p>
<b>Burgut</b>	<p>(Aquila chrysaetus) – yirtqichlar turkumining qirg'iyalar oilasiga mansub qush. Burgut yirik, chaqqon va kuchli. Tanasining uzunligi 95 sm gacha. Qanoti 62–72 sm, yoyganda 2 m ga yetadi. Orqa oyog'i barmog'idagi tirnog'ining 4,2 sm dan uzunroq bo'lishi o'ziga xos belgilaridandir. Pat rangi to'q qo'ng'ir, boshi malla. Burgut Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan. O'rta Osiyoda o'troq yashaydi. Tog' va cho'llarning odam yashamaydigan uzoq joylarida, qoyalar orasida, saksovulzorlarda uchraydi.</p> <p>Voyaga yetganida uni quyon, tulki va hatto bo'ri oviga olib chiqishadi. Burgut o'ljasini uzoqdan yaxshi ko'radi va tez uchib borib unga tashlanadi. Kemiruvchilarni qirib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi. Burgut</p>	<p>Qushdagi mo'ljalni aniq olish, tezkorlik, ziyraklik, ko'zlaganini qo'yib yubormaslik kabi real xususiyatlar ishbilarmon, o'ylab ish yuritadigan kishilar obrazida namoyon bo'lgan.</p>



	O‘zbekiston va boshqa davlatlar Qizil kitobiga kiritilgan. [3, 704-b.]	
<b>G‘oz</b>	xonaki g‘oz – o‘rdaksimonlar oilasiga mansub parranda turi. G‘ozning tana tuzilishi qayiqsimon, bo‘yni uzun, oyoq barmoqlari suzuvchi parda bilan qo‘shilgan. Tumshug‘ining shakli har xil: to‘g‘ri, qayrilgan, cho‘qqaygan va b. Ayrim zog‘larining tumshug‘i ustida do‘mbog‘i bor. Patlarining rangi oq, kulrang, qo‘ng‘ir, dog‘li va b. Tumshug‘i sarg‘ish-qizil, kamdan-kam qora[4, 35-b.].	Oqibatini o‘ylamay ish qiladigan, kaltafahm kishilarga ishora.
<b>Lochin</b>	(Falco peregrinus) – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi ma’lum. Modasi yirik, gavdasining uzunligi 49 sm gacha, qanotlari yoyilganida 115 sm gacha, vazni 1,2 kg gacha. Nari modasidan ancha kichik. Keng tarqalgan, O‘rta Osiyoda sahro lochini va tundra lochini uchraydi.  Sahro lochini o‘troq yashaydi; tundra lochini faqat qishlash uchun uchib keladi. Qushlar va b. bilan oziqlanadi. Sahro lochini va tundra lochini qushlarni ovlashga o‘rgatiladi. [6, 189-b.]	Asarda kuchli va baquvvat obraz sifatida gavdalantirilgan.

Ezop masallaridan chiqadigan xulosalarni xalq maqollari bilan muqoyasa qilish vazifasi ham qissadan hissa ma’nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bunda “Mosini top” o‘yinidan foydalanish mumkin.

O‘quvchilarga chap tomoniga masallar, o‘ng tomoniga esa maqollar mazmuni masallarga to‘g‘ri kelmaydigan jadval shaklidagi didaktik materiallar tarqatiladi. Mos javoblarni muvofiq tarzda joylashtirish mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini ham ko‘rsatadi. Masalan:

<b>Masallar</b>	<b>Maqollar</b>
“Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”	“Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”
“Kiyik bilan tokzor”	“Birni ko‘rib shukur qil, birni ko‘rib fikr qil”

“Bo‘ri bilan laylak”	“Yangi do‘st topganingda, eskisidan voz kechma”, “Atlas kiyganingda bo‘z kiyganing unutmam”
“Eshak bilan baqalar”	“Qilmish qidirmish”
“Ustiga tuz yuklangan eshak”	“Yaxshilikka yomonlik”
“Burgut, zag‘cha va cho‘pon”	“Og‘irning ostidan, yengilning ustidan”

**To‘g‘ri javoblar:**

<b>Masallar</b>	<b>Maqollar</b>
“Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”	“Yangi do‘st topganingda, eskisidan voz kechma”, “Atlas kiyganingda bo‘z kiyganing unutmam”
“Kiyik bilan tokzor”	“Qilmish qidirmish”
“Bo‘ri bilan laylak”	“Yaxshilikka yomonlik”
“Eshak bilan baqalar”	“Birni ko‘rib shukur qil, birni ko‘rib fikr qil”
“Ustiga tuz yuklangan eshak”	“Og‘irning ostidan, yengilning ustidan”
“Burgut, zag‘cha va cho‘pon”	“Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”

Qiyoslash orqali o‘quvchilarda masallarga xos universallik, funkcionallik, umumlashmalik va ixchamlilik elementlari haqida tasavvurlar shakllanadi. Xulosa qilish mumkinki, Sharq va G‘arb xalqlari adabiyotida keng uchraydigan turli mavzudagi masallar muayyan xalqning milliy koloritini aks ettirishi nuqtayi nazaridan barcha davrlarda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mushtarak sujetlar har bir xalqning ehtiyojlari, qadriyat va an‘analari ta‘sirida alohidalik kasb etgan.

**Adabiyotlar**

1. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o‘rta talim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: Sharq, 2020. – 41-b.
2. Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyima G‘aniyeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 243-b.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. B harfi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www. ziyouz.com kutubxonasi. – 704-b.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. G‘ harfi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www. ziyouz.com kutubxonasi. – 35-b.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. Z harfi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www. ziyouz.com kutubxonasi. – 74–75-b.

6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. L harfi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www. ziyouz.com kutubxonasi. – 189-b.

7. Ezop haqida afsonalar. Tarjimon Mehri Bonu. – Toshkent: Art flex, 2010. – 134-b.

## **NUTQIY FAOLIYAT TURLARINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**Fozilova M.F. - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xosliklari, leksik va grammatik materiallar asosida farqlab ko‘rsatish, o‘quvchilarda tinglab tushunish va o‘qish jarayonida bu boradagi ishlarning natijasi o‘ziga xos usullar bilan amalga oshirilishi yoritilgan. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning so‘z boyliklarini rivojlantirishda nutqiy faoliyat turlarini farqlagan holda adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq uslublari, adabiy – nutqiy kompetensiyalar, o‘qish markazi, yozish markazi, buyumlarni atash markazi, Broko zonasi, Vernike zonasi, nutqiy faoliyat, nutq madaniyati, so‘z boyligi, muallif pozitsiyasi lingvistika, nutq stillari, leksik va grammatik materiallar, sof ilmiy uslub, obrazlilik, so‘zlar, so‘z shakllari, gap turlari.

## **СВОЕОБРАЗИЕ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Фозилова М.Ф. - самостоятельный исследователь**

**Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**

**Аннотация.** В этой статье проводится различие между лексическим и грамматическим материалом. В то же время ученикам объясняется, что в процессе понимания на слух и чтения результаты этой работы будут реализованы особым образом. Уроки литературы сосредоточены на формировании литературно-речевых компетенций путем разграничения различных типов речевой деятельности в развитии словарного запаса учащихся.

**Ключевые слова:** стили речи, литературно-речевые компетенции, центр чтения, центр письма, центр именованности объектов, зона Брока, зона Вернике, речевая деятельность, культура речи, словарный запас, лингвистика авторской

позиции, стили речи, лексико-грамматический материал, чисто научный стиль, образы, слова, словоформы, типы предложений.

## CHARACTERISTICS OF SPEECH ACTIVITIES

**Fozilova M.F. - Independent researcher at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi**

**Annotation.** This article distinguishes between lexical and grammatical materials. At the same time, it is explained to students that in the process of listening comprehension and reading, the results of this work are carried out in specific ways. Literature lessons focus on the formation of literary-speech competencies by differentiating between different types of speaking activities in the development of students' vocabulary.

**Key words:** speech styles, literary-speech competencies, reading center, writing center, object naming center, Brock zone, Wernicke zone, speech activity, speech culture, vocabulary, author's position linguistics, speech styles, lexical and grammatical materials, pure scientific style, imagery, words, word forms, sentence types.

Adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish nutqiy faoliyat turlariga xos leksik va grammatik materiallar ustida ishlashdagi o'ziga xosliklar bilan belgilanadi. Nutqni tinglab tushunish va badiiy asarni o'qib tushunish uchun katta miqdordagi so'z boyligi va til bilimiga ega bo'lish lozim. O'quvchilarda bunday zahira darsdan-darsga, sinfdan-sinfga ortib boradi. Tinglab tushunish va o'qish jarayonida bu boradagi ishlar o'ziga xos usullar bilan amalga oshiriladi. Afsuski, bu usullar shu kunga qadar maxsus ishlab chiqilmagan.

Birgina ma'nodosh so'zlar ustidagi ishlarni olaylik. O'quvchilar o'rganilgan ma'nodosh so'zlarning hammasini eshitib yoki ko'rib tushunish darajasida o'zlashtirishlari uchun ular bilan tanishtirib, eslatib borishning o'zi kifoya. Lekin og'zaki nutqqa singdirish o'z murakkabliklariga ega. Biz misol qilib keltirgan tayyorlamoq fe'lining 7 ta ma'nodoshining hammasi so'zlashuv nutqida ishlatilmasligi sababli nafaol darajada bilib olish qiyin emas. Ammo o'quvchilar, hatto katta yoshdagilar ham *tayyorlamoq* fe'lining ma'nodoshlarini tez eslab shartta-shartta aytolmaydilar, demakki, o'z og'zaki nutqlarida qo'llamaydilar.

Ushbu ma'nodoshlar passiv so'z boyligini hosil qiladi. Tilimizda ilmiy (kitobiy) nutqda qo'llanadigan ko'pgina so'zlar ana shu yo'sinda o'zlashtiriladi.

Og'zaki nutqqa singdirilgan so'zlargina faolligi tufayli gap tuzish jarayonida tez eslanadi. Masalan, o'zbek tilida so'zlovchi kishilar *tayyorlamoq* fe'lidan ko'p

foydalanadilar, lekin shu fe'lining ma'nodoshlarini (*hozirlamoq, shaylamoq, chog'lamoq, muhayyo qilmoq, taxt qilmoq, taraddud ko'rmoq, tadorik ko'rmoq*) matnlarda qayta-qayta uchratsalar-da, ularni qo'llash lozim bo'lganda ko'pincha tez yodga keltira olmaydilar[7,40] *tayyorlamoq* so'zi esa bir ondayoq xotiraga keladi. Buning sababi shundaki, kishi ushbu so'zlarni kundalik muloqotda ishlatadi, shu bois ular nutqda avtomatlashadi. Ma'nodoshlari esa kitobiy nutqqa, tor sohaga, sheva tiliga mansub bo'lib, ishlatilish, boshqa so'zlar bilan aloqaga kirish ko'lami ham nihoyatda tor, ularni nutqda qo'llash esa qo'shimcha izohlar, til hissi, nozik did bilan bog'liqdir.

*Tayyorlamoq* fe'lining ma'nodoshlarini o'z nutqida qo'llashni maqsad qilib olgan kishi ularni eslab qolish uchun qanday zaruriyat bilan qay paytda ishlatish, ya'ni ulardan foydalanish holatlari haqida aniq tushuncha hosil qilishi, uslubiy masalalarni yechishi lozim. Bu endi jurnalist, yozuvchi, olimlarning yozma nutq malakalarini egallash yo'lidagi ish turlaridan biri hisoblanadi.

Keltirib o'tgan misolimizda *tayyorlamoq* fe'li gapirish paytida ishga tushadigan leksik malakalar hosil bo'lgan darajada egallangani, ma'nodoshlari esa o'qib yoki eshitib tushunish darajasida bilib olingani, tanishlik shu darajada ekanligini ko'rdik[ 1,10-15].

Demak, badiiy asarni o'qib eshittirish yoki o'qitish jarayonida notanish so'zlar ustidagi maxsus ishlab chiqilgan lug'at ishi albatta bajarilishi shart, chunki asarda bunday so'zlarning uchrab turishi tabiiy, chunki yozuvchi tesha tegmagan so'zlarni ishlatish orqali ayrim so'zlarning takror-takror ishlatilishidan xalos bo'ladi, shuningdek, buni so'z ishlatish mahorati deb, shunga intiladi.

O'z fikrlarini og'zaki bayon qilish kompetensiyasini shakllantirish samarasi faol so'z boyligini savodxonlik darajasida egallash zahirida yuzaga keladi. Albatta, maktab o'quvchilarida bunday so'z boyligi bor, lekin sayqallanmagan, ayniqsa, adabiyotshunoslik tili darajasida o'z fikrlarini bayon qilish, mustaqil fikrlash jarayonida qo'llash malakasi darajasiga yetmagan holatda bo'ladi.

O'z fikrlarini yozma bayon qilish kompetensiyasi so'z va grammatik shakllarni xotirlash va tanlash jihatidan o'z fikrlarini og'zaki bayon qilish kompetensiyasiga yaqin tursa-da, yozma savodxonlik tomonidan bir oz murakkablik kasb etadi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ifoda vositalari izlanadi, bog'lanishlilikni ta'minlashga harakat qilinadi, ham savodxonlik haqida o'ylanadi.


Keyingi masalalar o'ta murakkab masalalar sirasiga kiradi. Bunga metodlist olimlar R.Yo'ldoshev va M.Rixsiyevalarning izlanish natijalari – insholardagi matniy xatolar yorqin misol bo'la oladi[5,157].

Nutqiy faoliyat turlari bir-biridan farqli ta'lim mazmuniga ega, bir-biridan farqli ta'lim usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu kabi farqlar xususida S.Muhamedova va M.Saparniyozovalarning quyidagi ta'kidi o'rinli: "Aytish lozimki,

tayyorgarliksiz spontan og‘zaki nutq va tayyorgarlik bilan ishlangan yozma nutq o‘rtasida muayyan struktur-uslubiy farqlar, o‘ziga xosliklarning mavjudligi tabiiy”. Lekin o‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishda qiyosiy tahlillar yetarli emas. Masalan, nutqni tinglab tushunish bilan matnni o‘qishning “struktur-uslubiy farqlar, o‘ziga xosliklari” aniq emas.

Nutq o‘stirishda nutqiy faoliyat turlariga alohida-alohida e‘tibor berish lozimligi, buning yo‘l-yo‘riqlari ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida azaldan e‘tibor berib kelinayotgan masala hisoblanadi. Ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarning ona tili va adabiyot darslarida nut o‘stirish ishlarini nutqiy faoliyat turlari asosida tashkil etish g‘oyasi ilk bor 2017-yilgi davlat ta‘lim standartida kiritildi, kompetensiyalar sifatida alohida ta‘kid bilan ajratildi. Ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida nutqiy faoldiyat turlarini ayrim-ayrim yo‘nalishlar sifatida tashkil etishning psixologik asoslari metodist olim R.A.Yo‘ldoshev tomonidan keltirildi va izohlandi.[3,212] Muallif shunday deb yozadi: «Adabiyotlar oqimini chetlab o‘tgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri V.Penfildning quyidagi talqiniga murojaat etamiz. Uning tasvirlashicha, odam bosh miya po‘stlog‘ining chap yarim sharida nutqiy faoliyat bilan bog‘liq uch markaz, ikki zona mavjud. V.Penfild buni quyidagicha tasvirlaydi:[8]

1-rasm



**1 – yozuv markazi;**

**2 – o‘qish markazi;**

**3 –nutq uchun zarur harakatlarni tartibga soladigan Brok zonasi;**

**4 – buyumlarni atash markazi;**

**5 –nutqni eshitib tushunishni ta‘minlaydigan Vernike zonasi.**

R.Yo‘ldoshev ruhshunoslarning ma‘lumotlari orqali aniqlashicha, nutqiy faoliyat jarayonida yozuv markazi ham, o‘qish markazi ham, nutq uchun zarur harakatlarni tartibga soladigan Brok zonasi (boshqacha aytganda, gapirish zonasi) ham, nutqni eshitib tushunishni ta‘minlaydigan Vernike zonasi ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyumlarni atash markazi bilan bog‘lanib turadi[ 8,60].

Ta‘kidlash lozimki, tilga olingan markaz va zonalar bir-biriga ta‘sir o‘tkazishi mumkin, lekin ular sira ham bir-birining shakllanishiga vositachilik qilmaydi, biri ikkinchisining o‘rnini bosmaydi. Buni shundan ham bilish mumkinki, so‘zlarni o‘qiy olgan kishi ularni yozma shaklda ifodalash malakasini egallagan bo‘lmaydi. So‘zlarni o‘qiy olgan, shu so‘zlar ishtirokidagi gaplarning mazmunini tushungan kishi ularni



yoddan aytishi mumkin, lekin mustaqil ravishda fikr ifodalash uchun ulardan foydalanishga uquvi yetmaydi.

Ruhshunoslarning fikrlari asosida yana bir xulosaga kelish tabiiy: qaysi markaz yoki zona buyumlarni atash markazi bilan tez-tez bog‘lanib turmasa, o‘sha markaz yoki zona o‘z so‘z boyligiga ega bo‘lmaydi. Demak, o‘qish chog‘ida ko‘rganda ma‘nosi anglanadigan so‘z boyligi hosil bo‘ladi. Lekin o‘quvchi o‘rganilayotgan tilda o‘zi mustaqil ravishda gap tuzib gapirmasa, Brok zonasiga taalluqli so‘z boyligi to‘planmaydi. Nutqiy faoliyatning har bir turi (so‘zlash, tinglash, o‘qish va yozish)[3,9-10] ayrim-ayrim markaz va zonada joylashgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yozuvni o‘rganmagan odam o‘z-o‘zidan yozib ketavermaganidek, gapirmagan odam birdaniga nutqiy faoliyatning bu turini egallay olmaydi. Bu aksioma, albatta[2,144].

Biz buyumlarni atash markazini so‘z zahirasi to‘planadigan markaz sifatida tushunamiz. Nazarimizda, ushbu markazda so‘z boyligigina emas, balki tilga doir bilimlar ham jamlanadi. Aytmoqchimizki, ayni shu markazda so‘zlarni tanish barobarida grammatik vositalarni, til hodisalarini anglash ham yuz beradi.

Adabiyot darslarida asarni tahlil qilish bilan bog‘liq ravishda fikr ifodalash (gapirish) jarayonida Brok zonasining faoliyati buyumlarni atash markazi bilan bog‘lanib turishi ta‘minlanadi, adabiy-nutqiy malakalarning rivojlanishi sodir bo‘ladi. Chunki ushbu jarayon buyumlarni atash markazi bilan bog‘lanishi so‘zlarni gapirish paytida xotiraga tushirish tarzida kechadi.

Nutqiy faoliyat turlarining shakllanishidagi o‘ziga xos mexanizmlar mavjudligi va ularga asoslanish lozimligi haqidagi aniq ma‘lumotlarga suyanganda holda nutqiy faoliyat turlarini farqli usullar vositasida shakllantirish, bunda psixologik asoslarini nazarda tutish, farqli usullar tizimini ishlab chiqish zarur.

Umuman, “nutq o‘stirish” deganda o‘quvchilarning o‘z fikrlarini mustaqil, ijodiy bayon qilishlari tushuniladi. Bunda yoshlar nutqiga uslublyr farqlanmagan holda, asosan, o‘zbek adabiy tilining qonun-qoidalari nuqtai nazaridan baholanadi. “Nutq madaniyatini rivojlantirish” deganda esa nutqda namoyon bo‘ladigan so‘z boyligi, til bilimi jihatdan sifat o‘zgarishlari, kommunikativlik hisobga olinadi.

Nutq o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida o‘qilgan asar mazmun-mohiyatini tushunish, uni qayta hikoya qilish, kichik insho yozish hisoblanadi. Zero, ana shu malaka turlari nutqning boyishini ta‘minlash, bunda asardan foydalanish zamirida amalga oshadi. Asar mazmunini tushungan, uni biror topshiriqsiz, tayyorgarliksiz qayta hikoya qilish, insho yozish o‘z-o‘zidan nutqni boyitish, nutq madaniyatini shakllantirish muammolari hal qilib bera olmaydi.

Vaholanki, bu ishlar bajarilmas ekan, kompetentsiyalar kutilgan darajada shakllanib qolmaydi. Adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun ham, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini hosil qilish uchun ham asardan olinadigan ibrat



ustidagi ishlar taqozo etiladi. Aytmoqchimizki, adabiyot darslarida asar to'qimasidan foydalangan holda nutq o'stirish yo'nalishidagi muammolar ishlab chiqilishi suv bilan havoday zarur. Uslub masalalarigina emas, ba'zan orfoepiya me'yorlariga muvofiq talaffuz qilingan so'z, so'z shakllarining yozma nutqda shu holda aks ettirilish holatlari ham nutqiy xatolarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, "uyam" deb talaffuz qilish orfoepiyaga xos, yozma nutqda "u ham" deb yozilishi esa shart.

Nutqiy faoliyat turlari bilish lozim bo'lgan so'zlar miqdori bilan o'zaro farqlanadi. Nutqni tinglab tushunish va o'qish o'ziga xos xususiyatlari qatori katta miqdordagi so'zlarni retseptiv darajada bilishni taqozo etadi. Notanish so'zlar ba'zan asar mazmunini to'g'ri tushunishga monelik ko'rsatadi. O'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qilish faol so'z boyligi hajmida amal qiladi. Bunda so'z va so'z shakllarini, ayrim sintaktik qurilmalarni ishlatish so'zlashuv uslubini ilmiy uslubdan farqlash zamirida egallanadi.

Ma'lumki, yozuvchi so'z yordamida timsol yaratar ekan, o'z tasavvurlarini real voqelikdagi shu timsolda aks ettiradi, lekin biror buyum, biror shaxs, biror voqea-hodisa yakka holda emas, balki umumlashgan, yozuvchining his-tuyg'ulari, munosabatlari bilan yo'g'rilgan holda bo'ladi. Timsol orqali ko'rsatiladigan ta'sir yozuvchining muddaosiga (g'oyasiga) bog'liq bo'ladi. Demak, o'quvchilar asarni o'qir ekanlar, uni real buyumlavrdan umumlashmalarga qarab tushunishlari, shu yo'nalishda tahlil qilishlari kerak. Ana shu jarayon ta'limiy qiyinchiliklar tug'diradiki, o'qituvchining rahbarligi ostida amalga oshiriladigan tahlil bo'lmasa, yoshlarning o'zi buni kutilganidek eplay olmaydilar. Chunki muallif o'zicha baholaydi, ba'zi narsalarni o'zi o'ylab topadi, o'z munosabati bilan kitobxonda ham munosabat uyg'otadi.

O'quvchi qay bir qahramonga xayrixohlik qiladi, qahramonlar orasida yashaydi va hokazo. O'quvchi asarda tasvirlanayotgan narsalar yozuvchining xayolot mahsuli ekanligini payqagan bo'lsa-da, hayot haqiqati (hayotda shunday bo'lishi mumkitnligi) uni ishontiradi.

Tahlil deganda quyidagilarni tushunish kerak:

- 1) muallif yaratgan obrazlarni aniqlash;
- 2) asar qahramonlariga diqqatni qaratish;
- 3) asar qahramonlarining ichki kechinmalarini aniqlash: o'quvchining ichki nigohida gavidalangan timsol bilan, taassurotlar bilan asardagi bayonni taqqoslash;
- 4) muallifning pozitsiyasini aniqlash;
- 5) asarning shakliy jihatlariga e'tiborni qaratish.

So'zlardan obrazlarga, obrazlardan asar qahramonlariga xayrixohlikka, his-hayajonga, undan muallifning munosabatlariga, o'quvchilarning shaxsiy mushohada va munosabatlariga qarab boriladi.

Xullas, adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab o'rgatish jiddiy metodik muammo ekanligi shularning o'zi bilan asoslanishi mumkin. Badiiy asarda ishlatilgan leksik va grammatik materiallarga qiyosiy yondashish, kitobiy nutqqa xos stil hodisalarini so'zlashuv uslubida qo'llash, so'zlashuv uslubiga xos til hodisalarini badiiy asarda muallif so'zlarida ishlatish, so'zlashuv va badiiy uslubni kitobiy uslubga ko'chirish kabi nuqsonlar singib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Lekin masalaning barcha jihatlari o'rganilishi zarur bo'lgani uchun tahlilni ham kengroq amalga oshirish lozim ko'rinadi.

O'rta umumiy maktablarda adabiyot o'qitish maqsadlaridan biri o'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ekan, bu ishda badiiy asarni o'qish va unga tayangan holda nutqiy mashqlarni (asar mazmunini qayta hikoya qilish, asar yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilish, o'z munosabatlarini himoya qilish) bajarish muhim o'rin tutadi.

Nutqiy mashqlarning o'zi ham farqlab o'tkaziladi: she'riy asar qayta hikoya qildirilmaydi, asosan yod oldirish bilan kifoyalaniladi. She'riy dostonlarning sujet chizig'i ustida ish olib boriladi va h.k.

### **Adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev R., Mirjalolova L. Uzluksiz o'zbek tili ta'limi jarayonida yangi leksik materiallarni taqdim etishning bir-biridan farqli ikki usuli // Uzluksiz ta'lim. Ilmiy uslubiy jurnal, 2005. 5-son. – B. 10–15.
2. Yo'ldoshev R.A. Mono, 2012. – 144-b
3. Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi (Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – 212-b.
4. Yo'ldoshev. R.A. Maxsus shakllantirilgan orfoepiya qoidalarni o'rgataylik // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2020/ 2-son. 131–133-betlar
5. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 157-bet.
6. Muxamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. –Toshkent, 2011–21-b
7. Yo'ldoshev. R. Yangi so'zlarni tushuntirish. Til va adabiyot ta'limi. – 1992, № 5-6. – B. 40–42;
8. Тасвир М.Я.Демьяненко, К.А.Лазаренко, С.В.Мельникларнинг “Основы общей методики обучения иностранным языкам. Теоретический курс” номли қўлланмасидан нусха кўчириш асосида келтирилди.

Qarang: Демьяненко М.Я., Лазаренко К.А., Мельник С.В. Основы общей методики обучения иностранным языкам: Теоретический курс. – Изд. 2, доп. и перераб. – Под общей ред. М.Я.Демьяненко. – Киев, Вища школа, 1984. – С. 60.

9. То‘xliyev В. Adabiyot o‘qitish metodikasi: (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tasviya etilgan). T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 151 b

10. Husanboyeva Q. O‘quvchi ma’naviyati va adabiyot darslarida mustaqil fikrlash, 66-b.

## **MILLATLARARO MUNOSABATLARNING JAMIYATIMIZDAGI O‘RNI**

**Karimova N.M. - Samarqand davlat chet tillar intsituti  
assistent o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamiyatimiz taraqqiyotida millatlararo munosabatlar hamma vaqt muhim o‘rin egallab kelganligi, shuningdek, hozirgi paytda jamiyatimizning barcha sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlarning taqdiri, nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy balki millatlararo munosabatlarni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni ham talab qilishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** millatlararo munosabatlar, muloqot, muloqot madaniyati, muloqot mazmuni, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik.

## **РОЛЬ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ОБЩЕСТВЕ**

**Каримова Н.М. – ассистент-преподаватель Самаркандского  
государственного института иностранных языков**

**Аннотация.** В статье обсуждается тот факт, что межнациональные отношения всегда играли важную роль в развитии нашего общества, а также судьба реформ во всех сферах нашего общества, которые требуют не только политического, социально-экономического, культурного и духовного развития, но и современные межнациональные отношения.

**Ключевые слова:** межнациональные отношения, общение, культура общения, содержание общения, межнациональное согласие и толерантность.

## **ROLE OF INTERNATIONAL RELATIONSHIPS IN COMMUNITY**

**Karimova N.M. - assistant teacher Samarkand state institute of foreign languages**

**Annotation.** The article discusses the fact that interethnic relations have always played an important role in the development of our society, as well as the fate of reforms in all spheres of our society, which require not only political, socio-economic, cultural and spiritual development, but also modern interethnic relations.

**Key words:** interethnic relations, communication, communication culture, communication content, interethnic harmony and tolerance

Muloqot madaniyati bugungi kunning dolzarb mavzu va vazifasi bo‘lib shakllanishida bir tomondan iqtisodiy taraqqiyotning jadallashishi bo‘lsa, boshqa tomondan davlatlarda istiqomat qiluvchilarning ko‘p millatliligidir. Etnik guruhlar o‘rtasidagi hamjihatlik, uyg‘unlik, do‘stona munosabatlar millatlararo munosabatlarni izga quyishni talab etadi.

Millat – bu insoniyatning tarixiy birligi, u bir til, bir madaniyat, bir ruhiyat ostida birlashgan uzoq muddat davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etno-madaniy jarayon bo‘lib u aniq hududiy doirada, o‘zlikni anglash birligi asosida tarkib topgan birlik shaklidir.

Muloqot – odamlarning axborot almashinuvi, bir birini tushunishi, bir biri bilan ehtiyojn yuzasidan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirish maqsadida ijro etiladigan jarayondir. Inson muloqoti mazmuni jihatidan turli-tuman bo‘ladi. Insonlar bir-biri bilan muloqotga kirishar ekan emotsional holatlarini, mamnunligini, shodligini, g‘azab yoki qayg‘uda ekanligini his ettiradi.

Davlatimizning asosiy poydevori barqarorlik, tinchlik va totuvlik bo‘lib istiqomat qiladigan ko‘p millatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar o‘rtasidagi tinchlikni va millatlararo totuvlikni saqlashda mustaqil O‘zbekistonimizning bunyod bo‘lishida va rivojlanishida ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritishda xizmat qildi. Bugungi kunga kelib bizga yagona buyuk meros bu ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan o‘zaro xurmat va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga bulgan etibor hisoblanadi.

Ajdodlarimiz qoldirgan meros soxibi va davlatimiz tarixiga mos avlod bo‘lish uchun davlatimiz siyosatida amalga oshirilgan ishlar, jumladan, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida kelajal avlodni tarbiya etish kabilarni sanab o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davlat o‘z milliy xavfsizligini ta‘minlashga intilishi, avvalo uning ichki siyosati orqali namoyon bo‘ladi va u tashqi siyosatda aks etadi. Ichki siyosat –

muayyan sharoitda ijtimoiy guruhlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar tomonidan ishlab chiqiladigan ichki va tashqi siyosat dialektik qonuniyat asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Davlatlarning milliy manfaatlari ularning tashqi siyosati orqali moddiy kuchga aylanib xalqaro maydonda ularning u yoki bu darajada faoliyat ko'rsatishini belgilab beradi. Davlatlarning tashqi siyosatining amal qilinishiga ichki va tashqi omillar ta'sir etib turadi. Ichki omillar obyektiv va subyektiv omillardan tashkil topadi. Obyektiv omillarga mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan omillar, subyektiv omillarga esa, mamlakatning siyosiy hayotida faoliyat ko'rsatuvchi siyosatning turli xildagi subyektlari kiradi. Bu omillar tashqi siyosatga ta'sir etishi bilan birga uning zarurligini ham taqozo etadi.

Millatlaro munosabatlarni saqlab qolish va yanada rivojlantirish maqsadi O'zbekiston qonunchiligida aniq bayon etilgan. Bunga asos qilib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi I bob 4-moddasi "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"[1]. II bob 8-modda. "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etadi."[2] ni ko'rsatish mumkin.

Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash siyosatini ijro etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgan va hozirda to'liq faoliyat yuritmoqda deb bimalol ayta olamiz. Buning isboti tariqasida davlatimiz sarhadlari ichida 130 dan ziyod millat va elat vakillarining qonunan belgilab quyilgan teng huquqlilik va berilgan keng imkoniyatlardan foydalangan tarzda vatanimizning ravnaq topishida va mustaqilligini mustahkamlashga hissa qo'shib kelmoqdalar.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish sohasida bir qator dolzarb masalalar o'z yechimini topishi zarur. Misol tariqasida quyidagilarni alohida to'xtalmoqchiman:

- davlat tashkilotlari va mahalliy ijro hokimiyatlarining fuqarolik institutlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada oshirishi zarur;
- mahallalarda muomala madaniyatini yanada, bir pog'ona ko'tarish maqsadida xalqimiz tarixi va an'analarni yosh avlodga yetkazish ishlarini yo'lga qo'yish zarur;

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi

davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 15-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni imzolandi, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq quyidagilar millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi[3].

1. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

2. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

3. Jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

4. Millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish;

5. O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalarga erishish uchun yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlovchi asoslarni qo'llab quvvatlaydi. Yanada rivojlanayotgan mamlakatimiz uchun millatlararo munosabatlarni mustahkamlash muhim masala hisoblanadi.

## **Adabiyotlar**



1. O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF 5876 – son 2019-yil 15-noyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi 2017, 7-fevral– <http://tafsilot.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. Musayev O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji: Monografiya – Toshkent. “Istiqlol nuri”, 2016. -232 b.
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## **MILLATLARARO TOTUVLIK G‘OYASINING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI VA UNING MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI**

**Nigmanova U.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida millatlararo totuvlik g‘oyasining tarixiy-huquqiy asoslari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga e‘tibor qaratilgan. Yoshlar ongiga ko‘rsatilayotgan turli mafkuraviy ta’sirlar, yoshlarni har xil buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan himoyalash, ta’lim-tarbiya tizimida bu boradagi vazifalarni hal qilishda millatlararo totuvlik g‘oyasining tarixiy negizlariga hurmat ruhini tarbiyalash borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta’lim, ma’rifat, tarbiya, ma’naviyat, mafkuraviy bo‘shliq.

## **ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИДЕИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В НАЦИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ**

**Нигманова У.Б. - Ташкентский государственный педагогический университет, доцент**

**Аннотация.** В статье рассматриваются различные информационные воздействия на сознание людей в современных условиях глобализации, защита молодежи от воздействия различных деструктивных идей. А также задачи, которые необходимо выполнить в процессе воспитания молодежи в духе национального согласия.

**Ключевые слова:** глобализация, медиа, личность, СМИ, просветительство, образование, воспитание, духовность, идеологическое пространство.

## **HISTORICAL AND LEGAL BASIS OF THE IDEA OF INTERNATIONAL CONSENT AND ITS SIGNIFICANCE IN THE NATIONAL CONSCIOUSNESS**

**Nigmanova U.B. - Tashkent State Pedagogical University docent**

**Annotation.** The article examines various informational influences on the consciousness of people in modern conditions of globalization, the protection of young people from the effects of various destructive ideas. And also the tasks that need to be completed in the process of educating young people in the spirit of national harmony.

**Key words:** globalization, media, personality, mass media, governments, education, upbringing, spirituality, ideological space.

Insoniyatning bir necha ming yillik tarixidan yaxshi ma'lumki, biron bir millat o'zining milliy ma'naviy qadriyatlarini, merosini, o'ziga xos milliy madaniyatini odamlar ongida mustahkamlamasdan turib biron natijaga erisha olmaydi, o'z istiqbolini tasavvur qila olmaydi. Shu sabab har bir millat o'zining bu bebaho merosiga najot omili sifatida qaraydi, uni qadrlaydi. O'zining betakror milliy ma'naviy merosi qadriyatlarini asrash, yanada rivojlantirish masalalariga hayotiy muhim masala sifatida qaraydi, shu negizda faoliyat yuritadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni ushbu milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadi.

Mamlakatimizda ham yoshlarni milliy ma'naviy merosga, milliy qadriyatlarga, ona tarixga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mustaqillikdan keyingi yillarda milliy o'zlikni anglash, milliy tarbiya, milliy ma'naviy qadriyatlar, milliy tiklanish masalalari bilan vazifalar davlat siyosati darajasiga ko'tirilib ulgurdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning qator nutqlarida, Farmonlarida yoshlar tarbiyasi, ularni vatanga sodir farzand qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Markaziy Osiyoning uzoq tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu mintaqada turli milliy va diniy jamoalar har doim do'stonalik, bag'rikenglik muhitida yashab kelishgan. Bu hamkorlik rishtalari mintaqaning davlatchilik, iqtisodiyot, madaniyat, ilm-fan sohasidagi yuksaklikka erishuvining muhim omili bo'lib kelgan. Shu sabab fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga

yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish[1] masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mintaqa xalqlari qadimdan ishlab chiqarish, savdo sohalarida keng hamkorlik qilib kelishgan. Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo'llarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Tarixiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, mil. avv. II-I asrlarga kelib, Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'layigan karvon yo'li paydo bo'ladi. Bu yo'l Buyuk ipak yo'li deb atalib, umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat edi. O'z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lining dastlabki tarmog'i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan.

O'rta Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab, rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, mil. avv. II asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, So'g'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va eftalitlar davriga kelib (I-VI asrlar), O'rta Osiyo orqali o'tuvchi Ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oladilar.

Ipak yo'li rivojlanib borgan sari podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Savdo-sotiq misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bordi. Shuningdek, Sharq bilan g'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. Davlatlar rivojlanishidagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo'ldan borayotgan savdogarlar ko'pincha yo'lining oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lining o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir.

Bu yo'l orqali turli millat vakillari o'rtasidagi aloqalar qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shunday ekan mintaqa xalqlarining turli sohalaridagi hamkorligining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bunday manbalardan keng foydalanish zarur.

Axborot texnologiyalari sohasida, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlardagi globallashuvning shiddat bilan davom etayogan bugungi kunimizda xalqimizga xos bo'lgan bo'lgan qadriyatlarni, an'analarni qadr qiymati, ahamiyati, dolzarbligi yanada oshmoqda. Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ma'lumki, bizning mintaqamiz,

avvalambor, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik. Nega deganda, “Jaholatga qarshi-ma’rifat” shiori ostida mana shunday markazni tashkil etishni butun davrning o‘zi taqozo etmoqda”[2,468-468-b].

Aytib o‘tganimizdek Vatanimiz, shuningdek Markaziy Osiyodagi qardosh qo‘shni davlatlar nafaqat bugun tarixan ham ko‘p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakatlar bo‘lib kelgan. Mintaqada ijtimoiy hamkorlikni ta’minlashda, mintaqa imkoniyatlaridan ahillikda foydalanib iqtisodiy taraqqiyotning yuksak darajasiga erishishda mintaqada yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o‘rtasida totuvlikni ta’minlash, bag‘rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo‘lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning yechimi unda yashayotgan turli millat, diniy jamoa vakillarining hamjihatligiga bog‘liq. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan beri o‘tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd etib o‘tganidek “Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek saqlashimiz, yurtimizdagi millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak”[3;10-b]. Shu sabab mamlakatimizda milliy totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy hatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institutsional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

2017-yilning 15-iyun kuni Sh.Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida anjuman bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirda O‘zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, “Nuroni” va “Mahalla” jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, islomiy ta’lim muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yuqorida qayd etib o‘tilgan masalalarga to‘xtar ekan shunday deydi: “Kun tartibiga qo‘yilgan masala, ya’ni, ijtimoiy-ma’naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati

yo‘q”[2, 461-b]. Nega deganda, aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so‘z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek har bir ongli insonni chuqur o‘ylantiradigan, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ma‘lumki O‘zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Ta‘kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda. Bugun shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni atroflicha tahlil qilib, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimizni davr taqozo etmoqda. Ona vatanimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat bo‘lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Yurtimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o‘ynamoqda[2;465-b.]. Ana shu markazlar faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida yaqinda muhim bir qaror qabul qilindi. Unga binoan Respublika baynalmilal markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Shunday ekan hozirgi vaqtda yoshlarimizni, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimizni bunday tushadigan turli-tuman terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz ta‘lim-tarbiyada, targ‘ibot ishlarida qanday choralarni amalga oshirishimiz talab etilmoqda. Demak ushbu vazifalar yechimi atrofida chuqur o‘ylash, kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

Vatanimiz yoshlarini milliy ma‘naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, millatparvarlik ruhiyatini yanada mustahkamlash, Vatanimiz dong‘ini olamga yoygan buyuk siymolarimiz merosiga munosib voris qilib tarbiyalashda, ularda yuksak milliy o‘zlikni anglash ko‘nikmalarini tarbiyalashda millatlararo totuvlik g‘oyasining tarixiy-huquqiy asoslaridan yanada unumli foydalanishda quyidagi vazifalarga keng e‘tibor qaratish talab etiladi:

Avvalo, O‘zbekistonning qadimiy tarixi va madaniyati, davlatchilik an‘analari, xalqimizning turmush tarzi va dunyoqarashi islom sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanib, rivojlanganini Samarqand, Buxoro, Xiva,



Toshkent, Kesh, Nasaf, Termiz, Andijon, Marg‘ilon, Karmana, Qo‘qon singari qadimiy shaharlarimiz, ulug‘ allomalar va aziz-avliyolar xotirasiga bag‘ishlab yurtimizda bunyod etilgan yodgorlik majmualari, muqaddas qadamjolar maketlari, ulug‘ siymolar, noyob qo‘lyozma va toshbosma asarlar, moddiy va nomoddiy meros namunalarini eksponatlar orqali aks ettirish, shu yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalari asosida qomuslar, katalog va albomlar, ilmiy-ommabop to‘plamlar, teleko‘rsatuv, film va boshqa materiallar tayyorlash borish talab etiladi. Bu materiallardan ta‘lim-tarbiya jarayonida, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda unumli foydalanish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilishda milliy tariximizning zarhal sahifalaridagi turli milliy jamoalar o‘rtasidagi do‘stlik, ahillik, bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi qadriyatlardan samarali foydalanish foydalanish muhim kasb etadi. Shuningdek yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda milily qadriyatlarimizda, diniy qadriyatlarimiz durdonalarga ko‘proq murojat qilish talab etiladi. Bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, yoshlarda ogohlik va g‘oyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan ta‘lim-tarbiya tizimi, ma‘naviy-ma‘rifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi[4;14-b]. Markaziy Osiyo davlatlaridan uchta beqarorlik hukm surayotgan Afg‘oniston bilan chegaradosh. Tutash chegara hududlarda xavfsizlik choralari kuchaytirish talab etiladi.

Uchinchidan, yoshlarni milliy ma‘naviy meros qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma‘naviy – ma‘rifiy tadbirlarda madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san‘atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma‘naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvor jihatlarini yoritish ishlariga alohida to‘xtalish muhimdir.

To‘rtinchidan, millatlararo totuvlik g‘oyasining tarixiy-huquqiy asoslari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yoritishda yoshlarni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan “Besh muhim tashabbus”ni amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalarga yechimiga diqqat qaratish zarur.

Beshinchidan, bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an‘analar birlashtirib kelgan. O‘zbekiston hukumati qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda yechishdan iborat.



Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida etnik o'zbek millati vakillari, ayni damda O'zbekistonda qo'shni mamlakatlardagi tub millatga mansub aholi qatlamlari istiqomat qilishadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy muammolarni birgalikda hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, jamiyatdagi ma'naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta'sirlarga qarshi oila, mahalla, ta'lim, nodavlat tashkilotlari ishtirokida aksiltarg'ibot tadbirlarini olib borishning yangicha, ta'sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Yoshlarda milliy ong, milliy madaniyat hurmat, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishni samarali institutsional tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni yanada kuchaytirish zarur.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida. PQ 3105. 30.06.2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
4. Jumanizov X. Nigmanova U. Globallashev asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2020.

## **OTA KONSEPTINING “QUR'ONI KARIM” OYATLARIDAGI TALQINI**

**Anorqulova O.N.– Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ota konseptining Islom dini muqaddas kitobi sanalgan “Qur'oni karim” oyatlari va suralaridagi ifodasi, mohiyati ko'rsatilgan. Unda keltirilgan hikoyalar oyatlar bilan uyg'unlashtirilgan holatda keltirilgan. Deyarli barcha oyatlarda otaning ulug'ligi, unga yaxshilik qilish buyurilgan. Shunday bo'lsa-da, maqolada ushbu konsept o'z atrofida qaysi tushunchani ifodalasa, mavzuiy guruhlariga bo'lib tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** “Ota” konsepti, “Qur'oni karim”, oyat, sura, pora.

## **ТОЛКОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ОТЦА СТИХАМИ СВЯТОГО КОРАНА**

**Аноркулова О.Н. - преподаватель Самаркандского  
государственного университета**

**Аннотация.** Данная статья пытается объяснить суть концепции отца в

аятах и сурах Священного Корана, который считается священной книгой ислама. Истории рассказываются в гармонии со стихами. Почти во всех стихах прославляется величие отца, повелевается делать ему добро, однако в статье делается попытка проанализировать это понятие с точки зрения тематических групп.

**Ключевые слова:** понятие «Отец», «Священный Коран», стих, сура, взятка.

## **INTERPRETATION OF THE FATHER'S CONCEPT IN THE VERSES OF THE HOLY QUR'AN**

**Anorkulova O.N. - teacher of the Uzbek language and literature department of SamSU**

**Annotation.** This article discusses to explain the concept of the father in the verses and suras of the Holy Quran, which is considered the holy book of Islam. The stories are told in harmony with the verses. Almost in all verses the greatness of the father is glorified, it is commanded to do good to him, but the article attempts to analyze this concept from the point of view of thematic groups.

**Key words:** "Father" concept, "Holy Qur'an", verse, sura, bribe.

Inson yaralibdiki, o'z dini, e'tiqodiga tayanib hayot kechiradi. Islom olamining muqaddas kitobi "Qur'oni karim" ham kishilarni ezgulikka, to'g'ri yashashga, oxirat yaxshilik va yomonliklariga tayyor bo'lishga undaydigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan kitob sanaladi. Unda kelirilgan oyatlar Alloh tomonidan buyurilgan bo'lib, faqat U nozil qilgan yo'llardan yurmoq, faqat U buyurgan amallarni bajarmoq har bir musulmon uchun farz sanaladi. Xuddi shunday Yaratgan tomonidan buyurilgan amallardan biri – bu ota-onaga yaxshilik qilish masalasidir.

Alloh taolo Qur'oni karimning bir necha suralarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularga ehtirom ko'rsatish, ehtiyojlarini qondirish farzand zimmasidagi eng muhim burchlardan ekanini ta'kidlaydi. Chunki, Tangri yaratgan ilk inson Odam ato, insoniyatning yaralishi, yer yuziga tarqalishi, unda yashashi, oila qurishi, dunyoning barcha yaxshi-yomon lazzatlari-yu ne'matlaridan bahramand bo'lishi Alloh amri bilan Odam alayhissalomga borib taqaladi.

"Qur'oni karim" oyat va suralarida ota atamasi quyidagi ma'nolarda kelganligiga guvoh bo'lamiz:

**Ota-barcha insonlar pushtipanohi.** Bilamizki, insoniyatning yer yuziga tarqalishi ham aynan ota shaxsi bilan bog'liq. Alloh taolo Yerni ikki kunda yaratdi va u tebranmasligi uchun ustiga baland va mustahkam tog'larni barpo qildi. To'rt kunda Yerni barakali qildi, undan so'ng osmon, bulutlar, quyosh, oyni, O'z amriga itoat qiladigan va unga hamd-u sanolar aytadigan farishtalarni bunyod etdi. Keyin ona zaminda yashab, uni obod aylash maqsadida Odam ato(*ato-ota terminining qadimiy*

shakli. O'zbek tilining izohli lug'atida ato so'zining "in'om etmoq", "baxsh etmoq", "bermoq" ma'nolari keltirilgan. Balki Alloh Odamni yaratib unga jon va hayot, ilm ato etganligi sabab unga ato shakli qo'shib aytilgan, keyinchalik kishilar tilida ato shakli ota ma'nosiga singib ketgan bo'lsa ajab emas.)ni yaratdi va Alloh taolo farishtalariga "Men yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman...",-deydilar. (Baqara surasi, 1-pora, 30-oyat) Shunday qilib, Olamlarning sarvari Odam Atoni shakl-u shamoyili bor, pishitilgan loydan yaratadi[1]. "Qur'oni karim" da keltirilishicha: Alloh Odam Atoga barcha nomlarni o'rgatad (Baqara surasi, 1-pora, 31-oyat)[2]. Ya'ni Odam alayhissalom rabboniy fayz-u barokatdan oziqlangan, Allohning ilm nuridan bahramand bo'lgan Yer yuzidagi ilk zod edi. Alloh barcha farishalarga "Odamga sajda qilinglar!"-deb buyurishi bilan ular sajda qiladilar. Faqat Iblis bosh tortib, kibr qiladi va kofirlardan bo'ladi (Baqara surasi, 1-pora, 34-oyat)[2]. Chunki Iblis o'zini Odamdandan ko'ra ustunroq, yaxshiroq va javhar jihatdan pokroq deb hisoblar, negaki, Alloh uni olovdan yaratgan edi.

Alloh taolo Odam atoga munosib juft Havvoni yaratdi va ularga birgalikda jannatda yashashlari, undagi bor noz-u ne'matlardan bahramand bo'lishlariga ruxsat berdi, ammo u yerdagi daraxtlardan biriga yaqinmasliklarini amr etdi.

Odam Ato Alloh taolo man etgan daraxt mevasidan yeb jannatdan quviladi. O'z zurriyotlari bir-biriga dushman bo'lib, ajal yetgunga qadar yashashi, undan foydalanishi, tavba qilishi uchun Yerga quviladi. Shundan so'ng yer yuziga insoniyat tarqala boshlaydi. Odam alayhissalom va Havvoga Tangri ikki marta bir o'g'il va bir qizdan iborat egiz farzandlarni ato etadi. Ular o'g'illariga Qobil va Hobil deb nom qo'yishadi. Alloh Odamga katta o'g'li Qobilni Hobil bilan egizak bo'lgan qiziga, kichik o'g'li Hobilni esa Qobil bilan tug'ilgan qiziga uylantirishni buyuradi. Aynan shu voqea sabab ular orasidagi totuvlikka putur yetadi. Sababi, Hobilga atalgan qiz husn-malohatda akasiga atalganidan qolishar edi. Inson ko'ngli hamisha hoy-u havasga, hasadga moyil.

Niso surasining 4-pora 1-oyatida shunday deyilgan:

*Ey, odamlar! Sizlarni bir jon (Odam)dan yaratgan va undan jufti (Havvoni)yaratgan hamda ikkisidan ko'p erkak va ayollarni yaratgan Rabbingizdan qo'rqingiz! Shuningdek, o'rtalaringizdagi o'zaro muomalada nomi keltiriluvchi Allohdan va qarindoshlar (aloqasini uzish)dan qo'rqingiz! Albatta, Alloh sizlarni kuzatib turuvchidir.*

Bundan tashqari, Baqara surasi, 1-pora, 83-oyatida: *Eslang, Isroil avlodidan: "faqat Allohgagina sig'inadilar, ota-ona, qarindosh, yetim va miskinlarga yaxshilik qilasizlar, odamlarga shirinso'z bo'ling, namozni mukammal ado eting, zakot bering",-deb ahd olgan edik. Keyin (siz, Isroil avlodi) ozchilik qisimingizdan boshqangiz (ushbu ahddan) yuz o'girdingiz.*

Muqaddas dinimizning muqaddas kitobida bunday oyatlar va hikoyatlar juda ko'p. Ularni o'qib borar ekansiz, ota-onaning naqadar mo'tabar zot ekanligi, farzandlik burchlari-yu, ota-ona mas'uliyatlarini to'la his etib boraverasiz.

Ota - Alloh elchisi. Yer yuzida johillik, qabohat, asl ilohni unutib, soxta ilohlar (mabudlar, bud-sanamlar, hayvonlar)ga sig'inish, fahsh amallar avj olgan paytda Alloh taolo o'z elchilari – payg'ambarlarga vahiy orqali xabar yuboradi. O'n sakkiz ming olamni yaratgan, butun Yer-u samolarning egasi yagona Alloh ekanligi, faqat Unga imon keltirib, U nozil qilgan yo'llardan yurishlari, jisman va ruhan Unga sig'inishlari, Allohdan o'zga iloh yo'q ekanligini anglashlari lozimligi payg'ambarlar vositasida odamlar orasiga yetkazilgan. Oxirzamon payg'ambari Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamga qadar juda ko'p - minglab payg'ambarlar o'tganligi ma'lum. Pyg'ambarlar hayotini o'rganar ekanmiz, ularda ham tadqiqot obyektimiz sanalgan ota tushunchasiga juda ko'p o'rinlarda duch kelamiz. Aksariyat holatlarda otalik va payg'ambarlik vazifalari teng kelgan, shuningdek, ikkalasidan birini tanlash kerak bo'lgan, ota va farzand munosabatlarining asl va Yaratganning amriga muvofiq bo'lishi taqdirlangan o'rinlar juda ko'p. Biz buni Ibrohim halilulloh va Ayub alayhissalom qissalari misolida tahlil qilishni niyat qildik.

Yer yuziga ilk yuborilgan, payg'ambarlar otasi deya ta'rif qilinadigan payg'ambarimiz Ibrohim halilullohdir. U yumshoq tabiatli, pokiza inson edi. Muqaddas dinimizda Ibrohim alayhissalomning farzandlari haqida turli ma'lumotlar bor: Ba'zilar ikkita – Ismoil va Is'hoq desalar, ayrimlar to'rtta –yana Madyan va Madoin degan farzandlari ham bor, deydilar. Yana boshqa manbalarda 8 yoki 14 nafar o'g'illari bo'lgan, deyiladi.

Ma'lumki, Ibrohim alayhissalomning xotini Sora ismli ayol bo'ladi. U tug'mas bo'lganligi sababli payg'ambarimiz yillab farzandli bo'lishni kutadi. Oqibatda Sora yoshi bir joyga borgan turmush o'rtog'ining farzandli bo'lishini xohlaydi va o'z xizmatkori Xojarga nikohlanishi to'g'ri chora ekanligini anglaydi. Xojar Ibrohim halilullohga ajoyib farzand tuhfa etadi. Bu –Ismoil alayhissalom edi. Vaqti kelib Soraning rashk o'ti kuchayib, Xojar va uning o'g'lini o'zidan nari qilishni xohlab erini bunga qistay boshlaydi. Alloh yo'l boshchiligida ota o'z o'gli va Xojarni tuyasiga o'tqizib yo'lga otlanadi hamda Ka'batulloh qurilgan joy(keyinchalik ota va o'g'il uni qurgan)ga kelib to'xtaydi va ularni kimsasiz, giyoh ham o'smaydigan joyda Allohga omonat qoldirib ketadi. Keyinchalik Alloh taoloning karami bilan u yerdan Obi zamzam otilib chiqadi.

Ibrohim alayhissalom ota sifatida o'g'li Ismoilni bir zum ham unutmas, uning haqqiga tinmay duo qilar va uni juda sog'inar edi. Bir kuni u tushida o'z o'g'lini qurbonlik qilishga buyurilganligini ko'radi va buni Allohdan ishorat deb biladi. Garchi umr bo'yi farzand orzusida yashab, Alloh in'omidan kech bo'lsa-da bahramand bo'lib qanchalik suyungan, o'g'liga nisbatan otalik mehri juda kuchli bo'lsa-da, avvalo, u Allohning elchisi edi. Ibrohim alayhissalom darhol Tangrining buyrug'iga itoat etib, farzandining yoniga bordi va o'g'liga tushidagi voqealarni so'zlab berdi. Padari buzrukvorining aql-zakovati, imon nuri singgan fazand otasi Allohga qanday bo'ysungan bo'lsa, u ham o'z otasiga so'zsiz itoat etadi va *“Otajon, siz nimaga buyurilgan bo'lsangiz o'shani qiling! Xudo xohlasa meni sabr qiluvchilardan deb bilajaksiz! ...yana tipirchilab ketmasligim uchun oyoq-qo'llarimni*

*mahkam bog‘lang, kiyimlarim qonga belanib, onam ko‘rib hasrat qilmasligi uchun uni yechib tashlang, pichog‘ingizni o‘tkirlab oling va uni yashin tezligida bo‘ynimga soling... yana yuzimni teskari qilib qo‘ying, chunki ko‘zningiz menga tushsa, rahmingiz kelib Alloh amrini bajarolmay qolasiz”,- deydi. Otasi o‘g‘lining ziyrakligi va hotamtoyligini ko‘rib, ming hasrat bilan Allohga iltijo qilib pichog‘ini o‘g‘lining gardaniga solganida, pichoqning o‘tkir tig‘i ta‘sir qilmaydi va Tangri otaga o‘g‘lini qaytarib beradi.*

Ismoil alayhissalom otasidan yiroqda voyaga yetgan bo‘lsa-da, balog‘at yoshiga yetgach, uning ham dovrug‘i har tomonga tarqaldi. O‘zi yashayotgan qavmning tili, madaniyatini o‘rgandi va shu yerdan bir qizga uylandi. Bir kuni shunday voqea yuz beradi. Ibrohim alayhissalom o‘gli Ismoilni juda sog‘inar va uni ko‘rish uchun Makkaga kelib turar edi. Kunlarning birida u o‘g‘lini ko‘rish maqsadida kelgan payt uyida kelinidan boshqa hech kim bo‘lmaydi. Ibrohim alayhissalom o‘g‘lining qayerga ketganligini so‘rganida xotini erining rizq-ro‘z topish ilinjida ketganligini aytgach, hayotlarining yomonligi, ahvollarining tangligi, qo‘llarining kaltaligidan hasrat qilib noliy ketadi. Ota kelinining timsolida Allohning in‘omiga noshukr xotinni ko‘radi va u bilan hayot kechirib bo‘lmasligini anglagan holda undan yuzini o‘girib, o‘g‘liga salomini hamda *uyining ostonasini o‘zgartirishi lozimligini* yetkazib qo‘yishini tayinlab uyiga qaytib ketadi. Ismoil alayhissalom uyiga qaytib bu voqeadan xabar topgach, kelgan kishi otasi ekanligini, juftini o‘zgartirishi lozimligini anglab, hech ikkilanmasdan xotinini qo‘yib yuboradi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan Ibrohim halilulloh yana o‘g‘lini qo‘msab ko‘rgani kelganida uyda Ismoilning yangi xotinidan boshqa hech kim yo‘q edi. Ota o‘g‘lining qayerda ekanligini so‘rganida kelini unga erining rizq ilinjida ketganligini aytgach, hayotlarining yaxshi ekanligini bildirib, Allohga tinmay hamd-u sanolar aytadi. Buni ko‘rgan otaning ko‘ngli taskin topib, o‘g‘liga imon-e‘tiqodli, sabr-qanoatli turmush o‘rtoq uchraganidan Yaratganga shukrlar aytadi. Ibrohim halilulloh kelinidan o‘g‘liga salomini va ostonasini doimo muhofaza qilishini tayinlab, xotirjam holda qaytib ketadi. Bu voqeadan xabar topgan Ismoil alayhissalom uyiga kelgan inson otasi ekanligini, xotini bilan hech qachon ajrashmasligini anglaydi va u bilan umrbod hayot kechiradi.

Ibrohim alayhissalom Yaratganning taqdiri bilan sevimli o‘g‘lidan uzoqda yashasa-da, uning otalik mehri bir lahza so‘ngani yo‘q. Ota va o‘g‘il orasidagi mehri hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmas edi. Ismoil alayhissalom ham otasining diydoriga doimo oshiqar, uni ko‘rishi bilanoq yuragi hapqirar, ko‘zlaridan nurlar chaqnar, quvonchi ichiga sig‘mas va doimo quchog‘iga o‘zini otar edi. Ular ikkalasi muqaddas Ka‘batullohni qurishadi (Ibrohim halilulloh va Ismoil alayhissalom haqidagi ma‘lumotlar “Qur‘oni karim”ning quyidagi suralarida keltirilgan: “Baqara” (125, 129, 258); “Zuhuf” (26-28); “An‘om” (74); “Tavba” (114); “Maryam”(41-48); “Anbiyo” (25,52,68,73); ”Shuaro” (69-102); ”Ankabut” (6,16,17,24, 34); ”Soffot” (97,99,102,112); “An‘om” (76,83); “Ibrohim” (35,37); “Oli Imron” (96,26)[2].

Ularning munosabatlari, yuqoridagi Qur‘on qissalariga oid voqealar har qanday inson uchun ibrat bo‘lishi bilan bir qatorda Islom olamining muqaddas



kitobida belgilangan oyatlarga oid buyruqlarni tasdiqlaydi. Farzandlarning solih va Alloh izmiga bo'ysunishi, ota-onaga muruvvatli va hurmatda bo'lishi ham aynan otaning bergan saboqlari, nasihatlari natijasi. Zero, "Qur'oni karim"ning quyidagi suralari bu jihatdan xarakterlidir:

*Ibrohim o'z o'gillariga , shuningdek, (nabirasi) Ya'qubga ham shu dinni vasiyat qilib dedilar: "O'g'illarim, albatta, Alloh sizlar uchun shu dinni tanladi. Bas, musulmonlik holingizdagina olamdan o'tingiz!"* ("Baqara" surasi, 1-pora, 132-oyat, 20-bet)

*Rabbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey, inson,)agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga "UF!..."dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt!* (Al-Isro surasi, 15-pora, 23-oyat, 284-bet)[2]

*Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut va( duoda): "Ey, Rabbim! Meni (ular) go'daklik chog'imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin",-deb ayt!* (Al-Isro surasi, 15-pora, 24-oyat, 284-bet)[2]

Yer yuzida haqiqiy mo'min, solih amallari ko'p banda - Ayub alayhissalomchalik inson yo'qligi, buni hatto farishtalar ham tan olganligi butun islom olamiga ayon, chunki Ayub alayhissalom doimo Alloh zikrida yuradigan, farzandlariga, ahli ayoliga, xizmatkorlariga mehribon va shafqatli, miskinlarning qornini to'qlab, ustini butlab, zolimlarni esa o'zining shirin zaboni bilan jazolaydigan, odamlarga ilm-u ziyo tarqatadigan inson edi.

Iblis esa uni yo'ldan ozdirishni maqsad qildi va Alloh taolaga Ayub alayhissalomning bunday solih banda ekanligining asl sababi unga ato etilgan hisobsiz mol-u dunyo, bola-chaqa, qo'y-echki-yu, ot-ulovlar, tuyalar, sigirlar, hisobsiz ho'kizlar va chek-chegarasiz hosili unumdor yerlarning borligi ekanligini, agar ulardan mahrum bo'lsa, Allohni bir lahza ham zikr emasligini aytdi. Alloh taolo esa Iblisga bu fikrlarning noto'g'ri ekani, istasa sinash uchun bor lashkarlarini to'plab Ayubning bor-yo'g'idan mahrum qilishi va natijasini ko'rishini aytdi.

Shunday qilib Shayton Ayub alayhissalomning bor-yo'g'idan ayira boshlaydi. Dastlab, mol-u dunyosidan, so'ngra farzandlari, hatto sog'lig'idan ham ayirdi. biroq Ayub alayhissalom bir lahza bo'lsa-da Alloh zikridan to'xtamadi, imoniga putur yetmadi. Shu o'rinda Ayub alayhissalomning farzandlaridan ayrilgan holatiga e'tibor qaratmoqchimiz. Ayubni mol-dunyosidan mahrum qilganda ham uning zikrdan qaytmasligi Iblisning qora niyatini yanada avj oldiradi. U Allohga boshiga tushgan musibatlariga Ayub sabr-bardoshini isbotlash uchungina chidayotgani, uning zikri samimiy emasligi, yo'qotgan mol-u dunyosini o'g'illari yordamida qaytarib olishini, agar izn bersa uni farzandlaridan judo qilishi va farzand dog'iga chiday olmagan otaning imon-e'tiqodidan qaytib, kofirga aylanishini aytdi. Allh taolo unga Ayubning bola-chaqasini yo'q qilsa ham uning imoni, sabr-bardoshiga zarracha putur yetkaza olmasligini aytdi va Shaytonga izn beradi.

Shundan so'ng Iblis lashkarlari bilan Ayubning bolalari yashaydigan qasrni silkitib bir lahzada yo'q qiladi. Buni eshitgan Ayub alayhissalom yum-yum yig'laydi



va tezda o'zini tiklab: *“Alloh o'zi beribdi, o'zi qaytarib olibdi, u berguchi ham, olguchi ham. Berganiga ham, olganiga ham, g'azab qilganiga ham shukrlar bo'lsin”*- deya imonini mustahkamlaydi. Xullas, Ayub alayhissalom sog'lig'idan ayrilib yillab to'shakka mixlanib qolganda ham, atrofida hech kim, hatto xotini qolmaganda ham Allohni zikr qilishdan to'xtamadi va vaqti yetgach Tangri unga yana yoshlik, mol-dunyo va farzandlar ato etdi. Bu haqida “Qur'oni karim” ning 23-pora, Sod surasi 43-oyatida shunday deyilgan: *“Biz o'z tomonimizdan marhamat ko'rsatib hamda aql egalariga eslatma bo'lishi uchun (Ayubga) ahli (oilasi)ni va ular bilan qo'shib, yana o'shalarining mislicha. (farzand) ato etdik”*[2].

Muqaddas kitobimizda ota atamasi konsept darajasida deya olamiz. Asosan unda ota va o'g'il munosabatlari payg'ambarlar, ularing farzandlari misolida aks etgan. Ko'plab payg'ambarlar Ibrohim alayhissalomning avlodi ekanligi ham ma'lum. Buni kitobning 7-pora An'om surasi 84-oyatida keltirilgan jumlar ham tasdiqlaydi: *“Unga (Ibrohimga) Is'hoq va Ya'qubni ato etdik. Hammasini hidoyatga yo'lladik. Oldin Nuhni ham hidoyatga yo'llagan edik. Uning zurriyodidan Dovud, Sulaymon, Ayub, Yusuf, Muso va Xorunni (ham yo'lladik). Chiroyli ish qiluvchilarni mana shunday taqdirlaymiz”*

Ota-kofir. Ma'lumki, kofir atamasi tilimizda Islom dinini inkor etuvchi, rad qiluvchi, Allohni tanimaydigan va U nozil qilgan yo'llardan yurmaydigan kishiga nisbatan qo'llaniladi. “Qur'oni karim”da ham mana shunday maqomga ega bo'lganlar haqida ko'plab o'rinlarda oyatlar keltirilgan. Biz esa tadqiqot obyektimiz sanalgan ota konseptining kofir atamasi bilan bog'liqligi haqidagi o'rinlarga e'tibor qaratamiz.

Dinimizning muqaddasligi unda buyurilgan amallarning naqadar go'zal ekanligi bilan ham tasdiqlanadi. Ota-ona haqidagi barcha oyatlarda farzandlarning ota-onaga yaxshilik qilish, ularning haqqini ado etish, mehrlil va shafqatli, itoatkor bo'lishlari buyuriladi. Qachonki, e'tiqod yuzasidan ota farzandini Allohdan o'zgasiga (but-sanamlar, soxta mabudlar) sig'inishga majburlasalar, u holda ularga itoat etmaslik mumkin. Lekin qolgan holatlarda esa har doim ularga itoatli, mehr-shafqatli, shirinso'z bo'lmoqlik joizdir, hatto ular kofir bo'lsalar ham. bu to'g'risida “Qur'oni karim”ning quyidagi oyatlarida shunday deyilgan: *“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. (Ammo) agar ular sen bilmagan narsalarni (soxta ma'budalarni) Menga sherik qilishingga zo'rlasalar, u holda ularga itoat etmagin! (Barchangiz) Menga qaytursiz, bas, men (o'shanda) sizlarga qilib o'tgan amallaringiz xabarini berurman!”*(20-pora, Ankabut surasi, 8-oyat, 397-bet)[2]

*Agar ular (ota-onang) seni o'zing bilmagan narsalarni Menga sherik qilishga zo'rlasalar, u holda ularga itoat etma! Ularga (garchi kofir bo'lsalar-da,) dunyoda yaxshi muomalada bo'lgin va menga tavba qilgan kishilarning yo'liga ergashgin! So'ngra (ya'ni qiyomat kunida) qaytishlik Mening huzurimgadir, bas, sizlarga qilib o'tgan amallaringizning xabarini berurman”.* (21-pora, Luqmon surasi, 15-oyat, 412-bet)[2]

Ibrohim payg‘ambar va uning otasi o‘rtasidagi munosabatlar yuqoridagi fikrlarning dalili bo‘la oladi. Halilullohning otasi Ozar but-sanamlarga sig‘inar va ularni o‘z qo‘llari bilan yasab, bozorga olib borib sotar, odamlarni soxta ilohlarga sig‘inishga undar, gunoh amallar sohibi ham edi. Ibrohim halilulloh uchun eng aziz va yaqin bo‘lganligi uchun o‘z otasini hidoyatga chorlash, imon keltirishga undashni farzandlik burchi deb bildi va otasiga murojaat qildi. Dastlab, otasi undan yuz o‘girib, oq qilmasligi va g‘azablanmasligi uchun o‘z da‘vatini but-sanamlarni yomonlashdan emas, balki o‘zining Alloh elchisi-payg‘ambar ekanligidan so‘z boshlab, farzandlik odobi, muloyimlik bilan otasidan nima uchun but-sanamlarga sig‘inishi, ularning jonsiz va hech qanday duolarni eshitmasligi va ijobat etmasliklari, balo-yu ofatlardan himoya eta olmasliklariga qaramasdan yana o‘shlarga e‘tiqd qilishlarining sababini so‘raydi. Ota o‘g‘lining gaplariga e‘tibor qilmadi. Ibrohim esa otasiga o‘zining yo‘li to‘g‘ri va haq yo‘l ekanligi, shu yo‘ldan yurishini yalinib so‘rashda davom etdi. But-sanamlarga sig‘inish esa shayton yo‘liga kirish, buning oqibati Allohning g‘azabi ekanligi, agar bu yo‘ldan qaytmasa dahshatli azob-uqubatlarga uchrashini ohistalik va mayinlik bilan tushuntirishga harakat qildi.

Ibrohim halilullohning bu gaplari otasiga zarracha ta’sir etmadi va shunday javob qildi: *“Ey, Ibrohim! Sen mening ilohimdan yuz o‘girmoqchimisani? Agar sen o‘z yo‘lingan va bu fikringdan qaytmasang, es-hushungni yig‘ib olmasang, seni toshbo‘ron qilajakman. Mening achchig‘imdan ehtiyot bo‘l, g‘azabimdan qo‘rq. Gapimga kirmasang uyimni tark et, mendan nariroq yur. Senga nisbatan yuragimda hech qanday mehrga va xayr-u ehsonga o‘rin yo‘q”*[1].

Otasinig bu gaplaridan so‘ng ham Ibrohim halilulloh o‘zini bosgan holda mehribonlikni saqlab, unga Allohdan mag‘firat so‘rajagini, o‘zi esa Tangri yo‘lidan qaytmasligini aytib uyini tark etadilar. Shunday bo‘lsa-da, otalariga qarshi dag‘al so‘z aytmasdan ma‘lum muddatgacha istig‘for aytib yurdilar. Keyin Alloh taolo buni ma‘n qilgan: *“Na payg‘ambar va na mo‘minlar mushriklar uchun, garchi ular qarindoshlari bo‘lsa ham ularning do‘zax ekanliklari ma‘lum bo‘lgandan keyin istig‘for (gunohlarini kechirishini) so‘rashlari joiz emas. Ibrohimning (o‘z) otasi uchun istig‘for so‘rashi faqat unga qilgan va‘dasi tufayli edi. Allohning dushmani ekanligini bilganidan keyin undan (otasidan) voz kechdi. Albatta, Ibrohim oqko‘ngil va halimdir”* (Tavba surasi, 113,114-oyatlar)[2].

*Ota-Solih amallar sohibi, nasihatgo‘y.* Farand dunyoga kelgach, uni tarbiyalash, kamolga yetkazish, solih amallar ko‘nikmasini shakllantirish, hunar, ilm-u urfon o‘rgatish ota zimmasidagi asosiy vazifalardan sanaladi. Bunday xislatlarni o‘rgatish uchun otaning o‘zida ko‘nikma bo‘lishi zarur. Ota yaxshilik qilishni bilmasa-yu, farzandiga o‘zgalarga yaxshilik qilishni o‘rgatsa, namozni ado etmasa-yu, bolasidan buni talab qilsa, bir hunarni mustaqil egallamagan bo‘lsa-yu, farzandidan hunar o‘rganishni talab qilsa, o‘zi muloyim va shirinso‘z bo‘lmasdan turib, bolalaridan muloyimlikni so‘rasa, bunday otani solih amallar sohibi deya olmaymiz.

Ota atalmish zot o‘z pushti kamaridan bo‘lgan farzandlariga doimo nasihatda bo‘lishi, savobli amallarga o‘rgatishi va o‘zi ham ularga qat’iy amal qilishi zarur. “Qur’oni karim” da ham mana shunday otalar haqida oyatlar nozil qilingan. Shundaylardan biri, shubhasiz, Luqmoni hakimdir. U tarixda yashab o‘tgan habashiy bir shaxs ekanligi haqida ma’lumotlar bor, biroq uning zoti kimligi haqida hech qayerda, hatto “Qur’on”da ham aytilmagan. U solih otalardan bo‘lib, doimo o‘z farzandlariga nasihatda bo‘lgan va uning amallari bugungi kun otalari uchun ham ibrat maktabi bo‘la oladi. “Qur’oni karim”da alohida “Luqmon” surasi mavjud bo‘lib, unda Luqmoni hakimning o‘z og‘liga ibratomiz nasihatlarini keltirilgan. Quyida ularni keltiramiz: Biz Luqmonga hikmat ato etdik (va unga dedik): “Allohgga shukr qilgin! Kimki shukr qilsa, faqat o‘zi uchun shukr qilur. Kimki noshukrlik qilsa, bas, albatta, Alloh bahojat va hamd egasidir”.(Luqmon surasi, 12 oyat)[2].

Eslang, “Luqmon o‘g‘liga nasihat qilib degan edi: *“Ey, o‘g‘ilcham, Allohga shirk keltirmagin! Chunki shirk ulkan zulmdir”*(Luqmon surasi, 13 oyat)

*Luqmon dedi: “Ey, o‘g‘ilcham, shubha yo‘qki, agar xantal (o‘simligining)urug‘idek yaxshi yoki yomon amal qilinadigan bo‘lsa bas, u amal bir xarsang tosh ichida yo osmonlarda yoki yer ostida bo‘lsa, o‘shani ham Alloh keltirur. Zero Alloh lutfli va ogoh zotir”*(Luqmon surasi, 16 oyat).

*Ey o‘g‘ilcham, namozni mukammal ado et, yaxshilikka buyur va yomonlikdan qaytar hamda o‘zingga yetgan balolarga sabr qil! Albatta mana shu ishlarning puxtasiandir”*(Luqmon suras, 17 oyat)[2].

*Odamlarga (kibrlanib)yuzingni burishtirmagin va yerda kerilib yurmagin. Chunki, Alloh barcha kibrlil, maqtanchoq kimsalarni suymas”*(Luqmon surasi 18 oyat). *(Yurganingda) o‘rta hol yurgin va ovozingni past qilgin. Chunki ovozlarning eng yoqimsizi eshaklar ovozidir”*(Luqmon surasi, 19 -oyatlar)[2].

Ko‘rinib turibdiki, Luqmoni hakim o‘z farzandini shirk amallardan qaytargan, solih amallarga o‘rgatgan ota timsolida barchaga o‘rnak bo‘la oladi. Uning nasihatlaridan farzandlar tarbiyasida foydalanish, ularni diniy va dunyoviy ilmlarni egallashlari uchun ham dasturulamal vazifasini o‘taydi. Aynan shuning uchun ham dinimizda Luqmoni hakimdek nasihatgo‘y ota shaxsi e‘zozlanadi va u haqidagi rivoyatlar, matallar xalq orasida kezib yuradi.

Ota-yaxshilik amr etilgan zot. “Qur’oni karim” oyatlarida mavjud ota haqidagi oyatlarni kuzatib, ularning deyarli aksariyatida ota va onaga yaxshilik qilish, mehribon va halim bo‘lish, ularga shukr qilish, rizoligini olish kabi insoniy fazilatlarga buyurilganligiga guvoh bo‘ldik: *“Rabbingiz, Uning O‘zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey, inson,)agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “Uf!...”dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut va( duoda): “Ey, Rabbim! Meni (ular) go‘daklik chog‘imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin”,-deb ayt!* (15-pora, Al-Isro surasi 23-24-oyatlar, 284-bet)[2]

Darhaqiqat, Yer yuzida yashayotgan insoniyat, avvalo, Allohga sig'inishi, ota-onaga esa yaxshilik qilishi shart, chunki bir bolaning voyaga yetib, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi uchun ota-ona qanchalar zahmatli yo'lni bosib o'tadilar. Inson ota-onasini mol-dunyosi uchungina manfaat istab yaxshi ko'rmaydi, vaholangki, onaning bedor o'tkazgan bir tuni hisobini farzand umri davomida berolmaydi, yoki otaning rizq-ro'z ilinjida chekkan qiyinchiliklarini hech bir mol-dunyo hisobini qila olmaydi. Dinimizda amr etilganidek, farzand ota-ona haqqini ado etishni istasa, umri davomida ularga mehribonlik qilishi, shafqatli bo'lishi, keksalik davrida ham hurmat-ehtiromlar ko'rsatishi lozim. Aksincha holatlar bo'ladigan bo'lsa, bunday kimsalarning Alloh g'azabiga uchrashi shubhasizdir: *“Ayting: “Kelinglar, Rabbingiz sizlarga harom qilgan narsalarni o'qib beray: - U zotga biror biror narsani sherik qilmangiz, ota-onaga yaxshilik qilingiz, bolalaringizni qashshoqlikdan (qo'rqib) o'ldirmangiz – Biz sizlarni ham, ularni ham rizqlantirurmiz-faxsh ishlarning oshkorasiga ham, pinhonasiga ham yaqinlashmangiz. Alloh taqiqlagan (jon)ni nohaq qatl qilmangiz! Aql yurgizishlaringiz uchun (Alloh)ga hukm qilgan shu(lar)dir(An'om, 8-pora, 151-oyat, 148 bet[2].* Haqiqiy mo'min va solih farzand, birinchi navbatda, o'z ota-onasini rozi qilishi va ulargagina ehson qilishi kerak. Ota-onaning tirikligida qilingan ehson qabul bo'lishi, ularning vafotidan so'ng esa bunday ehsonlarning ajri ularga yetib bormasligi, shuningdek, ota-onaning rizoligisiz qilingan ehson esa Alloh yo'lida qabul bo'lmasligi ham barchaga ma'lum: *“Sizdan (ey, Muhammad,) qanday ehson qilishni so'raydilar. Ayting:”Nimaniki xayr-ehson qilsangizlar, ota-ona, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar va musofirlarga qilingizlar! Har qanday qilgan ehsonlaringizni Alloh bilib turguvchidir”(1-pora, Baqara , 215-oyat, 33-bet)[2].*

Muqaddas kitobda nozil qilingan “Baqara”, “Niso”, “An'om”, “Nahl”, “Al-Isro”, “Ankabut”, “Rum”, “Luqmon”, “Ahkof”, “Muhammad” kabi suralarining oyatlarida ota-onaga yaxshilik qilishga da'vat etilgan o'rinlar uchraydi.

Xullas, har bir musulmon farzandi g'animat va g'amxo'r insonlari—otalariga yaxshi munosabatda bo'lishi, ularning shukrini qilishi kerak. Negaki, ota-ona—jannatga yo'l. Ularning duolari va rizoliklari bilan inson kamol topib boraveradi. Yer yuzida otasi yoki onasidan noligan, ularga shukr qilmagan nosolih farzandlar ham yo'q emas. Bundaylarning hisob-kitobi esa Tangri taoloning izmida: *“Biz insonga ota-onasini (rozi qilishni) amr etdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan (qornida) ko'tarib yurdi. Uni (ko'krakdan) ajratish (muddati) ikki yilda (bitar). (Biz insonga buyurdikki,) “Sen menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir!”(21-pora, Luqmon surasi, 14-oyat, 412-bet.)[2]*

Umuman olganda, kichik bir tadqiqot bilan Alloh nozil qilgan muqaddas “Qur'oni karim” oyatlarining asl mohiyati va zalvorli mas'uliyatlarini ochib berish juda mushkul ish. Uning ilohiy ta'limoti necha asrlardan buyon insoniyatni ezgulikka, poklikka, adolatli va shafqatli bo'lishga, o'zaro munosabatlarda hurmat-ehtiromlar bo'lishga undab kelmoqda. Xuddi shu qatorda Insoniyatning yaratuvchisi tomonidan yaratilgan Odam ato va uning timsolidagi barcha otalarga munosabat ham



ular qatoridan joy olgan. “Qur’oni karim”da ota atamasining qanday tushunchalarda kelishi va konsept darajasiga ko‘tarilishining guvohi bo‘ldik. Bir o‘rinda ota deganda barcha insonlarning pushtipanohi hisoblangan Odam ato haqida oyatlar bitilgan bo‘lsa, bir o‘rinda, payg‘ambarlar, ularning vazifalari, fazrandlik odobi, otalik burchlari haqidagi oyatlarni uchramiz. Yer yuzidan o‘tgan payg‘ambarlarimizning aksariyati farzand dog‘ini ko‘rgan, Allohning buyurganiga qanoat qilganliklari, ko‘p hollarda Alloh muhabbatining otalik tuyg‘usidan ustun kelishi holatlari ham kishini hidoyatga, sabr-toqatga undashi tabiiy. Bundan esa “Qur’oni karim”da ota haqiqiy ma’noda **Haqni sevuvchi zot** degan xulosa yasash ham mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Qur’on qissalari.55-bet.
2. Qur’oni karim. Abdulaziz Mansur tabdili. Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001-yil. Ibrohim halilullohning otasini da’vat qilishi haqida “Qur’oni karim”ning “Zuhuf” (26,280), “Tavba” (114), “An’om”(74), “Maryam”(41-48), Anbiyo”(25)suralarida keltirilgan.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildli, to‘rtinchi jild. – Toshkent: “O‘zME”, 2008.
4. Qur’on qissalari: Payg‘ambarlar qissalari / tarjimon Abduqahhor Shoshiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 248 b.
5. <https://www.google.com/search?q=qur%27on+qissalari+kitobi>

## **O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING QATAG‘ON QILINISHI**

### **Axrorova A.N. - Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekskursovodlar bo‘limi boshlig‘i**

**Annotatsiya.** O‘zbekistonda 1937-1938-yillarda qatag‘on bo‘roni avj olib, minglab vatandoshlarimiz manglayiga “xalq dushmani” tamg‘asi qo‘yilgach, ular bilan teng huquqli bo‘lgan xotin-qizlarimiz ham mislsiz jabr va zulmning begunoh qurbonlari bo‘ldilar. Hali xalqimizning aksar qismi o‘zbek xotin-qizlarining qatag‘on qurbonlari bo‘lganini mutlaqo bilmaydi. Ushbu maqola arxivdagi tadqiqot ishlari asosida yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** qatag‘onlik siyosati, 00486–sonli buyruq, hukm, qamoq, jinoyat kodeksi, IIXK, aksilinqilobiy faoliyat, oila, o‘zbek ayoli.

## **РЕПРЕССИИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Ахророва А.Н. - начальник отдела гидов  
Государственного музея памяти жертв репрессии**

**Аннотация.** После бури репрессий в Узбекистане в 1937-1938 годах, когда тысячи наших соотечественников были клеймены “врагами народа”, наши равноправные с ними женщины стали невинными жертвами беспримерного притеснения и жестокости. Большинство наших людей до сих пор не знает, что узбекские женщины являются жертвами репрессий. Эта статья основана на исследованиях в архивах.

**Ключевые слова:** политика репрессий, приказ № 00486, лишение свободы, приговор, уголовный кодекс, НКВД, контрреволюционная деятельность, семья, узбекская женщина.

## **REPRESSION OF WOMEN IN UZBEKISTAN.**

**Akhrorova A.N. - Head of the department of guides of the State Museum of Remembrance of Victims of Repression**

**Annotation.** After the storm of repression in Uzbekistan in 1937-1938, when thousands of our compatriots were branded “enemies of the people”, our women, who had equal rights with them, became innocent victims of unparalleled oppression and cruelty. Most of our people still do not know that Uzbek women are victims of repression. This article is based on research in the archives.

**Key words:** policy of repression, order No. 00486, imprisonment, sentence, criminal code, People's Commissariat of Internal Affairs, counter-revolutionary activity, family, Uzbek woman.

Sovet davlati 1937-1938-yillarda avj olgan “Katta qirg‘in” davrida minglab begunoh kishilarni – davlat va jamoat, fan va madaniyat arboblarni, sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport rahbarlarini qamoqqa oldi. Ayni paytda ularning katta bir qismi uy bekasi bo‘lgan xotinlarini ham hech qanday dalil-ashyosiz qamoqqa oldi. Bu insoniyat tarixida shu vaqtgacha ro‘y bermagan noqonuniy, g‘ayriinsoniy va g‘ayrimadaniy ish edi. Sovet davlatining jazolovchi organlaridagi xodimlar bu ayollardan erlariga qarshi ma‘lumotlar berishga, hattoki erlariga tuhmat qilishga majbur etdilar. Bunday ko‘rsatma berishdan bosh tortgan ayollarni qiynadilar.

O‘zbekistonda “Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish jamoatchilik komissiyasi”, “Shahidlar xotirasi” xayriya (hozir - jamoat) jamg‘armasi tashkil etilganidan so‘ng bir guruh jurnalist va olimlar 1937-1938-yillarda O‘zbekistonda qatag‘on qilingan xotin-qizlar taqdirini o‘rgana boshlaganlar. Ammo bu qutlug‘ ish keyinchalik davom ettirilmadi. Bu xayrli ishni davom ettirish, qatag‘on davrining ayol qurbonlari taqdirini o‘zbek xalqining mustabid sovet tuzumi davridagi tarixining muhim bir qismi sifatida o‘rganish taqozo etiladi.



Muammo jamoatchilik komissiyasi va “Shahidlar xotirasi” xayriya (jamoat) fondi a’zolari N.Karimov, X.Ahrorova, Sh.Turdiyev tomonidan arxiv materiallar asosida o’rganilgan va ular yozgan maqolalarning asosiy qismi “Qor qo’ynida lolalar” (2001 yil) maqolalar va ocherklar to’plamida nashr etilgan. Yozuvchi Y.Sulaymonning “Jalada qolgan gul” hujjatli asari (1986) esa qissa qahramoni - qatag’on qurboni Tojixon Shodieva bilan suhbatini asosida yozilgan.

Ushbu muammo O’zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixining muhim bir qismi sifatida, sovet davlati mustamlakachilik va qatag’onchilik siyosatining fojiali oqibatlarini ochib beruvchi tadqiqot sifatida o’rganilmagan. Tadqiqotda davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida xotin-qizlarning qatag’on qilinishi bilan bog’liq masalalar tadqiq qilinadi. Manglayiga “xalq dushmani”, “Vatan xoini rafiqasi” tamg’alari yopishtirilgan ma’rifatli va yuqori madaniyatli ayollarning jamiyatning “chinqindilari”ga aylanishi, ular bekasi bo’lgan oilalarning vayron etilishi jarayonlari faktlar asosida ko’rsatiladi.

O’zbekiston xalqi boshiga tushgan eng dahshatli sinovlardan biri – 1924-yildan 1953-yilgacha sobiq SSSR ga rahbarlik qilgan I.V.Stalin nomi bilan bog’liq bo’lgan qatag’on yillari bo’ldi. 1937–1938-yillarda soxta ayblovlar bilan O’zbekiston Respublikasining deyarli barcha hukumat rahbarlari yo’q qilingan. Fojea ko’lamini tasavvur etish uchun 1937–1953-yillarda O’zbekistonda qariyb 100 ming kishi qatag’on qilingani, ulardan 13 mingi otib tashlanganini eslash kifoyadir[4, 7-b.]. Sovet davlati o’zbek ayollari jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun turli chora va tadbirlarni amalga oshirdi, yuzlab ayollarning halok etilishiga qaramay, ularni ijtimoiy hayotga jalb etdi. Sovet davlati o’z maqsadi va rejalarini amalga oshirishda o’zbek ayollari mehnatidan ham foydalandi. Hali xalqimizning aksar qismi o’zbek xotin-qizlarining qatag’on qurbonlari bo’lganini mutlaqo bilmaydi. Arxivda olib borilgan tadqiqot ishlari shundan guvohlik beradiki, 1937-1938-yillarda qatag’on qilichining o’tkir tig’i nafaqat davlat, adabiyot, fan arboblari balki ularning ko’pchiligi uy bekasi bo’lgan ayollarni ham chetlab o’tmadi. Ular ham turmush o’rtoqlari singari beayb hibsga olindi. Farzandlari yetimxonaga topshirildi. Oila parokanda qilindi. Sovet davlatining qatag’on qiluvchi organlari bu ayollardan erlariga qarshi ma’lumotlar berishga, hattoki tuhmat qilishga majbur qildilar. Bunday ko’rgazmalarni bera olmagan ayollar turli-tuman qiynoqlarga duchor etilgan[3, 5-b.]. Bu tadbirlar 1937-yil 15-avgustdagi SSSR IIXK ning 00486-sonli “Vatan xoinlarining ayollari va farzandlarini qatag’on qilish tadbiri to’g’risida” buyrug’iga asosan amalga oshirildi. 00486 sonli buyruqda quyidagi bandlarni ko’rishimiz mumkin: hibsga olingan shaxsga tegishli bo’lgan barcha mol-mulk musodara qilinadi; Sudlanganlarning xotinlari ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, 5-8 yildan kam bo’lmagan muddatga lagerlarga ozodlikdan mahrum qilinadi; Mahkumlarning ijtimoiy xavfli bolalari, ularning yoshiga, xavflilik darajasiga va tuzatish

imkoniyatlariga qarab IIXK lagerlarida yoki axloq tuzatish koloniyalarida qamoqqa olinishi yoki Xalq Ta'limi Komissarligining maxsus rejimdagi bolalar uylariga joylashtirishlari mumkin. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, beayb bo'lgan ziyoli ajdodlarimiz bilan birgalikda ularning ayollari, voyaga yetgan farzandlari ham qatag'on qurbonlari bo'lishgan. Quyida ularning ba'zilar bilan tanishamiz:

Tojixon Ahmedova-Toshshaxarsovet raisi Abdulhay Tojiyevning ayoli. A.Tojiyev 1937-yil 3-avgust kuni "aksilinqilobiy faoliyatda" ayblanib, hibsga olindi va 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkentning Yunusobod tumanidagi qatlgohlarning birida otib tashlangan. Uning uy bekasi bo'lgan ayoli Tojixon Ahmedova ham 1937 yilda 2-oktyabrda qamoqqa olingan. 1945-yil 2-oktyabr kuni Tojixon Ahmedovanning qamoqqa olinganiga roppa-rosa 8 yil to'lganida u mehnat-tuzatuv lageridan ozod etilgan[3;21-b.].

Yer ishlari xalq komissari Rustam Islomov 1937-yil 25-sentyabr kuni qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktyabrda Toshkentda otib tashlandi. Boshqa yirik davlat va partiya arboblarning xotinlari qatori, Elmira Islomova ham ozodlikdan maxrum etildi. Bu mudhish voqea o'sha yilning 30-oktyabr kuni sodir bo'ldi. 1939-yil 10-fevral kuni u bilan bog'liq tergov ishi to'xtatilgan, deb topildi va Elmira Islomova ozodlikka chiqdi[3;56-b.].

Solixova Karima-Miyonbuzruk Solixovning ayoli. Miyonbuzruk Solixov-1891 yilda tug'ilgan. O'zbek, dotsent, Buxoro O'qituvchilar institutining tarix va adabiyot kafedrasida dotsenti. U JK 66-moddaning 1-qismi va 67-moddalari bilan aybdor deb topilgan. 1938-yil 5-oktyabrda otuvga hukm qilingan va shu kuni hukm ijro etilgan. Uning ayoli Solixova Karima-1893-yilda Toshkentda tug'ilgan. O'zbek. Uy bekasi. 1937-yil 23-oktyabrda qamoqqa olingan. Aybi isbotlanmaganligi uchun 1939-yil 5-fevralda ozod etilgan[2].

Ishoqova Maqsuda-O'zbekiston K(b)P MK kadrlar bo'limi boshlig'i. G'ani Ishoqov 1937-yil 29-sentyabrda qamoqqa olingan. JK ning 60, 66, 67-moddalari bilan aybdor deb topilgan. Isxoqova Maqsuda-1910-yilda Toshkentda tug'ilgan. O'zbek, uy bekasi.1937-yil 2-oktyabrda qamoqqa olingan. 1939-yilda aybi isbotlanmaganligi uchun ozod etilgan[1].

Yuqoridagilardan shuni ko'rish mumkinki, Stalinning qatag'on tig'i nafaqat o'zbek ziyolilari, jamoat va davlat arboblari, balki ularning ayollari va farzandlarini ham chetlab o'tmagan. Bu ayollarning nomlari turmush o'rtoqlari qatorida tarix sahifalaridan munosib o'rin egallab, xalqqa yetkazilishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi arxivi. II-7455.
2. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi arxivi. II-8089.
3. Qor qo'ynida lolalar. "Akademiya" nashriyoti. 2001 yil.

4. Stalin davri qatag‘onining Toshkentdagi shohidlari: arxitektura va odamlar. (yolko‘rsatgich). T; ”Fan va texnologiya” – 2012 yil.

5. <https://www.google.com/search?q=qatag%27on+qurbonlari+kimlar>

## **YESENIN SHE’RIYATIDAN O‘ZBEK TILIGA ILK TARJIMALAR TARIXI, AHAMIYATI VA POETIKASI**

**Xudoyberdiyeva D.M. – Samarqand davlat chet tillar instituti katta  
o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus shoiri Sergey Yesenin she’riyatidan o‘zbek tiliga qilingan ilk tarjimalar tarixi, ahamiyati va badiiyati tahlil qilingan. Xususan, Erkin Vohidov tarjimasidagi she’rlar originali bilan taqqoslanib, Yesenin she’riyatidagi motivlarning o‘zbek tilidagi muqobillarini topishdagi tarjimon mahorati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yesenin she’riyati, sharqona motiv, retseptsiya, adabiy tarjima, reministsentsiya, adabiy ta’sir.

## **ИСТОРИЯ, ЗНАЧЕНИЕ И ПОЭТИКА ПЕРВЫХ ПЕРЕВОДОВ ПОЭЗИИ ЕСЕНИНА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК**

**Худойбердиева Д.М. - старший преподаватель Самаркандского  
государственного института иностранных языков**

**Аннотация.** В статье исследуются история, значение и поэтика первых переводов стихов русского поэта Сергея Есенина на узбекский язык. В частности, сравнивая переводы Эркина Вахидова с оригиналом, выявляется мастерство переводчика находить узбекские альтернативы мотивам в стихах С.Есенина.

**Ключевые слова:** поэзия Есенина, восточный мотив, рецепция, художественный перевод, реминисценция, литературное влияние.

## **HISTORY, IMPORTANCE AND POETICS OF THE FIRST TRANSLATIONS OF ESENIN'S POETRY INTO THE UZBEK LANGUAGE**

**Khudoyberdieva D.M. - Senior Lecturer at the Samarkand State  
Institute of Foreign Languages**

**Annotation.** This article examines the history, significance and poetics of the first translations from the poetry of Russian poet Sergei Esenin into Uzbek. In

particular, comparing the translations of Erkin Vakhidov with the original, the translator's skill in finding Uzbek alternatives to motives in the poems of S. Yesenin is revealed.

**Key words:** Esenin's poetry, oriental motif, reception, literary translation, reminiscence, literary influence.

Hassos rus shoiri Sergey Yesenin she'rlari ilk marta O'zbekistonga bundan bir asr avval kirib keldi. Uning 1921-yil Toshkent va Samarqandga qilgan safari bir qancha tafsilotlarni o'z ichiga olishi yeseninshunoslar tomonidan ko'p marta e'tirof etilgan. Eng muhimi, adabiyotshunoslarning deyarli barchasi buyuk rus shoiri Turkistonda o'tkazgan bu yigirma kun uning hayoti va ijodida ulkan rol o'ynaganiga shubha yo'qligini alohida ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, agar Sergey Yesenin Toshkent va Samarqandga kelmaganida, u o'zining eng mashhur asariga aylangan "Fors taronalari"ni yozmagan bo'lar edi. Chunki bunday she'rlarni o'ylab topib bo'lmaydi – ularni yozish uchun faqatgina muayyan muhitdagi milliy koloritni his qilish, u yerda yashovchi xalqlar adabiyoti, urf-odat va qadriyatlariga biroz "sho'ng'ish" zarur bo'ladi.

Sergey Yesenin juda tez mashhurlikka erishdi: Rossiyada uning ismi 1912-1913-yillarda tanilgan bo'lsa, besh yildan so'ng rus shoiri haqida xorijda ham gapira boshladilar. 1921-yildan e'tiboran esa "Yevropa mamlakatlari, Amerika, Yaponiya va Xitoyda shoir asarlarining tarjimalari va unga bag'ishlangan maqolalar paydo bo'la boshladi"[7;90]. Yesenin she'riyatining xorijda o'zlashtirilishiga sabab sifatida "bu paytga kelib uning turli adabiy oqim va yo'nalishlar vakillari tiliga tusha boshlagani hamda she'rlarining maktab dasturlariga kiritilishi" ko'rsatiladi.

O'zga millatlar tomonidan Yesenin merosining qabul qilinishiga shoir hayotligida unga turli-tuman munosabatda bo'lgan adabiy tanqid ham katta hissa qo'shdi. Yesenin lirikasining rus adabiyoti tarixidagi ob'ektiv badiiy ahamiyatini aniqlash va anglashga qaratilgan adabiy chiqishlar murakkab, ziddiyatli va ba'zan bir-biriga qarama-qarshi tarzda rivojlandi. Tadqiqotchi S. A. Bubnovning fikricha, "shoir ifodalayotgan tuyg'ularning hayratlanarli darajada ko'p ma'noliligi uning ijodi xususida turfa xil, gohida bir-biriga butunlay teskari baho berilishiga olib keldi"[1;6]. Natijada, Yesenin haqidagi bahs-munozaralar Rossiya sarhadlaridan oshib, bu "o'ynoqi va asov she'riyatga" o'zga yurtlardagi kitobxonlarning ham qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi.

Adabiyot olamida she'r yozishdan tashqari yana bir muhim ish borki, u ham bo'lsa, tarjimadir. A.Oripov she'riyatni "Ehtiyoj farzandi" deya ta'riflaganidek, tarjimini ham ma'lum bir istak va ehtiyojlar talabi desak, katta xato qilmagan bo'lamiz. "Qalbi davr bilan hamnafas urib turgan, davrga kerakli so'zni aytmoqchi bo'lgan ijodkorning tarjimalari ham, albatta, "Ehtiyoj farzandi" yanglig'

tug‘iladi[3;177]”. Biroq tarjimada ham tarjima bor. Tarjima bor – asliyatning “panjasiga panja uradi”, tarjima bor – asliyatning mohiyatini to‘la yetkazib berolmaydi[8;335]. Darhaqiqat, tarjima og‘ir yumush. Bu haqda E.Vohidov yozadi:

Oy o‘rtanar, ko‘zlarida yosh,  
Ko‘ksi dog‘u yuragi qiyma:  
Der: “Ey falak, men edim quyosh,  
Nega meni qilding tarjima”.

Tarjima asarlar mohiyatini juda teran ochib beradigan bu to‘rtlikda bir paytlar quyosh bo‘lgan oy tarjima qilingandan so‘ng shu ko‘yga tushganidan, ya‘ni kichrayib, nuri ozayganidan yozg‘irmoqda. Demak, har qanday asar tarjimadan so‘ng bir daraja quyiga qarab ketadi, degan xulosa yashiringan yuqoridagi to‘rt qator she‘rda. Darhaqiqat, ko‘pincha shunday bo‘ladi. Lekin o‘z ishining ustasi bo‘lgan haqiqiy tarjimon asliyatga muqobil tarjima ustida o‘ylaydi, izlanadi. Zero, tarjimadan keyin quyoshning quyosh, oyning oy bo‘lib qolishi eng mukammal tarjima natijasi hisoblanadi. Quyoshni oy darajasiga tushirgan va yoki, aksincha, oyni quyosh darajasiga ko‘tarib qo‘ygan tarjima ham mukammal sanalmasligi lozim. Chunki to‘g‘ri va baland tarjima asliyat ruhini saqlab qola olgan tarjimadir. Tarjimon asar ruhiga kira olib, asar mag‘zini “o‘ziniki”ga aylantirib olsagina uning o‘girmalari muvaffaqiyatga erishadi[8;366], o‘zga tilli xalqlar hayotida o‘z o‘rinini topib keta oladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, Yesenin she‘rlari ham ko‘plab xalqlar adabiyotiga dadil kirib bordi hamda o‘z o‘rnini topa oldi. Jumladan o‘zbek kitobxonlari ham Yesenin she‘rlarini sevib o‘qishadi, ardoqlashadi. Bunga sabab, albatta, birinchidan benihoya go‘zal tarjima bo‘lsa, ikkinchi tomondan Yesenin tilidagi turkona qochirma-qarashlar va soddalikdir.

O‘zbekistonlik she‘riyat ixlosmandlari o‘tgan asrning 60-yillari boshidayoq Yesenin she‘rlarini o‘z ona tilada ilk bor kitob holida o‘qiy boshladilar. Bu o‘sha davr adabiyoti uchun katta hodisa edi. Xususan, 1965-yilda shoirning o‘zbek tilidagi Erkin Vohidov tarjimasidagi she‘rlari mukammal to‘plam ko‘rinishida 10000 tirajda nashr etiladi. Ushbu nashrda shoirning o‘ndan ortiq she‘rlari, Fors taronalari turkumi, “Yigirma oltilar balladasi”, “Ulug‘ jang qissasi” hamda “Anna Snegina” dostoni o‘rin olgan. Xususan, Yesenin ijodining ko‘zgusi hioblanmish “Bu dunyoda men bir yo‘lovchi”, “Ona ibodati”, “It haqida doston”, “Ayolga maktub”, “Xayr endi, xayr do‘stginam”, “Tongda meni uyg‘ot ertaroq”, “Go‘daklikdan ma‘lum har odam” kabi she‘rlari ilk bor ushbu to‘plamda jaranglaydi. Bu haqda tarjimonning o‘zi shunday yozadi: “Hurmatli kitobxon! Qo‘lingizdagi bu kitobcha Sergey Yesenin she‘rlarini tarjima qilish yo‘lidagi ilk urinishdir. Buni tarjimonning shoirga bo‘lgan ulkan muhabbati ifodasigina deb, bilgaysiz”[4;4].

Ushbu tarjimalar, xususan, “Go‘daklikdan ma‘lum har odam” deb boshlanuvchi she‘r tarjimasini haqida mutarjim bilan suhbatini shoir Usmon Azim



shunday eslaydi: “Shu she’rlar juda qiziq deydi Erkin aka, nega, desam, deyarli kitobga qaramay tarjima qilganman, deb javob berdilar”. Tan olish joizki, tarjima haqiqatda nafis chiqqan:

Все живое особой метой  
Отмечается с ранних пор  
Если не был бы я поэтом  
То, наверно, был мошенник и вор...

Tarjimada esa

Go‘daklikdan ma’lum har odam,  
Bola boshdan degan gap to‘g‘ri.  
Mobodo men shoir bo‘lmasam,  
Bo‘lar edim bezori, o‘g‘ri[4;15].

Yesenin tarjimalarining yuqoridagi singari originaldagiday jaranglashiga nimalar sabab bo‘lganini Erkin Vohidovning beozor iqrorida anglash mumkin: “Yeseninga xuddi o‘z o‘rtog‘imdek, goho ko‘chada sho‘xlik qilib yuruvchi o‘spirindek... qattiq bog‘lanib qoldim. Ana shu mehr tufayli tarjimaga o‘tirdim. Uni tarjima qilishga meni hech kim undagani yo‘q edi”[2;172].

Bu kabi she’rlarning ta’sirini yurakdan his qilish uchun XX asrning ushbu tarjimalari paydo bo‘lgan ma’lum bir davrini qisman bo‘lsa ham tasavvur qila olishimiz kerak bo‘ladi. 1937-yilgi va 1950-yillar boshidagi qatag‘on... Urush va undan keyingi og‘ir yillar... Shaxsga sig‘inish... Sho‘ro siyosati va adabiyotidagi partiyaviylik... Bularning hammasi 50-yillarning ikkinchi yarmi va 60-yillar adabiy muhitida biroz erkinlik bo‘lishiga qaramay, adabiyot zaminiga ehtiyotkorlik urug‘ini sepib ulgurgan edi. Qolaversa, siyosat qobig‘ini yorib chiqib yurakni haqiqat nuriga tuta oladigan erkinlik – bu faqat orzu-xayol. Shunday muhitda adabiyot qalb go‘zalliklarini, orzu-istaklarini, yurak va jamiyat, inson va zamon o‘rtasidagi ziddiyatlarni boricha ochib tashlay oladigan chinakam ko‘ngil adabiyotiga aylana olmasligi tabiiy. Qalblar esa haqiqiy she’riyatga samimiy muhabbatga go‘zal his-tuyg‘ularga tashna... Mana shunday paytda kutilmaganda Yesenin she’rlari o‘zbek tilida jaranglay boshladi:

“Xurosonda bir darvoza bor,

Ostonasi gulga ko‘milgan.

Unda yashar bir pariruxsor”

Yoki

“Shahinam, o mening Shahinam,

Bilsang, shimol Vatandir menga.

Dalalardan so‘ylaymi senga.”

Yoxud

“Kel, jonganam, qo‘shiq, ayt, Xayyom –

Kuylab o‘tgan qo‘shiqlardan ayt  
Bog‘da gullar javlon urgan payt.”

Chunonchi,

“Nechuk ma’yus taratar ziyo

Oy Xuroson chamanlariga.”

Shuningdek,

“Oqshom menga hijob ostidan

Dilbar ko‘zin suzmadi bekor.”

Ko‘rinadiki, “Fors taronalari” turkumi Yesenin tarjimalarining ilk o‘zbek tiliga tarjimalaridayoq ko‘zga tashlanadi. Bu haqda tarjimon quyidagicha xotirlaydi: “Esimda ikkinchi kurs studenti edim, paxta terimiga hasharga chiqqan kunlarimiz ishdan so‘ng yotoqda, xira chiroq nurida yarim kechagacha yeseninshunoslik qilar edik. O‘shanda “Eron taronalari”ning bir qancha she‘rlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi”[2;50].

“Fors taronalari” to‘plamining go‘zal she‘rlaridan biri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Xurosonda bir darvoza bor,

Ostonasi gulga ko‘milgan.

Unda yashar bir pariruxsor,

Xurosonda bir darvoza bor,

Hayhot, uni ocholmadim man[5,20].

“O‘zbek adabiyotida bu darvoza ochilganiga salkam oltmish yil bo‘lyapti. Yuqorida sanab o‘tilgan she‘rlarga nazar solar ekanmiz, Yesenin she‘rlari o‘zbek tilida o‘z tarjimonini topganiga ishonch hosil qilamiz. Keyinchalik, Erkin Vohidov tarjimalari asosida 1971-yilda “Zamin darg‘asi” deb nomlangan she‘r va dostonlardan iborat 184 sahifali to‘plam G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida 35000 nusxada chop etiladi. Ushbu to‘plamda “Zamin darg‘asi”, “Singlimga xat”, “Hayot yo‘lim”, “Xotira” singari she‘rlar hamda “O‘ttiz oltilar dostoni” dostoni ilk bor o‘zbek tilida yangradi. “Zamin darg‘asi” – muqovasi yarim qayinzor, yarim zangor osmonni eslatuvchi kaftdekkina kitob... Ustoz Erkin Vohidov bu tarjimalarga tom ma‘noda butun iste‘dodi yoshligiyu mehr-muhabbatini, bor mahorati bilan haroratini sarflagani har bir she‘rdan ufurib turadi. O‘zbek o‘quvchilari bu she‘rlarni asliyatda ham o‘qishi mumkin, biroq ularda o‘zbek tilidagi tarjimalardan bahramand bo‘lgani o‘zbekona zarofat bilan lazzatni topish dargumon.

Hozirgi kunda Yeseninning kitoblari o‘zining yurtida uch ming, nari borsa besh ming nusxada chop etilmoqda. Tasavvur qiling, “Zamin darg‘asi” o‘sha paytda (XX asrning 1971 yili) bizda o‘ttiz besh ming nusxada chop etilgan. Shuncha ommaviy adadga qaramasdan, kitob qisqa muddat ichida sotib bo‘lindi. Uni so‘rab yurganlar hozir ham uchrab turadi. Butun bir shoirlar avlodini tarbiyalagan, yoshu

o‘rta yoshli ijodkorlarning nazmiy did va saviyasini shakllantirishda chinakam adabiy voqea bo‘lgan bunday kitoblarning sehri ham, qiymati ham yillar o‘tgani sayin kuchayib, ortib boraveradi. Rauf Parfidan tortib Muhammad Yusufgacha Tilak Jo‘ra, Muhammad Rahmon, Usmon Azimdan to bugungi she‘riyatimizning navqiron vakili Shodmonqul Salomgacha – ko‘pchiligimiz bu “oltinsoch, moviy ko‘z o‘ris” shoiri qoldirib ketgan, o‘zbek shoiri o‘zbekona mirishkorlik bilan parvarish etgan qayinzor bog‘ning hayotbaxsh havolaridan bahramand bo‘lganmiz[5;169].

Tarjimon o‘zbek o‘quvchisining mentaliteti, urf-odatları va asrlar davomida shakllangan diniy e‘tiqodlarini hisobga olgan holda, Yesenin lirikasida uchraydigan slavyan adabiyotiga xos xislatlarni o‘zbekona usulda yetkazishga, dialektizm va biblizmlarni o‘girish uchun zarur bo‘lgan so‘zlarning o‘zbek tilidagi eng go‘zal muqobillarini topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu, masalan, mashhur “Shahinam, o mani Shahinam!” she‘rining tarjimasida o‘z aksini topdi. Buning uchun tarjimon rus tilidagi matnda uchraydigan Shagane ismini egalik qo‘shimchasi qo‘shgan holda Shahinam holida qo‘llaydiki, natijada Shahinam ismi o‘zbek kitobxoniga qadrdonroq, ohangdorroq va tushunarliroq eshitiladi.

Keyinchalik, 1981-yilda Yeseninning “Lirika: she‘rlar, dostonlar” to‘ldirilgan va qayta ishlangan she‘rlar to‘plami G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop etiladi. To‘plamga kiritilgan she‘rlar yozilgan davriga qarab to‘rt bo‘limga ajratilgan:

1. She‘rlar (1917-1924)
2. Fors taronalari (1924-1925)
3. 1925-yil she‘rlari
4. Dostonlar (1925)

Ushbu to‘plamda shuningdek, “Qora odam” dostonining ilk tarjimasi ham beriladi. Dostonda shoir qora rangni she‘rning oxirigacha quyuqlashtirib borar ekan, go‘yo tirik odamni emas, qattol tuzumning qop-qora o‘pjonini, qora turmush bilan qorong‘u tiyra ro‘zg‘orini, qarolashib borayotgan hayoti-yu qora o‘limni nazarda tutayotgandek xulosa qoldiradi.

To‘plamda Yesenin, shuningdek, fors shoirlarining ismlari va eron, iroq, turk toponimlaridan tashqari, Qur‘oni Karim, Muhammad (SAV), parilar haqida so‘z yuritadi, qizil choy, choyxona va choyxonachi, hijob, xina, cholvor kabi mahalliy xalq kundalik turmushiga oid buyumlarni eslaydi. Bularning barchasi Hofiz Sheroziy she‘riyatidagi motivlarni esga solishi bilan reministsentsiya hodisasiga misol bo‘la oladi. Shu o‘rinda, tarjimon “chadra” so‘zini “hijob” deya o‘giradiki, bu Yesenin istaganidek o‘sha davr va makon koloritini o‘zbek kitobxoniga yaqinroqdan yetkazadi:

Oy nuriga g‘arq bo‘lgan Sheroz,  
Parvonadek uchar yulduzlar.

Menga yoqmas, o‘rtanaman, rost,  
Hijob tutsa dilrabo yuzlar,  
Oy nuriga ko‘milgan Sheroz.

Qizlar yuzni saqlar hijobda,  
Issiqdanmi bo‘lib asramoq,  
Yo kuymasin derlar oftobda.  
Sevsin uchun yigitlar ko‘proq  
Qizlar yuzni saqlar hijobda.

Hijob bilan do‘st bo‘lma gulro‘,  
Yoz so‘zimni yoding lavhiga,  
Umr o‘zi g‘oyat qisqa-ku,  
To‘ymoq qiyin tole shavqiga,  
Yoz so‘zimni yoding lavhiga.

Tarjimashunoslik tarixidan shu narsa ma‘lumki, bir tildan ikkinchi tilga badiiy tarjima shunchaki til bilgan har qanday har qanday odamning kundalik ishi emasligi, balki u sof ijodiy-badiiy jarayon, ya‘ni san‘at yaratish jarayoni ekanligi doimo nazariy qoida bo‘lib kelgan.

Badiiy tarjimaning mukammal namunasini yaratish esa tarjimondan qattiq izlanishni talab etadi. Mutarjim shoir shaxsiyati, u yashagan davrni to‘liq o‘rganibgina qolmasdan, uning o‘zligini to‘la anglab yetgan taqdirdagina, she‘rda ifodalangan mazmuni inkishof eta oladi.

Bizningcha, Yesenin she‘rlari dastlabki tarjimalaridanoq o‘zbek tilida bor bo‘yi-basti, go‘zalligi-yu samimiyliги bilan sof badiiyat sifatida namoyon bo‘lgan. Bunda hassos shoir va mohir tarjimon Erkin Vohidov mahoratining o‘rni beqiyosdir. Bu tarjimalar biz avlodlar uchun beqiyos tuhfadir.

### **Adabiyotlar**

1. Бубнов С.А. Поэзия С.А. Есенина в восприятии литературной критики 1915–1925 годов. - Орел, 2005. С. 6.
2. Вохидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент, 1987.
3. Jahon adabiyoti jurnali, 2012. №10.
4. Sergey Yesenin. Tanlangan she‘rlar. “Toshkent” badiiy adabiy nashriyoti, 1965.
5. Sergey Yesenin. Fors taronalari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.
6. Sirojiddin Sayyid. Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan yoxud Xurosonda bir darvoza bor. Jahon adabiyoti, №10, 2012. 169-b.

7. Шубникова-Гусева Н.И. «В Волшебном саду русской поэзии»: к истории восприятия творчества Есенина в Германии // Есенинский вестник. 2013. Вып. № 3 (8). С. 90.

Hamdamov U, Qosimov A. Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2007.

## **MILLIY TARBIYADA KASHTACHILIK SAN'ATINING O'RNI**

**Shomirzayev M.X. - Termiz davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori**

**Annotatsiya.** Maqolada kashtachilik san'atining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Kashta tikish qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi, bo'sh vaqtida ermak bo'lishi, insonni go'zal orzular olamiga olib kirishi mumkinligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** kashta, kasb, hunar, qiziqish, ta'lim, tarbiya, nafosat, ko'nikma, malaka.

## **РОЛЬ ИСКУССТВА ВЫШИВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ**

**Шомирзаев М.Х. – доцент, доктор педагогических наук Термезкого  
государственного университета**

**Аннотация.** В статье освещаются аспекты вышивки. Утверждается, что вышивка - это интересная и творческая работа, которая может принести миру много радости, веселья и азарта.

**Ключевые слова:** вышивка, профессия, интерес, образование, воспитание, азарт, навыки, квалификация.

## **THE ROLE OF THE ART OF EMBROIDERY IN THE NATIONAL EDUCATION**

**Shomirzayev M.X. - Associate Professor of Termez State University,  
doctor of pedagogical sciences**

**Annatation.** The article highlights aspects of embroidery. It is argued that embroidery is an interesting and creative work that can bring the world a lot of joy, fun and excitement.

**Key words:** embroidery, profession, profession, interest, education, upbringing, passion, skills, qualification.



Yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo'lib kelgan. Bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak – ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning nurafshon kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi” ekanligini ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat, qadim-qadimdan oila yoshlarni kasb-hunar tanlashda, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda, hayotga tayyorlashda maktab vazifasini o'tab kelgan. Shu jihatdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga, kasb-hunarga, qiziqishga alohida e'tibor berganlar. Demak, XXI asrda har bir ota-ona oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishlariga e'tibor berishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki bolada mehnatga munosabat, eng avvalo, oiladan boshlanadi.

Ma'lumki, davlat va jamiyatning qay darjada rivojlanganligi, kishilarning yashash va turmush darajasi bevosita shu davlatda mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Chunki qaysi davlatda ko'p va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilar ekan shu davlat rivojlanib boraveradi. Davlatning rivojlanishi esa bevosita aholining turmush tarzini yuksalishiga olib keladi.

Mustaqil Respublikamizning ravnaqi uchun mustaqil, ijodkor ishchi-xizmatchilar har qachongidan ham hozir zarur. Binobarin busiz hech qaysi davlatning, hech qaysi jamiyatning taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy ishlashga, ijodiy mehnatga o'rgatish, uni o'z zamonasining eng ilg'or bilimlari bilan qurollantirish hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari o'zlarining ilmiy-tarbiyaviy asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy meroslarida halol, yaratuvchan, ijodiy mehnatni, kasb-hunar egallashning muqaddasligi va zarurligini ta'kidlagan va ulug'lagan edilar. Jumladan, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Shayx Najmiddin Kubro, Burxoniddin Marg'inoniy, Mahmud Chag'miniy, Baxovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar o'z asarlarida ijodiy ishni, yaratuvchan mehnatni, kasb-hunarni kuylaganlar.

Shunday ekan, har bir farzand kelajakda quruvchi bo'ladimi, tikuvchi bo'ladimi, hunarmand bo'ladimi oila tarbiyasiga, uning mehnatsevarligiga bog'liq.

Shu jihatdan, qadimdan o'zbek oilasida farzand tarbiyasi, uning kelajakda qanday kishi bo'lib voyaga yetishi, avlodlar davomiyligini ta'minlashda unga qo'yiladigan talablar, tarbiya uzluksizligi va uzviyligi kabi psixologik-pedagogik jihatlariga katta e'tibor berilgan.

Albatta, unda farzandlarga kasb-hunar o'rgatishda oila tarbiyasi muhim hisoblangan. Shu jihatdan asrlar davomida farzand tarbiyasiga, uning axloqiy tomonlariga, kelajakda farzandning malakali kasb egasi bo'lib, hayotda halol va pok yashashi, mehnat qilish natijasida yuksak qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan.

Qadimda ota-onalar farzandlariga hunar o'rgatayotgan ustozni hurmat-ehtirom qilganlar. Ota-onalar va ustozlar o'rtasida munosabat madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Ota-onaning ustozga munosabatida unga mehr va muruvvat ko'rsatish, ustozning farzandiga bergan tanbehini to'g'ri tushunish, farzandining hunar o'rganishi uchun kerakli narsalarni yetkazib berish, ustozni rozi qilish kabi fazilatlar farzand tarbiyasida muhim omillardan hisoblangan. Shuningdek, ustozning ota-onaga nisbatan o'ziga xos munosabat mezonini bo'lgan. Ular shogirdiga hunar o'rgatish borasida zimmasiga olgan mas'uliyatli vazifasini bajarish, o'z va'dasining ustidan chiqish, ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq-odobi to'g'risida ochiq-oydin gapirish kabi o'ziga xos milliylik xususiyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, ustoz-shogird an'analari, ular o'rtasidagi axloq-odob mezonini, madaniyati yosh avlodni milliy xalq hunarmandchiligi kasbga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblangan.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xonadonida farzand tarbiyasining asosi oiladan boshlanadi. Ota-onaning jamiyatda qanday kasb-korga egaligi, mahalladagi obro'e'tibori tarbiyaning muhim omili sifatida farzandlarning dunyoqarashi, bilimi va xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish omillaridan biri – bu oila hisoblanadi.

Aksariyat hollarda farzandning kasbga bo'lgan qiziqishi o'z oilasida otabobolari, aka-opalari, qarindosh-urug'lari, ya'ni o'zidan kattalarga taqlid qilish asosida shakllanadi. Jamiyatda komil insonni shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim vazifasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning biron-bir hunar yoki kasbga bo'lgan qiziqishi, eng avvalo, oilada vujudga keladi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar, xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Oilada amalga oshadigan bu jarayon natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni pirovard natijada, o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kashta tikishni bilish orqali kiyimlarni yangilab olish, ko'pgina kerakli buyumlarni: salfetkalar, panno, fartuk, yostiq jildlarini, yaqin kishilarga sovg'alarni bezash va tayyorlash mumkin.

Kashta tikish qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi, bo'sh vaqtida ermak bo'lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Kashta tikish usullarini o'zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki kashtachilik sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab qiladi. Shu bois kashta tikuvchi chidamli bo'lishi lozim. Kerakli amaliy ko'nikma va malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi.

Kashta tikish san'atining ko'p asrlilik tarixi bo'lib, arxeologik topilmalarda yozilishicha, qadimdan uy-ro'zg'or buyumlari – sochiqlar, to'r hoshiya, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, peshbandlar, kashta tikish usullari, gullari, ranglarining mujassamlanishi avlodan-avlodga o'tib, takomillashib borgan. Sekin-asta yaxshi kashtalar tanlanib, milliy xususiyatlari bilan tavsifli, betakror kashta namunalari yaratilib, bosh kiyimlar va boshqa narsalarga kashtalar tikib bezatilgan.

Xalq ustalari kashta tikib bezagan buyumlar chiroyli gullari, ranglarining bir-biriga mosligi, to'la mutanosibli, bajarish usullarining professional aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum amaliy vazifasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko'p namunalari to'plangan, ayniqsa, XIX asr kashtalari yaxshi saqlanib, shu kunlargacha yetib kelgan. O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari. Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy universitetlarda e'tirof etilgan. Shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda, barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan.

XIV-XV asrlarga mansub miniaturalar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligiga yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan "Temur taxtda" miniaturasida chodirga ishlangan kashtan daraxtini aks ettirgan [1;37]. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro qilinishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazib, natijada gul kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qolingan. O'zbek kashtachiligi qo'shni

xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. Agar O'zbek kashtachilariga nazar solinsa, unda hind, xitoy, rus, afg'on, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachilarining usul va uslublarini uchratishimiz mumkin.

O'zbek kashtachilarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarini eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari – bo'lajak kelinchaklar seplari har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qaylik shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7-9 yoshdan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Etishib chiqqan kashtachi qizlar o'zlarining san'ati va tabiatiga ko'ra, go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Xalq amaliy san'ati, uning turlari va kashtachilik san'ati tarixini o'rgatish bolalar tarbiyasida muhim omillardan hisoblanadi. Chunki o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab – yashnagan amaliy san'at turlari bemislligi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, o'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan kashtachilik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, qandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan.

O'rta Osiyo kashtachilik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz matolarga bitilgan go'zallik hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan kashtalar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Kashta **“arabcha”** so'z bo'lib, **“tasvir”**, **“gul”** degan ma'noni bildirib, u qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezak. Badiiy kashtachilik ranglar uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'ati. Hunarmand usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Ota-bobolarimiz qadimdan matolarni nafis tasvirlar bilan bezar ekanlar, ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini tasvirlaganlar. Hunarmand otabobolarimiz inson ruhiyatini chuqur va har tomonlama o'rganib, ularni ajoyib kashta nigorlari bilan boyitganlar. Donishmand bobolar kashtalar bilan bezalgan uyda

kishilar xotirjam, osoyishtalik og‘ushida bo‘lishini, bunday muhitdan inson uzoq umr ko‘rishini asrlar davomida o‘z hayotiy tajribalari asosida isbotlab berganlar.

Xalq amaliy san‘atining qaysi bir turi bo‘lmasin, uning zaminida kashta elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi. Kashta kompozitsiyasining bezak elementlari tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va hayvonot dunyosini soddalashtirib tasvirlash bilan hosil qilinadi.

Har bir voha va shaharlarning kashta kompozitsiyalari o‘ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, Toshkent, Xorazm, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo kashtachilik maktablarining o‘z shakl va rang koloritlari mavjud. Mustaqil kompozitsiya tuzish jarayonida stilizatsiya orqali kashta elementlari o‘zaro biriktiriladi. Kashta bo‘laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e‘tibor beriladi. Gul, barg, novda, bofta va qo‘sh bandlik kashta elementlaridan kompozitsiya tuziladi.

“Odamzod bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma, malaka va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muloqati, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi, eng avvalo, uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi” [2;57].

Keyingi vaqtda axborot texnologiyalarining ta‘lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilinishi, ta‘lim mazmunini boyitishga, uni takomillashtirishga va o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirishda jadallashtirish, hamkorlik hamda yakka tartibda ta‘lim olish va majmualiy loyihalashtirish muammolarini yechishga qaratilgan. Bu esa barcha ta‘lim texnologiyalarni qamrab olgan va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishni taqozo qiladi.

O‘quvchilarning xalq milliy hunarmandchiligiga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda shu soha bo‘yicha o‘tkaziladigan turli ko‘rgazmalar, ko‘rik - tanlovlar va unda o‘zlari yaratgan turli mavzudagi ijodiy ishlari bilan muntazam ishtirok etishlari, ularning yuqori ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Ularning turli ko‘rgazma va tanlovlarda qatnashishlari bois ma‘naviy ozuqa oladilar hamda bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari uchun shu soha bo‘yicha maktab o‘quvchilariga xalq milliy hunarmandchiligi sirlarini o‘rgatishda kashtachilikdagi naqsh elementlari va bezak buyumlari turlari haqida ma‘lumot berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarda yoshlik chog‘idanoq milliy hunarmandchilik turlaridan biri bo‘lgan kashtachilik san‘atiga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish maqsadida dasturlar tuzish, mashg‘ulotlar o‘tkazish, kashtali rasmlar chizishga doir tarqatma va didaktik materiallar tayyorlash maqsadga muvofiq. Xullas, o‘quvchilar kashtachilik san‘atiga oid tushunchalarga ega bo‘lishlari



va mashg'ulotlar jarayonida dastlabki ko'nikma va malakalari shakllanishi muhim hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –Toshkent: “Mehnat”, 1991. B.37
2. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –T.: Hashr-matbaa, 2021. -226 b.
3. Shomirzayev M.X. Milliy hunarmandchilikning shakllanishi va spektral-variativ rivojlanishida fanlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: Tafakkur, 2020. – 132 b.
4. Shomirzayev M.X. Kasbiy ta'lim: milliy kashtado'zlik // Pedagogika. – T. 2019. – 3-son. – B.122-129
5. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part. 93-99.
6. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part III. 129-138.
7. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor 5.366.-№ 02.-P. 212-223. ([www.usajournalshub.com/index.php/tajssel](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssel)).

## **BO'LAJAK MUHANDIS TAYYORGARLIGINING KASBIY KOMPETENTLIK SIFATI**

### **Avazov J.D. - I.Karimov nomidagi Texnika davlat universiteti Termiz filiali o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalarida “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini innovatsion o'qitish bilan bog'liq bo'lgan bo'lajak muhandisning intellektual qobiliyatlari, shuningdek, kasbiy kompetentligini faollashtirish hamda sifat-samaradorligini oshirishda yuzaga keluvchi ba'zi muammolarning yechimi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, o'qitish, ta'lim, tarbiya, bo'lajak, muhandis, kompyuter grafikasi, grafik tayyorgarlik, kasbiy, qobiliyat, kompetentlik, intellektual, integratsiyalashuv, innovatsion, ijodiy, cifat, samaradorlik.

## **КАЧЕСТВО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ**

**Avazov J.D. - Lecturer at the Termez branch of the State Technical University named after I. Karimov.**

**Аннотация.** В статье раскрыта сущность решения ряда задач повышения качества и эффективности профессиональной компетентности интеллектуальных способностей будущего инженера, связанных с инновационным преподаванием предмета “Инженерная и компьютерная графика” в высшей школе.

**Ключевые слова:** студент, преподавание, обучение, образование, перспектива, инженер, компьютерная графика, графическая подготовка, профессиональный, способности, компетентность, интеллектуальный, интеграционный, инновационный, творческий, качество, эффективность.

## **QUALITY OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TRAINING FUTURE ENGINEERS**

**Avazov J.D. - Teacher of Termez branch of I.Karimov State Technical University**

**Annotation.** The article describes the essence of the solution of some problems of improving the quality and efficiency of the professional competence of the intellectual abilities of the future engineer, associated with the innovative teaching of the subject “Engineering and Computer Graphics” in higher education.

**Key words:** student, teaching, learning, education, future, engineer, computer graphics, graphic preparation, professional, ability, competence, intellectual, integration, innovative, creative, quality, efficiency.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo’lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo’llashga ehtiyoj tug’ilmoqda. Xususan, uch bosqichda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko’zda tutilgan asosiy maqsadlardan yana biri bozor iqtisodiyotiga o’tish davriga moslasha oladigan, raqobatdosh, faol va ijodkor shaxslarni shakllantirishdan iborat. Binobarin, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil yil 6-noyabrida imzolangan “O‘zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6108 Farmonda ham “Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g’oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo’lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo’lishlari uchun zarur ko’nikma

va bilimlar bo‘lishini shakllantirish” mazkur sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu masala boshqa fanlar qatori texnologiya fanini o‘qitishda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa o‘qitish jarayonida ta’lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo‘llash orqali texnologiya fani mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish talab qilinadi. Shu sababli bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidagi asosiy dolzarb masala – ta’lim usullari va shakllarini yaxshi egallagan, ularni amalda qiynalmay qo‘llay oladigan malakali o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib qolmoqda. Chunki talabalarga ta’lim-tarbiya berish, ularni kasblarga yo‘naltirishda o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati alohida ahamiyatga egadir. Binobarin, o‘qituvchi olib boradigan ochiq muloqot tarzidagi mashg‘ulot jarayonini boshqa hech narsa bosa olmaydi. Shu sababli ham malakali yetuk o‘qituvchi kadrlar tayyorlash uchun, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatning barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun samarali texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyat turli xil maqsadlar uchun muhandis kadrlarni tayyorlash sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday sharoitlarda faoliyatning kasbiy va boshqa faoliyat sohalarida mutaxassislarni ijodiy shaxs sifatida shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Muhandisning malakasi yangi uskunalar yaratish, zamonaviy yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish, texnik obyektlarni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishni optimallashtirish muammolarini ijodiy hal etish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda bu ehtiyojlar bir qator holatlar bilan mustahkamlanadi. Insonlarning tez o‘zgaradigan sharoitlarda o‘z aqliy va kasbiy qobiliyatlarini qo‘llashga ko‘niktirish bilan bog‘liq muammolar majmui belgilangan. (Odamlarning intellektual va kasbiy qobiliyatlarini qo‘llash uchun tez o‘zgarib turadigan sharoitlarga moslashishi bilan bog‘liq muammolar majmui aniqlandi.) Jamiyat rivojlantirishning an’anaviy mexanizmlarini transformatsiyalash jarayoni davlatning ijtimoiy, madaniy, amaliy siyosatida ustuvor vazifalarga urg‘u berish o‘zgarganligi bilan bog‘liq masalalar doirasini kengaytiradi. Ushbu vaziyatlarga bog‘liq holda ta’lim sifati yetakchi pedagog-olimlarning va butun jamiyatning diqqat markazida turadi.

Yuzaga kelgan vaziyat ko‘p jihatdan mashinasozlik, energetika, ishlab chiqarish texnologiyasi, qurilish va boshqa sohalar uchun yuqori malakali, kompetentli mutaxassislarni tayyorlash masalasida yangicha talablarni qo‘ydi. Oliy ta’lim tizimining yaxlitligini ilmiy asoslash talab etiladi, o‘quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimallashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbi bo‘yicha kompetentligini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalarining muhimligi ortadi.

O'zgaruvchan jamiyat, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlarini sohasiga yangi talablarni ilgari suradi. Ushbu jarayonning asosiy sabablarini keltiramiz:

- Ta'lim o'zgaruvchan iqtisodiyot o'rtaga qo'yayotgan da'vatga javob bermaydi. Natijada, jamiyat ta'lim sifatidan qoniqmaydi;
- Ta'lim muassasalari va pedagoglarning mustaqilligi oshishi har doim ham ijobiy emas;
- Me'yoriy-huquqiy noaniqlik ko'pincha ta'lim sohasidagi munosabatlarni qarama-qarshi tartibga soladi;
- Qonunlar va qonunosti hujjatlar tez-tez o'zgarib turadi;
- Ko'pincha innovatsion yangiliklar ta'lim muassasalari faoliyatining natijalarini yaxshilamaydi, aksincha yomonlashtiradi.
- Keyingi yillarda mamlakatimizning integratsiya jarayonlarda faol ishtirok etishi, Boloniya jarayoniga qo'shib boshlanishi, sinov tariqasida kredit-modul tizimida barcha Respublika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining tashkil etilishi mutaxassislarni tayyorlash sifatini samarali va majburiy nazorat qilishni taqazo etadi. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi zarur.

- Bunga quyidagilar kiradi:
  - kadrlar iste'molchilaridan ma'lumotlar to'plash;
  - kadrlar iste'molchilarida buyurtmali shakllantirish;
  - ta'lim paradigmasini tanlash;
  - ta'lim natijalarini baholash parametrlarini tanlash;
- maqsadni oldindan aytish;

kutilayotgan natijalarni mavjudlari bilan solishtirish va boshqalar.

O'qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o'zgarishiga, muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyatini, texnologiyalarini o'quv faoliyatining tashkillashtirishning metodlari bilan transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi va mamlakatimizda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentlik faoliyatiga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvni bosqichma-bosqich tadbiriq etishni shakllantiradi. O'qitish jarayonida talabalarni bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentlik faoliyati asosini birlashtiradigan va tashkil etadigan narsalarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Jamiyatning bunday tartibi oliy o'quv yurtida o'qish davrida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlarni aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etdi. Oliy o'quv yurtlaridagi umummuhandislik tayyorgarligi ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ammo chizma geometriya, muhandislik grafikasi, loyihalash asoslari,

muhandislik va kompyuter grafikasi va boshqa geometrik-grafik innovatsion fanlarni o'rganish muammolari bo'lajak kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy fanlarni o'qitish bilan bog'liqlikda yetarlicha tahlil etilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zida o'quv jarayonining tashkiliy – pedagogik, metodik va texnologik asoslarni jamlagan grafik fanlarni o'zlashtirish bosqichida kasbga loyqlik darajasini baholashning miqdoriy va sifat mezonlari hali ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi fikrlar bizni bo'lajak muhandis tayyorgarligining kasbiy kompetentlik sifatiga talab yuqori bo'lgan sharoitda alohida dolzarblik kasb etadigan oliy o'quv yurtlari talabalari umummuhandislik-grafik tayyorgarligining tizimining samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undadi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarga ta'lim berishda "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanidan grafik tayyorgarligi, amaliy tajribasini umumlashtirishi va ilmiy-uslubiy ishlarni tahlili yuqori malakali bo'lajak mutaxassislarning grafik tayyorgarlik jarayoni quyidagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlashga imkon berdi.

Birinchiidan:

- so'nggi o'n yil ichida oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining muhandislik grafikasini tayyorgarligiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarining natijalari chop etilgan. Ammo ularda tanlangan kasbga yo'naltirilgan umummuhandislik grafikasi muammolari ko'rib chiqilmagan;

- muhandis ishi va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'limi sohasida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning yaxlit uslubiy nazariyasi mavjud emas;

- kurs ishlari va bitiruv ishlarini bajarishda grafik bilimlardan foydalanishning yuqori darajasini ta'minlash uchun "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'rganishda motivatsiyani oshirishga imkon beradigan tadqiqotlar mavjud emas;

- yosh mutaxassislarni amaliy, loyihaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish jarayonida grafik tayyorgarlik muammolari tahlil etilmagan.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, bo'lajak muhandislarning oliy ta'lim muassasasida o'qib yurgan davrida kasbiy kompetentligi darajasi, eng muhim xususiyati grafik tayyorgarlikning sifati hisoblanadi. Bu narsa zamonaviy talablarni hisobga olgan holda talabalar grafik faoliyati samaradorligini ta'minlashi mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'qitish jarayonini loyihalashda va amalga oshirishda ilgari bosqichda erishilgan narsani ta'limning yanada yuqori bosqichida hisobga olinishini nazarda tutadigan bilimlarning izchil bog'liqligi juda muhim ahamiyatga ega. Bu narsa ayniqsa, shunga bog'liq holda dolzarbki, talabalar tomonidan "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanlarida o'rganiladigan hamma mavzular juda bir-biriga bog'liq. Kursning ilgari mavzulari bo'yicha tayyorgarlikdagi kamchiliklari o'qitishning keyingi mavzularida darhol salbiy natijalarini ko'rsata boshlaydi.



Oliy ta'lim tizimida "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'qitish jarayonida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning yangi ilmiy asoslangan shakllarini ishlab chiqish o'qitish tizimidagi maqsad, tuzilish va bog'liqliklarni tahlil etishga asoslangan. So'nggi paytlarda quyidagi tendensiyalar paydo bo'lmoqda:

- o'quv axborot hajmining o'sishi;
- o'rganish uchun ajratilgan vaqtning sezilarli cheklanishi;
- ta'lim mazmunining murakkablashishi.

Grafikaga o'qitishning tuzilishida ta'lim darajasini va yangi metodik usullarni amalga oshirishning yaxlitligi "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani mutaxassislarini tayyorlashning umumiy tizimida integratsiyalashuviga imkon beradi. Talabalarning intellektual, ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish o'quv materiallarining uzluksizligi me'yorlari asosida o'qitishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Malaka talablari, o'quv rejalari, namunaviy va ishchi dasturlarni chuqur o'rganib chiqqandan so'ng, "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'qitishda mutaxassislik fanlari o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilib, shunday xulosaga keldik:

Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni jadal maqsadli tayyorlash biz foydalanadigan faqat an'anaviy o'quv rejalarga, ish rejalarga asoslana olmaydi;

Ta'limning kasbiy yo'nalganligidagi fanlararo bog'lanishi bir-biriga tizimli qilib tuzilmagan va mahalliyashtirilmagan;

Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari oldida turadigan kasbiy masalalarni hal qilishda egallagan bilimlarini kompleks ravishda qo'llashga o'rgatmaydi.

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanida deyarli barcha mavzular an'anaviy ravishda bir xil darajada bayon etiladi va talabalar o'qishni va keyingi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun aynan nimani puxta egallashi kerakligini bilishga qiynalishadi. Ko'rinib turibdiki, biz "bilimdon" mutaxassislarni tayyorlayapmiz, ammo "qobiliyatli" mutaxassislarni emas. Talabalar yakuniy nazoratlarga o'zlari uchun manfaat sifatida qaraydilar. Ularning ko'pchiligining ongida bilim, ko'nikma, malakalarni egallash emas, balki test va sinovlardan o'tish tushunchasi hukmron.

Ko'rsatib o'tilgan qarama-qarshiliklarga barham berish maqsadida mutaxassisliklar talabalari uchun "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani misolida o'quv jarayonini loyihalash, o'tkazish va tadqiq qilish tajribasini tahlil qilishga urinib ko'rdik. Bu jarayon mutaxassisning malakasini oshirishda chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasining ahamiyati va o'rnini yangi jihatlarini ochib berishi, grafik qismini o'z ichiga olgan ushbu fan va dasturning maxsus fanlarini o'zaro bog'lab o'rganishga imkon berib, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Umumtexnika fanlaridan biri sifatida "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani bo'lajak muhandis kadrlar tayyorlashda asosiy fan hisoblanadi. Uning har bir

bo'limida boshqa fanlar mazmuni bilan bog'liq va ularni o'rganishda ishtirok etadigan materiallar mavjud. Shuning uchun "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'rganish jarayonida ushbu fanni oliy o'quv yurtining yuqori kurslardagi fanlar va talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy aloqani ta'minlash juda muhimdir. Bunday muvofiqlashtirish "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanining ahamiyatini oshiradi, o'qishga va tanlangan kasbni o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi.

Tadqiqotimizda biz, turli xil fanlarni o'rta maktablarda, kasb-hunar maktablarida, turli yo'nalishlarga ega texnikum va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida turli fanlarni o'qitish uslubi yordamida to'plangan tajribaga suyardik. Shu bilan birga biz I.Rahmonov, Sh.A.Abdurahmonov, T.D.Azimov, N.J.Yodgorov, K.A.Zoyirov, R.Q.Ismatullayev, P.O.Odilov, M.X.Pirimjarov, I.T.Rahmonov, E.I.Ro'ziyev, va xorijlik olimlar: James D. Bethune, G.S Phull[8], H.S. Sandhu, R.B.Gupta, N.D.Bhattlarning ilmiy va metodik yo'nalishdagi ishlarida ma'lum darajada taqdim etilgan asarlarida aks etgan tajribaga murojaat qildik. T.V.Chemodanovning izlanishlarida "kasbiy grafik tayyorgarlik" tushunchasi juda qiziqarli va yetarli darajada ifodalangan bo'lib, bu o'quv kasbiy vazifalarni yassi va uch o'lchovli tasvirlarni geometrik modellashtirish usullaridan foydalangan holda o'quv va kasbiy muammolarni yechishga va bo'lajak ta'lim uchun yetarli darajada bajarishga imkon beradi. "Bu grafik siklning umummuhandislik fanlari sohasidagi geometrik, muhandislik-grafik, axborot-texnologik, uslubiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Biroq, ushbu ishlarda o'quv dasturining aralash fanlari bilan bog'liqligini hisobga olgan holda o'qitishning ilmiy va nazariy asoslari to'liq yoritilmagan, talabaning kasbiy qiziqishini faol ravishda oshiradigan materialni tanlash metodikasi keltirilmagan. "Muhandislik va kompyuter grafikasi"[7;72] fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishning mavjud shakllari o'rganiladigan mutaxassislikka urg'u bergan holda ushbu fanni o'qitishdagi muammolarni yechish bilan bog'liq potensial imkoniyatlariga to'la mos kelmaydi. Ko'rsatib o'tilgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning usullaridan biri bu o'qituvchilar va talabalarning imkoniyatlarini to'liq amalga oshiradigan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning yangi mazmun va shakllarini izlashdir.

Ko'rib chiqilayotgan muammo talabalarni ham umummuhandislik va bitiruvchi chiqaradigan kafedralarda o'quv faoliyatiga tayyorlash nuqtai nazaridan, ham o'quv jarayonining samaradorligini oshirish ham talabalarning aqliy faolligini oshirish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

Ikkinchidan:

Talabaning yetakchi faoliyati bu uning o'quv va kognitiv faoliyatidir, o'qituvchi uchun esa - o'quv tarbiyaviy ishdur. Bularning barchasi o'qituvchidan

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlikni didaktik qo'llab-quvvatlashda chuqur o'ylab, mulohaza yuritishni talab qiladi.

Bugungi kunda jamiyatni yanada demokratlashtirish, xususiyl oliyl ta'lim muassasalari faoliyatiga keng imkon berilgan sharoitida oliyl o'quv yurtlari faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish zarur. Bu eng avvalo, ta'limdagi bir xillik tamoyilining rad etilishida, turli tipdagi o'quv muassasalarini tashkil etishda, mazmuni oliyl ta'lim muassasasi ta'lim sohalariga mos keladigan yangi o'quv dasturlari va darsliklar yaratishda, o'qitish usullari va vositalarini qayta ko'rib chiqishda namoyon bo'lishi kerak.

Oliyl o'quv yurtlari rivojlanishining zamonaviyl yo'nalishlari oliyl o'quv yurtlarida ishlaydigan professor-o'qituvchilar oldiga bir qator yangi nazariyl va amaliyl muammolarni qo'ymoqda. Ulardan biri - bu ta'lim mazmuni, mohiyati va faoliyatida bilimlarning integratsiyasi va farqlanishining aksidir [6;128].

Bo'lajak muhandis – o'z kasbiyl faoliyatida turli fanlar bo'yicha bilimlar majmuasini qo'llashga ega bo'lishi kerak. Ilmiyl-pedagogik adabiyotlarda "fanlararo integratsiya" tushunchasi noaniq talqin etiladi, shunday qilib, uning har xil rollari va pedagogik kategoriya (toifa) larda orasidagi o'rni belgilanadi[8;64].

Biz uchun fanlararo integratsiya ta'lim dasturining barcha o'quv fanlarini keng ko'lamli o'zaro aloqasini yaratishda ta'lim maqsadi, tamoyillari va ma'nolari majmuini ifodalaydi. Shuning uchun, talabalar ta'limi birinchi bosqichidayoq kasbiyl kompetentlik rivojlana boshlaydi, katta kurs talabalariga har qanday murakkab kasbiyl vaziyatlarda tezkor optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan, ularda mustaqil ravishda muayyan harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishni fanlararo aloqalarni o'rnatish yordamida amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, oliyl ta'lim o'quv jarayonida oz samara beradigan o'qitish shakllaridan tezroq voz kechilsa, shunchalik tez va yaxshi natijaga erishladi. Bugungi kunda mavjud voqelikdan kelib chiqadigan tadqiqotlar zarur. Mutaxassislarni tayyorlashga ijobiyl ta'sir ko'rsatadigan vositalardan biri bu ularning kasbdan manfaatdorligini oshirishdir. O'z kasbiga bo'lgan bo'lgan qiziqishda, manfaatdorlikning ahamiyati katta.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. T., 2020 yil 6 noyabr PF-6108
2. Babanskiyl Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.: O'qituvchi, 1990. – B.32
3. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. М.: Педагогика, 1990. – С. 120.

4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – С.92
5. Ziyomammedov B. Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001. – B. 78
6. Golish L.V. Ta‘limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish. Metodik qo‘llanma. T.: O‘MKHTRI, 2001. – B.128
7. Чекмарев А.А. Начертательная геометрия и черчение: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003.- С.72
8. G.S Phull , H.S. Sandhu. Schools for the 21 st Century. - San Francisco, 1990. – P.64

### **“CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK”DA O‘QUVCHILARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Yoqubov A.F. - Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Maqolada “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”da o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari o‘rganilgan. Zero, yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi har doim eng muhim vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Vatanparvarlik tarbiyasi deganda o‘quvchilar o‘z vataniga bo‘lgan hurmatini, uni himoya qilishga doimiy tayyorgarlikni bosqichma-bosqich shakllantirishni tushunmoq kerak bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, sog‘lom, jasur, tashabbuskor, intizomli, bilimdon.

### **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА В «ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ»**

**Якубов А.Ф.- базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье исследуются дидактические возможности воспитания школьников в духе военного патриотизма в системе «Допризывная начальная подготовка». Ведь патриотическое воспитание подрастающего поколения всегда было одной из важнейших задач. Патриотическое воспитание - это постепенное формирование у учащихся уважения к своей Родине и постоянной готовности ее защищать.

**Ключевые слова:** предварительная подготовка, здоровый, смелый, инициативный, дисциплинированный, знающий.

## **DIDACTICAL OPPORTUNITIES FOR TRAINING PUPILS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN "PRESCRIBED PRIMARY TRAINING"**

**Yoqubov A.F.** – PhD Student at Tashkent State Pedagogical University

**Annotation:** The article examines the didactic possibilities of educating schoolchildren in the spirit of military patriotism in the "Pre-conscription primary training" system. After all, the patriotic education of the younger generation has always been one of the most important tasks. Patriotic education is the gradual formation of students' respect for their homeland and a constant readiness to defend it.

**Key words:** Pre-Conscription preparation, healthy, courageous, proactive, disciplined, knowledgeable.

Jamiyat bugungi kunda yangi avlodni tarbiyalash va o'qitish sohasida eng jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Jamiyatga sog'lom, jasur, tashabbuskor, intizomli, bilimli, ishtiyoqli, uning manfaatlari uchun hizmat qilishga va kerak bo'lsa uning himoyasi uchun kurashishga tayyor o'quvchi-inson kerak. Rivojlanayotgan mamlakatimiz maktablarining asosiy vazifalardan biri bu ularni tarbiyalashdir. Tarbiya jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bu vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ushbu komponent mavjud bo'lmagan haqiqiy barkamol shaxsni tarbiyalash haqida gapirish mumkin emas[1].

O'quvchilarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatga tayyorlash davlat ahamiyatiga ega vazifa bo'lib uni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ahamiyati kattadir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan va harbiy xizmatdan zahiraga chiqarilgan ofitser-o'qituvchilar tomonidan majburiy o'qitilishi shart bo'lgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'quvchilarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini singdirishdagi imkoniyatlarini haqida to'xtalmaslikning iloji yo'qdir.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida xalqaro munosabatlarga kirishishda o'z fuqarolarining hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish prinsipi asosida tinchlik demokratik tamoyillarga amal qilgan holda faol diplomatik aloqalarni o'rnatmoqda. Mamlakatimizni o'z ta'sir doirasiga jalb qilmoqchi bo'lgan atrofdagi, notinch dunyodagi "do'stlar" o'zlariga ma'qul bo'lgan har qanday usullardan, jumladan, harbiy usullardan foydalanmaydi deb kafolat bera



olmaymiz. Shunday ekan, mustaqilligimiz suverenitetini ta'minlashga qodir bo'lgan harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan o'quvchilar milliy armiyaning suyanchig'i sanaladi.

Mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori bilan qabul qilingan "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"da milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zurligi, harbiy ximat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani singdirish borasidagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlab borishlik ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son Farmoniga asosan 2017/2018-o'quv yilidan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari uchun "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani joriy etildi.

Ta'lim muassasasi o'quvchilari uchun ChQBT faniga jami 68 o'quv soati ajratilgan holda mashg'ulotlar har haftada bir soatdan o'tkaziladi. O'quvchilarining o'quv mashg'ulotlari vaqtida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari harbiy ish asoslarini o'rganish to'garaklari, sportning harbiy-amaliy turlari bo'yicha seksiyalar va harbiy-sport musobaqalari davomida mustahkamlanib boriladi. ChQBT fani o'g'il bolalar bilan, fuqaro muhofazasi bo'limiga doir mashg'ulotlar o'g'il bolalar va qizlar bilan birgalikda, tibbiy bilim asoslari bo'yicha mashg'ulotlar esa faqat qizlar bilan tashkil etiladi. ChQBTning yakuniy bosqichida fan uchun ajratilgan vaqt hisobidan bitiruvchi kurs yoki sinf o'g'il bolalari bilan bir kunlik o'quv-dala mashg'ulotlari o'tkaziladi. O'quvchilarining ushbu fan bo'limlariga oid nazorat me'yorlarini bajarish bo'yicha ko'nikmalari sinovdan o'tkaziladi. Shuningdek, nazorat me'yorlarini tegishli ta'lim muassasasiga birlashtirilgan harbiy qism va sport tashkilotlarining o'quv-moddiy bazalaridan foydalangan holda ham tashkil etilishi mumkin.

Yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ChQBT fani oldiga bir qancha muhim hal etilishi kerak bo'lgan vazifalarni qo'ymoqda:

✚ o'quvchilarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekani chuqur singdirish;

✚ qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

✚ milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

✚ yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Qo'yilgan vazifalar asosida o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyatini oshiradi, chunki aynan shu narsa Vatanning mahoratli va kuchli himoyachilarini tayyorlashga katta hissa qo'shishi kerak bo'lsa ayrim hollarda esa hal qiluvchi sifatga aylantira oladi.


So'nggi vaqtlarda ijtimoiy hayotda yoshlarimiz ayniqsa maktablarning yuqori sinf o'quvchilari orasida jamiyat, davlat va Vatan oldidagi fuqarolik mas'uliyati biroz pasayganini ko'rishimiz mumkin bo'ldi. Bunday holatlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar, ayniqsa chaqiruvga qadar bo'lgan shaxslar bilan faoliyatning samarasi yetarli holda tashkil etilishda sustkashlikka yo'l qo'yilgan deb baholaymiz. Jumladan, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan, bo'sh vaqtlarida vaqtni bekorga sarflashga kezi kelsa jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan o'quvchilarga guvoh bo'lmoqdamiz. To'g'ri, o'tgan so'nggi yillar davomida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida sodir etilgan jinoyatchilikning koeffitsienti tahlil qilinganda 2016-yilda har 10 ming nafar o'quvchidan 0,9 nafari jinoyat sodir etgan, 2017-yilda ushbu ko'rsatgich 0,8 o'quvchi, 2018-yilga kelib 0,8 o'quvchini tashkil etgan, 2019-yilda 0,7 o'quvchiga kamayganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi[2].

ChQBT fanini o'qitish orqali o'quvchilarda harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz amal qilishni, qalbida Vatanga sodiqlik, yurt tarixiga va xalqimizning ezgu an'alariga hurmat bilan qarash tuyg'ularini shakllantirish, ular o'rtasida yurt an'alarini targ'ib qilish, harbiy xizmatga hurmat bilan qarash, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, Vatanga qasamyod va umumqo'shin nizomlarida bayon etilgan talablar ijrosiga mas'uliyat bilan yondashish fazilatlarini, jasurlik, tashabbuskorlik, intizomlilik va Vatan himoyasiga shaylik sifatlarini tarbiyalash maqsadlarida olib boriladi.

Harbiy vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlar o'quvchilarining ChQBT fani bilan uyg'unlashtirgan holda, ular tomonidan harbiy ishning sir-asrorlari, shu jumladan ommaviy qirg'in qurollari ta'siridan saqlanish usul va vositalari, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan sharoitda amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni puxta o'zlashtirish tarzida tashkil etiladi.

ChQBT fani bo'yicha berilgan mavzular bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. ChQBT o'qituvchisi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari" mavzusini o'qitishda vizual usuldan foydalangan holda harbiy qismlarga ekskurtsiya uyushtiradi, mashg'ulotni olib borishda armiya tarkibida bo'lgan harbiy texnika va qurol turlari haqida ma'lumot beradi. Berilayotgan ma'lumot aniq faktlarga tayngan holda taqdim etib boriladi[3]. O'quvchilarda harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish Vatanni himoya qilishga tayyor bo'lish va harbiy texnika va faoliyatga qiziqishini rivojlantirishda alohida rol o'ynaydi. Misol uchun, 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni etib belgilanish sanasini izohlar ekan, bu kun 1993-yil 29-dekabrda bayram sifatida nishonlanishi haqida tushuntirishda yuqorida berilgan bilimlarni mustahkamlaydi hamda ularda g'urur, iftixor tuyg'ularini shakllanishiga sabab bo'ladi. Hamda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarkibiga birinchi marta chaqiriluvchilarga "Vatanga qasamyod[4]" matnini o'rgatishda ularning qalbida xalqiga, uning o'tmishi va kelajagiga daxldorlik sifatleri jo'sh urishiga olib keladi. Bularning barchasi o'quvchilarda harbiy xizmatga qiziqishni uyg'otadi, ularda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini, xalqqa sadoqatini, rostgo'ylik, intizom, xalqning moddiy va ma'naviy boyliklarini himoya qilishga intilishni va boshqa axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi, kerak bo'lsa Vatan mustaqilligi uchun o'z jonidan kechishga tayyorligini kuchaytiradi. Shuningdek, Vatan mustaqiligi yo'lida xalok bo'lganlarning xotirasini ushbu mavzuga bog'lab o'tilishi o'quvchilarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usi naqadar muhim tarbiya ekanligini anglab olishadi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadini – O'zbekistonning erkin demokratik davlat sifatida rivojlanishini ta'minlaydigan vatanparvarlik ta'limi tizimini takomillashtirish, fuqarolar o'rtasida yuqori vatanparvarlik ongini shakllantirish, Vatanga sadoqat va bajarishga tayyorlik, konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishda namayon bo'ladi.





Davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning o'zni kengaytirilmoqda, ta'lim muassasasi joylashgan hududlarda istiqomat qiluvchi Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilgan va davom etayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan jasorat darslari olib borilmoqda.



Xalqimizning asosiy ma'naviy tarkibiy qismi sifatida vatanparvarlikni yanada rivojlantirish maqsadida ilmiy asoslangan tashkiliy va targ'ibot ishlari kengaytirilmoqda.

Shunday qilib, o'quvchilarni ChQBT fani bo'yicha olib boriladigan dars mashg'ulotlari natijasida hamda unga uzviy ravishda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirgan holda kelajakda konstitutsion va fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishga, davlat hamda jamiyat ravnaqi yo'lida safarbar bo'lishlikka, uning har bir qismini himoya qilishga eng muhimi harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'l ko'rsatadi. Shuningdek, darslarni tashkil etish va uni amaliyotga qo'llashda ma'lum bir loyihalashtirilgan faoliyat bilan amalga oshirilsa qo'yilgan maqsadga yana bir karra erishgan bo'lamiz. Ilmiy tadqiqot adabiyotlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarning Vatanni himoya qilishga tayyorligi modelini ishlab chiqish va asoslash muammosi alohida ko'rib chiqilmagan. Ushbu muammoni hal qilish o'quvchilarning harbiy xizmatga tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi nazariy modelni yaratish orqali hal qilish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. O'z.Res.Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi PF-5983 sonli "Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra "Harbiy qasamyod" so'zi "Vatanga qasamyod" so'ziga aylantirilgan.
2. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6 -"Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori T.: 2017.
4. O'z.Res.Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi PF-5983 sonli "Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar

kiritish to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra “Harbiy qasamyod” so‘zi “Vatanga qasamyod” so‘ziga aylantirilgan.

5. Смирнов А.Т. Основы военной службы: Учеб. пособие для студ. сред. проф. образования. - М.: Изд. центр “Академия”, 2004. - 240 С.

6. Agayev M.G. “Yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi” diss. Baku. 1981.

## **OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN PEDAGOGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Badelbayeva Y.O. – Toshkent shahridagi Ajou universiteti ingliz tili  
o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada pedagog-professorlarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan madaniy kompetensiyalarning rivojlanishi tahlilga tortilgan. Shuningdek, bu jarayonda talabalarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiya, madaniy kompetensiya, professor-o‘qituvchi, motivatsion qo‘llash, taqdimotlar, kognitiv salohiyat.

## **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГОВ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**Баделбаева Ю.О. - преподаватель английского языка в  
университете Аджу в Ташкенте**

**Аннотация.** Статья посвящена развитию культурных компетенций, которые необходимо сформировать у профессорско-педагогического состава, и исследованию значимости и места в них студентов.

**Ключевые слова:** компетентность, культурная компетентность, профессор-преподаватель, мотивационная поддержка, презентации, когнитивный потенциал.

## **THE ROLE AND IMPORTANCE OF PROFESSOR-TEACHERS IN THE DEVELOPMENT OF CULTURAL COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATION UNIVERSITIES**

**Badelbayeva Y.O. – English instructor at Ajou University in Tashkent**

**Annotation.** The article is about the development of cultural competencies to be formed in pedagogical professors and the study of the importance and place of students in them.



**Key words:** competence, cultural competence, professor-teachers, motivational support, presentations, cognitive potential.


Hozirda ta'limga juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Shu tufayli ham yurtimizdagi ta'lim dargohlarida bilim berish darajalari o'syapti, qolaversa, turli xil xorijiy universitetlar ochilib, o'z faoliyatini professor-o'qituvchilarimiz bilan hamkorlikda ham ilmiy, ham madaniy sohalarda rivojlantirmoqdalar.. Ayniqsa, chet tiliga e'tibor juda yuqori mezonlarda baholangan. Shu asnoda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi "2013-2016-yillarda ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash)ni jadallashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 143-soli qarorlari ushbu faoliyatga tegishli. Davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasi va madaniyati borasida o'z ishini puxta biladigan malakali va har bir yosh ilm o'rganuvchiga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni fikr va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, madaniyat sohib va sohibasi, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda, madaniyatni rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Kompetensiya - aslida "erishyapman, munosibman, loyiqman" degan ma'nolarni beradi. Shu bilan birga madaniy kompetensiyani jipslangan holda rivojlantirilsa kelajak avlodda o'z aksini topoladi. Agar ta'lim tizimiga kompetensiyani bog'lasak – bu talabaning kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorgarlik ko'rishdir. Albatta, bunga pedagoglarning mahorati va madaniyatini bu tenglikni o'sishiga yordam beradi. Pedagog va professor o'qituvchilardan avvalambor talaba, ilm o'rganuvchi bilan til topisha olishi muhim rol o'ynaydi. Har bir mahaliy yoki xorijiy universitetlarda madaniy kompetensiya bo'lmasa ham talaba ham professor-o'qituvchi bunda foyda ololmaydi va berayotgan bilim samarali bo'lmaydi[1,2].

Madaniy kompetensiya deganda professional, uslubiy va ijtimoiy-psixologik kompetensiya muhim rol o'ynaydi. Chunki ularda o'z-o'zini to'g'ri idrok qilish, o'zgalarni bilish, dilidagini anglash, topshiriq va vazifalarni tez va lo'nda tushunib olish va tushuntirish qobiliyati va hokazolar aks etadi.

Xorijiy universitetlarni misol qiladigan bo'lsak, bu professor o'qituvchining dars o'tish uslublari va qadriyatlarini orqali xulq-atvorini boshqarishga qobiliyati yetarli bo'lishi kerak. Shuningdek, munosib bo'lmagan vaziyatlarda ham madaniy xatti-harakatlar bilan maqsadga erishish muvofiqdir. Darslar o'tilayotgan paytda talabalar xorijiy professor-o'qituvchi yoki chet tili o'rgatadigan mahalliy professor-o'qituvchini darslaridan madaniyatni o'rgana oladi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi[3].

Oliy ta'lim dargohlarida madaniy kompetensiyaning asosiy maqsadi - o'z faniga, darsiga mos keluvchi vazifalarni ishlab chiqa olish va uni bilim oluvchilarga yetkazib bera olish.



Motivatsion qo'llash
Talabalarga o'z vazifalarini taqsimlash
Fikrlash va fikr almashish
Maqsadning qo'yilishi

1. *Motivatsion qo'llash*- bunda talaba va til o'rganuvchilarning asosiy maqsadini bilib, madaniyati va layoqotidan foydalanib uni qo'llash. Asosiy e'tibor professor-o'qituvchi talabani tan olishida va qadrlashida, ziddiyatlarni hal qilishida, talabani nutqi va madaniyatini rivojlantirishda taqdimotlar (prezentatsiyalar) qilish; [4]

2. *Talabalarga o'z vazifalarini taqsimlash*- bunda talaba yoki til o'rganuvchining erkin qo'yish va vazifalarni erkin tanlay olish muhim ahamiyatga ega[4].

3. *Fikrlash va fikr almashish* esa hamma jabhada muhim rol o'ynaydi. Hamma talabalar ham fikrlay olish qobiliyatiga ega emaslar. Buni rivojlantirish uchun esa talabalarga ko'proq vazifa va motivatsiya berish kerak.

4. *Maqsadning qo'yilishi*- bu talaba va professor-o'qituvchiga bog'liqdir. Uch (3) jihatning barchasi qilinsa maqsad qo'yiladi va ham mahalliy ham xorijiy o'quv dargohlarida madaniy kompetensiya rivojlanib, o'z aksini topadi deya ta'kidlay olamiz.

Demak, pedagog-professorlarning o'rni ta'lim sohasida, ilm o'rganuvchining har sohada kognitiv salohiyatga, ularning madaniy-ma'rifiy rivojlanishida, ilm o'rganishida, o'rganish va o'rgatish uslublarini e'tirof qilish muhim ahamiyatga ega.

*A.K. Markovning* fikriga ko'ra kasbiy kompetensiyaning quyidagi turlarga ajratish mumkin.

*Maxsus vakolat*- bunda kasbiy faoliyatga yetarlicha yuqori darajada bo'lish, o'z kasbiy rivojlanishini rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lish. Professor-o'qituvchi avvalombor, bilimga va qolaversa, uni yetkazib berish masalasi eng asosiy o'rinda turadi deb hisoblasa, buning uchun turli xil metod va texnikalar orqali ta'lim berish madaniy kompetensiyaning muhim vazifalarida biri bo'la oladi deb o'ylayman.

*Ijtimoiy vakolat*- jamoaviy kasbiy vakolat va professional aloqaning qabul qilingan usullariga ega bo'lish; o'z kasbiy faoliyati natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik

*Individual kompetensiya*- o‘z kasbi doirasida o‘zini o‘zi anglash va shaxsni rivojlantirish texnikasini egallash, doimiy kasbiy o‘shiga tayyorgarlik; o‘zini himoya qilish qobiliyati, professional qarshi yo‘qligi, ishingizni oqilona tashkil etish qobiliyati (ortiqcha yuklamadan) rivojlanishi kerak.

Ushbu turlarning kombinatsiyasi *kasbiy vakolat* hisoblanadi. Bu insonning kasbiy faoliyatida, aloqada, kasb egasining shaxsiyatini shakllanirishda yetukligining ko‘ratkichidir. Kasbiy va madaniy pedagogik kompetensiyani hisobga olish uchun boshqacha yondashuv ham bor.

Kasbiy va pedagogik (PPK)- bu o‘ziga xos xususiyatdir, bu bilimlarni ergashtirishga, o‘qituvchining obro‘sigacha asoslanadi va sizga boshqa shaxsning shaxsiyatini shakllantirishga qaratilgan o‘quv vazifalarini samarali hal qilishga imkon beradi. Bunday holda, “kompetensiya” tushunchasi pedagogik faoliyat bilan bevosita bog‘liqdir.

Aytish kerakki, professor-o‘qituvchilarda CPD degan tushuncha bor . CPD- bu o‘qituvchining o‘z mutaxassisligini o‘quvchining yoki talabaning shaxsini shakllantirish vositasiga aylantirish qobiliyatidir.

Shunday qilib, PPK-bu pedagogik muammolarni yanada samarali hal qilish uchun ilmiy va amaliy bilimlarni shakllantirishda pedagogik ta’sir predmeti sifatida o‘qituvchining qobiliyatlari to‘plamidir.

Kasbiy va pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin. Maxsus pedagogik vakolatlar o‘qituvchi talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan mavzuning mazmunini belgilaydigan ma’lum bir fan (yoki bir nechta fan) sohasidagi bilim va obro‘-e’tiborini nazarda tutadi. O‘qituvchining maxsus mahorati uning o‘ziga asoslangan ilmiy vakolatlar (fan bilimlari va ularni amalda qo‘llash qobiliyatlari va ko‘nikmalari), bu unga faqat bilim manbai sifatida harakat qilish imkonini beradi.

*Ilmiy va pedagogik* -vakolatlar o‘qituvchining fanni o‘quvchining shaxsiga ta’sir etuvchi vositaga aylantirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Uslubiy vakolat- aniq didaktik muammolarni hal qilish uchun o‘qitishning maqbul usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi-shu jumladan kelajakdagi o‘qituvchilarga o‘qitish usullarini o‘rgatishdan iborat.

Madaniy kompetensiyalarni oliy o‘quv yurtlarida shakllantirishda yana bir omillardan biri bu *ijtimoiy-psixologik* kompetensiya o‘qituvchi talabalar guruhlari ichida, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida sodir bo‘ladigan aloqa jarayonlari to‘g‘risida bilimlarini oladi va shu bilan kerakli pedagogik natijalarga erishish talab qilinadi. Uni ijtimoiy- pertseptual va kommunikativ kompetensiyani o‘z ichiga olgan aloqa predmetining ummlashtirilgan xarakteristikasi sifatida ko‘rib chiqishi mumkin.

Differensial psixologik kompetensiya o‘qituvchi bilimlarini o‘z ichiga oladi individual xususiyatlar har bir tinglovchi, uning qobiliyati, xarakterining kuchli tomonlari, oldingi mashg‘ulotning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, o‘quv jarayonida unga individual yondashishning samarali strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Otopsixologik kompetensiya* o'qituvchiga uning shaxsiyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini va uning pedagogik faoliyatini, uning ish samaradorligini oshiradigan kasbiy o'zini takomillashtirish usullari to'g'risida xabardolik kiradi.

Ushbu sanab o'tilgan kompetensiyalar bilan bir qatorda madaniy kompetensiya ham rivolanib boradi va o'z kuchini ko'rsatadi. Barcha kompetensiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq hamda professor-pedagoglar dars o'tish metodikasida namoyon bo'ladi.

Olimlar talqinida oladigan bo'lsak, D.N. Ushakova "kompetensiya" bu odamda obro', bilim, tajribaga ega bo'lgan masalalar, hodisalar doirasi hamda kimningdir muomalasiga tegishli bo'lgan maydon deb ta'kidlagan bo'lsa, A.I.Turchikov barkamollik bilan bir lavozim vakolati doirasida shaxsda tug'ma kasbiy tajribaning namoyon bo'lish darajasini, namoyon bo'lish darajasini tushunadi. S.E.Shishov, V.A.Kalney esa kompetensiya tushunchasini bilim emas, balki ko'nikmalar sohasiga tegishli deydilar. Barkamollik va madaniy kompetensiyata'lim orqali olingan bilim, tajriba, qadriyatlar, moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat. Ular na bilim na ko'nikmaga tushmaydi, malakali bo'lish degani, olim yoki ma'lumotli bo'lish degani emas[5].

Xulosa qilib, aytish joizki, o'qituvchilik kasbi ham o'zgaruvchan, ham boshqaruvdir. Madaniy kompetensiyani rolga qo'yilishida esa professor-o'qituvchini rivojlantirish jarayonini bosharishni yaxshilab o'rganish kerak. Madaniy kompetensiya - o'qituvchining professionalligi va pedagogik mahoratini o'quvchi va talabalarga to'g'ri yetkazib berishidir. Madaniy kompetensiyani rivojlantirish davr talabidir. Zero, malakali kadrlar jamiyatiz rivojining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shunday ekan, kompetensiya tushunchasini, avvalo, anglab yetishimiz va amalda tadbqiq etishimiz lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Inoyatov U., Xodjayev B. Umumta'limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2016 – 2- son. – B. 7-15.
2. Qo'ldashev A.T., Odinayev R.Q. Kasbiy kompetentlikni professor o'qituvchilarda namoyon bo'lishining pedagogik-psixologik mohiyati// "Ta'lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o'rni" mavzusidagi yosh olimlar, magistrant va talabalarning an'anaviy XII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDAQI nashri, 2015. – B.5-8.
3. Муслимов Н.А., Уразова М.Б. Проективная деятельность будущего учителя. Учеб.пособие. – Т.: GrandPaper, 2011. – 92 с.
4. <https://hozir.org>
5. <https://lawyer-great.ru/uz/pedagogical-competence-professional-and-educational-competence>
6. Ziyomammedov B. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001. – B. 78

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY LAYOQATINI SHAKLLANTIRISH**

**Safarova M.A. – Qarshi davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini shakllantirish ta‘lim sifati samaradorligining omili ekanligi yoritilgan. Kelajakda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi davlat tilini mukammal egallashi va kasbiy malakaning asosiy darajasiga ega bo‘lishi kerakligini hamda kasbiy layoqatni takomillashtirish yo‘llari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, o‘qituvchi, layoqat, qobiliyat, daraja, ona tili, metodik, texnologiya, innovatsion;

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Сафарова М.А. - старший преподаватель Каршинского  
государственного педагогического института**

**Аннотация.** В статье рассматривается формирование профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов как фактор эффективности качества образования. В будущем учитель начальных классов должен свободно владеть государственным языком и иметь базовый уровень профессиональных навыков, а также способы повышения своего профессионального мастерства.

**Ключевые слова:** начальное образование, учитель, компетентность, способности, степень, родной язык, методический, технологический, инновационный

## **FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

**Safarova M.A. - Senior Lecturer at the Karshi State Pedagogical  
Institute**

**Annotation.** The article examines the formation of professional competence of future primary school teachers as a factor in the effectiveness of the quality of education. In the future, a primary school teacher should be fluent in the state language and have a basic level of professional skills, as well as ways to improve their professional skills.



**Key words:** primary education, teacher, competence, abilities, degree, native language, methodological, technological, innovation;

Ta'limning yangi maqsadlar belgilashi inson shaxsining ustuvorligiga asoslanadi, uning rivojlanishi ta'limning asosiy qiymati va eng muhim natijasi bo'lishi kerak. Ta'lim tizimining ushbu yangi ko'rsatmalari uning rivojlanishining turli yo'nalishlarida, muqobil ta'lim shakllarining paydo bo'lishida, yangi axborot-ta'lim muhitini yaratishda va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi mazmunini takomillashtirish masalasi tobora dolzarb bo'lib qolmoqda, an'anaviy ta'lim texnologiyalarining innovatsion va takomillashuvi paydo bo'lishi o'qituvchining layoqat darajasining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-son "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich maktab o'qituvchilari bolaga ijtimoiylashuv jarayonida yordam berishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u bir tomondan ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishni, ikkinchi tomondan, bir qator cheklovlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Odatda, cheklovlar gigiyenik talablar, psixologiyaning o'ziga xosliklari va ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi bilan yuzaga keladi. Boshqa tomondan, boshlang'ich sinf o'qituvchisining malakasini oshirish zarurati aynan boshlang'ich maktab bo'lib, bolaning shaxsiyatini shakllantirish, uning qobiliyatlarini yaxlit rivojlantirish, o'rganish qobiliyatini shakllantirish va o'rganish istagini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ushbu pog'onadagi o'quv dasturlari tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati haqidagi dastlabki tasavvurlariga poydevor bo'luvchi integratsiyalashgan kurslar xarakteriga ega. Bu maqsadga erishishning muhim vositasi ta'lim mazmuni va usullaridan mohirona foydalanish, ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Shaxsning doimiy kasbiy yo'naltirilgan o'z-o'zini anglashga bo'lgan ehtiyojining ortishini rag'batlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash

muammosi o'z vaqtida bo'ladi. Ayniqsa, kasbiy layoqatlilik bunday shart-sharoitlarni yaratish uchun ayniqsa boy imkoniyatlarga ega, chunki u psixologik-pedagogik bilimlarni, kasbiy muammolarni hal etishda shaxsiy tajribani va bo'lajak o'qituvchining o'quvchi uchun ma'naviy salohiyatini dolzarblashtiradi[2]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish oliy o'quv yurtlarida butun o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi, lekin, birinchi navbatda, nazariy va amaliy mashg'ulotlar pedagogik amaliyot jarayonida birlashtiriladi va amaliyot natijalari bu tayyorlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kasbiy ta'lim tizimi faoliyatining zamonaviy shart-sharoitlari, ta'limning tarkibiy va mazmun tomonining amalga oshirilayotgan islohotlari o'qituvchilarning aqliy va hissiy zo'riqish bilan bog'liq kasbiy-pedagogik faoliyatining murakkabligini oshiradi, psixologik qiyinchiliklarni yengadi.

Bundan tashqari, zamonaviy o'quv amaliyotining rivojlanishi pedagogik faoliyatning yangi tarkibiy va protsessual xususiyatlarining paydo bo'lishini belgilaydi. Bu borada esa kasbiy faoliyatning dolzarb vazifalari va zamonaviy jihatlarni amalga oshirishda ko'plab o'qituvchilar tegishli kasbiy va asosiy layoqatlarni yetarli darajada egallashdan iborat muammoga duch kelmoqdalar, shekilli, ular endi tobora ko'proq talqin etila boshlamoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy mashg'ulotga qanchalik mos kelishi masalasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyati axborot jamiyatining hozirgi muammolaridan bexabar ular maktabdagi innovatsion jarayonlar va mamlakatdagi yangi axborot texnologiyalari haqida yetarli ma'lumotga ega emas[3]. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy va umumiy layoqatlarini shakllantirish muammosi ijtimoiy o'zgarishlarning zamonaviy bosqichi, inson faoliyati intellektuali, jamiyat tomonidan hal qilinadigan iqtisodiy, siyosiy va axloqiy muammolarning keskinligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy layoqatliligi inqirozining asosiy sabablari:

- jamoatchilik ongidagi jadal o'zgarishlar, qadriyatlarining o'zgarishi, ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari va o'qituvchilar kasbiy ongining inersiya hodisasiga asoslanganligi o'rtasidagi tafovut. Ularning aksariyati an'anaviy qadriyatlar va munosabatlarga yo'naltirilgan, bu esa o'z navbatida kasbiy raqobatni, shaxsiy mas'uliyatni va fikrlashda avtoritarizmni rad etishga olib keladi;

- ko'pchilik o'qituvchilar uchun jahon pedagogik tajribasining eng yaxshi namunalari bilan tanishish, jahon pedagoglar jamoasining yutuqlaridan amaliyotda foydalanish mumkin emasligi;

- o'qituvchilar ta'limining an'anaviy tizimining yuqori inertligi(shu jumladan, kasb -hunar ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi, kattalar uchun qo'shimcha kasb -hunar ta'limi tizimi). Bularning barchasi o'qituvchilar ongining ichki yorilishiga, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini aniqlash vaziyatida o'qituvchilarning psixologik noqulayligi, bezovtaligi, sarosimaga tushishiga olib keladi[4].

Jamiyatdagi integratsiya jarayonlari respublika oliy ta'lim sohasi xodimlariga o'qituvchilarning, xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish muammosini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan, uning professional faoliyatini amalga oshirish uchun kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchisi davlat tilini mukammal egallashi va kasbiy malakaning asosiy darajasiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlash kerak.

“Layoqat” pedagogik atamasining kelib chiqishi haqida kamida ikkita nuqtayi nazar mavjud. Birinchisiga ko'ra, u ingliz tilidan o'zlashtirishni anglatadi competence-qobiliyat, layoqat, lotin competens, compenits-ma'lum bir sohada qobiliyatli, bilimdon degan ma'noni anglatadi; o'z bilimlari bilan biror narsani qilish yoki hal qilish, biror narsani hukm qilish huquqiga ega. Ilmiy aylanishda “layoqat” atamasi 1960-70-larda belgilangan ma'noda kiritildi. N. Xomskiy grammatika doirasida “kommunikativ layoqat” tushunchalarini qo'llagan, tillarni o'qitish nazariyasida D. Xeyms turli xil til qobiliyatlarini o'rgangan[5].

1970-90-yillarda bu atama tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida keng qo'llanilgan, mutaxassislarni tayyorlashda layoqatli yondashuv nazariy ilmiy tekshirishlar doirasidan tashqariga chiqdi va ta'lim dasturlari va texnologiyalarini rivojlantirish uchun asosiy hisoblanadi[1].

Ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra, “layoqat” ingliz tilidan kelib chiqib kompete-raqobatlash va so'zma-so'z tarjimada raqobat qilish qobiliyati, raqobat degan ma'noni anglatadi. Nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya vositasi sifatida xizmat qilish uchun mo'ljallangan layoqatli yondashuvning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Ular (ta'lim mazmuniga normativ talablar sifatida), innovatsion xarakterga ega ilg'or rivojlanishini bilan amalga oshiriladi.

Turli sohalarda va faoliyat turlarida muammolarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ta'lim salohiyatini (shaxsiy yo'naltirilgan, shaxsiy-faol) tanlashning boshqa jihatlarini tarkibiy va mazmunli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Ko'plab o'qituvchilar tomonidan layoqatli yondashuv, uning mazmuni mavzu bo'yicha paradigma doirasida shakllantirilgan ta'limning amaliy yo'nalishini mustahkamlash sifatida tushuniladi. Shunday qilib, dasturiy ta'minot va mavzu deb ataladigan ta'lim qobiliyatlarini loyihalashtirish usuli paydo bo'ladi[6]:

- har bir muayyan ta'lim mavzusida asosiy layoqatlarning namoyonlarini qidirish;

- iyerarxik “layoqat daraxtini yaratish”;

- umumiy ta'limning barcha uch bosqichi uchun umumiy ta'limiy layoqatlarni loyihalashtirish; ta'lim fanlarining layoqat darajalari bo'yicha shakllantirilgan fanlarni loyihalash va ularni ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarda qo'llash.

“layoqatlilik” konsepsiyasining nazariy va pedagogik mazmunining natijalarini umumlashtirgan holda, uning quyidagi asosiy xususiyatlari:

- shaxsning “inson-dunyo” tizimining o'z-o'zini rivojlantirish mavzusi sifatida harakat qilish qobiliyati va tayyorligini tavsiflaydi;

- o'quvchining ta'limdagi subyektiv pozitsiyasini aks ettiradi; shaxsiy ma'nolarni amalga oshirishni ta'minlaydi;

- metapredmetniy belgi bor;

- muammolarni aniqlash va hal qilish bo'yicha vitagenik tajribani boyitish orqali o'rganish bilan hayot o'rtasidagi aloqaning didaktik tamoyilini amalga oshiradi. Kasb-hunar ta'limi lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, kasbiy mahorat-professional faoliyatning muayyan shakllarida o'zini namoyon yeta oladigan va professional harakatlanishni boshqaruvchi, martaba o'sishini rejalashtiradigan bozor mexanizmidagi tub o'zgarishlarga moslasha oladigan yuqori malakali xodimning sifati ko'rinishida shakllanadi.

Kasbiy mahorat yoki kasbiy layoqat – mutaxassisning sifati, mulki yoki holati, uning jismoniy, aqliy va ma'naviy ehtiyojlarini, ehtiyojlarini, ma'lum bir kasbning talablarini, ixtisoslik mutaxassisligini, malaka standartlarini, egallab turgan yoki bajariladigan xizmat mavqeini birgalikda yoki alohida-alohida ta'minlaydi.

Kasbiy malakaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-huquqiy layoqat, ya'ni odamlar va jamoat institutlari bilan o'zaro hamkorlik sohasida bilim va ko'nikmalar va kasbiy muloqot uslubiga ega bo'lish;

- doimiy kasbiy o'sish va malaka oshirish uchun shaxsiy layoqat;

- maxsus layoqat – o'z kasbiy faoliyatini mustaqil amalga oshirishga tayyor;

- mutaxassislik bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda takomillashtirish qobiliyati;

- haddan tashqari layoqat-to'satdan murakkab sharoitlarda malakali harakat qilish qobiliyati.

Kasbiy mahorat darajasi kasbiy va pedagogik mahoratning shakllanishi asosida baholanadi. O'qituvchining asosiy operatsion funksiyalari nuqtayi nazaridan quyidagi kasbiy mahorat guruhlari ta'kidlanishi kerak:

- gnostik mahorat- bu yangi axborot olish, o'z pedagogik tajribangizni va innovatorlarning tajribasini tizimlashtirishni o'z ichiga olgan kasbiy va psixologik-pedagogik bilimlarni olish uchun bilim qobiliyati;

- mafkuraviy mahorat-o'quvchilar o'rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va pedagogik bilimlarni targ'ib qilish qobiliyati;

- didaktik mahorat-ta'lim maqsadlarini aniqlash, o'quv materiallarini tushuntirish qobiliyati;

- tashkiliy-uslubiy mahorat-o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'limot motivatsiyasini shakllantirish, pedagogik munosabatlarni o'rnatish, jamoani shakllantirish va o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish qobiliyati;

- bashoratli mahorat-ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning pedagogik qobiliyati, shu jumladan, shaxsiyat va o'quvchilar jamoasi diagnostikasi;

- ruhiy mahorat-kasbiy faoliyat va kasbiy xatti-harakatlarini baholash qobiliyati;

- tashkiliy-pedagogik mahorat-ta'lim jarayonini amalga oshirishning pedagogik qobiliyati, pedagogik ta'sirning optimal vositalaridan foydalanish, o'z-

o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish, talabalarning shaxsiyatining kasbiy yo'nalishini shakllantirish;

- texnologik mahorat-texnologik jarayonni to'g'ri tashkil etishni rejalashtirish, texnologik qurilmalardan foydalanish;

- ishlab chiqarish-amaliyot qobiliyati - tegishli kasblar bo'yicha umumiy mehnat qobiliyati;

- maxsus mahorat-har qanday ishlab chiqarish sohasi doirasida tor professional mahorat.

Talabalarni o'qitish uchun oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi malakali model, ya'ni ko'nikma, bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va qiymat yo'nalishlari tizimi bilan belgilanadigan tegishli treningga ega bo'lishi kerak. Ushbu model, o'z navbatida, zamonaviy oliy maktab o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan asosiy layoqatlarga asoslanadi. Oliy maktab o'qituvchisining malakaviy xarakteristikasi - bu asos bo'lib, unda oldindan qo'llab-quvvatlovchilarni uzluksiz o'qitish tizimi qurilishi kerak.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga bo'lgan malaka talablarida pedagogik mahorat (ko'nikma), yoki "bilim, tushunish, ko'nikma va ko'nikmalarning dinamik kombinatsiyasi" yoki "mehnat va o'quv faoliyatida va kasbiy va shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy va yoki uslubiy ko'nikmalardan foydalanish, bilim, ko'nikma va foydalanish uchun tasdiqlangan qobiliyat" tushuniladi.

Kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun kasbiy malakani olish uchun motivatsiya qanday shakllantirilishi va maktabda pedagogik amaliyotlarni o'tkazish jarayonida uning professional layoqatlarini shakllantirishning mezonlari, usullari va vositalari qanday bo'lishi kerak? Bu muammo murakkab va ko'p qirrali bo'lib, shuning uchun ishda faqat bitta jihat ko'rib chiqiladi – universitetda ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifati sifatida kasbiy malakani shakllantirish.

O'qituvchining kasbiy malakasi modeli nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi sifatida ifodalanishi mumkin. Yuqoridagi pedagogik ko'nikmalarni hisobga olgan holda, to'rtta guruhga qo'shilish mumkin:

- **konstruktiv** - pedagogik vazifalarni belgilash qobiliyati.

Konstruktiv ko'nikmalar ijtimoiylashuv jarayoni bilan o'quv-tarbiya ishlarining aniq vazifalariga bog'liq: yangi bilimlarni egallashga tayyorlik darajasini aniqlash uchun jamoani o'rganish;

- **tashkilotchilik** - pedagogik faoliyat usulini dasturlash qobiliyati.

Tashkiliy ko'nikmalar mantiqiy tugallangan pedagogik tizimni yaratishga xizmat qiladi: o'quv-tarbiya va rivojlanish vazifalarini rejalashtirish; ta'lim mazmunini tanlash;

- **kommunikativ** - pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati. Bunday ko'nikmalar ta'lim va ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, ularni amalga oshirishni nazarda tutadi: moddiy, ma'naviy-psixologik, tashkiliy, gigiyena va boshqa sharoitlarni yaratish;



- **gnostik** - muammoni hal qilish natijalarini o'rganish qobiliyati. Gnostik ko'nikmalar pedagogik faoliyat natijalarini baholashni talab qiladi: pedagogik jarayonning borishini tahlil qilish.

Pedagogik mahorat, agar pedagogik ijodkorlikni pedagogik malakaga kiritmasa, faqat kasbiy ko'nikmalar to'plamini ifodalaydi. Shu munosabat bilan, pedagogik yaratilishning bir qator darajalarini ajratish bilan yaratilishga qiziqarli yondashuv:

- **sinf bilan boshlang'ich shovqin darajasi**: o'qituvchi o'z mulohazalarini ishlatishi, uning ta'sirini uning natijasi bilan moslashtirishi kerak, ammo u "metodik" va "shablona ko'ra";

- **pedagogik faoliyatni optimallashtirish darajasi** o'qituvchining ijodkorligi taniqli o'qituvchining mazmuni, usullari va ta'lim shakllarining mohirona tanlovi va kombinatsiyasida namoyon bo'lganda rejalashtirish va dars bilan boshlanadi;

- o'qituvchi talabalar bilan jonli muloqot qilish uchun ijodiy imkoniyatlardan foydalanganida, evristik;

- **o'qituvchining yaratilishining eng yuqori darajasi** ma'lum metodlardan foydalanishda uning to'liq mustaqilligi bilan tavsiflanadi, shuning uchun ular o'quvchilarning ijodiy shaxsiyati va xususiyatlariga, sinf guruhining rivojlanishining o'ziga xos darajasiga mos kelishi kerak.

Ona tili o'quv fani sifatida boshqa o'quv fanlari orasida muhim o'rin tutadi, ta'lim jarayonida turli xil vazifalarni bajaradi. Mazkur fan pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini boshqa fanlarni o'rganishlarida muloqotning zarur ko'nikmalari bilan qurollantiradi. Ta'limning barcha bosqichlarida asosiy o'quv fani hisoblangan holda ona tili shuningdek boshqa o'quv fanlarining yaxlit bir holatga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkurni rivojlantirish, o'z fikrini ifoda etish, ijtimoiy munosabatlar, dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, dunyoning lingvistik tasviri va madaniy qadriyatlar almashinuvi vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilar aksariyat zarur ko'nikmalarni ona tili bo'yicha dasturlarni insho, bayon, esse, ijodiy ish, referatlar yozish, shuningdek, boshqa tillarni o'rganish orqali o'zlashtirishadilar. Ona tilini o'rganishdan asosiy maqsad ona tiliga nisbatan madaniy hodisa sifatida hurmat, ehtirom munosabatini shakllantirish; ona tilining shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini anglab yetish, uning insoniyat faoliyatining turli sohalarida yangi bilimlarga ega bo'lish hamda jamiyatning axloqiy me'yorlarini o'zlashtirish, o'zbek orfografiyasi, orfoepiyasi, morfologiyasi, sintaksisi va punktuatsiyasi to'g'risida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tartibga solish, shuningdek, mavjud nutqiy hamda grammatik layoqat va ko'nikmalarni mustahkamlash, turli xil nutqiy holatlar to'g'risida tinglash hamda so'ray olish qobiliyati, o'zgarlar fikriga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish, o'z fikrini bayon etish hamda asoslab berish hamda o'z taassurotlarini og'zaki va yozma shaklda farqlay olishdagi muloqot vositasi sifatida qabul qilish; adabiyotni mustaqil ravishda o'qishga qiziqishning paydo bo'lishi, badiiy adabiyot, teatr va kino yordamida atrof-muhit bilan tanishish; turli xil ma'lumot bilan mustaqil ishlay bilish va uni tushunish; adabiyot va

san'atning boshqa sohalari o'rtasidagi aloqani tushunib yetish; tilga oid bilimlarni idrok etish va to'ldirish hisobiga o'zining bilim darajasini kengaytirish; boshqa millat va elatlarning madaniyati, tiliga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalari talabalarni jonajon ona tili hisoblangan o'zbek tilida og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga muhim ichki motivatsiya bilan qurollantirishi, ularning umumiy dunyoqarashi va aql-zakovatini kengaytirishi lozim bo'ladi. Maktab ham o'quvchilarni o'z fikrlarini savodli, aniq va tushunarli bayon etishga o'rgatishi shart.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy laqatini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.

2. Kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni o'qitish va o'qitish masalalarini amaliy bajarish uchun tayyorlanadigan samarali shakllar va usullarni ishlab chiqish.

3. Pedagogika universiteti sharoitida talabalarining malakasini shakllantirish maqsadida pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish va ulardan to'g'ri foydalanish.

4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy layoqatligini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Talabalar maktab o'quvchilarini o'qitish va o'qitish masalalarini amaliy hal qilish uchun tayyorlanadigan shakl va usullarning oqilona kombinatsiyasini ishlab chiqish. Yuqorida qayd etilgan ta'limning barcha texnologiyasi respublikaning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yaratish va amalga oshirish bilan bog'liq va talabalarining kasbiy layoqatini takomillashtirish bo'yicha mahoratlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishiga qaratilgan.

### **Adabiyotlar**

1. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. –М.: Просвещение, 1984. С 206.

2. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О.Абдуллина. –М.: Просвещение, 1990.

3. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности. Психология и образ жизни личности. / Ксения Абульханова-Славская. –М.: Наука, 1987, с 19-44.

4. Аверина Т.А., Аверин Н.А. Педагогическая практика: опыт и перспективы / Т.А.Аверина, Н.А.Аверин // Советская педагогика. 1991. №10.

5. Шарифов И. Активизация познавательной деятельности студентов: Учеб.пособие для преподавателей вузов / Под ред.Т.А.Шукурзод. Курган-Тюбе, 2007. С 142.

6. Шварцман З.О. Профессионально-педагогическая подготовка учителя в университете. Томск, 1991. С 126.

**ILMIY MAKTABLAR-BUYUK AJDODLAR ILMIY SALOHİYATI,  
MA'NAVİYAT, MA'RIFAT OMILI SIFATIDA**

**Rahimova F.A.-Urganch davlat universiteti katta o'qituvchi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yunon falsafiy maktablari, Bog'dod, Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi, Ulug'bek ilmiy maktabi vakillari ilmiy merosi shaxs kamolotining muhim omili sifatida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** falsafiy maktablar, ma'naviy kamolot, insoniylik, algoritim, akademiya

**НАУЧНЫЕ ШКОЛЫ КАК ФАКТОР ДУХОВНОСТИ,  
ПРОСВЕЩЕНИЯ И НАУЧНОГО ПОТЕНЦИАЛА ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ**

**Рахимова Ф.А. - старший преподаватель Ургенчского  
государственного университета**

**Аннотация.** В данной статье анализируется научное наследие представителей греческих философских школ, Багдадской и Хорезмской академии Маъмуна, научной школы Улугбека как важный фактор личностного развития.

**Ключевые слова:** философские школы, духовное совершенство, гуманизм, алгоритм, академия

**SCIENTIFIC SCHOOLS AS A FACTOR OF SPIRITUALITY,  
EDUCATION AND SCIENTIFIC POTENTIAL OF THE GREAT  
ANCESTORS**

**Rahimova F.A. - Senior lecturer Urgench State University**

**Annotation.** This article analyzes the scientific heritage of representatives of the Greek philosophical schools, the Baghdad and Khorezm academies of Mamun, the scientific school of Ulugbek as an important factor in personal development.

**Key words.** philosophical schools, spiritual perfection, humanism, algorithm, academy

Sharq azaldan ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan. Insonparvarlik g'oyalari, ta'lim olish, ilm izlash ruhiyati sharq kishilari ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy qarashlarida ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bebaho xazina Avesto asarida otashparastlik aqidalari, insoniylik, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan

holda inson ma'naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti, ta'lim olish, ilm izlash masalalariga, shuningdek qiz va o'g'il bolalar tarbiyasiga alohida ahamiyat qatrilgan va ularga ta'lim berish masalalari tahlil qilingan.

Eramizdan oldingi VII-V asrlarda shakllangan Yunon falsafiy maktablarida ham tabiat va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, falsafiy mushohada yuritish, ularni ilmiy asoslashga intilishlar bo'lgan. Shakllangan Yunon falsafiy maktablari negizida shu davrgacha bo'lgan tushunchalarni o'rganish, tahlil qilish va ular orasidagi aloqadorlik zahirida qator falsafiy Ioniya, Fales, Pifagor, Platon va Aristotel maktablari shakllangan va bir qancha fanlar yuzaga kelgan. Yunon ilmiy falsafiy maktablar merosini o'rganish va ularga sharhlar yozish asosida ilmiy rivojlanish jarayoni yuzaga kelgan. Mazkur ilmiy izlanishlar negizi va samarasida O'rta Osiyo, ikki daryo oralig'i Movorounnahrda ham ilm-fan taraqqiyoti yuksak darajaga ko'tarilgan. VIII asrning o'rtalariga kelib Eron, Suriya, Palastin, Misr, Shimoliy Afrika, Pireney yarim oroli, Sitsiliya, Janubiy Italiya, O'rta Osiyoning katta qismi shimoliy-g'arbiy Hindiston xalifalik tarkibiga qo'shib olinib, arab xalifaligi tuziladi. Xalifa Al-Mansur poytaxtni Damashqdan Bog'dodga ko'chiradi. Ishg'ol qilingan mamlakatlardan ko'plab keltirilgan noyob ilmiy asarlar bilan boyitilgan kutubxona va ilmiy markaz tashkil etiladi. Bog'dod Ma'mun akademiyasi "Bayt ul-Hikma"da yunon, suriyon, xitoy, hindistondan keltirilgan asarlar arab tiliga tarjima qilinadi. Ilmiy markazga ko'plab mamlakatlardan olimlar taklif etiladi. Fanda "Donishmandlar uyi" atamasini olgan mazkur ilmiy markazga O'rta Osiyolik olim Muhammad Muso Al-Xorazmiy (783-857yy) rahnamolik qiladi. Xalifa Ma'mun (830y) taklifiga asosan Al-Xorazmiy "Al-kitob, al-Muxtasar, fi hisob al-jabr, val-muqobala" (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish hisobiga oid qisqacha kitob) asarini yaratdi. Shu asosda algebra fan sifatida asoslanadi[1]. Arab tiliga tarjima qilingan, o'zida babil, misr, hind, yunon, arab matematikasining noyob durdonalarini saqlagan ilmiy markaz Al-Xorazmiy rahnamoligida fanlardan qo'lga kiritilgan yutuqlarni rivojlantirish, takomillashtirish yo'nalishida ilmiy faoliyat olib boradi.

"Bayt ul-Hikma"da Al-Xorazmiy safdoshi, olim bilan birga ilmiy faoliyat olib borgan Ahmad al-Farg'oni (to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni (taxminan hayot va ijod faoliyati 798-865 yillarga to'g'ri keladi) Bog'dod va Damashq observatoriyalarini qurishda shaxsan ishtirok etgan va Bog'dod astronomik maktabiga rahbarlik qilgan. Ahmad al-Farg'oni falakiyot, riyoziyot, geografiya yo'nalishlarida bir qancha ilmiy asarlar yozgan. Olimning bizgacha yetib kelgan asosiy astronomik asari –"Kitob al-harakot as-samoviya va javomi ilm an-nujum" (Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi). Bu asar 1145 va 1175 -yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilinadi. Al-Farg'oni nomi g'arbda "Alfraganus" nomi bilan mashhur[1].

Xorazmshohlar sulolasi yurtida ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashuvi savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi, fan, madaniyat, san'atning gullab yashnashi uchun rahnamolik qiladilar. Xorazm imperiyasi nomini olgan davlat poytaxti eramizdan oldingi IV asrdan milodiy 335-yilgacha Tuproqqal'a, 335-yildan 995-

yilgacha Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan "Fir" qal'a yoki Kot shahrida bo'lgan. 995-yil Ko'hna Urgach hokimi Ma'mun I, xorazmshoh Abdullo Muhammad bilan bo'lgan to'qnashuvda g'alaba qozonadi va poytaxtni Ko'hna Urganchga ko'chiradi. 997-yil Ma'mun I vafotidan keyin taxtga o'tirgan ma'rifatparvar Abu Abbas Ma'mun II poytaxtda ilmiy markaz tashkil bo'lishiga rahnamolik qiladi, davrning yetuk olimlari markazga taklif qilinadilar[2]. Ilmiy to'garak o'rta asrlar renesansini bir ko'rinishi, mohiyati va xususiyatini namoyon etish barobarida, davr xususiyatini o'zida aks ettirgan holda yuksak ilmiy nufuz ila faoliyat olib bordi. Xalq tilida va dilida mazkur dargoh "360 pir" atamasini olib muqaddas ziyoratgoh maskanga aylandi. Rivoyat qilishlaricha, "360 pir katta hovuz atrofida joylashib tahsil olishar, mudarris esa ularga kemada yurib saboq berar ekan. Kunlarning birida uzoq mamlakatdan bir olim kelib o'zi yozgan asarga "fatvo" berishlarini iltimos qilibdi. Dars berayotgan ustoz kitobni qo'lga olib, varaqlab o'qib ko'ribdiyu uni yopgan holicha hovuzga tashlab yuboribdi. Jahli chiqqan muallif kitobni darhol qaytarib berishlarini talab qilibdi. Shunda mudarris kemadan turib 360 tolibning har birisiga kitobning bir varag'ida yozilgan ma'lumotlarni qayta tiklash haqida tushuntirish berib, vazifa yuklabdi. Ma'lum vaqt o'tgach kitob to'laligicha qayta tiklanib, kitob holiga keltirilgan holda muallif qo'lga topshirilibdi". Aytishlaricha, xalq tilida "360 pir" deya rivoyat qilinadigan ziyoratgoh bu Ko'hna Urganchdan joylashgan Ma'mun akademiyasining o'rni ekan. Rivoyat katta hovuz atrofida tahsil olayotgan toliblarning har biri ilm bilan shug'ullanayotgan, yuqori intellektual salohiyatga, madrasa esa yuqori nufuzga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu yerda "fatvo" so'zi mualliflik huquqi o'rnida ishlatilgan bo'lishi kerak. Xalq orasida "pir"ga qilinadigan ziyoratlarning yuqori maqomga ega bo'lishi, qadrlanishi xalqimizning ilmga, ilm-ahliga bo'lgan cheksiz hurmati izhori barobarida o'qimishli, ziyoli kishilarning ham ko'pligidan dalolat beradi. Ko'pgina manba'shunos olimlar, Abu Rayhon Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asarida, Abul-Hasan al-Bayhakiy, Yoqut Hammaviy kabi tarixnavis olimlar qayd qilishlaricha, Ma'mun akademiyasida quyida nomlari zikr etilgan olimlar faoliyat olib borganlar: Abul Hayra ibn al Hammor, Abu Ali ibn Sino, Hamid ibn al-Hidr Xo'jandiy, Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masahiy al-Jurjoniy, Abu Said ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, Abu Nasr ibn arroq al-Xorazmiy, Ahmad Ma'suriy, Al Hamdaki, As-Soliq al-Xorazmiy al-Qasi, Ibn Muhammad as-Saolibiy, Abu Abdullo al-Biy an-Naysaburi, Ahmad ibn Muhammad as-Suxayli al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahri, Umar Isfaxoniy, Ibn Miskavayx[3]. Bu ulug' maskanda olib borilgan ilmiy faoliyat, dunyo ilm-u fani taraqqiyotiga yaratilgan zamin, qo'yilgan asos, shakllangan ilm ulamolari ilmiy faoliyati zahirida ular yashab o'tgan davr mazmun va mohiyati, tarixiy jarayonlar, voqeeliklar, shuningdek tarixiy shaxslar hayot faoliyati yotadi. Ma'mun akademiyasining yuzaga kelishi va yuqori mahsul bilan faoliyat olib borishi afrig'iylar sulolasining inqirozga yuz tutishi, iroqiylar hukmronligi, samoniylar, qoraxoniylar va g'aznaviylar davri tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.



Ulug'bek-Muhammad Tarag'ay, Temurning kichik o'g'li Shohruh va Gavharshodbegimlar farzandi, hijriy 1394-yil, jumodul-avvalning 19, milodiy 1394-yilning 22-mart sanasida tavallud topgan. Markazi Hirotda bo'lgan Xuroson davlatining hokimi Shohruh mashxur Yunon, O'rta Osiyo, vatandosh olimlarning noyob asarlaridan iborat boy kutubxona tashkil etgan edi. Kitobsevarlik ruhiyatida ulg'ayib, bilimni mukammal egallashga qobiliyatli bo'lgan Ulug'bek fan, adabiyot va san'atda mashxur bo'lgan zamondoshlari Hofizi Abru, Mavlono Nafis, Sirojiddin Samarqadiy, Sakkokiy, Lutfiylar ijodidan bahramand bo'lib voyaga yetadi. 1409-yil Temur vafotidan keyin otasi Shohruh tomonidan Samarqand hokimi etib tayinlanadi. Hokimlik yillari ko'plab 1417-yil Buxoroda, 1420-yil Samarqandda madrasalar qurdiradi. 1424-1428-yillar mobaynida Samarqand shimoli Obiraxmat arig'ining bo'yi, Ko'hak tepaligida binosi katta uch oshyonali, mahobatli, hashamatli rasadxona qurilishiga rahnamolik qiladi, uni zamonaning eng takomillashgan osmon jismlarini kuzatish asboblari bilan jihozlaydi, ko'plagan olimu fuzalolar, astranom, matematiklarni ilmiy izlanishlarga jalb etadi.

XVI asr boshida johil reaksiyon kuchlar tomonidan vayronaga aylantirilgan mazkur rasadxona deyarlik bir asrlik faoliyati davomida bag'rida o'z davrining Aflotuni Mahmud Qozizoda Rumiy (1360-1437), G'iyosiddin Jamshid Koshiy(1430-yil vafot etgan), Ali Qushchi(1402-1474) kabi bir qator ilm namoyondalariga bir maqsad yo'lida birgalikda hamkorlik qilish, buyuk tabiat ato etgan iste'dod va qobiliyatlarini ilm yo'liga baxshida etish, eng asosiysi, ilm, fan, insoniyat oldidagi burchini oliy maqomda ado etish imkoniyatini yaratib berdi, astronomiya fanining nodir asari, kelajakda mumtoz asarlar qatoridan o'rin olgan "Yangi astronomik jadvallar", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ni dunyoga keltirdi. 1437-yilda yozib tugallangan asarda astronomiyaning nazariy va amaliy masalalari, kun va haftalar, oy va yillar, sanalar tarixi, osmon jismlarining harakati, yulduz yili uzunligi hisobi, trigonometrik jadvallar keltirilib, 1019 yulduzning vaziyati o'rganilgan edi.

Ulug'bek ilmiy merosini o'rganuvchi tashkilotlar tomonidan "Ulug'bek Ziji", "Ulug'bekning astronomiyaga oid jadvallari" eramizning II asrida Gipparx-Ptolomey tomonidan yaratilgan "Almagest"da keltirilgan jadvaldan keyin ikkinchi bo'lib tarixga kirgan ilmiy kashfiyot ekanligini e'tirof etdi. Dunyoda tengi yo'q ilmiy maktab bunyod etilishida Ulug'bekning moddiy va ma'naviy jihatdan rahnamoligi ko'plab adabiyotlarda qayd qilinadi.

Umumjahon tamaddunida munosib o'rin va maqomga ega bo'lgan ilmiy maktablar inson aqliy, irsiy, ma'naviy, ma'rifiy kamoloti omili bo'lib, buyuk ajdodlarimizning beqiyos faoliyatiga imkoniyat yaratib bergan. Bugun ajdodlar merosini o'rganish qadriyatlarimizni ulug'lash, haqqoniy tariximizni tiklash masalalari davlat siyosatining muhim jihatlaridan sanalishi, Xorazm Ma'mun akademiyasining ko'hna Xiva zamirida faoliyati tiklanishi, zamonaviy Ma'mun akademiyasi ijodiy faoliyatiga ko'rsatilayotgan diqqat, e'tibor va ehtirom har bir davrda ilm-fan, ilmiy maktablar shaxs kamolotining muhim omili sifatida e'tirof etilishi namunasidir.

## **Adabiyotlar**

1. Abduhalimov B. "Bayt ul-hikma" va O'rta Osiyo olimlarining Bog'doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. - 236 b.
2. Ahmedov A. Xorazm Ma'mun akademiyasi. – T., 2005
3. Jumaniyozov M. Ma'mun akademiyasi.-Urganch, 1994
4. Матвиевская Г. П. Выдающийся математик Мухаммад Ибн Муса Ал-Хорезми и литература о нем. (в книге Ал-Хорезми «Математические трактаты»).Тошкент, «Фан»-1983.-222 ст.
6. Ziyomammedov B. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001. – B. 78

### **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 7-SINFLARIDA "KIMYOVIY FORMULA VA UNDAN KELIB CHIQUADIGAN XULOSALAR. VALENTLIK, INDEKS HAQIDA TUSHUNCHA" MAVZUSINI O'QITISH USLUBIYATI**

**Kuchkarova R.R. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchi**

**Kadirova Sh.Z. - Toshkent farmatsevtika instituti talabasi**

**Annotatsiya.** Maqola pedagogika oliy o'quv yurtlarining kimyo yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun shu mavzuni o'qitish uslubiyatini o'rgatishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, indeks, koeffitsiyent, tenglama, valentlik, formula.

### **МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕМЕ «ХИМИЧЕСКАЯ ФОРМУЛА И ВЫТЕКАЮЩИЕ ИЗ НЕЕ ВЫВОДЫ. ПОНЯТИЕ О ВАЛЕНТНОСТИ, ИНДЕКСЕ» В 7 КЛАССАХ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ**

**Кучкарова Р.Р. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Кадирова Ш.З. - студент Ташкентского фармацевтического института**

**Аннотация.** Статья предназначена для обучения методике преподавания студентов химического профиля педагогических вузов.

**Ключевые слова:** коммуникативный, обработка информации, компетенция саморазвития, индекс, коэффициент, уравнение, валентность, формула.

**TEACHING METHODS FOR THE TOPIC “CHEMICAL FORMULA AND CONCLUSIONS FROM IT. THE CONCEPT OF VALENCE, INDEX "IN 7 CLASSES OF SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOLS**

**Kuchkarova R.R. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University  
Kadirova Sh.Z. - Student of the Tashkent Pharmaceutical Institute**

**Annotation.** The article is intended to teach teaching methods for students majoring in chemistry at pedagogical universities.

**Key words:** communicative, information processing, self-development competence, index, coefficient, equation, valence, formula.

Maktab o‘quvchilariga dars jarayonida quyidagi kompetensiyalar asosida dars o‘tishga e‘tibor berilishi ahamiyatlidir.

***O‘quvchilar o‘zlashtira oladigan kompetensiya elementlari:***

*I. Kommunikativ kompetensiya;*

Jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun hayotda uchraydigan kimyoviy moddalarning nomlarini xorijiy tillarda ham bilish;  
Samarali muloqotga kirishish.

*II. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;*

*1. Media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topish;*

*2. Olingan ma’lumotlarni saralash va ulardan samarali foydalanish.*

*III. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi*

*Darsning maqsadi:* a). Ta’limiy maqsad: Tanlangan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga yangi ilmiy bilimlar berish;

b). Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, estetik tarbiya berish;

v). Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini rivojlantirish.

*Darsda qo‘llaniladigan metodlar;* Tushuntirish, pinbard-doskaga yozib ko‘rsatish, krassvord, ko‘rgazmali, muammoli, savol-javob.

*Darsning mazmuni:* O‘quvchilarga kimyoviy formula va undan kelib chiqadigan xulosalar. Valentlik, indeks haqida tushuncha berish.

*Darsning jhozi va materiallari:* Doska, bo‘r, 7-sinf kimyo darsligi, D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvali, plastilen, gugurt cho‘pi.

*Darsning maqsadini amalga oshirishga intilish:* O‘quvchilarga kimyoviy formula, valentlik, indeks haqida doskada yozib, tushuntirish bilan birga plastilen va

gugurt cho'pidan foydalanib ba'zi moddalarning molekulyar modellarini yasab ko'rsatish.

Darsning blok sxemasi (darsda vakt taksimoti):

Darsning qismlari:	Ajratilgan vaqt
1. Tashkiliy qism	2 minut
2. O'tgan mavzuni surash	5 minut
3. Yangi mavzuning e'loni va bayoni	15 minut
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	10minut
5. O'quvchilar bilimini baholash	5 minut
6. Uyga vazifa topshirib, darsni yakunlash	3minut

**Yangi mavzuning bayoni:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 7-sinf uchun yillik taqvim mavzu rejasida bu mavzu 13-darsning mavzusi bo'lib, bu paytda o'quvchilar kimyoviy elementlarning kimyoviy belgilari haqida bir muncha ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu darsda kimyoviy elementlarning kimyoviy belgilaridan foydalanib kimyoviy formulalar tuzishga o'rgatish o'qituvchining darsga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Avvalo kimyoviy formula-modda tarkibini kimyoviy belgilar va zarur bo'lsa indekslar bilan ifodalanishi. Kimyoviy formula modda qanday elementlardan tashkil topganligini (sifat tarkibi); moddaning bitta molekulasini tarkibiga har qaysi elementlarning nechtdan atomi kirishi (mikdor tarkibi); moddaning bitta molekulasini bildiradi. Masalan, suv molekulasini bildiradi. Masalan, suv molekulasini 2 ta vodorod va bitta kislorod atomidan tashkil topgan bo'lib, uning formulasi  $H_2O$  shaklida ifodalanadi. Suv molekulasidagi vodorodning kimyoviy belgisini pastki o'ng tomonida turgan ikki raqami indeks deb ataladi va suv tarkibida 2 atom vodorod borligini ko'rsatadi. Umuman olganda kimyoviy formulada kimyoviy belgining pastki o'ng tomonidagi raqam-indeks moddaning har bir molekulasini tarkibida shu element atomlaridan nechta borligini ko'rsatadi. Kimyoviy belgi yoki formula oldida turgan katta raqam esa koeffitsient deb atalib, alohida atom yoki molekular sonini ko'rsatadi. Masalan,  $2N \rightarrow 2$  azot atomi

$2N_2$	2 molekula azot	Koeffitsient
		$5N_2SO_4$
		5molekula sulfat kislota
	indeks	indeks
	koeffitsient	koeffitsient

$N_2$  Bir molekula azot  
indeks

So'ngra valentlikning qoidasini tushuntiramiz, ya'ni valentlik deb element atomining boshqa elementlar atomlari aniq sonini biriktirib olish imkoniyatiga aytiladi. Valentlik lotincha "valens" so'zidan olingan bo'lib, "kuchi bor" degan ma'noni bildiradi. Darsni o'quvchilarga molekulasini ikkita atomdan iborat bo'lgan gazlarning kimyoviy formulasini o'rgatishdan boshlaymiz, ya'ni;  $N-N=N_2, SI-CI=CI_2, N \equiv N = N$

Shu yerda indeks atomlar sonini ko'rsatishini aytib, plastilen va gugurt cho'pidan foydalanib, vodorod, kislorod va azotning molekulyar modelini yasab ko'rsatilsa, o'quvchilar molekulaning hosil qilishda atomlar qanday birikkanligini tasavvur qiladilar, ya'ni;  $N-N$ ,  $O=O$ ,  $N \equiv N$

So'ngra molekulasida 2 ta element atomidan tuzilgan murakkab moddalarning kimyoviy formulasini yozib, molekulyar modelini yasab ko'rsatamiz, ya'ni  $HCl$   $H-Cl$  yoki  $H_2O$   $H-O-H$ ,  $CaCl_2$   $Cl-Ca-Cl$   $Fe_2O_3$   $O=Fe-O-Fe=O$



Berilgan formulalardan NSI-vodorod xloridning tarkibida bitta atom vodorod va bir atom xlor borligi. Demak, vodorod ham xlor ham bir valentli,  $N_2O$  suv molekulasida esa 2 atom vodorod va bir atom kislorod bo'lib, bunda vodorod bir valentli kislorod esa ikki valentli,  $Fe_2O_3$  temir(III)-oksidining tarkibida temir uch valentli kislorod ikki valentli ekanligi ko'rinib turibdi.

Endi molekulasida uchta element atomidan tashkil topgan  $HNO_3$ ,  $H_2SO_4$ ,  $H_3RO_4$  kabi moddalarning kimyoviy formulalarini tuzishni o'rgatamiz. Buning uchun  $HNO_3$ -nitrat kislotaning kimyoviy formulasidan ko'rinib turibdiki, uning tarkibida markaziy atom azot atomidir. Demak markaziy atom hisoblangan azotning valentligini topishni quyidagicha tushuntiramiz. Buning uchun  $HNO_3$ -nitrat kislotaning tarkibidagi kislorodning indeksi ya'ni 3ni uning valentligiga ko'paytiramiz ( $3 \cdot 2 = 6$ ). Hosil bo'lgan yig'indidan 1ni ya'ni vodorod atomini sonini ayiramiz ( $6 - 1 = 5$ ). Demak,  $HNO_3$ -nitrat kislotaning tarkibida azot atomi besh valentli ekan. Uning struktura formulasini yozib, shu asosida molekulyar modelini yasab ko'rsatamiz. Xuddi shu tartibda  $N_3RO_4$ -ortofosfat kislota tarkibidagi markaziy atom-fosforning valentligini topib ko'rsatamiz, ya'ni;  $N_3RO_4$ -ortofosfat kislota tarkibidagi kislorodning indeksini uning valentligiga ko'paytiramiz ( $4 \cdot 2 = 8$ ), hosil bo'lgan yig'indidan vodorodning indeksini ayiramiz ( $8 - 3 = 5$ ). Demak,  $N_3RO_4$ -ortofosfat kislota tarkibidagi markaziy atom fosfor atomi besh valentli ekan.


Shundan keyin yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida  $NaCl$ ,  $H_2S$ ,  $H_2CO_3$  kabi moddalarning kimyoviy formulalarini tuzilishini xohlovchi o'quvchilarning doskada yozdirish orqali o'rgatiladi, ya'ni o'quvchilarga doskada moddalarning kimyoviy formulalarini yozdiraman.

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida ikki xil topshiriq berish mumkin.

1. Moddalarning molekulyar modeliga qarab, o'quvchi shu moddani nomini aytib, molekulyar formulasini yozadilar. Masalan, quyida molekulyar modeli keltirilgan moddalarni nomini aytib, molekulyar formulasini yozing.







2. Quyidagicha molekulyar formulaga ega bo'lgan moddalarni tuzilish formulasini yozing.  $\text{SN}_3\text{SOON}$ ,  $\text{N}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{GeSO}_3$ ,  $\text{Su}(\text{OH})_2$ .

Har ikkala holda ham o'quvchi mavzuni yaxshi tushungan bo'lsa, topshiriqni to'g'ri bajaradi.

Bunday darsni tashkil qilishda avval har doim bitta element atomini hamisha bir xil rangda belgilanishi lozimligini aytib o'tish kerak. Chunki o'quvchilar molekulyar model tuzishda chalg'imag'dilar. Masalan, quyidagi jadvalni doskaga chizib qo'yish lozim.

Elementning nomi	Kimyoviy belgisi	Tanlangan plastilen rangi
Kislorod	O	qizil
Vodorod	N	oq
Uglerod	S	kulrang
Azot	N	ko'k
Oltinugurt	S	sariq

Keyin uyga vazifa sifatida mavzuni o'qib, yana bir necha moddalarning ham molekulyar, ham tuzilish formulasini yozib kelishni topshiramiz.

Olingan natijalar. Men o'zimning tajribamda Toshkent shahar Sirgali tumani 267-umumiy o'rta ta'lim maktabining 4ta 7-sinfning 2tasida ya'ni 7 a va 7 v shu mavzuni tushuntirish va savol-javob usuli bilan o'tdim. Qolgan 2ta, ya'ni 7 b va 7 g sinfga esa plastilendan moddalarning molekulyar modelini yasab ko'rsatdim. O'z navbatida o'quvchilarning o'zlariga ham mana shunday modellar yasattirganimda mana shu 2 ta ya'ni 7 b va 7 g sinf o'quvchilari mavzuga qiziqib, yaxshi o'rganib kelishdi.

Demak, o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan moddalarning struktura formulasini ham doskaga tez va to'g'ri yozishni o'rgandilar. Shu bilan birga bir necha moddalarning molekulyar modelini rasmlarini ko'rsatib shu moddalarning kimyoviy formulasini yozishni ham o'rgatdim.

So'ngra o'quvchilar bilimni baholab, darsni yakunladim.

## **Adabiyotlar**

1. I.R.Asqarov, N.X.Tuxtaboyev, K.G.Gopirov Kimyo “Shark” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2017.
2. A.G.Muftaxov. Umumiy kimyo. Toshkent ”O‘q‘ituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi-2004,23-32-betlar.
3. N.G.Raxmatullayev, N.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov “Kimyo oq‘itish metodikasi” Toshkent “Iktisod-Moliya”2013, 92-93-betlar.
4. С.Машарипов,И.Тиркашев. Химия.Издательско-полиграфический творческий дом ”O‘q‘ituvchi ”. Ташкент-2006.
5. Shomurotova Sh.Kh.,Formonova Sh.B.,Kamolova N.I.,Mavlonova S.A.Improving of Teaching the Role of Metals in Biochemical Processes using Pedagogikal Technologies.TEST Engineering .May June 2020.May 2020.Revised:19 May 2020.Accepted:29 May 2020. Publicatsion;12 June 2020.Page №26638-26646.
6. R.R.Kuchkorova “Umumiy-o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinflarida kimyoviy tenglamalar tuzish va tenglashtirish mavzusini o‘qitish uslubiyoti” UzRA akademigi,UzR xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro oliy maktab akademiyasi akademigi, kimyo fanlari doktori, professor Parpiyev Nusrat Agzamovich tavalludining 90 yillik xotirasiga bag‘ishlangan “Komplek birikmalar kimyosining dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami 2021-yil 14-15-sentabr.Toshkent 2021.
7. Y.Iskandarov.Sh.X.Shomurotova,N.Kamolova.”Forming a methodology for developing students’ creativity using creative methods in teaching chemistry to future chemistry teacher”//International journal of discourse on innovatsoin,integration and education.Avgust 2020.№2,P-10-14.

## **BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Shernazarov I.E. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Bo‘lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish metodikasini takomillashtirishning maqsadi, vazifasi, muammoni o‘rganilganlik darajasi, muammolarni bartaraf e‘tish uchun yangiliklar, yangiliklarni amaliy ahamiyati va kutilayotgan natijalar va muammo yechimlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** the Programme for International Student Assessment-PISA, Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS, Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS, (IHTT (OECD)– Organisation for Economic Cooperation and Development), ICILS, OECD.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОВЫШЕНИЯ  
ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ  
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ОЦЕНОЧНЫМ  
ИССЛЕДОВАНИЯМ**

**Шерназаров И.Э. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье освещены цель, задачи совершенствования методики повышения естественнонаучной грамотности, уровня изученности проблемы, новшества для устранения проблем, практическая значимость новинок, ожидаемые результаты и решения проблемы при подготовке будущих педагогов к международному оценочному исследованию.

**Ключевые слова:** программа международной оценки учащихся - PISA, тенденции в международном изучении математики и естественных наук - TIMSS, прогресс в международном изучении чтения и грамотности - PIRLS, (ИНТТ (ОЭСР) – Организация экономического сотрудничества и развития), ICILS, ОЭСР.

**IMPROVEMENT OF THE METHODS OF INCREASING NATURAL  
SCIENTIFIC LITERACY IN PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR  
INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH**

**Shernazarov I.E. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University  
named**

**Annotation.** The article highlights the goal, tasks of improving the methodology for increasing natural science literacy, the level of knowledge of the problem, innovations for eliminating problems, the practical significance of new products, expected results and solutions to the problem in preparing future teachers for an international assessment study.

**Key words:** The Programme for International Student Assessment-PISA, Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS, Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS, (IHTT (OECD))

Jahonda kimyo ta'limi sohasini takomillashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ularni o'qitishning metodik asoslarini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan CSR Asia ishlab chiqqan dasturda 2030-yilgacha ta'lim sifatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida oshirish [1] e'tirof

etilib, unda o'quvchilarining ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash va samarali tashkil etish ko'zda tutilgan. AKT sohasidagi jadal rivojlanish mahalliy va xalqaro miqyosda kadrlarning o'zaro muloqot qilish va istiqbolda o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini tubdan o'zgartiradi.

Dunyo miqyosida ilm-fan va texnologiya global rivojlanishning asosiy poydevoriga aylandi. Ikkala subyekt ham hayot sifatini yaxshilashda davom etmoqda, chunki yaratilayotgan yangi kashfiyotlar ilm-fan va texnologiyalar asosida paydo bo'ladi.

Respublikamiz hayotidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning yuqori malakali, mustahkam va chuqur bilimli, o'z ustida ishladigan, qobiliyatli kadrlarga bo'lgan talabiga mos ravishda amalga oshiriladigan kasbiy ta'limning tabiiy jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Hozirgi kunda yangi o'sib kelayotgan avlodni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar hamda bir qancha fanlar integratsiyasidan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil qilish keskin rivojlanmoqda. Masalan: ta'limni rivojlanishi va o'quvchilarni jahon standartlariga mos kadr bo'lim yetishishlarini hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlarni ta'lim sohasidan andoza olib ta'lim berish vazifalari yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarni bilim salohiyatlari rivojlangan mamlakatlardagi o'quvchilar bilim salohiyatiga ko'ra qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida bir qancha Xalqaro baholash tizimlarga a'zo bo'lindi va bu tizimlarning Respublikamizda rivojlanishi uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi[1, 7-8-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 yildagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni[2], 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroriga muvofiq va

mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

*Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.* Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini Xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorgarligini oshirish maqsadida malakali kadrlarni tayorlash metodikasi ishlab chiqish va mavjud metodikalarni takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsad asosida quyidagi vazifalar belgilandi:

- bo'lajak pedagoglarda Xalqaro baholash tizimi haqida tushunchalar hosil qilish;

- bo'lajak pedagoglarda PISA tadqiqotiga doir topshiriqlar bilan ishlashda tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish;

- bo'lajak pedagoglarni PISA tadqiqotiga doir topshiriqlar bilan ishlashda baholash mezonlari haqida tushunchalarni shakllantirish [2, 16-20-b];

- bo'lajak pedagoglarni PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot haqida tushunchalarni shakllantirish.

- bo'lajak pedagoglarni TIMSS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot haqida tushunchalarni shakllantirish.

- bo'lajak pedagoglarni STEAM – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot haqida tushunchalarni shakllantirish [4, 35-b].

- bo'lajak pedagoglarni ICILS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot haqida tushunchalarni shakllantirish.

- bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotiga doir yangi topshiriqlar tayyorlash metodikasini ishlab chiqish va shu topshiriqlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish [3, 22-24-b].

*Mavzuning o'rganilganlik darajasi.* 1990-yillarning oxirida ta'lim siyosatini ishlab chiqish uchun tadqiqotlarda aniq ilmiy yondashuvni qo'llash g'oyasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur – PISA tadqiqoti yaratilishiga olib keldi.

PISA tadqiqotida baholashning asosi, bu – matematika, o'qish, tabiiy fanlar va qator innovatsion sohalar bo'yicha jahon miqyosida muvofiqlashtirilgan topshiriqlar to'plamidir. Bunday baholash har 3 yilda ishtirokchi mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilari o'rtasida tasodifiy tanlov asosida o'tkaziladi.

PISA fanlarga oid bilimlarni, shuningdek, o'quvchilarning shu bilimlarni hatto notanish kontekstda ham ijodiy qo'llash qobiliyatini baholaydi. Shuningdek, bu dastur 16 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan insonlar o'rtasida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyasi (AKT) sohasidagi bilimlarni o'lchaydigan PIAAC dasturi bilan chambarchas bog'liq.

PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o'zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy



investitsiyalarni jalb etadi, ya'ni investorlar mamlakatda bilimli, malakali kadrlar bormi, degan savolga bu tadqiqot natijalari orqali javob topadi.

Bu borada jahon tajribasi qanday?

Estoniya PISA-2015 tadqiqotida matematika, o'qish va tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha eng yuqori reytingga ega bo'lgan o'rta mamlakatning biri edi. Bu muvaffaqiyat uchun kichkina Boltiqbo'yi davlati "Yangi Finlyandiya" deya atala boshlandi. Chunonchi, 2015-yilda Estoniya matematika va tabiiy fanlar bo'yicha Finlyandiyaning o'zib ketdi.

PISA-2015 natijalari yuzasidan alohida e'tiborga molik omil, bu – maksimal darajaga erishgan o'quvchilar soni emas, 3 muhim yo'nalishning har birida past ko'rsatkichlarga ega o'quvchilar sonining kamligi. Majburiy ta'lim 7 yoshdan boshlanadi, 3-4 yoshli bolalarning katta qismi davlat bog'chalariga boradi. Bitta tarbiyachiga to'g'ri keladigan tarbiyalanuvchilar sonining nisbati Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti reytingi bo'yicha o'rtachaning yarmini tashkil etadi. Yosh shkalasining ikkinchi uchida – o'rta maktabni muvaffaqiyatli tugatgan ko'p sonli o'quvchilar turadi (sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri), buni ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har bir o'quvchiga ko'rsatilayotgan yuqori darajadagi ishonch tasdiqlaydi.

PISA baholayotgan 3 yo'nalishning har biridagi yuqori natijalar haqida gap borar ekan, Estoniya ko'rsatgan natijalar yaxshi, lekin ularni zo'r deb bo'lmaydi. Reytingda 1-o'rinni egallagan Singapurda 39,1 foiz o'quvchilar maksimal natijalarni ko'rsatdi, Estoniyada esa bu ko'rsatkich atigi 20,4 foizni tashkil etdi. Biroq Estoniya past natijaga ega o'quvchilar sonining juda kamligi bilan liderlik qilmoqda. Estoniyalik 15 yoshli o'quvchilarning atigi 4,7 foizi 3 yo'nalish bo'yicha tayanch darajadan past ko'rsatkichni namoyish qiladi. Bu reyting liderlari – Finlyandiya, Gonkong, Singapur va Janubiy Koreya orasidagi eng yaxshi natija shuningdek, bu Germaniya va AQShdagiga qaraganda ikki marta kam [3, 56-58-b].

Ma'lumotlarni yig'ishda 2018-yilda 79 mamlakat va iqtisodiyot ishtirok etdi. Barroso va de Karvaloning ta'kidlashicha, PISA ta'lim sohasidagi akademik tadqiqotlar va davlat siyosatining siyosiy sohalarini bog'laydigan, ma'lumot va davlat siyosatining turli sohalarini o'rtasida vositachi sifatida ishlaydigan umumiy ma'lumotni taqdim etadi. Biroq, qiyosiy baholashning asosiy natijalari tadqiqot jamoatchiligida keng tarqalgan va ular yaratgan bilimlar hukumat islohotlari dasturlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi, bu baholash ma'lumotlarining ba'zi bir noo'rin ishlatilishiga olib keladi.

Bunga qarshi milliy ta'lim tizimlariga ta'sir sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Germaniyada birinchi PISA baholash natijalari "PISA zarbasi" deb nomlandi: ilgari qabul qilingan ta'lim siyosatiga savol; mintaqada rashk bilan muhofaza qilingan mintaqaviy siyosat farqlari bilan ajralib turadigan davlatda, oxir-oqibat barcha Landerlar tomonidan umumiy milliy standartlarni va hatto ularga rioya qilinishini ta'minlash uchun institusional tuzilmani joriy etish to'g'risida kelishuvga

erishildi. Vengriyada, Germaniyaga o'xshash sharoitlarni taqqoslaganda, PISA natijalari ta'lim siyosatida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmadi.

Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining nisbiy darajalariga yoki PISA-ning mutlaq ballariga qarab milliy ko'rsatkichlarni belgilashganligi sababli, PISA baholari ularning (saylanmagan) komissiya tashkiloti - OECDning xalqaro ta'lim monitoringi va siyosatining subyekti sifatida ta'sirini oshirdi, bu muhim ahamiyatga ega. Xalqaro darajadan milliy darajaga siyosat o'tkazish darajasi, ayniqsa, PISA "Milliy ta'lim siyosati yo'nalishiga ta'sirchan normativ ta'sir ko'rsatadi".

Shunday qilib, xalqaro standartlashtirilgan baholardan foydalanish milliy tizim faoliyati uchun xalqaro, tashqi javobgarlikka o'tishga olib keldi, deb ta'kidlaydilar;

Rey ta'kidlashicha, ta'lim tizimlarining obektiv, uchinchi tomon diagnostikasi sifatida tasvirlangan PISA so'rovlari, aslida ta'lim masalalari bo'yicha aniq yo'nalishlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Milliy siyosat subyektlari yuqori darajadagi PISA mamlakatlarini "milliy siyosat bahsli munozaralarida ko'zda tutilgan islohot kun tartibini qonuniylashtirishga va asoslashga yordam berish" uchun murojaat qilishadi. PISA ma'lumotlari "ilgari mavjud bo'lgan mojarolar yoki turli xil siyosiy variantlar o'rtasidagi raqobat, masalan, Belgiyaning Fransiya hamjamiyati kabi uzoq muddatli bahslarni kuchaytirish uchun ishlatilishi mumkin". Bunday holatlarda PISA baholash ma'lumotlari tanlab ishlatiladi: jamoatchilik nutqida hukumatlar ko'pincha PISA so'rovlarining yuzaki xususiyatlaridan foydalanadilar, masalan, mamlakatlarning reytinglari, batafsilroq tahlillar emas. Rey (2010: 145, Gregerga ishora qilib, 2008) ta'kidlashicha, ko'pincha PISA baholarining haqiqiy natijalari e'tibordan chetda qoladi, chunki siyosatchilar boshqa sabablarga ko'ra kiritilgan siyosatni qonuniylashtirish uchun ma'lumotlarga tanlab murojaat qilishadi. Bundan tashqari, PISA xalqaro taqqoslashlari yordamida ma'lumotlarning o'zlari hech qanday aloqasi bo'lmagan islohotlarni asoslash uchun foydalanish mumkin; masalan, Portugaliyada o'qituvchilarni baholash bo'yicha yangi kelishuvlarni asoslash uchun PISA ma'lumotlaridan foydalanilgan (baholash va ma'lumotlarning o'zi bilan asoslanmagan xulosalar asosida) shuningdek, ular o'quvchilarning bir yilni takrorlashi (bu, tadqiqotlarga ko'ra, talabalar natijalarini yaxshilay olmaydigan) masalasi bo'yicha hukumatning nutqini oziqlantirdilar.

Finlyandiyada mamlakat PISA natijalari (boshqa mamlakatlarda juda yaxshi deb hisoblangan) vazirlar tomonidan "iqtidorli" talabalar uchun yangi siyosatni ilgari surishda foydalanilgan. Bunday foydalanish va izohlashlar odatda qonuniy ravishda PISA ma'lumotlariga asoslanib bo'lmaydigan sababiy munosabatlarni o'z ichiga oladi, bu odatda sifatli miqdoriy va sifatli usullar asosida sifatli chuqur tadqiqotlar va bo'ylama tadqiqotlar orqali to'liq tekshirishni talab qiladi hamda qaysidir siyosatchilar ko'pincha mablag' ajratishni istamaydilar.

Garchi PISA va TIMSS rasmiylari va tadqiqotchilarining o'zlari, umuman olganda, mamlakatlar o'rtasidagi talabalar yutuqlaridagi katta va barqaror farqlar

to'g'risida faraz qilishdan bosh tortgan bo'lsalar-da, 2000-yildan beri PISA va TIMSS natijalaridagi farqlar va ularning mumkin bo'lgan sabablari to'g'risida adabiyotlar paydo bo'ldi. PISA ma'lumotlari bir qator tadqiqotchilarga yordam berdi, xususan Erik Xanushek, Lyudger Vossman, Heiner Rindermann va Stiven J. Ceci, o'quvchilarning yutuqlari va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik haqida kitoblar va maqolalar uchun material, demokratlashtirish va sog'liq, shuningdek, imtiyozli imtiyozlar singari yagona ta'lim omillarining rollari, xususiyl maktablarning mavjudligi yoki yo'qligi, qobiliyatlarni kuzatishning ta'siri va vaqti.

Devid Shpigelhalter Kembrijning yozishicha:

“PISA ballar va darajalardagi noaniqlikni keltirib chiqaradi, masalan: Birlashgan Qirollik 65 mamlakatlar qatori 23 dan 31 gacha deb aytilgan. Mamlakatlar ta'lim siyosatini o'zlarining PISA natijalariga asoslashlari maqsadga muvofiq emas, chunki Germaniya, Norvegiya va Daniya 2001-yilda yamon ish qilganidan keyin qilgan”.

Internet ma'lumotlariga binoan Forbes, ba'zi mamlakatlarda PISA faqat eng yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan hududlardan yoki ularning eng yaxshi natijalarga erishgan talabalaridan namunalarni tanlaydi va natijalarni pasaytiradi.

Xitoy, Gonkong, Makao, Tayvan, Singapur va Argentina ba'zi bir misollar edi. Internet ma'lumotlari ochiq xatga ko'ra Andreas Shleyxer, PISA direktori, turli xil akademiklar va o'qituvchilar “OECD va PISA testlari butun dunyo bo'ylab ta'limga zarar yetkazmoqda” deb ta'kidladilar. Internet ma'lumotlariga binoan O Estado de San-Paulu, Braziliya davlat va xususiyl maktablar o'rtasidagi natijalarni tasniflaganda juda katta tafovutni ko'rsatmoqda, bu yerda davlat maktablari Perudan yamonroq, xususiyl maktablar esa Finlyandiyaga qaraganda yaxshiroq [5, 16-17-b].

Rossiyada ta'lim sifatini yaxshilash hamda xalqaro baholash tizimlariga tayyorlash maqsadida bir qancha olimlar tajriba va tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Masalan: Kovaleva Galina Sergeyevna-PISA xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Rossiya federatsiyasining tajribasi, o'qituvchilar malakasini oshirishning muhim jihatlari, baholash vositalari va o'quv-uslubiy qo'llanmalarini ishlab chiqish, Roslova Larisa Olegovna-PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash va shakllantirish, Sidorova Galina Aleksandrovna-PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida o'qish savodxonligini baholash va shakllantirish, Pentin Aleksandr Yurevich-PISA xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rishda tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash va shakllantirishga yondashuvlar, Avdenko Nadejda Aleksandrovna-PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish ishlarini keltirish mumkin.

Mamlakatimiz 2021-yilda ilk marotaba PISA (15–16 yoshli o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha xalqaro dastur) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etadi. Yurtimizda hukumat qarori bilan PISA va shu kabi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishga mas'ul bo'lgan alohida markaz tashkil etildi. PISA loyihasi mas'ul xodimi Maykl Vord ushbu jarayonda O'zbekiston bilan doimiy ishlaydigan vakil etib belgilandi.

Ushbu sohada tajribali mutaxassis hisoblangan Maykl Vord Ukraina uchun maslahatchilik qilmoqda. U ikki yil davomida, ya'ni PISA sinovlari o'tkazilib, natijalar tahlil qilinib, O'zbekiston rahbariyatiga taqdim etilgunga qadar yurtimizga doimiy tashrif buyurib turishi va mutaxassislarimiz bilan birga ishlashini ma'lum qildi. Tadqiqotda 200 ta maktab, 4000 nafar o'qituvchi ishtirok etadi. Ularni tanlash ham PISA tadqiqotlariga o'xshash bo'lib, qaysi bosqich o'qituvchilarini tanlash, nechta tilda so'rovnomalar o'tkazilishini belgilash OECD va davlat o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosan ko'zda tutiladi [7, 5-6-b].

*Tadqiqotning nazariy asoslari.* Kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholashdagi PISA tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy savodxonligini oshirish metodikasi shakllantirishda, avvalom bor bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini o'zlari xalqaro baholash tizimlari haqida tushunchalarga ega bo'lishi lozim.

Xalqaro baholashda, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

- O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment-PISA);

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS);

- O'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS);

Shuningdek, mazkur tizimda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey-TALIS) tashkil etishga kirishildi.

PISA o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini aniqlashga mo'ljallangan. Shuningdek, PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi hamda ularning muammoni hal qila olish ko'nikmalarini ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal



etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi [8, 33-34-b].

*Tadqiqotning ilmiy yangiligi.* Bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholashdagi tadqiqotlarga tayyorlashda tabiiy savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirishda:

Bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholash tizimidagi tadqiqotlarga tayyorlashda tabiiy savodxonligini oshirish metodikalari innovatsion va pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirilgan;

Bo'lajak pedagoglarning mustaqil ishlashini ta'minlaydigan, faoliyatini, bilimni uzluksiz o'zi tomonidan nazorat qilib borilishiga imkon beradigan didaktik materiallar (kreativ, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligiga oid topshiriqlar) tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasiga qo'yiladigan talablar (anglash, tushunish, amaliyotga tatbiq etish) asosida ishlab chiqilgan;

- xalqaro baholash tizimi tadqiqotiga doir topshiriqlarni o'rganishda, fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish maqsadida o'quv metodik majmua (o'qituvchilarni kreativ, matematik fikrlashi hamda tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda vaqtini tejaydigan, mashg'ulot samarasini oshiradigan) hamda xalqaro baholash PISA tadqiqotiga doir kimyo fanidan yangi topshiriqlarni (rasmi, grafikli hamda matematik hisoblashlarga doir savol hamda topshiriqlar ko'rinishida) tayyorlash metodikasi ishlab chiqilgan.

*Tadqiqotning amaliy ahamiyati.* Bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotlarga tayyorlashda tabiiy savodxonligini oshirish metodikasining ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi;

bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholash tizimlarini o'rgatishda fanlararo integratsiyaning samaradorligi ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligiga bog'liqligi asoslandi;

xalqaro baholash tadqiqotiga doir topshiriqlarni tayyorlashda pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari aniqlandi;

o'qituvchilarning xalqaro baholash tadqiqotiga doir egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari aniqlandi, ushbu jarayonning muntazamligini amalga oshirishda innovatsion va pedagogik texnologiyalar hamda fanlar integratsiyasidan foydalanish obyektiv zarurat ekanligi asoslandi;

kimyo ta'limi yo'nalishdagi bo'lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotlaridagi o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy qo'llanma va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston



Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalarini amalga oshirish maqsadida eng avvalo malakali kadrlar tayyorlash lozimdir.

Malakali kadrlar tayyorlash davr muammosi ekan, bunga alohida ahamiyat berish har bir oliy o'quv yurtining oldiga qo'ygan oliy maqsadidir.

---

## **Adabiyotlar**

1. A.A.Ismailov va b. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash (Kimyo, biologiya, fizika, geografiya fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil.

2. A.A.Ismailov va b. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo'nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo'ljallangan axborotnoma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2020-yil

3. A.B.Radjiev va boshq. O'quvchilarning savodxonligining baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo'llanma. Toshkent, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi -2019

4. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (Eds.). (2017). TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center

5. OECD (2013), PISA 2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, OECD Publishing.

6. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

7. D.Norboyeva, S.Akbarova, M. Baymuratova "Tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilar bilimini baholashga mo'ljallangan mashq daftari".(A, B, C) Toshkent - 2020

8. Directorate for education and skills hrogramme for international student assessment. Governing Board// framework for the assessment of creative thinking in PISA// 2021 – Second draft. 46th meeting of the PISA Governing Board.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ УЧАСТНИКОВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

**Гафурова Н.М. - преподаватель Ташкентского педиатрического  
медицинского института, доктор философских наук по педагогике**

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются вопросы формирования здорового образа жизни участников образовательного процесса. Сегодня проблема здорового образа жизни является глобальной проблемой человечества. И решение этой проблемы показывает необходимость формирования научно обоснованного, социально и гигиенически рационального образа жизни, способствующего всестороннему развитию личности, работы, жизни и отдыха.

**Ключевые слова:** участники образовательного процесса, образовательный процесс, здоровый образ жизни, здоровье, медико-гигиенические знания.

## **FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE OF PARTICIPANTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Gafurova N.M. - Lecturer at the Tashkent Pediatric Medical Institute,  
Doctor of Philosophy in Pedagogy**

**Annatation.** This article is written about the importance of forming a healthy lifestyle for a student in the educational process. It is no secret that today the problem of a healthy lifestyle is the most important problem of mankind. And the solution to this problem depends on the need to form a scientifically grounded, socially and hygienically rational way of life, contributing to the all-round development of personality, work, life and leisure.

**Key words:** participants in the educational process, educational process, healthy lifestyle, health, medical and hygienic knowledge.

## **TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH**

**G'afurova N.M. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari doktori**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida talabada sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi

muammosi insoniyatning eng muhim muammosi ekanligi sir emas. Va bu muammoning yechimi shaxsda mehnat, hayot va dam olish tarzini har tomonlama rivojlantirishga hissa qoʻshadigan ilmiy asoslardan, ijtimoiy va gigiyenik jihatdan oqilona turmush tarzini shakllantirish zaruriyati bilan bogʻliq.

**Kalit soʻzlar:** taʼlim jarayoni ishtirokchilari, oʻquv jarayoni, sogʻlom turmush tarzi, salomatlik, tibbiy-gigiyenik bilimlar.

Социально-политические и экономические изменения в нашей стране поставили вопрос о пересмотре педагогической позиции учителей, критической переоценке сложившихся научных, теоретических и практических систем подготовки и воспитания квалифицированных кадров. Изменения касаются прежде всего пересмотра цели, содержания, форм, методов и структуры образования. В нашем обществе здоровье человека, физическая подготовка, культура здорового образа жизни является очень важные социальные ценности. Обеспечение здоровья нации, поддержание генофонда человека может быть решено только через здоровый образ жизни. Поэтому перед всеми социальными институтами, семьями, образовательными учреждениями, районами и независимым образованием стоит задача разъяснить гражданам нашего общества содержание и суть здорового образа жизни, воспитывать молодых людей как бдительных, любознательных и разносторонних личностей.

К концу XXI века эволюция знания, глубокая дифференциация наук выдвинули неотъемлемую проблему человека в число актуальных. По сути, эта проблема становится обычным явлением как для науки в целом, так и для отдельных ее отраслей, включая частные и технические области.

В.С.Шубинский в своих работах утверждает, что в наше время «радикально меняется парадигма главной цели образования: это не человек, а человек с многомерными (в том числе личностными) характеристиками бытия»[15].

Современная педагогика должна найти адекватные способы вовлечения подрастающего поколения к поддержанию собственного здоровья. Международный опыт показывает, что программы охраны здоровья подростков являются наиболее перспективными.

В мировой науке профилактические программы оказались несравненно более полезными, чем программы по борьбе с последствиями неадекватного общественного здравоохранения. Экономический анализ, проведенный в развитых странах показал, что программы по укреплению и поддержанию здоровья в процессе формирования и становления личности широко используется[8].

Однако учителя в образовательных учреждениях по-прежнему не участвуют в разработке необходимых программ и концепций, касающихся здоровья учащихся. Это приводит к тому, что задача профилактики и поддержания здоровья студентов в образовательных учреждениях считается второстепенной по отношению к основному учебному процессу, что резко снижает эффективность работы по сохранению и укреплению здоровья студентов и преподавателей.

Можно сказать, что работа по охране здоровья в образовательных учреждениях имеет, прежде всего, чисто медицинскую основу, поскольку исходит из идеи «лечения болезней»; во-вторых, технологии передачи знаний о здоровье и здоровом образе жизни на поведенческий уровень не разработаны педагогической теорией и практикой; в-третьих, хотя их здоровье имеет тенденцию к ухудшению, не существует надежного критерия для оценки эффективности процесса улучшения здоровья студентов[8].

Ведущими причинами негативного воздействия не только на физическое, но и на психическое здоровье обучающихся в образовательных учреждениях являются гипокинезия, т.е. недостаточная физическая активность, неспособность поднимать нагрузку, недоедание, нарушение режима труда и отдыха, несоблюдение требований, количество гигиенических требований (вентиляция, освещение), отсутствие мебели и др.), несоблюдение правил безопасности, недостаток информации о здоровье и здоровом образе жизни среди учителей, родителей и учащихся[3, 5, 11, 12, 1].

Исследователи отмечают, что основным источником нарушения психического здоровья подростков является информационная перегрузка, большое количество изучаемых предметов и образовательная перегрузка, которая возникает из-за неспособности молодых людей учиться. Кроме того, ярко выраженное несоответствие внешних требований психофизическим возможностям будущих специалистов, несоответствие проявления индивидуальных особенностей нервной системы требованиям учебной деятельности приводит к значительным потерям здоровья[2, 4, 14, 7].

Систему образования нельзя считать гуманистической, если ценности здоровья не нашли своего места[6]. Необходимость преодоления противоречия, связанного с неостребованностью огромного научного потенциала для решения задач гуманизации образовательного процесса, привела к появлению новой интегрированной науки - валеологии, расположенной на стыке педагогики и медицины, философии и психологической науки[10, 9, 13].

Чтобы жить долго, каждому нужно постоянно укреплять свое тело. Для создания резервов здоровья рекомендуется придерживаться следующего здорового образа жизни:

- регулярные занятия физкультурой и физическим трудом. Заниматься спортом не менее 6 часов в неделю;
- работа с нормальными умственными и физическими нагрузками, активный отдых после напряженной умственной работы. Современная и содержательная организация работы и отдыха;
- рациональное и сбалансированное питание, похудание, ограничение употребления животных жиров, сахара и сладостей;
- избавление от вредных привычек;
- закаливание организма;
- быть на свежем воздухе не менее 2–3 часов каждый день;
- строгое соблюдение расписания, сон не менее 8 часов в сутки;
- при необходимости изменить образ жизни и работу;
- учеба и удовлетворение работой[1].

Чтобы увеличить резервные возможности организма, необходимо добиться постепенной организации тела и привычек.

К ним относятся принуждение мышц сердца и тела к работе с разными упражнениями, выполнение этих упражнений в одно и то же время и следование определенному распорядку, создание привычки чередовать умственную и физическую активность и т. д.

Известно, что будущее нашего поколения - это борьба за здоровое поколение, нам необходимо научить нацию здоровому образу жизни для достижения нашей цели. Когда мы говорим о здоровом поколении, мы должны иметь в виду не только физически сильных детей, но и духовно богатое и здоровое поколение. Ведь невозможно быть физически здоровым, не будучи здоровым духовно. Обе концепции совместимы и зависимы одно от другого. Невозможно сломать нацию с физически и духовно здоровым поколением. Поскольку наша главная цель - формирование физически здоровой, энергичной нации, объединенной на основе единой национальной идеи, мы должны научить ее здоровому образу жизни, также создать все необходимые педагогические условия.

Традиционно в узбекской семье ярко выражены признаки многовековой принадлежности. Старшие в семье - бабушки и дедушки, близкие родственники, соседи – непосредственно участвуют в формировании здоровых идей и знаний у детей. Согласно нашему менталитету, влияние бабушек и дедушек, соседей и родственников на воспитание наших детей сильнее, чем влияние родителей. Данное влияние и окружение определяют духовную среду в семье.

Эта традиция воспитания является важной духовной и образовательной ценностью, оставшейся от прошлого, и в жизни наших великих предков этот



стиль воспитания сформировался и поднялся до определенного системного уровня.

Под влиянием определенных событий и различных изменений, происходящих в жизни, формируется образ жизни человека. По мере развития общества увеличивается поток информации, возрастает потребность в динамичном образе жизни, взаимодействие и общение становятся более сложными, влияя на психику учащихся. В результате они несут все большую ответственность за выбор своего поведения, основанного на их судьбе, семье, сообществе, образе жизни и стремлении к умственной, эмоциональной и духовной свободе. Такой образ жизни часто требует профилактики различных неврологических заболеваний, которые могут возникнуть у студентов и подростков. Достижение этой цели требует, прежде всего, организации здорового образа жизни в личном и социальном масштабе, а также реализации важных направлений для достижения его преемственности и преемственности. Для этого нужно понимать суть проблемы и знать, как ее решить. А в системе непрерывного образования необходимо создать студентам соответствующие условия для формирования здорового образа жизни.

Анализ влияния выбранных факторов на формирование здорового образа жизни у подрастающего поколения позволяет сделать вывод, что образовательные учреждения могут соответствующим образом влиять на этот процесс через организованную систему обучения и воспитания.

В понимании М. Дерюгиной «условия» - это ряд обстоятельств, то есть то, что позволяет и необходимо для наступления определенного следствия. В этом случае причина определяет следствие, а другие условия необходимы, но играют второстепенную роль. Организационно-педагогические условия оказывают существенное влияние на конечный результат обучения и воспитания[1].

Процессы, которые происходят в сфере образования сегодня и способствуют построению здоровья, системы образования (гуманизация, дифференциация, психологизация) должны иметь определенную структуру и подчиняться ее законам.

Слаженность, взаимодействие и ритмичность совместной работы учителей, учеников, руководителей образовательных учреждений и родителей - реальный шаг к гуманизации и гуманизации системы образования и способствует общему решению проблем формирования здорового образа жизни. студенты в процессе обучения.

Основные принципы, на которых должна строиться работа образовательных учреждений, изложены в специальной научной литературе. Это:

- Принцип подчинения природе, отказ «перестраивать» личности. Основываясь на законах личностного развития, поиска, выявления и укрепления внутренних сил с учетом имеющегося потенциала;

- Механизм преемственности между целями, содержанием, формами и методами, сущность педагогического взаимодействия, принцип преемственности процесса личностного развития, обеспечиваемый технологией валеологизации педагогического процесса и развития физической и духовной культуры человека;

- Принцип целостности процесса развития, который охватывает эмоциональную, когнитивную и волевую области личности, позволяя человеку понять преимущества здорового образа жизни, общих и конкретных знаний и навыков;

- Принцип лично-ориентированного характера системы, который реализуется через цели улучшения здоровья каждого студента, индивидуализацию содержания, форм, методов и педагогических средств достижения здоровья;

- Принцип сочетания непрерывного обучения здоровому образу жизни с практической деятельностью науки, природы, человека и общества;

- Принцип самоорганизации и развития путем накопления личного опыта самоанализа посредством выбора смысла и направления жизни, самопознания, самоопределения и постепенной трансформации стадий самосознания, контроль за разработкой и организацией системы педагогической поддержки развития устойчивого здорового образа жизни будущими специалистами, самокоррекция[1].

Основными организационно-педагогическими условиями решения задач системы образования является улучшение работы со студентами, педагогическим и медицинским персоналом, родителями и различными социальными учреждениями. Это станет возможным на основе систематического всестороннего изучения и учета состояния здоровья студентов в соответствии с направленностью учебного процесса; выбор содержания, методов и форм обучения, соответствующих формированию здорового образа жизни, как цели обучения.

Этот целостный многомерный процесс требует подготовки учителей, которые признают приоритет здоровья учащихся как необходимое условие для реализации всей возможности и творческого потенциала личности.

## **Литература**

1. Дерюгина Марина Юрьевна. Педагогические условия формирования здорового образа жизни учащихся: диссертация ... кандидата

педагогических наук: 13.00.01.- Москва, 2007.- 170 с.: ил. РГБ ОД, 61 07-13/2183

2. Валеология: Учебное пособие /Под общ.ред. В.П.Соломина, Ю.Л.Варшамова. СПб.: Образование, 2003. - С. 205

3. Винокуров Л.Н. Сохранение и укрепление нервно-психологического здоровья студентов в условиях интенсификации учебно-воспитательного процесса педвуза: Межвуз сб. науч. трудов. Кострома: КПИ, 1999.-С. 69-75

4. Выготский Л.С. Педология подростка: проблемы возраста / Собр. Соч. в 6 т. Т.4.-М.: Педагогика, 1986.-С.242

5. Здоровье студентов. Вып.1. Здоровый образ жизни и физическая культура студентов: Социологические аспекты. / Под ред. Лабскира В.М. и проф. Столярова В.И: Харьков: ХГУ, 1998.-С.103

6. Лисицын Ю.П. Здоровье населения и современные теории медицины: Критический анализ. - 2-е изд., перераб. и доп. М.: Медицина, 1998. - С.326.

7. Ляхович А.В., Медведь Л.М., Лозовская А.С., Бобровский А.Н. Некоторые тенденции в образе жизни учащейся молодежи // Тез.докл. Всерос. науч.- практ. конф. «Проблемы валеологии в образовании». Липецк: ЛИФК, 1999.- С.62-63.

8. Новые ценности образования. /Под ред. Крыловой Н.Б. М: ИИПИ РАО, 2001.- С.197.

9. Силуянова И. Поп-наука, Валеология. Научно-методическая, мировоззренческая и правовая несостоятельность. // Медицинская газета. 1999. - № 51. - июль. - С. 13.

10. Симонов В.П. Педагогический менеджмент. М.: Просвещение, 1997.-С.206.

11. Содержание и методики становления гуманистического мировоззрения учащихся в учебно-познавательной деятельности. / Под ред. Р.М.Роговой. М.: МПГУ, 1998.-С.53-75.

12. Соковня-Семенова И.И. Основы ЗОЖ и первая медицинская помощь. М.: Академия, 1997. - С.30.

13. Стурова. П. Система образования и молодежная преступность // Педагогика. 1998. - № 6. - С.3-9.

14. Физическая культура основа ЗОЖ / Доклады, тезисы, материалы II Всероссийской научно-практической конференции. -Самара: СИПКРО, 1996.- С.192

15. Шубинский В.С. Человек как цель воспитания // Педагогика. 1992. - №3-4.- С.7-42.

## **O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINING KIYINISH ELEMENTLARIGA OID ESTETIK JIHATLAR TAVSIFI**

**Muratova S.Ch. – Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek milliy raqs san’atining kiyinish elementlariga oid estetik jihatlar tavsifi, o‘zbek milliy raqs san’atining tarbiyaviy ahamiyati hamda raqs san’atida raqslarni, raqsning kiyimlarini tanlashning estetik jihatlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqs, milliy raqs, san’at, tarbiya, estetik tarbiya, raqs kiyimlari.

## **ОПИСАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПО ЭЛЕМЕНТАМ НАРЯДА ИСКУССТВА УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ТАНЦА**

**Муратова С.Ч. - преподаватель Термезского государственного  
университета**

**Аннотация.** В статье анализируются эстетические аспекты элементов наряда узбекского национального танца, воспитательная ценность узбекского национального танца и эстетические аспекты выбора танцев, танцевальных костюмов в искусстве танца.

**Ключевые слова:** танец, народный танец, искусство, образование, эстетическое воспитание, танцевальные костюмы.

## **DESCRIPTION OF AESTHETIC ASPECTS ON THE ELEMENTS OF THE ATTIRE OF THE UZBEK NATIONAL DANCE**

**Muratova S.Ch. - Lecturer at Termez State University**

**Annotation.** The article analyzes the aesthetic aspects of the elements of the attire of the Uzbek national dance, the educational value of the Uzbek national dance and the aesthetic aspects of the choice of dances, dance costumes in the art of dance.

**Key words:** dance, national dance, art, education, aesthetic education, dance costumes.

Milliy san’atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevral 4584-son qarorida “Ko‘p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan milliy raqs san’atining xalqimiz ma’naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va

an'analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu esa ushbu san'atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo'nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda".[1]- deb ta'kidlangan.

Shuningdek, mazkur qarorda nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham mashhur bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" ansambli o'zining qariyb 30 yillik faoliyati davomida o'zbek milliy raqs san'ati rivojida o'chmas iz qoldirganligi, biroq, mustaqillikning dastlabki yillarida "Bahor" ansamblining ijodiy faoliyati to'xtab qolganligi va shularning barchasini hisobga olgan holda milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish, shuningdek, o'zbek raqs san'atining "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini yanada oshirish va keng targ'ib etish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish vazifasining belgilanganligi bizning tadqiqot ishimizning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

O'zbek raqs san'atida raqslarni tahlil etish masalasida N.Abrayqulova quyidagi taklifini keltiradi: "O'zbek raqs san'atining meros raqslari majmuasiga kirgan "Munojot", "Rohat", "Tanovar", "Pilla", "Paxta", "Katta o'yin" va boshqa raqslarni biron-bir joyini o'zgartirishga hech kimning haqqi yo'q. Ushbu raqslarni buzmasdan, ortiqcha elementlar qo'shmasdan butunligicha o'rgatish kerak. Aks holda uslublar aralashib, o'zbek milliy raqs san'atining ko'p qirralik boyligiga katta putur yetkazadi[2]". Mazkur fikr o'zbek raqs san'atida o'ziga xos ma'no mujassamligi, tarbiyaviy jihatlari borligiga ishora qiladi.

Raqs san'ati vujudga kelganidan boshlab xalq raqslari uning asosiy janri bo'lib qoldi. U qadim davrlarda yaratilib va rivojlanib kelganligi, xalqning hayoti, maishiy hayot va mehnatning ajralmas qismi bo'lib qolganligi tabiiy holatdir. Xalq raqsi xoreografiyasi vositalari insonning ko'p qirrali xarakteri, uning ichki kechinmalarini ochib beradi.

Xoreografiyani o'qitish ta'limiga kiruvchi fanlardan biri bu tarixiy-maishiy raqslardir. Tarixiy-maishiy raqs ta'limi harakatlar va kompozitsiyalar asosida tuziladi. Undan ko'zlangan maqsad "Xoreografiya san'ati asoslari" fani bo'yicha



ta'lim olayotgan talabalarni ushbu fan bilan tanishtirish, raqs kombinatsiyasi va kompozitsiyasini yaratishda yordam berishdan iboratdir. Tarixiy-maishiy raqs fanini o'qitish ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismda mavzu tarkibiga kiruvchi "Pas balanse", "Pas shosse", "Pas eleve" elementlari o'rgatiladi. Bunda ayrim elementlarni bajarishga ko'proq e'tibor qaratiladi, o'rganilgan harakatlardan raqs kompozitsiyalari tuzishga misollar beriladi. Ikkinchi qismda o'tilgan materiallar va talabalarning imkoniyatlarini hisobga olib tuzilgan raqs va raqs kompozitsiyalariga ko'proq e'tibor beriladi[6].

Taniqli san'atkor R.Karimova raqqosaning gavda holati to'g'risida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Har bir raqqosa, garchi u maxsus bilimga ega bo'lsa-da, sahnani tark etgunga qadar mashg'ulotni davom ettirishi zarur. Mashg'ulot qomatning go'zalligini saqlaydi, qo'l va oyoq harakatlarini kamolga yetkazadi. Qo'l va oyoq holatlari Farg'ona uslubidagi raqslarni o'rganishda asosiy qoida bo'lib hisoblanadi. Ushbu oyoq va qo'l holatlarini yod olgan raqqosa raqslarni qiynalmay o'rganadi hamda xatosiz ijro etadi. Qo'l holatlari kuylovchan bo'lishi uchun yirik to'lqin, ilon harakatlarini muntazam takrorlab borish kerak. Xilma-xil aylanishlar, so'ng egilishlarga o'tishi zarur. Shu tarzda raqs san'atining xazinasini boyiydi. Har bir uslubni qat'iy saqlash kerak. Aks holda uslublar aralashib, o'zbek milliy raqs san'atining ko'p qirrali boyligiga katta ziyon yetadi. Darsni olib boruvchi avval tayyorlanib, so'ng mashg'ulotni boshlashi kerak. Shu qatorda Farg'ona uslubidagi doira zarblariga moslashgan eng asosiy harakatlardan shakllangan mashg'ulotni o'tish har bir raqs san'atчисiga ilmiy xazina boyligi, tunganmas buloq, yangilik ilhom beradi. Doira zarblarini mukammal biladigan doirachi va harakatlarni aniq biladigan muallim mashg'ulotni bir joyda o'tishi maqsadga muvofiq. Agar bunday kishilar joylarda yo'q bo'lsa, mutaxassis shaxslarni chaqirib, seminar o'tkazish kerak"[5].

O'zbek raqs san'atining tarbiyaviy ta'sirida etibor talab xilma-xil jihatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, agar katta formadagi raqs keng quloq yozib bajariladigan harakatlar birlashmasi keskin bajarilishi bilan xarakterlansa, kichik formadagi raqs esa (katta formadagi raqslardagi kabi keng doira bo'ylab quyundek tez aylanishdan boshqa harakatlar mavjud bo'lsa ham) harakatlarning og'irligi, mayinligi va raqqos qiyofasidagi yashirin o'ychanlik bilan ajralib turadi. "Xona bazm" o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari gavdaning yuqori qismidagi harakatlar bilan farqlanadi. Bular qo'l panjalari, bosh, bo'yin, yelka, qosh-kipriklar, lablar va ko'krakning yengil titrashi yoki tebranishidan iborat. Bu o'yinlarda raqqosning sezilar-sezilmas bosh qimirlatishi, kipriklarini pirilaltishi, barmoqlarining beixtiyor harakatlari beqiyos go'zallik va zebolikni vujudga keltiradi. Agar raqqos raqsni ahamiyati yo'qdek ko'ringan bu harakatlarsiz - faqat raqsning asosiy harakatlarinigina ijro etsa, bu go'zallik darhol yo'qoladi. Shuning uchun ham kichik formadagi raqslarning ko'pchiligi chuqur his-tuyg'u bilan sug'orilgan bo'ladi. Ashula

va raqs janrlariga kiruvchi yallalarning raqs qismlari katta va kichik formadagi raqslarga eng yaqin turgan raqslardandir. Yallani ko‘pincha ashulachi ijro etadi va bir laparni aytib, xor jo‘rligida o‘yinga tushadi.

Ommaviylashtirilgan raqs sifatida birinchi navbatda “Kema o‘yin”ni ko‘rsatish mumkin. “Kema o‘yin”ni ijro qiluvchilar bellariga yengil yasama qayiqni bog‘laydilar, qayiqdan pastga raqqosa oyoqlarini bekitadigan qilib nafis mato tutiladi; bu esa qayiqda odam o‘tirgandek taassurot beradi. “Kema o‘yin” odatda kechasi ijro qilinganidan qayiqning ikk uchiga yonib turgan chiroqlar o‘rnatiladi. Bu ajoyib tomoshada, odatda, bir qancha raqqoslar ishtirok etadi. Raqs birin-ketin keladigan murakkab harakatlardan, doira bo‘ylab va bir joyda turib gir aylanishlardan, sekin-asta o‘tirib, bir tomondan ikkinchi tomonga tebranishlardan, kemaning daryo to‘lqinida chayqalishi, goh suv girdobiga urilishi, goh sayoz joyga chiqib to‘xtab qolishi, goh mavj urib to‘lqinlanib turgan suvda suzib borishi kabi harakatlardan iboratdir[3]. Agar e‘tibor berib qaraydigan bo‘lsak, har bir hududiy raqs yo‘nalishlarida kiyimlari turlicha. Demak, bu kiyimlarning paydo bo‘lishi ham, raqs harakatlari tizimi vujudga kelishi bilan mos keladi. Yoki aksincha, harakatlarga qarab keyinchalik kiyim va undagi bezaklar yaratilgan, mukammalashib borgan. Ularning qaysi biri oldin yoki keyin paydo bo‘lgani ahamiyatga ega emas. Asosiysi, kiyimlarni raqs harakatiga uyg‘unlashishidir. Masalan, Lazgi raqsida yoki umuman Xorazm raqslarida kiyim keng va ixchamligi bilan ajralib turadi. Shunga mos ravishda harakatlar ham juda tez va plastik holatda, shiddat bilan bajariladi.

Buxorocha raqsda esa kiyimlar keng va yonida ikki qarichdan ko‘proq ochiq bo‘ladi, shu tufayli qo‘l harakatlarining tezligi tananing tezligi bilan qo‘shilishib kichik bir masofada (diapazonda) harakatlanishga e‘tiborni qaratish lozim.

Farg‘onacha raqs harakatlari qush kabi, qaldirg‘och harakatiga uyg‘un keladi, shunga mos kiyimlari ham juda keng. Bu raqsda kuylovchan va kichik masofada (amplituda)gi harakatlar ham ishlatiladi. Oyoq harakatlarida ham xuddi shunday holat kuzatiladi.

Surxon vohasida kiyimlar o‘ta qulay va ixchamligi, qishloq xalqi ichidan olinib, hayotiyashtirilgani bilan ajralib turadi. Chunki bu raqs tizimida harakatlar asosan yelka, qo‘l va oyoqda bajarilgani uchun kiyimlar maxsus tanlanadi[4].

Tadqiqotchi N.Abrayqulova baletmeysterlarni tayyorlash masalasiga quyidagicha yondashadi: “Zamon talabi bilan baletmeyster chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, kasbiy mahoratli, o‘z zamonasining ilg‘or kishisi sifatlariga ega bo‘lishi kerak. Oliy o‘quv yurtlari, o‘rta-bo‘g‘in tizimidagi ta‘lim muassasalari baletmeysterlarda shu xislatlarni tarbiyalashga intilyapti.

Bo‘lajak baletmeyster quyidagilarni mukammal o‘rganishlari kerak:

1. Xoreografiya sohasini (klassik raqs, xalq raqslari, tarixiy, zamonaviy raqs, duet, meros raqslari).

2. Musiqa sohasini (musiqa dramaturgiyasi, solfedjio, musiqa nazariyasi).

3. Rejissor-sahnalashtiruvchi sohani (aktyorlik mahorati, grimm, libos tanlash, sahna bezatish)[2].

Badiiy-ommaviy tadbirlarda joylardagi qadimdan mavjud bo'lgan marosim raqslaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Marosim va bayramlarda syujetli raqslar, folklor janridagi xalq raqslari zo'r qiziqish bilan tomosha qilinadi. Ushbu raqslarda urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimiz aks ettiriladi. Badiiy-ommaviy tadbirlarda raqs san'atining o'rni kattadir. Chunki har qanday zo'r qo'shiq ham raqs san'ati bilan yanada to'ldiriladi, tomoshabinni zeriktirmaydi, estetik didini oshiradi. Qo'shiq yoki kuyning mazmunini, obrazlar, harakat orqali tomoshabinga ta'sir etib, yetkazib beradi. O'tkazilayotgan tadbirlarning mazmuni va mohiyatini to'la ochishga imkon beradi[2].

O'zbek milliy raqs san'atida yosh raqqosaning musiqa ritmi tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bulardan biri - sanash. Ijro o'rgatilayotgan paytda raqqosa tarafidan sanab ijro etish ritmik tuzilishni osonroq tushunishda yordam beradi. Umuman, ijroni o'rganish paytida sanash musiqa ritmini his qilish va mustahkamlashda foydalidir. Lekin ko'p raqqosalarning ijro etish paytida ovoz chiqarib sanashlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Sanashdan faqat raqs o'rgatilayotgan paytda foydalanish mumkin. Raqqosalar orasida tez-tez uchrab turadigan kamchilik - musiqadan tezlashib ketish yoki orqada qolish. Buni bartaraf etish uchun odatda raqqosa bilan chapak chalish, musiqani ovoz chiqarib kuylash, sanash kerak va yana ijroni davom ettirish kerak[:38-39].

Raqs liboslarini tanlashning asosiy shartlari mavjud bo'lib, ulardan asosiysi uning maktabi va yo'nalishi bo'lsa, yana bir sharti - raqsni ijro etuvchi raqqosaning tashqi ko'rinishini ham hisobga olishdir. Bo'y-basti rangiga mos kelishini o'ylab libos tanlash zarur. Raqsning talabga javob beradigan darajada bo'lishi uning sahnalashtirilgani, ijrosi va liboslarning tanlanishiga bog'liq.

O'zbek milliy raqsimiz uch yo'nalishdan tashqari mumtoz, lirik, folklor, zamonaviy janrlarga ega. Bu janrlardagi raqs liboslari va taqinchoqlari ham bir-biridan farq qiladi. Kamzul bilan uzun xalatni, do'ppi bilan peshanabandni, bilak uzuk bilan zangni aralashtirib yubormaslik, zebigardon va tumorning o'rniga munchoq taqish kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik lozim.

Baletmeyster har bir raqs libosining, taqinchoqlarning tub mohiyati, kelib chiqish tarixini bilishi zarur. Sochga taqiladigan jamalak, oyoqqa kiyish uchun tufli yoki kovush ham o'zining janriga mos bo'lishi shart. Aks holda, bachkanalik, ortiqcha zeb-u ziynat tomoshabinning raqqosaga nisbatan nafratini qo'zg'atadi. Asosiysi esa raqsning asosiy maqsadga erishishiga xalal beradi.

Xulosa sifatida o'zbek milliy raqs san'atining boy tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, ayniqsa, ma'naviy-estetik jihatdan kishini yuksaltirishi uning asosiy jihatidir.

Shu tufayli yoshlarni raqs san'atiga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish va ularni bu sohaga yo'naltirish ularning ma'naviy-estetik jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqs san'atining yana bir jihati insonni jismoniy sog'lom bo'lishiga yordam beradi va organizmda qon aylanishini yaxshilaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Milliy san'atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 2020yil 4-fevral
2. Abraykulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2003. – 56 b.
3. Авдеева Л. Танцевальное искусство Узбекистана. На узбекском языке. Гослитиздат, Ташкент. 1960 г.
4. Karimova R., Sobirova F. Nursafardiyya harakatlar tizimida o'zbek milliy raqslari va jangovar o'yinlari. Toshkent: "Lider Press" nashriyoti, 2008. – 331.
5. Karimova R. Tanovar (Xoreografiya bilim yurtlari, badiiy havaskorlik to'garaklari uchun qo'llanma). – T., 1993. – 40 b.
6. Saitova E.Y., Abraykulova N.E. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.; "Navro'z", 2015, 156 b.

## **O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH KURSLARINING AHAMIYATI**

**Soliyev.O.F. - Farg'ona viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlikning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazish asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** taraqqiyot, kompetentlik, innovatsion, kompetensiya, kommunikativ.

## **ЗНАЧЕНИЕ КУРСОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ В РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ**

**Солиев О.Ф. - преподаватель Ферганского областного центра переподготовки и повышения квалификации работников народного образования**

**Аннотация.** В статье описаны основы усвоения учителем современных методических знаний, навыков и умений, а также наличие педагогической компетентности в развитии компетентной личности в его педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** развитие, компетентность, инновация, компетенция, коммуникативный

## **THE IMPORTANCE OF TRAINING COURSES IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCE OF TEACHERS**

**Soliev O.F. - teacher of the Fergana regional center for retraining and advanced training of public education workers**

**Annotation.** The article describes the basics of a teacher's acquisition of modern methodological knowledge, skills and abilities, as well as the presence of pedagogical competence in the development of a competent person in his pedagogical activity.

**Key words:** development competence innovative competence communicative

Zamonaviy ta'lim rivojiga bo'lgan e'tibor shaxsning nafaqat aqliy o'sishida, balki shu bilan birgalikda uning ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy kamolotidagi uyg'unlikni ham talab etadi. Bu jarayonning to'laqonli amalga oshuvi asosan o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik bilimlari va mahorati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalarida jahonga yuz tutishi, o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olganligi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tobora chuqurroq kirib borayotganligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga yuksak ma'naviy-axloqiy vazifalarga ega bo'ladigan, har jihatdan raqobotbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Ushbu vazifani hal etish maqsadida davlatimizda qator ishlar amalga oshirilmogda, jumladan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq barcha oliy o'quv yurtlarida 2017–2018-o'quv yilidan boshlab sirtqi, maxsus sirtqi, qayta tayyorlash kurslari faoliyat boshladi[1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lim, xususan pedagogik



kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim mazmuni yangilanishi, o'quv reja fan dasturlari va DTS kompetensiyali yondashuv asosida qayta ishlanishi lozim. Mazkur kompetensiyali yondashuv asosida shakllantirilgan DTSni amaliyotga joriy etish oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari: ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi. Zamon bilan hamnafas professor-o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishni yo'lga qo'yishi lozim. Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga majmua holda joriy etilishi o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik (layoqat)ni talab etadi.

O'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlikning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi. Shuni qayd etish kerakki, o'qitish jarayoniga kiritilgan innovatsion ta'lim muhiti talablari asosida o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga muayyan o'zgartirishlar kiritilishi lozimligi e'tibordan chetda qolmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlashda uning pedagogik faoliyatiga majmualiy yondoshilmaganligi oqibatida bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatining dastlabki adaptatsiya davrida muayyan qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarini bitirgan bakalavrlar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritishi e'tiborga olinsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik asoslari bilan tanish bo'lmaganligi sababli, ularning kasbiy motivatsiyasining pasayishi, o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ortirish bo'yicha maqsadli izlanish olib borishi sust bo'lishi kuzatiladi, natijada ular tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini shablon tarzida tashkil etishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda o'qituvchilarning pedagogik kompetentlik (layoqat) iga aniqlik kiritish zarurati vujudga keladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim samaradorligini oshirishda pedagog kasbiy faoliyatning qadriyatga yo'naltirilgan asosi bu – “kompetensiya” va “kompetentlik”. Uning tuzilishi va mazmuni quyidagicha: Kompetensiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil etishga tayyorligi. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik — noananaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil

rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanligini anglatadi[2].

Pedagogik kompetentlik – bu o‘qituvchining kasbiy-psixologik xususiyati bo‘lib, pedagogik faoliyatni tashkil etish va boshqarishda subyektiv shart-sharoitdagi amaliy-nazariy harakatini ifodalovchi sifatlar yig‘indisi sanaladi. O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatida o‘quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishi lozim. Lekin mazkur kompetensiyalarning mazmun-mohiyatidan xabardor bo‘lmagan, mazkur kompetensiyalarni tarkib toptirish mazmuni, metodikasi va texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatida muayyan qiyinchiliklarni his etadi.

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarining namunaviy o‘quv rejasiga “Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati” kursi kiritilishi;

pedagogik kadrlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, barkamolligini ta’minlashga zamin tayyorlaydigan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-aniq fanlar, ilmiy-nazariy tayyorgarligini amalga oshirishga mo‘ljallangan mutaxassislik fanlarni o‘qitishda tinglovchilarda kasbiy-pedagogik, shuningdek, tayanch va xususiy fan kompetensiyalarni tarkib toptirishga e’tibor qaratish;

pedagogik kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, kasb malakasini orttirish maqsadida “Mutaxassislik fanlarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish metodikasi” maxsus kursni o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;

Tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash barobarida, ularning tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash maqsadida nostandart adaptiv test va o‘quv topshiriqlaridan foydalanish yuzasidan tavsiyalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim [3].

“2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da belgilangan uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish kabi muhim vazifalardan kelib chiqqan holda, 2021-yil 25-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [PQ-4963](#)-son qarori qabul qilindi[4]. Pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta’lim muassasalari, Institut hamda hududiy markazlarda joriy etiladigan pedagogik tayyorgarlik modullari bo‘yicha bakalavriatning so‘nggi 2 bosqichida tahsil olayotgan talabalar o‘qishga qabul qilinadi. Modullarni o‘zlashtirganlik to‘g‘risidagi sertifikatga ega shaxslarga Oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni bitirganidan so‘ng qayta tayyorlash kurslaridan

oʻtmasdan mutaxassisligiga oid fanlardan umumiy oʻrta va professional taʼlim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqi beriladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanib borayotgan jamiyatning mahoratli pedagog shaxsiga nisbatan ortib boruvchi talablari bilan oʻqituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosiy qismining oʻz-oʻzini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritishga tayyor emasliklari oʻrtasidagi ziddiyatlar kabilarni koʻrsatish mumkin. Bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoʻllaridan biri boʻlajak mutaxassislar kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mutaxassislar tashkilotchilik kompetentlikni rivojlantirish, malaka oshirish taʼlim tizimlarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini taʼminlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. Agarda “kompetentlik” va “kompetentlilik” tushunchalarning kelib chiqishga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Uzluksiz taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohatlar esa shaxsning har tomonlama rivojlanishini ragʻbatlantirishni, inson uchun butun hayoti davomida zarur boʻladigan kasbiy kompetensiyalarini, taʼlim xizmati va mehnat bozorining oʻzaro taʼsirlashuvini, oʻqituvchi malakasi va kompetensiyasiga yagona talabni joriy etishni taʼminlaydi. Taʼlimga kompetentli yondoshuvni joriy etish esa bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, koʻnikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei va oʻziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetarliligi ham haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, koʻnikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Taʼlimda kompetentli yondoshuv deyilganda, taʼlim oluvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qoʻllashga oʻrgatish tushuniladi[5]. Kompetentlik yondashuvi taʼlim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, taʼlim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy taʼlimiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy koʻrsatkichlari esa, bir tomondan taʼlim standartlarining meʼyoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir. Shunday qilib, kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi meʼyoriy hujjatlarda belgilab qoʻyilgan taʼlim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, oʻzgaruvchan boʻlib, oʻzgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

## **Adabiyotlar**

1. Nurumbekova Ya.A. Kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 27 aprel, 2018 yil. – B. 17.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.

3. Tolipova J.O. Kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish muammolari. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 27 aprel, 2018 yil. – B. 227-228.

4. 2021-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi [PQ-4963](#)-son qarori.

5. Turmatov J.R. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 27 aprel, 2018 yil. – B. 242.

## **BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Mardonqulov J.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti  
izlanuvshisi**

**Annotatsiya.** Yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar, respublikamizda so'ngi yillarda sezilarlik darajada umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni o'zgartirdi. Bitiruvchidan bugungi kunda bu nafaqat ma'lum bilimlarga ega bo'lish, balki ko'nikmalar shakllanganligi eng muhim omil sifatida qarash kerakligini anglatmoqda. Shu ma'noda maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** informatika, metodika, o'qitish texnologiyasi, metodik tayyorgarlik.

## **ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ**

**Мардонкулов Ж.А. - исследователь  
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Социальные изменения, произошедшие в нашей стране за последние годы, существенно изменили требования к выпускникам общего среднего образования. Сегодня для выпускника это означает не только наличие определенных знаний, но и рассмотрение формирования навыков как наиболее важного фактора. В этом смысле в статье анализируется специфика методической подготовки будущих учителей информатики.

**Ключевые слова:** информатика, методика, технология обучения, методическая подготовка.

## **FEATURES OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF INFORMATICS**

**Mardonkulov J.A. - researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The social changes that have occurred in our country in recent years have significantly changed the requirements for graduates of general secondary education. Today, for a graduate, this means not only having certain knowledge, but also considering the formation of skills as the most important factor. In this sense, the article analyzes the specifics of the methodological training of future informatics teachers.

**Key words:** informatiss, methodology, training teshnology, methodisal preparation.

“Informatika o‘qitish metodikasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini metodik tayyorlashda to‘rtta asosiy blok: gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy; informatika va tabiiy-ilmiy; umumkasbiy fanlar hamda ixtisoslik fanlari bo‘yicha puxta ta’lim berishni o‘z ishiga oladi. Informatika o‘qituvchisi sifatida shaklantiradigan asosiy o‘quv fanlari ixtisoslik fanlari blokiga, informatika o‘qitish metodikasi fani esa umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi uzluksiz ta’lim va tarbiya jarayonini tubdan isloh qilishga qaratilgan bo‘lib, unda oliy ta’lim alohida o‘rinni egallaydi. Oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri bu—talabalarni zamonaviy o‘quv dasturlari asosida yuqori saviyada maqsadli o‘qitish va malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlashdan iborat. Oliy ta’limni isloh qilishning bunday talablarini bajarish, avvalo, o‘qituvchiga yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’ruzasida yoshlar haqida quyidagi so‘zlarni ta’kidlab o‘tgan: “Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qolmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez



o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangidan-yangi, imkoniyatlar ochmoqda"[1] Shunday ekan, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati shaxsning o'quv jarayonida ta'lim olishi uchun qo'yilgan talab va qobiliyatlarini shakllantirishga sharoitlar yaratib berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yisha chuqur va puxta ilmiy bilimlarga asoslanib o'quv jarayoniga kirishar ekan, pedagogik va psixologik bilimlarni ham mukammal bilishi, dars berish metodikasini hamda texnologiyasini egallagan bo'lishi kerak.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida quyidagi fikrlar bildirilgan: "O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda". S hunday ekan, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda informatika o'qitish metodikasi fanini qay darajada o'qitilishi kelajak avlodning matematik salohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan, informatika o'qituvchilarini tayyorlashda mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda informatika o'qitish metodikasi fani o'rganiladigan muhim va kerakli fanlardan biridir.

Mutaxassis tayyorlashda (ta'limning to'rtinchi yili) oliy ta'lim ijodiy kasb faoliyatiga, ijodiy fikrlovshi shaxsni shakllantirishga imkon beruvchi tegishli matematik madaniyatga, mutaxassislarda yetarlicha yuqori matematik tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida qayd etilganidek, bu bosqich mustaqil ijodiy kasb faoliyati bo'yicha metodik tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

"Informatika o'qitish metodikasi" fani quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: Informatika o'qitish metodikasi fan sifatida, informatika kursining mazmuni, informatika o'qitish metodlari informatika o'qitishni tashkil qilishda interfaol metodlardan foydalanish, informatika o'qitishni tashkil qilish shakllari, darsdan tashqari shakllari, o'quv vositalari, oz komplektli maktablarda informatika o'qitish xususiyatlari va hokazo.

Hozirgi kunda bitiruvchilarning metodik tayyorgarligiga qo'yilgan Davlat ta'lim standarti talablari, ta'limning yangi konsepsiyalari, sifat va samaradorlikni oshirish va boshqalar talabalarni amaliyot davrida o'quvchilari bilan ishlash ushun metodik-informatik tayyorlashga jiddiy o'zgartirish kiritishni taqozo etmoqda. Informatika va informatika o'qitish metodikasi fanlarini ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarda ijodkor shaxsni rivojlanish tendensiyasi bilan bog'liq ravishda informatika o'qituvchilarini tayyorlash

ham jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. So'nggi yillarda bu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik-informatik tayyorlash masalasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tavsiflab chiqamiz. Buni o'rta maktab uchun informatika o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq bizni qiziqtirgan masala bo'yicha ayrim tadqiqotlarni ko'rib chiqishdan boshlaymiz. Bizning fikrimizcha, bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik-informatik tayyorlashga bag'ishlangan tadqiqot ishlariga batafsil to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarini informatika va uni o'qitish metodikasi fanidan metodik tayyorgarligini takomillashtirish biz tanlab olgan tadqiqot yo'nalishiga mos keladi. Bo'lajak informatika o'qituvchilari o'z mutaxassisligi o'quv rejasidagi asosiy fan hisoblangan "Informatika" fanini o'qitish metodikasini mukammal bilgan, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan yetuk mutaxassis sifatida ishlash imkonini beradi.

Jiddiy tafovutlarga qaramay, talabalarni informatikadan metodik tayyorlash yo'nalishlari umumiy xususiyatlarga ega. Shu bois bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash strategiyasini ishlab chiqishda o'rta maktab informatika o'qituvchisini tayyorlash tajribasidan foydalanish sifatida qarash ham mumkin.

A.N.Kolmogorov fikriga ko'ra[3], faqat ijodiy o'rganilgan taqdirdagina matematik ma'lumotlarni samarali va foydali tarzda qo'llash mumkin bo'ladi. Biz yuqorida tilga olgan matematiklarning o'qituvchi kasbi ijodiy yondashuv talab qilishi va uning o'zi ijodkorlikni shakllantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlarga ega ekanligi haqida qarashlariga qo'shilamiz. Maktab o'quvchilarida ijodkorlikni ijodiy fikrlovchi o'qituvchi rivojlantirishi lozim. Biroq bo'lajak informatika o'qituvchisini o'quvchilarda ijodkor shaxsni rivojlantirish bo'yicha ishlari samarali kechishini ta'minlovchi metodik bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning juda muhim va istiqbolli qismi sanaladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda matematik ta'limning shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish ochib beriladi. Quyida keltirilgan tadqiqot ishlarining metodik tavsiyalari oliy ta'lim muassasalari amaliyotida muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

M. Zaynitdinova, R.Ibragimovlarning tadqiqot ishlarida informatikadan turli masalalar yechish jarayonida talabalarning ijodiy faolligini shakllantirishning metodik asoslariga tayyorlikni shakllantirishga bag'ishlangan[4, 5].

N.L.Stefanovanning ilmiy izlanishlarida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida informatika o'qituvchisini metodik tayyorlash tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari keltirilgan bo'lib, bu tizimni muallif tomonidan kasb ta'limi tizimining kichik

tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Talabalarni o'qitish mazmuni, uning fikriga ko'ra, umumiy matematik ta'limning zamonaviy tizimi va uning kelib chiqishi, fan sohasining tuzilishi va metodologiyasi, o'quvchilarning bilish faoliyati jarayonidagi guruhga oid va individual xususiyatlar, o'rta maktabda ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish texnologiyasi va amalga oshirish texnikasi haqida bilimlar sohasini o'ziga qamrab oladi[6].

G.L.Lukankin bo'lajak o'qituvchini metodik tayyorlash ilmiy-nazariy va amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqida fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Bunda olim informatika o'qituvchisini tayyorlash masalasini hal etishda talabalar yuklamasini oshirish yo'lidan emas, balki ta'lim va bo'lajak o'qituvchining mustaqil ishlarini samarali tashkil qilishni individuallashtirish yo'lidan borish lozimligini, ya'ni ommaviy, yalpi ta'limdan individual yondashuvni kuchaytirish, mutaxassislarni "donalab" tayyorlash tomon yuzlanish zarurligini qayd qiladi[7].

T.R.Tulaganov o'z tadqiqot ishida kelgusida o'rta maktab informatika o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritadigan talabalarni matematik tayyorlashning kasbiy-pedagogik yo'nalganligi muammosini tahlil qiladi. Ta'limning talabalarda maktab informatika kursini faol va chuqur bilishga asoslangan kasb mahorati asoslari, o'quv fani sifatida informatikaga hamda o'qituvchilik kasbiga ijobiy munosabat orqali o'zlashtirilgan fanning ilmiy asoslari hamda metodik ta'minoti maqsadga yo'naltirilgan [8].

D.I.Yunusova o'zining doktorlik dissertatsiyasida bo'lajak informatika o'qituvchisida rivojlanishdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashish imkoniyatini beruvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarlik informatika o'qituvchisi innovatsion faoliyati mazmunini, pedagogika oliy ta'lim muassasasida o'qitiladigan informatika fanlari bilan uzluksiz matematik tayyorgarlik mazmuni uzviyligini, mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti, maxsus integrativ kurs, pedagogik amaliyot asosida talabalarda innovatsion pedagogik faoliyat motivatsiyasi, bu faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarlikni shakllantirish masalalariga to'xtalib o'tgan[9].

J.O.Tolipovanning doktorlik disertatsiyasida biologiya o'qituvchisi ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va mazkur tayyorgarlikni orttirishning konseptual asoslari; ularni ilmiy tayyorgarlik darajasini orttirish mazmuni va metodik tizimini tashkil etish, boshqarish, samaradorlikka erishish yo'llari; umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari hamda biologiya o'qitish jarayonida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

R.Ibragimovning tadqiqot ishida boshlang'ish sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini boshqarish, boshlang'ish ta'limda muammoli yondashuv texnologiyasi

bilish faoliyatini boshqarish, ta'lim jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish, o'quvchilar mustaqil ishlarining mohiyati, roli va ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan[10].

O'rganilgan tadqiqot ishlarida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zaruriy darajaga erishilmaganligiga quyidagicha keltiriladi: bo'lajak o'qituvchilarda metodik qarashlarni shakllantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni o'z fani vositalari orqali amalga oshirish, ularga didaktika tamoyillari hamda pedagogik faoliyatning shakl, metod va vositalarini izchil o'rgatish tizimi mavjud emasligi; informatika, informatika o'qitish metodikasi o'quv dasturlari mukammal emasligi, ularda yuklamalar ko'pligi, biroq sifat jihatidan yuzaki va informatika o'qituvchilarini tayyorlashga aniq yo'naltirilmaganligi; fanlararo aloqa yo'qligi; nazariya va amaliyot o'rtasida aloqaning yo'qligi; kasbga yo'naltirilmaganligi; innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy eta olmasligi.

N.B.Istomina boshlang'ich ta'limda informatikani rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitishning metodik tizimiga bag'ishlangan pedagogika fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Informatika" fanini o'qitish uchun boshlang'ish sinf o'qituvchilarini tayyorlash masalasiga ham to'xtalib o'tadi[11]. Ushbu masala yuzasidan mavjud muammolarga yechim sifatida muallif tomonidan beshta omil sanab o'tiladi: "Informatika" va "Informatika o'qitish metodikasi" fanlari o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirish; talabalar – bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarini metodik tayyorlash jarayoniga psixologik bilimlarni faol joriy qilish; o'quv kursining talabalar darslarni rejalashtirish va puxta ishlab shiqish bilan birga metodik harakatlarning umumiy metodlarini (matematik tushunshalarni shakllantirish metodi, masala yechishni o'rgatishda o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqalar) chuqur o'zlashtirishiga yo'nalganligini kuchaytirish; metodik ijodga imkon yaratuvchi turli psixologik-pedagogik va metodik eksperimental tadqiqotlar bilan tanishish; talabalarda dunyoqarash kengayishi va metodik ijodga zamin hozirlovchi informatika fanlarining rivojlanish tarixi bilan tanishtirish[12].

Kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, matematik masala, mashq va misollarni barcha o'qituvchilari ham o'quvchilarga to'g'ri tushuntirib bera olmaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar o'qituvchilar tomonidan masalalarning mazmun-mohiyati, ularni yechish jarayoni haqida nazariy bilimlar tizimi o'zlashtirilishi, o'quvchilarda masala yechish bo'yicha umumiy bilim, ko'nikma va malaka yetarli bo'lishini ta'minlashi kerakligi haqida so'z yuritgan.

Shunday qilib, mavjud tadqiqot ishlarida talabalarga "Informatika" fanini o'qitishga tayyorlashning ko'plab jihatlari ko'rib chiqilgan: oliy ta'lim muassasalari informatika kursining boshqa fanlar bilan bog'liqliligi; talabalarni metodik-informatik integratsiyalash yo'llarini izlash; bo'lajak informatika o'qituvchilarini o'quvchilarga masalalar yechishni o'rgatishga metodik tayyorlashni

takomillashtirish; matematik tushunchalarni shakllantirish; o'quvchilarning matematik fikrlashini rivojlantirish va boshqalar.

Shu bilan birga qayd etish zarurki, ta'lim jarayonida bo'lajak informatika o'qituvchilari mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'lim jarayonida o'quvchini ijodiy rivojlantirishga o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha bir qancha nuqtayi nazarlar mavjud.

Metodik tayyorlash jarayoni bo'lajak o'qituvchida ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shunga bog'liq ravishda, o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajasiga erishish ushuni integrativ yondashuvning yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganini qayd qilamiz. O'quvchilarga informatika o'qitish jarayonida ularda ijodkor shaxsni rivojlantirish uchun bo'lajak informatika o'qituvchilarini yaxlit metodik tayyorlashga e'tibor qaratilmagan.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida talabalarni metodik-informatik tayyorlash mazmunini va uni rivojlantirish, takomillashtirish yo'llarini belgilab olamiz.

Avvalo, "talabalarning metodik-informatik tayyorlash" atamasi ma'nosini aniqlab olish maqsadga muvofiq.

N.L.Stefanova o'z tadqiqot ishida talabalar – bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash mazmunini yoritib bergan. Muallifning fikricha, unga nafaqat o'quv fani bo'yicha bilimlar, balki ushbu bilimlar qo'llaniladigan turli faoliyat turlari ham kiritilishi lozim[13].

Kasbga tayyorlashning metodik tizimi N.L.Stefanova tomonidan informatika o'qitish jarayonini amalga oshirishning nazariy asoslari, haqiqiy bilimlari va amaliy metodlarini o'zlashtirishga yo'naltiriluvchi maxsus tashkil etilgan ta'lim sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbga tayyorlash holati haqida tayyorgarlikning yakuniy natijalari bo'yicha ham, uni shakllantirishda mavjud muammolar bo'yicha ham mulohaza yuritish mumkin.

Talabalarni metodik tayyorlashga talablar o'zgarishi ikkita asosiy ta'lim paradigmasi: xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda namoyon bo'luvchi insonparvarlik va ta'limning ijtimoiylashuvi bilan belgilanadi.

N.L.Stefanova nuqtayi nazariga qo'shilgan holda, talabalarni metodik-informatik tayyorlash deganda ikki maqsadga erishish ushuni yo'naltirilgan maxsus tashkil etiluvchi ta'limni tushunamiz. Ushbu maqsadlarning birinshisi, "Informatika" kursini o'zlashtirish, uning ijtimoiy va mehnat fanlari bilan aloqasini o'rnatish, boshlang'ish sinf informatika kursida asosiy matematik g'oyalar ahamiyatini tushunish, bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirish maqsadida bilish faoliyati metodlarini egallash bo'lsa, ikkinshisi, boshlang'ish sinf o'quvshilariga informatika o'qitish jarayonini amalga oshirishning nazariy asoslari, haqiqiy bilimlari



va amaliy metodlarini o'zlashtirishdan iborat, buning salmoqli qismini boshlang'ish sinf o'quvshilarida ijodkor shaxs elementlarini rivojlantirish tashkil qiladi[14].

Talabani informatika o'qitish metodikasi fanida shaxsga yo'naltirilgan metodik tayyorlash quyidagilarda namoyon bo'ladi: tayyorlashni tashkil qilishda "Informatika" fanini o'qitish (maktabda va oliy ta'lim muassasalarida) jarayoni ishtirokchilari sifatida talabalarning o'z tajribasini hisobga olish; muayyan kasb malakasiga erishish yo'llarini tanlash imkonini berish; bilish faoliyatining subyektivi sifatida talabada yangi nuqtayi nazarni shakllantirish.

Qayd qilingan bo'lajak informatika o'qituvchilarini umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida ijodkor shaxsni rivojlantirishga tayyorlash talabalarga informatika kursida yetakchi matematik g'oyalar ifodasini ko'rishni, tevarak olamda matematik qonunlar amal qilishini, amaliy faoliyatda informatikaning qonunlari, dalillari, tushunchalari, munosabatlari va hokazolardan foydalanishni o'rgatish maqsadiga ega.

Talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish – an'anaviy o'qitiladigan kurslarni zamon talablariga mos ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish hamda matematik ixtisoslashuvni ta'minlovchi yangi kurslar tizimini ishlab chiqish hisobiga ta'lim jarayonini mazmunan yangilash.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Informatika" fanini o'qitish talabalarning matematik ta'limini ushbu ilm-fanning hozirgi holatiga muayyan darajada yaqinlashtirish, samarali ilmiy fikrlashni tarbiyalash maqsadiga ega.

"Metodik fikrlash, – deydi N.E.Kuzovleva[15], – o'qituvchining tadqiqiy va ma'rifiy faoliyati negizida yotadigan barcha harakatlarni boshqarish vositasi sanaluvchi nisbatan mustaqil va o'ziga xos faoliyat, u mazkur harakatlarni amalga oshirish uchun zaruriy manba bo'lib xizmat qiladi". Boshqacha aytganda, bu umumlashma nazariy qoidalarni alohida qoidalar bilan uyg'unlashtirish vositasida va kelgusida ularni ta'lim metod hamda vositalari orqali amalga oshirish metodik masalalar shartlarini bilish va o'zgartirish bo'yicha o'qituvchining nazariy-amaliy faoliyati. Metodik masalalarni muvaffaqiyatli yechish ko'nikmasi – metodik nazariya va ta'limning aniq shartlariga mutanosib ravishda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun olingan bilimlarni moslashuvchan tarzda qo'llash.

O'qituvchining metodik madaniyati ta'lim jarayonining barcha elementlari haqida bilimni o'z ichiga oladi: maqsadlar, vositalar, metodlar, obyektlar, o'qituvchi sifatida o'zi; ta'limning o'zlashtirilgan metodlari ko'rinishidagi tajriba (metodik madaniyat reproduksiyasi shu asosda amalga oshiriladi), metodlarni ijodiy o'zgartirish va yangi shart-sharoitlarga o'tkazish, ya'ni, ta'limning yangi mahsullari (shaxsiy tajriba doirasida), shaxsiy qadriyatlar tizimiga yo'naltirilgan kasbiy

faoliyatga hissiy munosabatlar tajribasi, ya'ni ijodiy o'zgartirish va metodlarni yangi sharoitga o'tkazish[16].

Metodik adabiyotlarda turli talaba bo'linmalari tavsiflangan: ilmiy-ishlab chiqarish birliklari, talabalar klublari, mutaxassislarni maqsadli intensiv tayyorlash, yoshlar ijodiy jamoalari, talaba konstruktorlik byurolari, talabalar uyushmasi, muammoli guruhlar, talabalar ilmiy to'garaklari, muammoli to'garaklar va boshqalar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan ishlashga e'tibor qaratilgan bo'lib, yosh olimlar ilmiy kengashi, talabalar ilmiy to'garaklari, iqtidorli talabalar seminarlari tashkil etilgan.

Muammoli guruhlar faoliyat yuritishiga psixologik asoslar L.S.Vigotskiy tadqiqot ishida keltirib o'tilgan. Uning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, "psixik rivojlanishning boshlang'ich subyekt alohida odam emas, odamlar guruhi hisoblanadi. Ularning ijtimoiy-madaniy faoliyati va buning hal qiluvchi ta'siri ostida individual subyekt shakllanib, ushbu jarayonning muayyan bosqichida o'z ongining avtonom manbalariga ega bo'ladi va rivojlanayotgan subyektlar qatoriga o'tadi"[17]. Mazkur fikrni davom ettirib, olim jamoa taraqqiyoti har bir individga xos rivojlantiruvchi omillardan vujudga kelishi, alohida individning rivojlanishi esa jamoaning o'zi taraqqiy etishi bilan faollashishini ta'kidlab o'tadi. U shuningdek, muallif ilmiy izlanishlarida o'quv faoliyatining individual shakllari mukammal va jamoaviy o'quv ishlaridan kelib chiqishiga alohida to'xtalib o'tgan. Muammoli guruhda ijodiy faoliyat nuqtayi nazaridan guruhdagi har bir a'zo rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro tajriba almashish kuzatiladi[18].

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tashkil etiladigan darslar o'zaro bog'liq ikkita muammoni hal etadi: ixtiyoriy faoliyatning doimiy tahlili ushbu psixologik ko'rsatmalarni shakllantirish zaruriyati va uni takomillashtirishdan to butunlay yangi texnologiyalar joriy etish yo'llarini tizimli ravishda qidirish.

Ta'lim jarayonida talabalar ilmiy yondashuvni amalga oshirish ushbu zaruriy bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi (masalani to'g'ri qo'yish, berilgan jarayon, hodisalar, vaziyatlar va boshqalar bo'yicha ma'lum miqdorlarni tahlil qilish va umumlashtirish, ushbu masalani yechish uchun mavjud uslubiyatlarni ko'rib shiqish, farazni ilgari surish, uni sinov tekshirishdan o'tkazish, sinov tekshirish natijalarini tahlil qilish, umumiy xulosalarni shakllantirish). Tadqiqot mavzulari sifatida talabalarga ilmiy-metodik muammolarni taklif qilish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga oid jahon standartlari metodik tayyorlash jarayonida faoliyatga oid jihatlarni shakllantirish, rivojlantirishga yo'naltiriladi, bu kasbiy tayyorgarlik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega: talabalar yangi bilimlarni egallashi, tayyor matematik va metodik bilimlarni mustaqil o'rganishi,

fanning ichki va fanlararo aloqasini, informatika qonuniyatlarining umumiyligini tushunishi, matematik ta'limni o'zlashtirishi, ta'lim jarayonidan maqsad har bir o'quvchi o'qituvchi bilimlaridan nusxa ko'shirmay, shaxsiy qabul qilish va axborotlarni qayta ishlash xususiyatlariga qarab matematik bilimlar haqida o'z tasavvurini shakllantirishi lozim ekanini tushunishi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixik xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, matematik bilimlarni o'zlashtirish psixologiyasi masalalari, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy metodika bilan tanishishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.– 160 bet.

2. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1999.– 413-bet.

3. Колмагоров А.Н. Математика – наука и профессия.– М.: Наука, 1988.

4. Zayniddinova M. Og'zaki matematik mashqlar sistemasi yordamida boshlang'ish sinf o'quvchilarining hisoblash malakalarini shakllantirish. ped.f. nomzodi dar.olish ushun diss.– Toshkent, 1997.– 164 bet.

5. Ibragimov R. Boshlang'ish ta'lim o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Dok. dis. ped. fan. –Toshkent.: 2001. – 250-bet.

6. Стефанова Н.Л. Теорические основы развития системы методической подготовки учителям математики в педагогическом вузе. Дисс. Д. п. н. , спб, 1996., –307 с.

7. Луканкин Г. Л. Научно-методические основы профессиональной подготовки учителя математики в педагогическом институте: Автореф:дисс. док.пед.наук. Л., – 59 с.

8. Тулаганов Т.Р. Профессиональная направленность математической подготовки учителей.: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук.– Ташкент.: 1990.-38 с.

9. Yunusova D.I. Bo'lajak informatika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok..diss.-T.: -2012.362-b.

10. Ibragimov R. Boshlang'ish ta'lim o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Dok. dis. ped. fan. –Toshkent.: 2001. – 250 bet.

11. Истомина Н.Б. Методическая система развивающего обучения математике в начальной школе. Автореф. дис. док. пед. наук. М., 1995. – 42 с.

12. M.I.Toshpulatova. Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(informatika). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi. Toshkent-2017.

13. Стефанова Н.Л. Теорические основы развития системы методической подготовки учителям математики в педагогическом вузе. Дисс. Д. п. н. , спб, 1996., –307 с.

14. Стефанова Н.Л. Теорические основы развития системы методической подготовки учителям математики в педагогическом вузе. Дисс. Д. п. н. , спб, 1996., –307 с.

15. Кузовлева Н. Развитие методического мышления процессе профессиональной подготовки будущего учителя. Дисс.к.п.н. Липецк, –233с.

16. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс... док.пед.наук., Астрахань, 1999. – 410 с., 104-бет.

17. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций.– М.,1960.– 342 с., 170-б.

18. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности // Педагогика. 2003 № 10. – с. 51-55.

## **FREYMLAR TEXNOLOGIYASINI MODELLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA MUAMMOLI O'QITISH G'OYASI**

**Eshonqulov Sh.U. – Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi tizimli kvantlash, muammolilik va modullilik tamoyillarining birligiga tayanishi haqidagi fikr-mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, blok, eksternat, kvantlar, xotira, axborot, nazorat, baholash, axborot tizimlari, predmeti, tuzilishi, nazariyasi, amaliyoti, texnik.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ФРЕЙМОВ И ИДЕЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ**

**Эшонкулов Ш.У. – преподаватель Джизакского политехнического  
института**

**Аннотация.** Технология проблемно-ориентированного обучения основана на единстве принципов системного квантования, решения проблем и модульности.

**Ключевые слова:** технология, блок, внешний, кванты, память, информация, управление, оценка, информационные системы, предмет, структура, теория, практика, технический.

## **PEDAGOGICAL BASES FOR MODELING FRAME TECHNOLOGY AND THE IDEA OF PROBLEM LEARNING**

**Eshonqulov Sh.U.** - Teacher of Jizzakh polytechnic Institute

**Annatation.** problem-modular learning technology is based on the unity of the principles of system quantization, problem-solving and modularity.

**Key words:** Technology, block, external, quanta, memory, information, control, evaluation, information systems, subject, structure, theory, practice, technical.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, inson dunyoga kelar ekan, katta hajmdagi kodlangan axborotga duch keladi. Bular ham insonning o'zi, ham atrof muhit, ham ilmiy bilimlardir. Haqiqatda, butun hayot davomida kodni ochish bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi, shuning uchun didaktikada o'quv axborotini zichlash, siqish, qisish muammosi tasodifiy emas.

Tegishli ravishda, yaxlit yirik blok, bir butun qilib berilgan o'quv axboroti uzoq vaqt davomida umumiydan xususiy, tafsilot sari borish imkonini beradi. Bu tahsil oluvchilar ongida bilimlarning fragmentarligiga, "uzuq-yuluqligiga" yo'l qo'ymaydi. Bunday yondashishda materialni yaxlit ko'rsatuvchi ip uzilmaydi.

Mohiyatga oid belgilar, ya'ni:

1) o'quv fanlari sonini ko'paytirish (yangi fanlarni kiritish hisobiga ko'p fanlilik);

2) o'quv fanlari bo'yicha bilimlar hajmini oshirish;

3) o'quv soatlari sonini qisqartirish (yangi SanPiN, yangi o'quv rejalari);

4) eksternat, masofaviy va ochiq tahlilning qonuniylashuvi

asosida o'qitishning freymli modelini taxminan ushbu muammolarni hal eta oladigan pedagogik texnologiya sifatida ajratamiz.

Dastlab o'quv materialining o'quv birligini sinch ko'rinishida ifodalash mumkin bo'lsa, freymlarni qo'llash mumkin, degan taxmin bor edi. Bunda sxematik sinch nazariy materialni faqat qismlarini joy-joyiga qo'yishda yordam berib qolmasdan, balki o'quv faoliyatining rejalashtirilgan stsenariysi bo'yicha "siqiq" materialni yengil boshqarishga ham imkon tug'diradi. Shuningdek, freymli texnologiyaga nazariy materialni (kontsept) bayon qilish tuzilmasining sinch ramka



ko‘rinishida takrorlanib turish, o‘quv materialining boshqa mavzulariga ko‘chish xos bo‘lib, buning natijasida mavzularni ma’lum stsensariy bo‘yicha bayon qilish mumkin bo‘ladi.

Har xil davrda turli mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan, nazariy materialni (kontsept) zichlashtirish yoki sxematiklashtirish, yoxud bu material bayonini muayyan ssensariy bo‘yicha olib borish yo‘li bilan o‘quv materialini strukturalashtirishni ko‘zda tutuvchi mavjud pedagogik g‘oyalarni ko‘rib chiqamiz.

Bu g‘oyalar sirasiga quyidagilar kiradi: didaktik birliklarni yiriklashtirish (P.M. Erdniev); o‘qitishning qidirish modellari (M.V. Klarin); loyihalar uslubi (V.V. Guzeev); integral ta’lim texnologiyasi (V.V. Guzeev); muammoli-modulli o‘qitish (M.A. Choshanov); yirik blokli tayanchlar (A.A. Ostapenko).

Sanab o‘tilgan g‘oyalardan konseptual g‘oyalarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) muammoli-modulli o‘qitish g‘oyasi;

- 2) didaktik birliklarni yiriklashtirish g‘oyasi;
- 3) yirik blokli tayanchlar g‘oyasi.

Nazariy material ssensariy bo‘yicha tuziladigan g‘oyalarga quyidagilarni kiritamiz:

- 1) o‘qitishning qidirish modeli g‘oyasi;
- 2) loyihalar uslubi g‘oyasi;
- 3) integral ta’lim texnologiyasi g‘oyasi.


Retrospektiv tahlil jarayonida biz tomonimizdan o‘z mazmunida konsept va ssensariyni birlashtirgan pedagogik texnologiya aniqlanmaganini ta’kidlashimiz kerak. Shuning uchun yuqorida aytib o‘tilgan didaktik g‘oyalarni freymli texnologiyani modellashtirish uchun pedagogik asoslar deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, M.A. Choshanov tomonidan ishlab chiqilgan muammoli-modulli o‘qitish ko‘rinishidagi pedagogik texnologiya qiziqarli va qo‘llashda yetarlicha istiqbollidir.

Muammoli-modulli texnologiyani yaratishning boshlang‘ich metodologik negizi fundamental tizimlar nazariyasi bo‘lib (P.K. Anoxin, L. Bertalanfi, K.V. Sudakov va b.), unga ko‘ra, ustun motivatsiyasi shaxsiy ahamiyatga ega muammoni qo‘yish va hal etish bo‘lgan inson aqliy faoliyatining butun davomiyligi tizimli “kvantlarga” bo‘linishi mumkin. Tizimli kvantlash tamoyili inson bosh miya qobig‘ining modulli tuzilishiga tayanadi (V. Maunkastl, J. TSentagozay, G. Edelman va b.). Tizimli kvantlash, muammolilik va modullilik tamoyillari inson ruhiy faoliyatining turli xil belgilar tizimlari (tilga oid, ramziy, grafik va b.) bilan ifodalangan funksional tizimlarining asosini tashkil etadi.

Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasi tizimli kvantlash, muammolilik va modullilik tamoyillarining birligiga tayanadi. Didaktikada bu tamoyillar, afsuski, o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilmaydi. Tizimli kvantlash tamoyili o‘quv axborotini

“siqish” nazariyasining metodologik asosini tashkil etadi[1]. O‘quv axborotini “siqish” atamasini M.A. Choshanov bilimlar muhandisligi yutuqlaridan foydalangan holda bilimlarni umumlashtirish, yiriklashtirish va tizimga solishni belgilash uchun qo‘llaydi. Modullilik tamoyili modulli o‘qitish uslubining neyrofiziologik asosidir. Taklif qilinayotgan texnologiyaning nazariy ahamiyati va yangiligi unda tizimli kvantlash, muammolilik va modullilik tamoyillari butunicha, uyg‘un birlikda qabul qilinadi. “Texnologiya maqsad komponentini, yetakchi tamoyillarni, o‘qitish mazmunini loyihalashtirishning maxsus usullarini, vazifalar va mashqlar tizimini, didaktik materiallarni tuzishni, o‘qishdagi natijalarni nazorat qilish va baholashning reytingli tizimini o‘z ichiga oladi.



Технология проблемно-модульного обучения – muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasi;

Целевая установка и принцип технологии – Texnologiyaning yilgan maqsadi va tamoyillari;

Рейтинговая система контроля и оценки – Nazorat va baholashning reytingli tizimi;

Проектирование содержания проблемных модулей – muammoli modullar mazmunini loyihalashtirish;

Конструирование учебных модулей и дидактических материалов – o‘quv modullari va didaktik materiallarni loyihalashtirish;

Сочетание методов, форм и средств обучения – o‘qitish uslublari, shakllari va vositalarining birikuvi

O‘qish jarayonini muammoli-modulli asosda qayta qurish quyidagilarga imkon beradi:

1) o‘quv materialining kursni to‘liq, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan variantlarda ishlab chiqishni ta‘minlaydigan muammoli modullarini guruhlariga bo‘lish yo‘li bilan o‘qish mazmunini yaxlit holga keltirish va farqlash (differentsiyalash) (muammoli modulning umumiy tuzilish chizmasi keltirilgan);

2) o'quvchilarning o'rganganlik darajasiga bog'liq ravishda kursning u yoki bu variantini mustaqil tanlashlarini amalga oshirish hamda dastur bo'yicha ilgariylashning individual jadalligini ta'minlash;

3) pedagogik vositalarni yaratish uchun ssenariylar sifatida muammoli modullardan foydalanish;

4) o'qituvchining ishini o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda maslahat berish-muvofiqlashtirish funksiyalariga qaratish;

5) tahsil kursini o'qitish uslublari va shakllarining mos keluvchi majmuiga asoslanib, o'quv materialini bayon qilish to'kisligiga hamda o'zlashtirish chuqurligiga jiddiy ziyon yetkizmagan holda qisqartirish"[1]

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi – o'z ustunliklari va kamchiliklariga ega. Ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, ushbu texnikani amalga oshirish eng samarali natijalarni beradi, boshqa sharoitlarda esa u kam unumli bo'lishi mumkin va uni boshqa texnologiya bilan almashtirish kerak.

“Muammoli-modulli o'qitishning ustunliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bilimlarning harakatchanligini, uslubning moslashuvchanligini hamda o'quvchilar aqlining o'tkirligini shakllantirishga yo'nalganlik;

2) muammoli modul tuzilmasining variativligi;


3) o'quv materialining mazmunini darajalash;

4) o'quv faoliyatining individuallashtirishini ta'minlash;

5) o'qitish shakl va uslublarning turli-tumanligi;

6) o'quvchilar bilimlarining chuqurligi va to'kisligiga ziyon yetkizmasdan, o'quv vaqtini kamaytirish;

7) o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishlarini nazorat qilish va baholashning samarali reytingli tizimi.



<i>Блок «вход» – “Kirish” bloki</i>	<i>Блок генерализации – umumlashtirish bloki</i>
<i>Блок актуализации – faollashuv bloki</i>	
<i>Исторический блок – tarixiy blok</i>	<i>Блок углубления – chuqurlashtirish bloki</i>
<i>Блок общения – muloqot bloki</i>	<i>Блок ошибок – xatolar bloki</i>
<i>Экспериментальный блок – Eksperimental blok</i>	<i>Блок «выход» - “chiqish” bloki</i>
<i>Проблемный блок – muammolar bloki</i>	<i>Инвариантная структура – invariant tuzilma</i>
<i>Теоретический блок – nazariy blok</i>	<i>Вводные модули – kiritish modullari</i>
<i>«Ядро» – negiz</i>	<i>Вариантная структура – o‘zgaruvchan tuzilma</i>
<i>Блок применения – qo‘llanish bloki</i>	
<i>Блок стыковки – ulanish bloki</i>	<i>Прикладные модули – amaliy modullar</i>

Kamchiliklari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. O‘qitishning “uzuq-yuluqligi”, bunda o‘quvchilar mustaqil ishining hatto “mustaqil ravishda o‘qish”gacha boradigan katta ulushga egaligi tushuniladi, buni “o‘quvchilar o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilganligi” va to‘laqonli o‘qitish jarayoni mavjud emasligi sifatida baholash mumkin.

2. O‘quv fanining yaxlitligi va mantig‘ini e’tiborga olmaslik.

3. O‘quvchilar tayyorgarligining tor bo‘lishi; ta’lim kursining ajralib qolgan va bog‘lanishsiz muammolar yoki vazifalar turkumigacha qisqarishi, umumiylari zarariga faqat xususiy, konkret bilimlarning shakllantirilishi.

4. Muammoli modullar yaratishning juda ko‘p mehnat talab qilishi”

Xulosa qilib aytganda, taklif qilinayotgan texnologiyaning nazariy ahamiyati va yangiligi unda tizimli kvantlash, muammolilik va modullilik tamoyillari butunicha, uyg‘un birlikda qabul qilinadi. Texnologiya maqsad komponentini, yetakchi tamoyillarni, o‘qitish mazmunini loyihalashtirishning maxsus usullarini, vazifalar va mashqlar tizimini, didaktik materiallarni tuzishni, o‘qishdagi natijalarni nazorat qilish va baholashning reytingli tizimini o‘z ichiga oladi.

### **Adabiyotlar**

1. Aripov M., Axmedov A.B., Ikramov X.Z., Irmuxammedova R.M.va boshq. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qism. -Toshkent, 2003.
2. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: —Universitetl 2000.

3. Абульханова-Славская К.А. Диалектика человеческой жизни. –М.: Наука, -1977.-С.224.
4. Аназтази А. Психологических тестирование.- в 2-х т. –М.: Педагогика, -1982. –т.2.-С.386.
5. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.-М.: Просвещение, 1985.-С.208.
6. Балабан М.А. От «продуктивной» к “редуктивной” этике образования // Школьные технологии.-2000.-№5. –С. 11-16.
7. Батышев С.Я. Блочно-модульное обучения. –М.:Транс-сервис, -1997. –С. 225.
8. Бершадский М.Е., Гузеев В.В. Дидактические психологические основания образовательной технологии. –М.: Центр «педагогический поиск», -2003. –С.256.
9. Беспалька В.П. Педагогика и прогрессивные технологии. –М.: Педагогика, -1995. –С.286.
10. Беспалька В.П. Слагаемые педагогической технологии.- М.: Педагогика, -1998.-С.286.
11. Беспалька В.П., Татур Ю.П. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса.- М.: Педагогика, -1991. –С.144.
12. Веккер Л.М. Психические процессы. –в 3-х т. –т.3. –Субъект. Переживание. Действие. Сознание. –Л.:Ленингр. Ун-т, -1981. –С. 325.
13. Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образовательная технология. –М.: Народное образование, -2000. –С. 240.
14. Гуломов С. ва бошқ. Ахборот технологиялари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
15. Чошанов М.А. Что такое педагогическая технология? // Школьные технологии, -1996. №3. –С. 8-13.

## **SUBYEKTLI AXLOQIY YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING HUQUQIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH**

**Kadirova Y.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi**

**Annotatsiya.** Huquqiy madaniyat davlatning obyektiv holatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtayi nazarining, o‘z-o‘zini anglashining shakllanishiga bog‘liq. Shaxsning huquqiy madaniyatini shakllantirishning muhim bosqichi uning huquq sohasidagi qadriyatlar va me‘yorlarni mo‘ljallab ish tutishidan iboratdir. Bunday ish tutish huquqiy madaniyatning yo‘naltiruvchi vazifasini amalga oshirishga yordam beradi.



**Kalit so‘zlar:** Huquqiy madaniyat, davlat, obyektiv, jamiyat, demokratiya, insonparvar, huquq, fuqaro, shaxs, qadriyat, oila, ta’lim, muassasa, fuqaro.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОГО ИММУНИТЕТА УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ СУБЪЕКТИВНО-ЭТИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**Кадырова Ю.Б.** - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** Правовая культура зависит от объективного состояния государства, уровня развития демократии и человечности в обществе, сформированности взглядов и самосознания каждого гражданина. Важным этапом в формировании правовой культуры человека является его приверженность ценностям и нормам правового поля. Такое поведение помогает выполнять руководящую функцию правовой культуры.

**Ключевые слова:** правовые, культура, государство, цель, общество, демократия, человечность, закон, гражданин, личность, ценность, семья, образование, учреждение, гражданин.

## **FORMATION OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECTIVE-ETHICAL APPROACH**

**Kadirova Y.B.** - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** Legal culture depends on the objective state of the state, the level of development of democracy and humanity in society, the formation of views and self-awareness of each citizen. An important stage in the formation of a person's legal culture is his adherence to the values and norms of the legal field. This behavior helps to fulfill the guiding function of legal culture.

**Key words:** Legal, culture, state, purpose, society, democracy, humanity, law, citizen, personality, value, family, education, institution, citizen.

O‘zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar huquqiy jamiyatni barpo etishga yo‘naltirilgan islohotdir. Huquqiy jamiyatni barpo etishning eng asosiy shartlaridan biri bu fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat oila, ta’lim muassasalari hamda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va shu bilan birga xalqimiz va uning an’analari, tili va madaniyatiga bo‘lgan muhabbat va hurmat ko‘rsatishdek sifatlarni o‘zlashtira olishi zarurligini

ta'kidlaydi va shu jumladan, o'z xalqiga, an'alariga, tili va diniga, madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash, pedagoglarimizning oldiga qo'yilgan eng oliy maqsaddir. Yoshlarning huquqiy immunitetini rivojlantirish uchun ularni iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilib, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmashlik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularda men o'zbek farzandiman, degan g'urur va iftixor bilan g'ururlanish va iftixor bilan yashashga erishish zarur. Albatta ushbu fazilatlar shakllangan shaxslarda huquqiy immunitet rivojlangan bo'ladi.

Shunday ekan barkamollik, bilimdonlik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, axloqiy soflik kabi fuqarolarga xos bo'lgan his-tuyg'ularni shakllantirish, insonparvar, vatanparvar shaxsni voyaga yetkazishda muhim o'rinni egallaydi. Chunki, ushbu fazilatlar insonda ma'naviy-axloqiy salohiyat va ijtimoiy faollikni oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish bilan birga, fuqarolik burchi va vazifalarini bajarish mas'uliyatini rivojlantiradi. Demak, har qanday holatda ham sog'lom, iymon-e'tiqodli, aqlan teran, axloqan pok, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlarini chuqur anglaydigan yoshlarni voyaga yetkazish, huquqiy immunitetni shakllanganligining asosini tashkil etadi. Demak, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va huquqiy jamiyat asoslarini shakllantirish, uning quruvchilari hisoblangan yosh avlodning, yoshlarning fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda huquqiy madaniyatini shakllantirish; jahonda ro'y berib, kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm, diniy fundamentalizm va ekstremizmning oldini olish; ayrim yoshlarning o'qishga, mehnatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qiziqishining susayib, ular o'rtasida avj olgan nashavandlik, ichkilikbozlik, huquqbuzarliklarni bartaraf etish; har bir insonning erkin, mustaqil ongli, bunyodkor, tadbirkor, tashabbuskor va to'laqonli huquq va erkka ega, davlat boshqaruvida faol ishtirokchi shaxs qilib voyaga yetkazish kabi talablarini to'liq bajarishni talab qiladi.

Huquqiy immuniteti rivojlangan shaxs: albatta, eng avvalombor o'z burchi va majburiyatlarini chuqur anglovchi, jamiyat hayotini yo'lga qo'yishda faol ishtirokchi bo'lishi, huquqiy jamiyat oldida turgan joriy va istiqbol vazifalarni hal etuvchi, jamiyatni boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi, mamlakat qudratini mustahkamlash yo'lida moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylovchi, milliy an'analarga sodiq, millat vakillari tomonidan xalqaro maydonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan faxrlana oluvchi, millat va mamlakat obro'si uchun kurashuvchi, Vatan mudofaasini ta'minlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik madaniyati yuqori darajada bo'lgan fuqaro "... jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaatlari nisbatini teran anglovchi hamda o'z

amaliyotida bu nisbatda muvozanat buzilmasligiga qat'iy rioya etuvchi subyektdir".

Fuqaroni tarbiyalash va unda fuqarolik madaniyatini shakllantirish murakkab hamda davomiylilik xususiyatiga ega jarayon hisoblansa-da, lekin o'quvchilik yillari bu jarayon uchun poydevor qo'yadi va o'z huquqiy bilimlarini "Huquq" "Tarbiya", "O'zbekiston tarixi", "Konstitutsiyaviy huquq asoslari", "Iqtisodiy bilim asoslari", shuningdek, ta'lim muassasasining yo'nalishiga ko'ra bir qator mutaxassislik fanlari o'quvchilarda huquqiy immunitetni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Binobarin, bu fanlarni o'qitishda o'quvchilar barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, uning jismoniy layoqati hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar, xarakterlariga xos bo'lgan xususiyatlarni tanqidiy baholaydilar va salbiy xulq-atvorlarini yo'qotishga urinadilar. Yoshlarda huquqiy immunitetni rivojlantirish, insonning o'z-o'zini huquqiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini kamolga yetkazishda shaxsning integrativ shakllanishidir. Yoshlarning huquqiy immunitetni rivojlantirishga axloqiy va huquqiy madaniyat kiritilib, u insonlarda o'z xalqiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish va boshqa insonlarga hurmat bilan qarashda ifodalanadi. Uning tarkibiy elementlari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, huquqiy tarbiya kabilardan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda tarkib topadi.

Huquqiy madaniyat davlatning obyektiv holatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtai nazarining, o'z-o'zini anglashining shakllanishiga bog'liq. Shaxsning huquqiy madaniyatini shakllantirishning muhim bosqichi uning huquq sohasidagi qadriyatlar va me'yorlarni mo'ljallab ish tutishidan iboratdir. Bunday ish tutish huquqiy madaniyatning yo'naltiruvchi vazifasini amalga oshirishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyati mamlakatda siyosiy barqarorlik, tinchlik osayishtalik va fuqarolararo totuvlik saqlanmoqda. O'zbekiston xalqi tinchlikning qadrini juda yaxshi biladi, uni asrash va mustahkamlash yo'lida bor kuch g'ayratini ayamaydi. Tinchligimizni buzmoqchi bo'lgan qabih niyatli guruh va kimsalar xalqning nafratiga uchraydi. Huquqiy madaniyat o'quvchilar tomonidan fuqarolik va bu holatni ifoda etuvchi sifatlar mohiyatini chuqur anglay olinishi asosida shakllanadi. Shu jihatlarni olib qaraganda o'quvchilarni turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida yoshlar tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan xatti-harakatlar, ularning ijtimoiy g'oyaviy xususiyatlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda Maktablarda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham muhim o'rin tutadi. "Huquqiy jamiyat – davlat hokimiyatidan qat'iy ravishda shaxslar, guruhlar, institutlar va tashkilotlar o'rtasidagi ma'anaviy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning qadriyatli tizimi". U inson mustaqil ravishda, tashqaridan aralashuvlarsiz o'z harakatlarining maqsadlari va vositalarini belgilaydigan ijtimoiy va xususiy hayot to'qnashuvida shakllanadi. Maktab

o'quvchilarida huquqiy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta'sirini ham hisobga olish muhimdir Zero, ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan holatlar, ularning yo'nalishi, mazmuni va mohiyati, jamiyatda ustuvor o'rin egallagan ma'naviy-axloqiy qarashlar o'quvchilarning fuqaro sifatida shakllanishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tuzumning eng yuqori shakli bo'lgan huquqiy jamiyatda fuqarolik shaxs qadr-qimmatini ta'minlash, uning sha'ni, or-nomusi va haq- huquqlarini himoyalashining huquqiy kafolati hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, yoshlarning huquqiy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta'siri, huquqiy madaniyati, huquqiy immunitetni shakllantirish muammosini hal etish va ularni anglash inson huquqiy immunitetini rivojlantirish fuqaroning yetakchi tavsiflaridan hisoblanishini aniqlash hamda fuqarolilikning axloqiy, madaniyatshunoslik, aksiologik va psixologik jihatlarini ajratish imkonini berdi. Shunday ekan inson shaxs hosilasi sifatida huquqiy immunitetini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Shamaribxodjayeva Gulnora Jalaletdinovna kasb-hunar kolleji o'quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish ): Ped. fanl. nomz. ... diss. - T.: 2009.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T. Istiqlol, 2013.
3. Shamaribxodjayeva G. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar j. - T.: 2008.
4. Umarov B. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayenida talabalarda mustaqillik tafakko'rini shakllantirishning pedagogik asoslari: Psix. fanl. nomz. ... diss. avtoref. - T.: 2005
5. Kadirova X. Yoshlarda huquqiy tarbiyani shakllantirish omillari. Konstitutsiya-xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri maxsuli, asriy qadriyatlarimizning beqiyos timsolidir. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2021.

### **REKLAMA MATNLARINING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI**

**Allaberganova N.M. - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada reklama matnlari va uning tasnifi bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida qilingan ishlar, reklama izohi, reklama va unga yondosh tushunchalarning farqlari, e'lon va mediamarketinglarning izohi kabi masalalar mohiyati yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** reklama matnlari, eʼlon, mediamarketing, reklama va uning tasnifi haqidagi ilk qarashlar, reklama matnlarining gender xususiyatlari, gʻarb va oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi.

## LINGUISTIC STUDY OF ADVERTISING TEXTS

**Allaberganova N.M. - Master's degree from Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.**

**Annotation.** This article discusses the work done in world and Uzbek linguistics on advertising texts and their classification, the nature of advertising, the differences between advertising and related concepts, the interpretation of advertising and media marketing.

**Key words:** advertising texts, advertisements, media marketing, the first objections to advertising and its classification, the gender characteristics of advertising texts, the study of Western and Uzbek linguistics.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ

**Аллаберганова Н.М. - магистрант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**

**Аннотация.** В статье рассказывается о проделанной в мировой и узбекской лингвистике работе над рекламными текстами и их классификацией, рекламными комментариями, различиями между рекламой и смежными понятиями, комментариями к рекламе и медиамаркетингом.

**Ключевые слова:** рекламные тексты, реклама, медиамаркетинг, первые возражения против рекламы и ее классификация, гендерные характеристики рекламных текстов, изучение западной и узбекской лингвистики.

Bugungi axborotlashgan asrimizda ommaviy axborot vositalari hayotimizda juda katta rol oʻynamoqda, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti davrida reklama juda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayotimizni hozirgi kunda reklamasiz tasavvur qila olmaymiz. Qaysidir bir korxonada tovar ishlab chiqarar ekan, avvalo, uni sotish uchun xaridor izlaydi va oʻz mahsulotlarini reklama qilishadi. Respublikamizning boshqa koʻplab mamlakatlar bilan olib borayotgan ijtimoiy, siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy aloqalari kuchayganligi oʻzbek reklama matnlarining tilimizdagi oʻrni, uning kommunikativ - pragmatik jihatlari oʻrganish zarurligini taqozo qilmoqda. Dunyo tilshunosligida reklama va uning tasnifi haqidagi ilk qarashlar XX asr boshlariga



to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risidagi qarori 1998-yil qabul qilingan bo'lib, shu kungacha bu qarorga 14 marotaba o'zgartirish kiritilgan.

Biz ishimizni boshlashdan oldin reklama va unga yondosh tushunchalarga to'xtalib o'tamiz. O'zbek tilining besh jildlik izohli lug'atida reklama atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Reklama [fr. reclame < lot. reclamare –qattiq qichqirmoq] – muayyan tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat turlari haqida xaridorlarni xabardor qilish, ularga nisbatan talab, ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to'g'risida berilgan ma'lumot"[1]. Demak, reklama matnlari muayyan adresat guruhiga qaratilgan bo'ladi va retsepiyentlar bu matnni u yoki bu darajada qabul qiladilar. Aynan unda berilgan ma'lumotning retsepiyent tomonidan qabul qilinishi masalasi reklama matnlarini kognitiv-pragmatik yo'nalishda o'rganishga yo'l ochdi. Biz reklama matnlarini tahlil qilishdan oldin uni e'lon, mediamarketinglardan farqlab olishimiz kerak bo'ladi. "E'lon [a. ko'pchilikka ma'lum qilish, bildirish, xabarnoma] – ko'pchilikka yetkazilishi zarur bo'lgan xabar, yangilik, buyruq, farmon; shunday xabar yozilgan qog'oz, hujjat, bildirish"[1]. Demak, reklama savdo vositasi bo'lsa, e'lonning asosiy vazifasi kishilarni jalb qilish hisoblanar ekan. Endi reklama va marketingning farqiga to'xtalib o'tamiz. Reklama marketingning tarkibiy qismi hisoblanadi. "Marketing – bu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste'molchiga qadar targ'ib qilish bo'yicha maqsadga muvofiq faoliyat. Avvalo, mahsulot o'rganiladi (u mahsulot yoki xizmat bo'lishi mumkin), so'ngra uning ideal narxi aniqlanadi, shundan so'ng sotiladigan joylar belgilanadi. Marketing, shuningdek, tovarlarni sotish uchun vositalar majmuasi deb ataladi"[2]. Demak, marketing bozor iqtisodiyotini o'z ichiga qamrab oluvchi umumiy tushuncha hisoblanar ekan. Reklama esa marketingga nisbatan torroq tushuncha hisoblanadi. Reklama tovarlarni ilgari surish uchun qo'llaniladigan vosita hisoblanadi. Yana-da tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, reklamani sotishni boshqarishda yordam beradigan marketing vositalaridan biri deb hisoblashimiz mumkin. Reklama matnlari tahlili bo'yicha turli olimlar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. G'arb va rus tilshunosligida D.Ogilvi, D.E.Rozental, N.N.Koxtev, K.Garri, X. Kaftandjiyev, K.Bove, U.Arens, I.Y.Rashkov, T.B.Kolishkina, E.V.Medvedeva, E.D.Farbi, E.V.Bulatova, G.Litvinova, E.Anasimova, L.Mayevskaya, Y.Pirogova, N.Gurskaya, S.Martinova, D.Zarlikova va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida reklama matnining nazariy va amaliy masalalari, lingvistik jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda ham bu borada ko'plab izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, Eshbekov T.U. Jamoatchilik bilan aloqalar va matbuot xizmatlari. Ma'ruzalar matni. T.: Universitet, 2008., Toxirovich Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. – T.: Universitet, 2006., G'afforov N.N. Ommaviy axborot vositalarida reklama. Ma'ruzalar matni. – T.: O'zMU, 2000., Umurzaqov A.M. Ijtimoiy reklamalar

jamoatchilik fikrini rivojlantirish vositasi sifatida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 4-son., Mallayev F. Reklamaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni // QarDU xabarlari [3] buning yorqin namunalaridir. Hozirgi kunda reklama matnlari bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan Yelena Viktorovnaning dissertatsiya ishi reklama matnlarining gender xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda matnning gender tarkibini sintaktik asosda o‘rganish mumkin ekanligi hamda ayollar o‘z nutqida ko‘pincha taklif ohangidan foydalansa, erkaklar asosan buyruqdan foydalanishlari aytib o‘tilgan. Bundan tashqari reklama matnlarida ayollar ko‘pincha so‘roq so‘zlar, shuningdek, undovlardan ko‘proq foydalansalar, erkaklar nutqida biz to‘liq bo‘lmagan takliflar va elliptik tuzilmalarni uchratishimiz mumkinligi bayon qilingan. Bundan tashqari tijorat reklamalarida ham reklama xususiyatlari yorqin ko‘rinishi, masalan, ayollar nashrlarida yosh, yoqimli, muvaffaqiyatli va bolalar bilan bo‘lgan ayollar ko‘proq uchraydi, chunki tomoshabin bu tasvirlarda ko‘proq “o‘zini ko‘rish”ni istaydi.

Reklama lingvistikasi yuzasidan o‘zbek tilshunosligida ham ilk bor monografik ish e‘lon qilingan bo‘lib, dissertatsiyada reklama matnlarining nazariy va amaliy jihatlari haqida bildirilgan jahon va o‘zbek tilshunosligidan fikr-mulohazalarga munosabat bildirilgan, reklama matnlari tadqiqot usullari tadrijiy taraqqiyoti muammosining o‘zbek tilshunosligi va uslubshunosligida o‘rganilish holati ilmiy tanqidiy tahlil qilingan va baholangan, reklama matnlari turlari tasniflangan, o‘zbek tilidagi reklama matnlarining kommunikativ-uslubiy xususiyatlari hamda reklama turlari va kompozitsion xususiyatlari, o‘zbek tili reklama matnlari ekstralingvistik va lingvistik xususiyatlari mohiyati yoritilgan, reklama matnlaridagi til birliklari misolida til va madaniyat uyg‘unligi ochib berilgan; O‘zbekistondagi tijorat reklama mahsulotlarining ommaviy madaniyat hodisasi sifatidagi ta’siri masalalari tahlil qilingan, shuningdek, zamonaviy reklama diskursida maqsadga yo‘naltirilgan til birliklarining lingvistik imkoniyatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari Dian Indriani va doktor Deli Nirmalalarning ishlari ham television tijorat so‘zlari pragmatikasiga bag‘ishlangan. O‘zlarining ishlarida Djarum brendining reklamalaridan foydalanishgan va reklamalar matnlarini presuppozitsiya turlari bo‘yicha tahlil qilganlar. Unga ko‘ra, reklama matnlari leksik, struktur, faktiv presuppozitsiyalarga ajratilib o‘rganilgan.

I.S.Stroyevaning “Особенности прагматики классифицированной рекламы” nomli maqolasida reklama matnlari pragmatikasi va xususiyatlari muhokama qilingan hamda tasniflangan[4].

T.N.Xrulevaning “Репрезентация гендерных стереотипов в журнальной рекламе” nomli maqolasida reklama matnlarining gender xususiyatlari muhokama qilingan[4].

O.M.Snigireve va T.S.Talalaylarning “ Языковые особенности прагматики рекламного текста” nomli maqolasida reklama matnlarining pragmatik funksiyalari yoritib berilgan. Bu ishda nemis tilidagi “Der Spiegel”, “Cosmopolitan”, “Petra”, “Brigitte”, “Geliebte Katze”, “Happy way” singari jurnallarning reklama matnlari tadqiqot materiali sifatida olingan[5].Reklama matnlari bo‘yicha tadqiqotlar rus va jahon tilshunosligida ancha keng ko‘lamda olib borilgan va bugungi kunda bu dolzarb masala o‘zbek tilshunosligida ham o‘z ildizini yoymoqda.

Turkologiyada ham bu borada ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, Şelale Dalyanning “Reklam sloganlarinda söz sanatları çevirisi ve çevirmen yaklaşımları” nomli magistrlik dissertatsiyasi ham reklama shiorlarida talqin va tarjima yondashuvlariga bag‘ishlangan. Qozoq tilshunoslaridan A.M.Ospangaliyevaning “Жарнама тілінің ерекшелігі “ nomli maqolasida qozoq tili davlat tili deb tan olinganidan keyingi davrdagi reklama tilining lingvistik xususiyatlari muhokama qilingan. Xususan, reklama matnlarining diskursiv nazariyasi, kommunikativ xususiyatlari tahlil qilingan. Reklama matnlari va tilini o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shgan bir qator xorijiy olimlarning ishlari ham keltirib o‘tilgan.

Keyingi davrda reklama matnlarini o‘rganishda yangicha yo‘nalish, ya’ni lingvopragmatik usul keng yoyildi. Chunki reklama matnlari muayyan shaxs yoki shaxslar jamoasiga qaratilganligi sababli ularni kognitiv, pragmatik jihatdan o‘rganish asosiy masalaga aylandi. O‘zbek tilshunosligida ham reklama matnlarining bir qancha jihatlari o‘rganilmoqda, jumladan, matbuot reklamalari leksikasi, reklama matnlarining sotsiolingvistik jihatlari kabi masalalar yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan adabiyotlar reklama matnlari bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar uchun namuna vazifasini o‘taydi, desak adashmaymiz. Chunki ushbu ilmiy ishlar nafaqat reklama matnlarining lingvistik, balki pragmatik xususiyatlarini ham ochib berishga bag‘ishlangan.

### **Adabiyotlar**

1. Begmatov E., Madvaliyev E.,... O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
2. <https://zapustibiznes.ru/uz/v-chem-raznica-mezhdu-reklamoi-i-marketingom-reklama-pr-i/>
3. Abdullayev B.X. O‘zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot mavzusidagi avtoreferati, 2020.
4. Вестник Ставропольского государственного университета; 48/2007.
5. Вестник Оренбургского государственного университета; 2017 № 11(211)

## **TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Yuldasheva.F.I. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda talabalarining o'quv-bilish motivatsiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy metodlari orqali ularning samarali ta'lim olish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, o'quv, bilish faoliyatiga innovatsion yondashuv asosida ulardagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, ko'nikma, kasbiy kompetentlik, bilim, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, kreativ kompetentlik, metodik kompetentlik.

## **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ**

**Юлдашева Ф.И. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются механизмы развития учебной мотивации студентов и совершенствования системы активизации их эффективных учебных процессов за счет новой формы обучения, нетрадиционных методов, развития их профессиональных компетенций на основе инновационного подхода к обучению.

**Ключевые слова:** компетентность, умение, профессиональная компетентность, знания, социальная компетентность, специальная компетентность, творческая компетентность, методическая компетентность.

## **DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENT STUDENTS**

**Yuldasheva.F.I. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article discusses the mechanisms of developing students' learning motivation and improving the system of activating their effective learning processes through a new form of teaching, non-traditional methods, the development of their professional competence on the basis of an innovative approach to learning. ..

**Key words:** Competence, ability, professional competence, knowledge, social competence, special competence, creative competence, methodical competence.

Ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichi o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish talablarini ilgari suradi, bu axborotni muhim idrok eta oladigan, yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda hal qila oladigan va o'z ijodkorligini kreativligini amalga oshiradigan pedagog tayyorlashni amaliy faoliyatda yaratuvchanlik intellektual salohiyatni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Bu, o'z navbatida, mutaxassislar tayyorlaydigan universitet uchun bolalarning kognitiv faolligini boshqarishning psixologik -pedagogik qatlamining mohiyatiga ta'lim jarayonida e'tiborni kuchaytirish vazifasini qo'yadi. Ushbu muammoni hal qilish natijalari-ko'plab tugallangan psixologik va pedagogik tadqiqotlar orqali osonlashtirilishi mumkin.

Talabalarning kelgusi jarayondagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish nazariy bilimlarni amaliy jarayonda tog'ri qo'llay olishiga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan kasbiy kompetentlikni yetarli darajada o'zlashtira olmayotgani bu kasbiy malakalarini kamchilik va muammo darajasiga olib kelishi mumkin jihatdir. Talabalarning dars jarayonida olgan bilimni amaliy tajriba asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirib boradi. Kasbiy kompetentlikni shakllanishida talabalar bilimi muhim o'rin egallaydi.

Bilim – nazariy va amaliy faoliyat natijasida o'rgangan, esda saqlab qolingan qabul qilingan va fikrlashtirilgan hodisa va predmetlar haqidagi tushunchalar tizimidir. Bilimlar o'z navbatida tizimli va tizimsiz, nazariy va amaliy, keng va tor, chuqur va yuzaki, moslanuvchan va shablonli, mustahkam va mustahkam bo'lmagan turlariga bo'linadi. Bularning ichida kasbiy ta'lim natijasida hosil bo'ladigan nazariy va amaliy bilimlarni oshirish mumkin. Amaliy bilim esa texnika va texnologiya sohasidagi jarayonlarning aloqasini, hodisasini va boshqalarning to'g'ridan to'g'ri amaliy faoliyatga kiritilganligini bildiradi[1].

«Kompetentlik» tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik «noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, atrofagi kasbdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik» ni anglatadi.

Talabalarda kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy bilimlarni egallaganlik darajasi uning negizidir. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.



Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olishidir.

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z- o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega[2].

O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- jobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagog mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;

choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati, uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. ma'lumotlarning tahlili pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida kompetensiyalarning shakllanganligi darajalari bo'yicha o'rta statistik qiymatni aniqlashga va uni grafik ko'rinishda ifodalashga imkon beradi.[3]

Universitetda pedagoglarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tegishli yondashuvlarni aniqlash amaliyot jarayonida hamda ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda va o'qitishda bir nechta dasturlarni tahlil qilib, ular orqali jarayonga metodik yordamni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilishga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nazariy bilimlarni o'zlashtirmay talabalar amaliyotda, kelgusi o'quv tarbiya faoliyatida kasbiy faoliyatini qoniqarli tashkil eta olmasligini ko'rsatadi. Yuqori darajada yanada keng dunyoqarash bilan va bilimlarni nostandart vaziyatlarda qo'llashni bilish bilan tavsiflanadi, ammo kompetensiyalarning yuqori darajasini egallashsiz talabalar tashkilotida ishlay olmaydi. Talabalarga ta'lim olish jarayonida kasbiy-pedagogik malakalarni egallashlariga imkon beruvchi pedagogik texnologiyalarni tanlash, o'quv jarayonining yangi dasturiy ta'minotini kiritish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish monitoringini amalga oshirishdan iborat. Shuning uchun keying yillarda bu borada oliy o'quv yurtlarida keng ko'lamda ishlar amalga oshmoqda. Malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish har bir oliy o'quv yurtining asosiy maqsadidir.

### **Adabiyotlar**

1. Raximov Z.T. Oliy kasbiy ta'limda talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2021/ 8 – son 4-10 b
2. B.S.Abdullaeva .F.I.Yuldasheva Pedagogik Kasbiy Kompententligi Va kreativlik 202130-48-b.
3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo\_jayev A.A. Kasbiy pedagogika. Darslik. Toshkent —Vorisl nashriyoti – 2020. 517-b.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent -2006.
5. Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика. Toshkent-2001.
6. Umarov B. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayenida talabalarda mustaqillik tafakko'rini shakllantirishning pedagogik asoslari: Psix. fanl. nomz. ... diss. avtoref. - T.: 2005

**TALABALAR EKOLOGIK-VALEOLOGIK MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK QONUNIYATLARI VA  
TAMOYILLARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIGI**

**Almamatova Z.X.- Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalar ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirishda didaktik qonuniyatlari va tamoyillardan foydalanishning ustivorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** tabiiy ekosistema, predmet, mazmun, metodologik va ilmiy asos, konsepsiya, didaktik qonuniyat va tamoyil, ehtiyoj, ekologiya, ekologik-valeologik madaniyat.

**ПРИОРИТЕТНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ  
ЗАКОНОВ И ПРИНЦИПОВ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГО-  
ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ**

**Алмаматова З.Х. -преподаватель Джизакского государственного  
педагогического института**

**Аннотация.** В статье научно обоснована приоритетность использования дидактических законов и принципов в развитии эколого-валеологической культуры студентов.

**Ключевые слова:** природная экосистема, предмет, содержание, методологическая и научная основа, концепция, дидактические законы и принципы, потребности, экология, эколого-валеологическая культура, информационно-коммуникационные технологии, природа, экосистема, валеология.

**PRIORITY OF USE OF DIDACTIC LAWS AND PRINCIPLES IN  
THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL STUDENTS**

**Almamatova Z.X. - lecturer at Jizzakh State Pedagogical Institute**

**Annotation.** In the state scientifically based on the priority of the use of didactic laws and principles in the development of ecological and valeological culture of students.

**Key words:** natural ecosystem, subject, content, methodological and scientific basis, concept, didactic laws and principles, needs, ecology, ecological and

valeological culture, information and communication technologies, nature, ecosystem, valeology.

Jahonda ta'lim XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, talabalarning ekologik-valeologik madaniyatini ta'lim jarayoniga tadbiiq etilgan.

Insoniyatning barqaror rivojlanishi tushunchasi ehtiyojlar kelajak avlodlarga ziyon yetkazmagan holda qondirilsa insoniyatning eko-valeologik xavfsizligini ta'minlaydi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq yashash, ota-bobolarimiz va bobolarimizdan olgan yurtni avlodlarimiz uchun saqlab qolish, ya'ni tabiiy ekosistemalarda ekotizimga olib keluvchi o'z – o'zini boshqarish jarayonlarini saqlab qolish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

«Konsepsiya» o'rganilayotgan tushunchaning bitta ta'rifiga emas, balki ma'nosi jihatidan ancha yaqin va urg'u berilgan talqinlarining qandaydir tartibga solingan majmuiga qaratilganligi sababli, bunday savol qo'yamiz – qaysi ma'noda qaratilganlik?

Bizning holatimizda so'z tabiat hodisasini o'rganish haqida emas, balki murakkab ko'p bosqichli bo'lgan sun'iy ta'lim hodisasi haqida borayotganligi sababli, bu jarayonni ilmiy jihatdan tushunish va ta'minlash uning bosqichliligiga bog'lanmagan holda ishlab chiqilishi mumkin emas. Shu o'rinda jarayonni ilmiy kuzatib borish bilan ta'minlanadi (yoki ta'minlanishi kerak), aynan uning bosqichli rivojlanishida yetarlicha to'liq va mukammal, muhandislik natijasiga mos keluvchi ilmiy nazariya shakllanadi: shu tarzda ilmiy natija oldinda boruvchi ilmiy izlanish bilan ta'minlanadi. Sun'iy jarayonda ilmiy izlanish va ilmiy natijaning birligi bizning holatimizda konsepsiya deb atalgan hodisani vujudga keltiradi.

Biroq pedagogikada konsepsiya deganda, ko'pincha biror-bir pedagogik hodisani, uni yaratish jarayoniga bog'liq bo'lmagan ravishda, demakki, pedagogik ilmiy asoslarining undagi tegishli vazifasidan uzoq bo'lgan fakt va natija sifatida ilmiy asoslash tushuniladi. Nazariy pedagogik qurilmalar va pedagogik amaliyotning uchrab turadigan nomuvofiqligiga bosh sabablardan biri ham mana shundan iborat. Bu nomuvofiqlik umumiy va oliy ta'limni hozirgi davrda mohiyatan isloh qilish sharoitida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan dalillar, «konsepsiyani» turli darajali tushunish va tavsiflash sababli OTM talabalarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish, uning ta'minotini ishlab chiqish hamda ilmiy jihatdan ta'minlash va asoslashdan iborat pedagogik hodisaga (jarayoniga va tizimiga) tatbiiq qilinadigan, aynan keng ma'noda tushuniladigan konsepsiyaga bag'ishlangan. Shunday qilib, konsepsiya, yakuniy ilmiy tizim sifatida ma'lum va haqiqatda mavjud natijasiga olib keluvchi muayyan jarayonning omil bosqichlarini ilmiy jihatdan ta'minlashning

uzluksiz rivojlanishi natijasidir. Umuman olganda, konsepsiya ilmiy izlanish va ilmiy natija jarayonini ham ta'minlaydi – yaratilgan tizimning qo'yilgan maqsadga, amaliyotga (bizning holatimizda – pedagogik) va umumiy ta'lim nazariyasiga mos kelishi jihatidan, ya'ni bu konsepsiya ilmiy tizim va real tizim namunasi ko'rinishida go'yoki ikkilangan natijaga aylanadi.

Zamonaviy ekologik-valeologiyaga (uning ilmiy va ta'lim ko'rinishlarida) murojaat qilib, uning predmet, mazmun, metodologik va ilmiy asoslaridan kelib chiqish zarur:

*birinchidan*, yuqorida qayd etilganidek, insonning atrof-muhitga va, binobarin, o'z-o'ziga munosabatlari majmui tarixan birlamchi bo'lib, bu munosabatlarda inson o'zini tabiatdan ajratmagan va uning uyg'un qismi sifatida qabul qilgan; aytib o'tilgan munosabatlar (ya'ni yaxlitlashgan boshlang'ich ekologiya-valeologiya) haqidagi kompleks bilimlar aynan mana shu omil asosida shakllangan bo'lib, ular rivojlanish jarayonida alohida bilim sohalariga darajalangan – avval boshlang'ich ekologiyaga va boshlang'ich valeologiyaga, keyinroq esa – ekologiya va valeologiyaga;

*ikkinchidan*, ekologiya va valeologiyaning *predmet va metodologik jihatdan kesishishi* munosabati bilan, tabiiy tarzda bilim sohalarining ekologiya-valeologiyaga yaxlitlashuvi muammosi paydo bo'ladi;

*uchinchidan*, ekologiya va valeologiyaning ekologiya-valeologiya darajasigacha integratsiyasi (yaxlitlashuvi) yana *shuning uchun ham maqsadga muvofiqi*, unda bilimlarning boshlang'ich sohalariga nisbatan sinergizm effekti namoyon bo'ladi; bunday yaxlitlashuvning murakkabligi ekologiya va valeologiyaning ishlab chiqilganlik darajalari turlicha ekanligidan iborat;

*to'rtinchidan*, bizning tadqiqotimiz holatida, sinergizm effektini yodda tutib, ekologiya va valeologiyaning ikki turdagi yaxlitlashuviga murojaat qilishga to'g'ri keladi – ham ilmiy, ham ta'lim sohaları sifatida, chunki nisbatan yangi bo'lgan ilmiy ekologik-valeologik bilimlar va ta'lim ekologiya-valeologiyasi har doim va hamma narsada ham parallel ravishda rivojlanmaydi; garchi *ekologik-valeologik ta'limni ilmiy ekologiya-valeologiyaning ta'lim sohasiga* (uning darajalari bo'yicha) *proyeksiyasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lsa ham*;

*beshinchidan*, ekologik-valeologik ta'lim, ekologik-valeologiyaning pedagogik proyeksiyasi bo'lgani holda, ekologik ta'lim va valeologik ta'limga nisbatan sinergizm xossasiga ega bo'ladi;

*oltinchidan*, faqat bilim emas, balki obyektiv olam hodisalarining ham rivojlanishini tavsiflaydigan *qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi umumiy qonuni* haqida eslasak, «ekologiya va valeologiyani», bir tomondan, va «ekologik-valeologiyani» ikkinchi tomondan, qarshi qo'yish, shuningdek, ekologik va valeologik ta'limni ekologik-valeologik ta'lim bilan qarshi qo'yishdan ma'no



chiqmaydi; bu mulohaza pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga (ekologik va valeologik tarkibiy qismlari bilan hamda umuman bu tayyorgarlikning ekologik-valeologik mohiyati bilan bog‘lanishli bo‘lgan) ham tegishlidir.

Talabalarda ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirishning kompleks dasturini ishlab chiqishdagi asosiy tamoyillardan foydalaniladi (Z.I.Tyumaseva va YE.G.Kushnina bo‘yicha [364, 366]) (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

**Talabalarda ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirishning kompleks dasturini ishlab chiqishdagi asosiy tamoyillar**

	<b>Tamoyillar</b>	<b>Tamoyillarning mazmun-mohiyati</b>
.	kompleks maqsad tamoyili	o‘sib kelayotgan avlodning jismoniy, ma‘naviy va ijtimoiy farovonligining (salomatligining) shakllanishi ko‘rinishida maxsus tashkil etilgan, birga qo‘shilgan o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish asosida amalga oshiriladi
.	maqsadiga yo‘naltirilganligi tamoyili	umumiy ta‘limning ta‘lim subyektlarida jismoniy, ma‘naviy va ijtimoiy farovonlikni shakllantirish, ya‘ni ta‘limni valeologik ta‘minlash. Amalga oshirish faqat o‘sib kelayotgan avlodni u kelajakda yashaydigan tabiiy, antropogen va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish yo‘li bilan ta‘minlanadi
.	talabaning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantirish tamoyili	talabaning har bir bosqichda rivojlanishidagi ruhiy-fiziologik xususiyatlariga, uning miyasining yoshga oid xususiyatlariga mos keluvchi yagona va yaxlit ta‘lim muhitiga asoslanish
.	insonning bioijtimoiy moslashuvi tamoyili	ta‘lim va uning tarkibiy qismlari alohida turlari va shakllarining vositalari bilan ta‘minlanishi mumkin emas. Bunday moslashuvni faqat ta‘lim vositalarining ta‘lim muhiti deb ataladigan tizimga birlashgan vositalari majmui yordamida ta‘minlash mumkin
.	ta‘lim muhiti shakllanishi, tashkil topishi hamda izchil ravishda kengayishga moyilligi tamoyili	talabaning yoshiga xos va individual psixosomatik imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish. Ta‘lim muhitini tashkil etish, bir tomondan, inson va atrof muhitning o‘zaro ta‘siri qonunlari asosida, ya‘ni doirasida «inson – atrof-muhit» umumiy muammosi hal etiladigan ekologik bilimlar asosida, ikkinchi tomondan esa, valeologiya hamda valeologik va ekologik jihatdan ta‘minlangan rivojlanish qonunlari asosida amalga oshirilishi

	lozimligi tamoyili; shu tariqa pedagogik ekologiya vujudga keltiriladi va u salomatlikni rivojlantirish va mustahkamlashni ta'lim vositalari bilan ta'minlaydi
--	--

Undan tashqari, Z.I.Tyumaseva rahbarligidagi olimlar jamoasi [372] *ekologik ta'lim tamoyillarini* ajratib ko'rsatadi, bu tamoyillar I.D.Zverev rahbarlik qilayotgan [193] jamoa taklif qilgan umumiy tamoyillar tizimi bilan tutashadi va ulardan (umumiyligi tufayli) ekologik-valeologik ta'limni ishlab chiqishda foydalanish mumkin (2.2-jadvalga qarang):

2.2-jadval. **Ekologik ta'lim tamoyillari**

	<b>Ekologik ta'lim tamoyillari</b>	<b>Ekologik ta'lim tamoyillarining mazmun-mohiyati</b>
.	ekologik ta'limga insonparvarlik ruhini singdirish tamoyili	insonning qulay hayot muhitiga huquqi mustahkamlanadi va ekologik maqsadga muvofiq faoliyatga qodir bo'lgan, Yer yuzida hayotni asrash, insoniyatni ekologik halokatlardan qutqarish maqsadini ko'zlaydigan insonni shakllantirish g'oyasi ifodalanadi; ekologik ta'lim mazmunida ma'naviy va huquqiy me'yorlarni majburiy tartibda aks ettirish talab qilinadi
.	<i>ilmiylik tamoyili</i>	ishonchli ilmiy axborotning insoniyat hayot muhiti sifatida yetarli darajada bo'lishini, tabiiy va tabiiy-ijtimoiy ekotizimlar barqaror rivojlanishining obyektiv qonunlari va qonuniyatlari ochib berilishini taqozo qiladi
.	<i>bashorat qilish mumkinligi tamoyili</i>	talabalarda oldindan bilish tuyg'usini, hayot va insoniyat rivojlanishining ehtimoliy yo'llarini bashorat qilish qobiliyatini shakllantirish muammosining dolzarblashuvi
.	<i>uzluksizlik tamoyili</i>	shaxsning ekologik mas'uliyatini shakllantirish tadrijiyligi va bosqichliligi. U o'sib kelayotgan avlodni insonni o'rab turgan muhit masalalari bo'yicha o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni maktabgacha, maktab va maktabdan so'nggi ta'limning barcha bosqichlarida, ularning izchil aloqasi va rivojlanishida tashkil etishni talab qiladi
.	<i>tizimlilik tamoyili</i>	ekologik ta'limni uning quyidagi barcha komponentlari (maqsadlari, mazmuni, uslublari va usullari, o'qitish vositalari) hamda har xil faoliyat turlarini tashkil etish shakllari asosida tizimli tashkil qilishni ta'minlash

Turli tadqiqotchilar tomonidan ekologik ta'lim asosiga qo'yilgan negiz g'oyalarni qiyosiy tahlil qilib, bu tamoyillar bir holatda boshqa tadqiqotchilar ko'rsatgan tamoyillarga mos keladi, boshqa holatda esa ulardan farq qiladi va hatto qarama-qarshi bo'ladi.

Ekologik-valeologik ta'limning (uning darajalari bo'yicha) konseptual maqsadlari, vazifalari, metodologiyasi va tamoyillarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qonuniyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, bizning holatimizda, OTMdagi ekologik-valeologik tayyorgarligining mazmuni, tashkil etilishi va texnologik ta'minotini konseptual jihatdan belgilab beradi; ular birgalikda esa (aytib o'tilgan tayyorgarlik va ta'lim turlari) chuqur va mohiyatan o'zaro bog'langan.

Demak, OTM talabalarida ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirishning mazmuniga bevosita e'tibor qaratishni shundan boshlaymizki, inson farovonligi (salomatligi) va bu farovonlikning yoshga qarab rivojlanishi muayyan o'sib kelayotgan inson uchun murakkab hodisa bo'lib, quyidagi tizimli xususiyatlarga ega: biologik, tibbiy, ekologik (yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarga bog'langan), ijtimoiy (yashash tarzi va sharoitlarini belgilab beruvchi), insonshunoslik va ta'limga xos (ko'rsatilgan barcha omillar majmuini tizimli va predmetli-metodologik jihatdan tashkillashtiradigan).

Talabalarning ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u ushbu rivojlanishning zarur va yetarli darajada keng qamrovli metodologiyasining konseptual asoslariga, shuningdek, pedagoglarning ekologik va valeologik tayyorligini shakllantirish tamoyillari va qonunlariga asoslangan.

### **Adabiyotlar**

1. Абдуллаев З.А. Экологические отношения и экологическое сознание. – Ташкент, 1990. – 247 с.
2. Abdurahimova F.Y. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash.: Avtoref. ... dis. ped. fan. nom. – T., 2008. – 22 b.
3. Abdusattorova O. Oilada sog'lom turmush tarzi va gender masalalari. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. –125-b.
4. Тюмасева З.И. Эколого-валеологические основы дошкольно-школьного образования. – Челябинск: ЧИКПРО, 1994. – 180 с.
5. Зверев И.Д. Экологическое образование дошкольников. – М. : Педагогика, 1983. – 160 с.
6. Зверев И.Д. Методологические основы принципов и условий реализации экологического образования // Педагогические принципы и условия экологического образования: Сб. науч. тр. – М., 1983. – С. 4-10.

**O‘QUVCHILARNING O‘QUV-TARBIYAVIY IJODKORLIK  
FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN  
O‘QITISH SHAKLLARI VA METODLARI**

**Paxratdinova R.O. - Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘quv-tarbiyaviy ishlarini samarali amalga oshirish orqali o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik faolligini oshirish, o‘qitish shakli va unga mos keluvchi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash hamda texnologiya fani darsida ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun o‘qituvchi yoki o‘quv ustasi rahbarligida o‘quvchilarning o‘quv materialini ongli ravishda puxta o‘zlashtirishiga qaratilgan kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, o‘quvchi, dars, texnologiya, ta’lim, tarbiya, o‘qitish shakli, o‘qitish metodi, loyihalashtirish, jamoa, guruh, yakka, mahorat, malaka, kasb, sifat, samaradorlik.

**ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ПРОЕКТИРОВАНИИ  
ТВОРЧЕСКОЙ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
УЧАЩИХСЯ**

**Пахратдинова Р.О. - старший преподаватель Каракалпакского  
государственного университета им. Бердах**

**Аннотация.** Статья направлена на повышение творческой активности учащихся в национальном ремесле за счет эффективного выполнения воспитательной работы, правильного выбора формы обучения и соответствующей методики обучения, а также осознанного усвоения учебного материала под руководством преподавателя. Учитель или инструктор - воспитательное и педагогическое значение профориентации.

**Ключевые слова:** учитель, студент, курс, технология, образование, воспитание, форма обучения, метод обучения, дизайн, команда, группа, личность, умение, квалификация, профессия, качество, эффективность.

**FORMS AND METHODS OF LEARNING IN DESIGNING CREATIVE  
EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS**

**Paxratdinova R.O. - Senior Lecturer at Berdakh Karakalpak State  
University**

**Annatation.** The article aims to increase the creative activity of students in the

national craft through the effective implementation of educational work, the correct choice of the form of teaching and the appropriate teaching method, as well as the conscious mastery of teaching materials under the guidance of a teacher or instructor. - Educational and pedagogical significance of career guidance.

**Key words:** teacher, student, lesson, technology, education, upbringing, form of teaching, teaching method, design, team, group, individual, skill, qualification, profession, quality, efficiency.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 6-noyabrda imzolangan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108 Farmonda ham “Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikma va bilimlar bo‘lishini shakllantirish” mazkur sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan[1]. Bu masala boshqa fanlar qatori texnologiya fanini o‘qitishda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa o‘qitish jarayonida ta’lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo‘llash orqali texnologiya fani mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish talab qilinadi. Shu sababli bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidagi asosiy dolzarb masala – ta’lim usullari va shakllarini yaxshi egallagan, ularni amalda qiynalmay qo‘llay oladigan malakali o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ham malakali yetuk o‘qituvchi kadrlar tayyorlash uchun, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirish va bunda o‘quvchilarning faolligini oshirish ko‘p jihatdan qaysi o‘qitish shakli va unga mos keluvchi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlashga hamda qo‘llashga bog‘liqdir.

O‘qitish shakli deganda muayyan mashg‘ulot (dars)da ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun o‘qituvchi yoki o‘quv ustasi rahbarligida o‘quvchilarning o‘quv materialini ongli ravishda puxta o‘zlashtirishiga qaratilgan o‘quv-tarbiya faoliyati tushuniladi. O‘quvchilarning o‘quv ustaxonasidagi o‘quv-ishlab chiqarish ishlarining asosiy shaklidan biri dars yoki amaliy mashg‘ulotdir. O‘quv-ishlab chiqarish ishi sifatidagi dars (mashg‘ulot)ning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: a) o‘quvchilar tarkibining doimiyliigi; b) ularning bilimi (tayyorgarlik darajasi) taxminan bir xil saviyada bo‘lishi; v) mashg‘ulotni qat’iy jadval asosida belgilangan ma’lum vaqt davom etishi; g) o‘qituvchi yoki o‘quv (ishlab chiqarish ta’limi) ustasining bevosita rahbarligi; d) uning xilma-xil o‘qitish metodlaridan foydalanishi; ye) darsni frontal (yoppa, umumiy), zveno (guruh-guruh) va individual (yakka-yakka)



ko‘rinishda olib borish imkoniga ega bo‘lishi. Demak dars o‘qitish jarayoniga tashkiliy aniqlik kiritadi va ishlab chiqarish ta‘limi va boshqa fanlar darslarini navbatlashtirib tashkil etishga, binobarin, o‘quvchilarning yuqori unumdorlik bilan o‘qishini hamda dam olishini ta‘minlashga imkon beradi. Ayni fan va hamma darslarni to‘g‘ri va uyg‘un tashkil etgandagina darsning mazmuni va to‘la maqsadga muvofiq ochilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta‘limi maqsadlari va vazifalariga muvofiq ravishda quyidagiga o‘xshash har xil dars turlarini qo‘llash mumkin:

1. Kombinatsiyali (o‘qitish jarayonining hamma zvenolarini o‘z ichiga olgan) mashg‘ulot.

2. Operatsiyalarni o‘zlashtirishga (ayni operatsiyaga oid ish-mehnat priyomlarini o‘rganishga) bag‘ishlangan dars.

3. Kompleks ishlarni bajarishga (konkret buyum tayyorlash munosabati bilan ilgari o‘rganilgan operatsiyalarni texnologik kompleks tarzida birlashtirishga) bag‘ishlangan dars.

4. Nazorat (tekshirish, sinov) topshiriqlari va malaka olishga bag‘ishlangan dars (chorak oxirida, yarim yillik, o‘quv davrida).

Ayrim dars shaklidagi ishlab chiqarish ta‘limi asosan o‘quv ustaxonasida tashkil etilishini e‘tiborga olib, shuni ham ta‘kidlashimiz kerakki, o‘quvchilar bajaradigan ishlarning xarakteriga qarab (bir tipli yoki turli tipli ishlarning bajarilishiga qarab) darsni tashkil etish shakli ham tanlanadi (masalan, ishni – darsni frontal – butun sinf uchun; zveno; yakka va aralash tashkil etish). Masalan, o‘quvchilarning hammasi bir xil ishni bajaradigan bo‘lsa (bolg‘a tayyorlash, kalit yasash va h.k). darsning frontal shaklni qo‘llash mumkin. Bu holda o‘qituvchi o‘quvchilarning hammasi uchun bitta umumiy instruktaj beradi va hamma o‘quvchilarga nisbatan qo‘yiladigan umumiy talablar asosida buyumni tayyorlash texnologiyasining to‘g‘ri bajarilishini kuzatib boradi. O‘quvchilar bajaradigan ishlar mazmuni (tayyorlash texnologiyasi) bir-biriga yaqin, lekin xarakteri, ya‘ni konstruksiyasi boshqa-boshqa bo‘lgan hollarda darsni guruhli shaklda tashkil etish maqul, masalan, tikuv mashinasi yoki tokarlik stanoginining tuzilishini o‘rganishda o‘qituvchi ishni qismlarga ajratadi (uzatishlar qutisi, tezliklar qutisi, keyingi babka va shunga o‘xshash) va har bir qismni o‘rganishni 2-3 kishilik guruhga topshiradi. Ularga oid hamma umumiy ma‘lumotlarni o‘qituvchi frontal instruktaj tarzida o‘quvchilarga aytib beradi, har bir qismning o‘ziga xos ma‘lumotlarini esa har bir zvenoning o‘ziga aytadi. O‘qitishning bu shakldan foydalanganda o‘qituvchining ish hajmi, ayniqsa joriy instruktajda, frontal shakldagidan ko‘ra ancha ortadi. Bundagi xilma-xil ishlar sonining ko‘p bo‘lishi (stanokning turli qismlari) o‘quvchilarda politexnik bilimlar doirasini ham kengaytiradi.

Individual (yakka) o‘qitish shaklini sinfdagi ko‘pchilik o‘quvchilar

konstruksiyasi har xil, mazmunan esa bir-biriga yaqin bo‘lgan ishlarni bajarganlarida qo‘llash mumkin. Bu xil ishlar, masalan: o‘quv ustaxonasi uchun xilma-xil mayda buyurtmalardan yoki dona hisobi uncha katta bo‘lmagan turli-tuman detallar (tokarlik yoki parmalash stanoklari detallari) bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchi tayyorlanishi kerak bo‘lgan buyumlarning tayyorlanish texnologiyasini tahlil qilib chiqib, o‘quvchilarga frontal instruktaj tarzida umumiy belgilarni (ma’lumotlarni) va yakka shaklni qo‘llaganda aytiladigan ma’lumotlarni oldindan ajratib qo‘yadi. Bunda individual tarzda aytiladigan ma’lumotlar ko‘proq bo‘ladi. Ko‘ramizki, darsni individual shakl asosida tashkil etganda, o‘qituvchi ko‘proq tayyorgarlik ko‘rishiga to‘g‘ri keladi. Bunda darsning individual shakli va individual instruktajdan iborat ikkita tushunchani bir-biridan farq qilish zarur. Individual iistruktajni har qanday shaklda tashkil etilgan darsda qo‘llash mumkin, lekin bu ishning hajmi frontal dars shaklida kamroq, individual shakldagi darsda esa ko‘proq bo‘ladi. Nihoyat, aralash shakldagi dars yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan uchchala dars shakllarining elementlaridan tarkib topadi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, dastur materialining mazmuniga, ixtisoslik xarakteriga va boshqa omillarga qarab, ishlab chiqarish ta’limida boshqa tashkiliy shakllarni ham qo‘llash mumkin. Masalan, maktabda o‘qitishning ishlab chiqarish sharoitiga mos keluvchi dars shaklini qo‘llash mumkin bo‘lmagan hollarda o‘quvchilar brigadasi shaklidagi o‘qitish shaklini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu shakldagi ta’limni ko‘pincha ko‘mir koni shaxtyorlarini tayyorlashda, metallurglar, kimyogarlar va qishloq xo‘jaligiga tegishli ko‘pgina ixtisoslik ishchilarini tayyorlashda qo‘llash mumkin. Bunday sharoitlarda ishlab chiqarish o‘qituvchilari odatda o‘quvchilarni alohida o‘quvchilar brigadalariga ajratadilar, bu brigadalarining har biri muayyan o‘quv-ishlab chiqarish topshirig‘ini bajaradi. Shu bilan birga bu topshiriqlarning o‘quv maqsadi va mazmuni bir-biridan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, bir brigada marten pechiga xizmat qilishga o‘rgansa, ikkinchisi gaz generatorlariga xizmat qilishni, uchinchisi esa kontrol-o‘lchash asboblarni kuzatishni va hokazo o‘rganishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchi o‘quv brigadalarini o‘rganiladigan zonalar chegarasida almashtirib turish grafigini tuzishi kerak, toki har bir brigada, masalan, metallurgiya butun bir kompleksiga xizmat qilishdagi hamma ish usullarini bilib, o‘rganib oladigan bo‘lsin.

O‘quvchilarni korxonada o‘rgatishning yana bir shakli – ularni ishchilar brigadasiga qo‘shib o‘qitishdir. Bu shaklni, masalan, slesar-remontchi, yig‘uvchi santexnik, montajchilar, shuningdek, qurilish ixtisosliklari kabi ixtisoslarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu shakl asosida o‘quvchilarga ishlab chiqarish ta’limi berish shundan iboratki, yuqorida aytib o‘tilgan ixtisoslarga doir ishlab chiqarish brigadalariga umumsleserlikka yoki boshqa biron tayyorgarligi bo‘lgan bir yoki bir necha o‘quvchi birlashtiriladi. Bunda texnologiya o‘qituvchisining vazifasi davriy ravishda joriy instruktaj o‘tkazib borish, kundalik topshiriqning xarakteri va

hajmini aniqlab turishi, beriladigan toshpiriq mavzusiga tegishli kirish instruktaji va ish natijasiga bag'ishlangan yakuniy instruktaj o'tkazishdan iborat bo'ladi. Lekin o'quvchilar turli obyektlarga tarqatilgan bo'lishi tufayli o'qituvchi har bir o'quvchiga topshiriq berish va undan ishni qabul qilib olish imkonidan mahrum bo'ladi. Shu tufayli bu holda o'quvchilarni o'qitish (o'rgatish) vazifasi qisman ishchilar brigadasi a'zolariga yoki brigadirning o'ziga topshiriladi. Ishchilar brigadasida ishlovchi o'quvchilarga ish haqi ularning ancha past malakasini va sarf qilgan mehnatini hisobga olib hisoblanadi. O'quvchilar ishchilar brigadasida ba'zan o'qilgan (o'rganilgan) dasturni tizimli ravishda bajarish tamoyili buziladi. Chunki texnologiya o'qituvchisi ishchilar bajaradigan ish turini (bu ish turi dasturning ayni davrida o'rganiladigan ishga mos kelmagan taqdirda ham) o'zgartira olmaydi [16]. Lekin o'quvchilarni ish bilan doim ta'min etilib turilishi, ilg'or texnologiya va ilg'or mehnat usullaridan foydalanish imkoniga ega bo'lishi, ishchilar jamoasi sharoitida mehnatda chiniqishi kabilar bu kamchiliklarni qisman bo'lsa-da qoplaydi.

Texnologiya fanini o'qitish shaklining yana bir turi o'quvchilarni malakali ishchilarga biriktirishdan iborat bo'lib, bunda o'qitish asosiy ishdan ozod qilinmagan instruktor yoki usta tomonidan amalga oshiriladi. Bir instruktorga bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq o'quvchi birikti-rilmaydi [15]. O'qitishning bu shaklining ijobiy tomoni shundan iboratki, bu usul bilan bevosita ilg'or texnika-texnologiya bilan ta'minlangan ishlab chiqarish sexlarida istalgan hunar bo'yicha yangi ishchilar tayyorlash mumkin. Bunda instruktor uchun o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini va ulardagi sifatlarni e'tiborga olib turib, eng samarador o'qitish usullarini qo'llashga imkon bo'ladi. Biroq bunda o'zining asosiy ishi bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lgan instruktor o'ziga biriktirilgan o'quvchilarga yetarli e'tibor bera olmay qolishi, ishlab chiqarish ta'limini borishini har kuni nazorat qila olmasligi ham mumkin.

Texnologiya o'qitishning maxsus shakli – o'quvchilarning shtatli ish o'rinlarida (iste'mol mahsuloti ishlanadigan ish o'rinlarida) o'tkazadigan amaliyotidir. Bu shakl ta'limning oxirgi oylarida, korxonada sharoitida o'tkaziladi. Bu shaklda o'qitishda har bir o'quvchi shtatli joyda ishlab, mahsulotga korxonada tomonidan qanday talablar qo'yiladigan bo'lsa, o'sha talablarga to'la amal qilib buyum tayyorlaydi. Bu holda o'quvchi buyum ishlab chiqarishda vaqt me'yorini bajarishga ham majbur bo'ladi.

O'quvchi tayyorlagan mahsulotni korxonaning texnik nazorat bo'limi xodimlari qabul qilib oladi. O'quv-ishlab chiqarish faoliyatini shu xilda tashkil etish o'quvchilarni ayni ixtisoslik ishchilari ishlaydigan sharoitda mehnat qilishga odatlantiradi. O'qituvchi o'qitish shakllarini va metodlarini ayni ish o'rniga qo'yiladigan talablarga moslashtirib tanlashi shart. Agar ayni ish o'rnida texnologiya dasturi to'la bajarilmaydigan bo'lsa, o'qituvchi oddindan tuzib qo'yilgan grafik

asosida o'quvchini boshqa ish o'rniga ko'chirishi shart [17]. Nihoyat, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni uyushtirishning so'nggi shakli texnik ijodkorlik to'garaklaridir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkiliy shakllarini o'rganishga kirishishdan avval ishdagi bu bosqichning o'quvchilar mahoratini o'stirishdagi ahamiyatini aniqlab olish kerak. Gap shundaki, o'quvchilarning darslarda oladigan bilim, o'quv va malakalari faqat dasturda belgilangan minimumdan iborat bo'ladi. Holbuki, ko'pchilik o'quvchilar zamonaviy texnikaga qiziqadilar. Shu sababli ularni turli texnika to'garaklarida qatnashuvlari texnikaga doir bilimlarini o'z qiziqish va qobiliyatlariga muvofiq ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Umuman olganda har bir o'qitish shaklining o'ziga xos afzallik va kamchilik tomonlari mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida ularni hisobga olishga to'g'ri keladi. 1-jadvalda eng ko'p qo'llaniladigan milliy hunarmandchilikka oid o'qitish shakllarining afzallik va kamchilik tomonlari ko'rsatilgan.

<b>Ta'lim shakllari</b>	<b>Xarakterli xususiyatlari</b>
<b>Jamoa (frontal)</b>	<p><b>Afzalligi:</b>                      ( o'quv mashg'ulotining aniqligi, tartibliliigi ta'minlanadi;                      ( o'quv guruhi jamoasi bir butun sifatida ishlaydi;                      ( tejamlilik – o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar bilan ishlaydi.  <b>Kamchiligi:</b>                      ( o'qituvchi– ta'lim berish obekti;                      ( ta'lim berish yalpi xarakterga ega– o'quvchilar bilan yakka tartibdagi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish imkoniyati bo'lmaydi;                      ( o'qituvchi barchani bir vaqtda bir xil dastur bo'yicha o'qitadi, har bir o'quvchining tayyorgarlik va rivojlanish darajasi, o'qitish imkoniyatlari hisobga olinmaydi;                      ( «o'rtacha o'quvchi»ga yondoshiladi: o'quvchilarning qobiliyatlari baravarlashtiriladi, o'rtacha holatga keltiriladi;                      ( o'quvchilar deyarli o'zaro muloqotda bo'lmaydilar va hamkorlik qilmaydilar – har biri o'zi uchun ishlaydi.</p>
<b>Guruhli</b>	<p><b>Afzalligi:</b>                      ( o'qituvchi – ta'lim subekti va obekti hisoblanadi;                      ( guruhda ish har bir a'zoning imkoniyati, qobiliyati va ishlash tezligini o'zaro yordam va o'zaro nazorat qilishni hisobga olgan holda vazifalarni taqsimlash asosida tashkil</p>

	<p>etiladi;                  ( hamkorlikda ishlashda guruhdagi har bir a'zoning tajribasi boshqalarning tajribasini to'ldiradi, o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi;                  ( guruh a'zolari va guruhlar o'rtasida ularning faoliyati, mustaqilligi, muloqoti va hamkorligi o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lish mas'uliyatini sezishni ta'minlaydi;                  ( har bir a'zo o'zi uchun va boshqalar uchun ishlaydi;                  ( natijalar yakka tartibda ish paytidagiga nisbatan, kam vaqt sarflangan holda olinadi;                  ( guruhda hamkorlikda ishlash tufayli olinadigan natijalar o'quvchilar vazifasini alohida bajarganga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.                  Kamchiligi:                  ( ta'lim guruhda ishni bajarishga va uni natijalarini olish-ga ma'lum bir vaqtni sarflashni talab etadi;                  ( ko'p mehnatni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi tayyorgarlik uchun ko'p mehnat qilishi kerak;                  ( noto'g'ri tashkil qilinganda o'quv jarayoni nazoratdan chiqib ketishi va boshqarib bo'lmaydigan tus olishi mumkin.</p>
<p><b>Yakka tartibda</b></p>	<p>•  <b>afzalligi:</b>(o'quvchilarni yuqori darajada mustaqil bo'lishi ta'minlanadi;( o'quvchining rivojlanishi, tayyorgarligi, qobiliyati va bilish imkoniyatlari darajasini maksimal hisobga olgan holda ta'limni yakka tartibda o'tkazish ta'minlanadi;( o'quvchining kuchi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha har birini ta'lim olish tezligi boshqariladi;( har bir o'quvchiga mutanosib yakka tartibda yordam berishta'tminlanadi.Kamchiligi:ko'p mehnatni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi yakka tartibda vazi-falarni ishlab chiqishi, ularni amalga oshirishga yordam beri-shi, nazorat qilishi va baholashi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflashi kerak;tejamkor emas, o'qituvchi faqat bitta o'quvchi bilan ishlaydi;hamma o'quvchi bilan ishlashga vaqt yetmaydi.</p>

*1-jadval. Ta'limning tashkiliy shakllarining qiyosiy tavsifi.*

Ta'lim jarayonida metodlarni to'g'ri tanlash ham muhim masaladir. O'qitish metodi, dastavval, o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan o'quvchilarning bilimlarini, o'quv va malakalarini ongli va puxta o'zlashtirish, ularda ijodiy faollik va mustaqillikni o'stirishi, vazifalar bilan belgilanadi. Texnologiya fani darslarini tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan muhim talablardan biri metodlarning xilma-xilligi va ularning muayyan maqsadga xizmat etishidir. Ta'lim jarayonida og'zaki, yozma va amaliy metodlar ko'p qo'llaniladi. Og'zaki metodlar barcha ta'lim muassasalarida umumiy va eng ko'p tarqalgan metoddir. Bu metod mantiqiy metod




deb ham yuritiladi va hikoya, suhbat, tushuntirish, ma’ruza ko‘rinish-larida amalga oshiriladi. Bunda o‘quv materialini og‘zaki bayon etilishi o‘quvchilarga bilimlarni yetkazishga xizmat qilishi bilan birga ularda ayni yo‘nalishga qiziqish ham uyg‘otadi. Yozma va amaliy metodlar yordamida esa o‘quvchilar egallagan nazariy ma’lumotlar mustahkamlanadi.

O‘qitish ishlarining samaradorligi qanday metodlarni qo‘llashga ham bog‘liqdir. Avvalo metod tushunchasining kengroq ma’nosi bilan, ya’ni uning usullar majmuidan iboratligi bilan tanishib chiqamiz. O‘qituvchi bu usullar vositasida o‘quvchilarga ma’lum maqsadga qaratilgan bilimlar beradi, ulardan zarur o‘quv va malakalarni shakllantiradi, ularni mustahkamlaydi, o‘zlashtirish darajasini tekshiradi, o‘quvchilar esa bu o‘quv va malakalarni faol va ongli ravishda o‘zlashtiradi, mohirlikni egallaydi.

Tadqiqotchi pedagoglar tomonidan o‘qitish metodlari turlicha tasniflangan va ta’riflangan. Eng ko‘p qo‘llaniladigan va ma’qul tasnif quyidagicha: og‘zaki metodlar, yozma metodlar, amaliy metodlar, evristik metodlar (1-rasm).

**Hikoya qilib berish** – o‘quv materialini jonli, obrazli qilib bayon qilish usulidir. Hikoya nazorat qilish va o‘quvchilarniig galdagi ishlariga bog‘langan bo‘lishi shart. Hikoyani dars mavzusini qisqacha umumlashtirib tamomlash kerak. Jonli so‘zdan har qanday metodda ham foydalaniladi, jon-li so‘z yordamida mehnat priyomlari, ko‘rgazma, qo‘llanmalar izohlab ko‘rsati-ladi. O‘qituvchining so‘zi – o‘qitishdagi faollikni ta’minlashi uchun, xatolarning oldini olish uchun, ayni shu ish texnologiyasini bajarishda

o‘quvchiga yordam berishi uchun, jihozni boshqarish vositalarining tuzilishi, boshqarish priyomlarini o‘zgartirish uchun zarurdir.



**1-rasm. O‘qitish metodlarining eng ko‘p qo‘llaniladigan turlari.**

O‘quv materialini tushuntirish orqali og‘zaki bayon etish – asosiy materialni izchillik bilan bayon qilib berishdir. Bunda faktlarni tahlil qilish va isbotlash katta o‘rin oladi. O‘qituvchi o‘zining bayonida o‘z yozmalaridan, hisoblashlaridin

foydalanadi, bunda galdagi ishning mazmun-mohiyati oydinlashtiriladi. O'quv materiallarini bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarning nazariy bilimlari saviyasiga, ularning ishlab chiqarish ta'limi jarayonida qo'lga kiritilgan tajribalariga tayanishi lozim.

**Suhbat** – bunda o'quvchilar o'qituvchining savoliga javob beradi yoki savolning mazmuniga muvofik, so'zga chiqadilar. Suhbatdan o'rganiladigan material to'g'risida o'quvchilarga ma'lum hajmda bilim bo'lgan xollarda foydalaniladi. Suhbat oxirida o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi. Suhbat o'qitishning qulay va samarali metodlaridan biri bo'lib, texnologiyada o'quvchilarning aqliy faoliyatini va diqqatini rivoj-lantiradi. Suhbat oldindan tuzib olingan reja asosida muayyan masala-larni muhokama qilish, o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning javob berishlari tarzida olib borilishi mumkin. O'quvchilarda ayni mavzuga doir birmuncha bilim va tasavvurlari bo'lgan taqdirdagina suhbat usuli samarali bo'lishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p xollarda o'qituvchi-ning o'quvchilarga to'g'ri savol qo'ya bilishiga bog'liq. Suhbatni shunday olib borish kerakki u belgilangan ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam etadigan bo'lsin. Suhbat aniq belgilangan maqsadga qaratilgan bo'lsin.

Ko'rgazmali metod – shaxsan mehnat priyomlarini ko'rsatish, jihozlar-ni, ko'rgazma qurollarni, o'quv kino, videofilmlarni, diafilm, slayd va hokazolarni namoyish qilish demakdir. Ko'rgazmali metodlarga, shuningdek, ishlab chiqarishga ekskursiya o'tkazish, mehnat usullarini ko'rsatib berish kabilarni ham kiritish mumkin.

**Ekskursiya** – ko'rgazmali o'qitish bo'lib, bunda o'quvchilar buyumlarni, texnologik hodisa va mehnat jarayonlarini, mehnatni tashkil etishni ishlab chiqarish sharoitida o'rganadilar. Mehnat talimi o'qituvchisi ekskursiya o'tkazish rejasini oldindan tuzib qo'yishi, eng xarakterli obyektlarni belgilab ular bilan mukammal tanishib chiqishi kerak. Korxonalariga zamonaviy jihozlar va texnologik jarayonlar bilan tanishish maqsadida qilinadigan ekskursiyalarda jihozni boshqarish priyomlarini, ilg'or ish metodlarini, shu o'rinda mehnatni tashkil etish kabilarni ko'rsatish katta ahamiyatiga ega.

Har xil ko'rgazmali qurollarni va mehnat usullarini ko'rsatish texnologiyada muhim o'rin tutadi[13.]. Bunda tayyorgarlik ko'rish bosqichi va namoyishga nnsbatan talablarga alohida e'tibor berishi kerak bo'ladi. Tajribaning ko'rsatishicha, ko'rgazmalilik haddan oshib ketsa bu hol o'quvchi-larning o'rganilayotgan xodisa mohiyatini aniqlashdan chetlashishiga sabab bo'lar ekan. Shunga qaramay, bitta buyumga tegishli ko'rgazmali qurollar uning turli tomonlarini oydinlashtirishga xizmat qilgani taqdirida ular sonining ko'proq bo'lishidan xavfsiramasa ham bo'ladi.

Odatda ko'rgazmali qurollar dars boshlanmasdan ko'rsatib qo'yilmaydi.

O'quvchilarning vaqtdan ilgari ko'rgazma qurollar bilan (chala) qiziqishi, bu qurollarga jiddiy qiziqish havasini susaytirib qo'yishi mumkin. Ko'rgazma materialining mazmunini ochishga mumkin qadar o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qilishlari zarur. Bu esa o'quvchilarda kuzatuvchanlik va bilib olish xislatlarini tarbiyalash choralariidan biridir[14,44].

Texnologiyada mehnat priyomlarini ko'rsatish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu o'qitishning asosiy ko'rgazma materiallaridan biridir. Bundan tashqari texnologiya o'qituvchisi mehnat usullarini va jarayonlarini ko'rsata bilishi uchun, yuksak professional malakali bo'lishnigina emas, balki yetarli darajada pedagogik tajribaga ega bo'lishi ham talab etadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, namoyish qilinadigan mehnat priyomlari va jarayonlari barcha o'quvchilarga ko'rinadigan bo'lishi shart. O'quvchilar ayni ish priyomlarini shakllantirish uchun qanday harakatlarni va qay tartibda ishlatish kerakligini yaxshi fahmlab olishlari zarur.

O'quvchilarga mehnat faoliyati va ish usullarini bunday holatda, ya'ni ko'rsatmali holatda tushuntirish ular tomonidan o'quv topshirig'ini ongli ravishda anglashga hamda ish faoliyatini to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha ijodkorlik tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Natijada o'quvchilarning amaliy ijodkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil etishga va ularni milliy hunarmandchilikka oid muayyan bir kasbkorlikni egallashlariga erishiladi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. T., 2020 yil 6 noyabr PF-6108.
2. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.: O'qituvchi, 1990. – 232 b.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovasion ta'lim texnologiyalari. T., 2008. B.78.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004. – 236 b.
5. Кедров Б.В. О творчестве науке и технике. М., 1989. – 172 с.
6. Кудрявцев Т.В. Психология технического мышления. М., 1975. С.78.
7. Olimov B. Mehnat ta'limi darslarida o'qitishning noan'anaviy usullari: Ped. fan. nom. diss. T., 2008. – 151 b.
8. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2000. – B.38.
9. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya /Sost. YE.S.Rapa-sevich. Minsk: Sovremennoye slovo, 2005. – 720 s.
10. Ramizov J.R. Umumtexnika predmetlari o'qitish va mehnat ta'limi metodikasi. T., O'qituvchi, 1982. – 207 b.
11. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).

T., Moliya, 2003. 136 b.

12. Texnologiya fani o'quv dasturi: 5-9-s. u-n. Texnologiya va dizayn, Servis xizmati yo'nalishlari //O'zbekiston Respublikasi XTV RTM. T., 2017. – B.45.

13. M.X. Shomirzayev Texnologiya ta'limi metodikasi. Darslik. T.: –“TerDU nashr – matbaa markazi” nashriyoti, 2021, 632 b.

14. Shomirzayev M.X. Maktab o'quvchilarini xalq hunarmandchiligiga o'rgatishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish. //Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'. –Nukus, 2020. –3-son. – B.44.

15. Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12). - P. 57.

16. Torrance E.P. Guiding Creative Talent – Englewoodcliffs. N.V.: Prentice–Hall, 1962. – 250 p.

17. Wollach M., Kogan N. Modes of Thinking in Young Children. N.V.: Holt, 1965. – 222 p.

## **IJTIMOYIY FAOL SHAXS QILIB SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY ILDIZLARI VA UNING MAZMUN MOHIYATI**

**Alqarov I.Sh. - Ta'lim texnologiyalari, o'quv reja va dasturlarini ishlab  
chiqish bo'limi bosh mutaxassisi, Fizika-matematika fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalqi va uning pedagogik qarashlarining dastlabki ildizlari juda qadimiy tarixga ega bo'lgan, “Avesto”, O'rxun-Enasoy obidalari, Seleng'ur madaniyatiga borib taqalishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, komil, inson, ijtimoiy, faol, shaxs, shakllantirish, metodologiya, madaniyatlar, qadriyatlar va b.

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ СТАНОВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ ЛИЧНОСТИ И СУЩНОСТЬ ЕЕ СОДЕРЖАНИЯ**

**Алькаров И.Ш. - главный специалист отдела образовательных  
технологий, учебных программ и разработки программного обеспечения,  
кандидат физико-математических наук**

**Аннотация.** В статье рассматриваются истоки узбекского народа и его педагогические взгляды на памятники Авесто, Орхон-Енасай, Селенгурская культура, имеющая очень древнюю историю.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, совершенствование, человек, социальный, активный, личность, формирование, методология, культуры, ценности и др.

## **THE HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF A SOCIALLY ACTIVE PERSONALITY AND THE ESSENCE OF ITS CONTENT**

**Alqarov I.Sh. - Chief Specialist of the Department of Educational Technologies, Curriculum and Software Development, Candidate of Physical and Mathematical Sciences**

**Annotation.** This article discusses the origins of the Uzbek people and their pedagogical views in the Avesto, Orkhon-Enasay monuments, Selengur culture, which has a very ancient history.

**Key words:** education, upbringing, perfect person, socially active person, formation, methodology, cultures, values, etc.

Insoniyat paydo bo'libdiki yetuklikka intilgan. Buni biz O'rxun-Enasoy obidalari va ulardagi bitiklar, "Avesto" va ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirgan qo'lyozmalarda insonlarni komillikka intiltirish o'z ifodasini topganligida ko'ramiz. Hozirgi paytda ham bu jarayon o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Umuman pedagogikada komil, yetuk, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish masalasi bo'yicha doimiy ravishda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida insonparvarlik aspektlari I.Kantning har bir insonga o'z maqsadlariga erishish va o'zini boshqalar uchun bir vositaga aylanishiga yo'l qo'ymaslikni ifodalovchi qat'iy majburlamaslik g'oyasiga asoslanadi.

Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayonida inson uchun uning maqsadiga aylanguniga qadar pedagogik dasturlarni amalga oshirish vositasi bo'lmasligini anglatadi. Ta'lim-tarbiya hamkorlikdagi hayotiy faoliyat jarayoni bo'lib, "bolaga uning imkoniyatlarini amalga oshirishga yordamchi"dir (E.From), Bunda tarbiyalovchi katta yoshdagi inson-bola va madaniyat olami o'rtasidagi vositachi (D.B.Elkonin) sifatida tushiniladi. [7, 61-b.].

Bugungi kunda yosh avlodni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirishga doir barcha vazifalarni bir to'xtamga keltirish, uning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabi vazifalar o'z yechimini kutmoqda.

Demokratik jarayonda talabalar ijtimoiy faolligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, malaka va ko'nikmalari, mavjud ijtimoiy faollik



kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik mavjudligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev "Biz aziz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkomol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida yangi tahriridagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda". "...Bu haqda so'z yuritganda aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatni qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q" [4] deb ta'kidlagan.

O'zbek xalqi va uning pedagogik qarashlarining dastlabki ildizlari juda qadimiy tarixga ega, ya'ni ular "Avesto"ga, O'rxun-Enasoy obidalariga, Seleng'ur madaniyatiga borib taqaladi. "Avesto"dagi asosiy g'oyalardan bo'lmish "Ezgu fikr → ezgu so'z → ezgu amal" tizimi kishilarga ko'ngil ma'rifatini berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogikamizning dastlabki asoslari bo'lib, unda va shu kabi nodir qo'lyozmalarimizda komil insonni shakllantirish muammolari yechimi ifoda etib kelingan. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri milliy tarbiyamizga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning didaktik asosi sifatida qarab, barkamol avlodni tarbiyalash muammolarini hal qilishga qaratilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni 1 ilovasining 4.5. "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" bandida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [3] lozimligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli qarorida belgilangan "oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash" [2] ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa o'z-o'zidan ushbu mavzuning qanchalik zarurligi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Ushbu ustuvor masalalarni hal etish maqsadida ayrim muammolarni hal etish bo'yicha quyidagi tarixiy ma'naviy manbalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish, o'zlashtirish va ularni o'z turmush tarzimizga joriy etishimiz lozim:

- "Avesto"dagi "Ezgu fikr → ezgu so'z → ezgu amal" tizimi bo'yicha bildirilgan asosiy g'oyalarni amalga oshirish, ya'ni bunyodkorlik g'oyalarini talabalar ongiga singdirish metodologiyasini egallash va yoshlar tarbiyasida ulardan samarali foydalanish;

- Qur'oni karim, Hadisi shariflardagi manbalar bo'yicha yoshlar ongiga ma'naviy-ruhiy poklik mezonlari va tamoyillarini singdirish;

- Abu Nasr Farobiyning fozil odamlar haqidagi ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino va Muhammad ibn Muso al-Xorazmiylarning pedagogik va falsafiy qarashlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson insonlar haqidagi ta'limotlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Az-Zamaxshariy, Al-Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Hoja Ahrori Valiy, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Motrudiy, So'fi Ollayor va boshqalarning komil inson haqidagi ta'limotlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Amir Temur "Tuzuklari", Muhammad Qozizodaning "Hukmdorga o'gitlar" va Kaykovusning "Qobusnoma" asarlarida asoslangan ta'limotlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya berish;

- Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va komil inson ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Turkistonda Jadidchilik harakati namoyandalari g'oyalari asosida ta'lim tarbiya berish;

- Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, Birinchi va Ikkinchi Renessans hamda yangi O'zbekistonda sharoitida shakllanadigan ta'limotlar va tatqiqot natijasida shakllangan tizim orqali ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish;

- O'zbek xalqi pedagogikasi namoyandalarining barkamol inson ta'lim-tarbiyasi haqidagi nazariyalari asosida ta'lim-tarbiya berish va ular asosiy manbaimiz va dasturimiz bo'lmog'i darkor.

Bunday imkoniyatlar Yangi O'zbekistonda erkin fikrlashga to'liq imkoniyatlar yaratilishi bilan bog'liq holda yuzaga kela boshladi. Natijada pedagogikada sog'lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat va an'analar, urf-odatlar, marosimlarga mos tarzda ta'lim-tarbiyani olib borish imkoniyati yaratildi.

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijalari, bundan uch ming yil ilgari davrda ham diyorimizda yashovchi odamlarning orasida pedagogik qarashlar shakllanganligini ko'rsatmoqda. Bunga yorqin misol qilib, o'sha davrdagi "Avesto"ning ta'lim-tarbiya sohasidagi ta'limoti rivojini qayd etish mumkin.

"Avesto"dagi "Ezgu fikr → ezgu so'z → ezgu amal" tizimi "Yomon fikr → yomon so'z → yomon amal" tizimiga qarama-qarshi qo'yilgan va asrlar davomida xalqlarimiz adolat tantanasiga intilib yashagan. Shu sababli jamiyat taraqqiyotida "adolat" mezoni doimo muqaddas bo'lib qolavergan. Shuningdek, butun dunyoga mashhur qomusiy olimlarimiz, diyorimizda yashagan buyuk allomalarimiz, nafaqat qomuschi va hadischi olimlar, balki mashhur shoirlar, yozuvchilar va tarixchilar bo'lib dunyoga tanilgan. Antik davr tarixchilari, ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan epik dostonlar va rivoyatlarda ham vatan himoyasi, yurt tinchligi, millat g'ururi yo'lida mardonavor kurashgan yosh yigit-qizlarimizning mardligi, botirligi va axloqiy xislatlari ulug'langan[7].

Milliy ma'naviyat umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda kamol topa olmaydi. Hozirgi kunda eng muhim, eng dolzarb vazifa jamiyat a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Asrlar davomida ajdodlarimizni aqlu zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida yetakchi omil sifatida xizmat qilib kelgan. Shunday ekan, ular hozirgi davr kishisi, xususan, yoshlarning milliy tushunchasini, ongini boyitib borishda katta ahamiyatga ega. Milliy qadriyat tushunchalarini kishi ongida shakllantirmay komil inson to'g'risida gapirish qiyin.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tarbiyalashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odati va an'analari, tarbiya sohasidagi hayotiy tajribalari xalq pedagogikasida mujassamlangan.

Albatta, yuqorida qayd etganlarimiz milliy tarbiyamizda muhim ahamiyatga ega, ular tufayli yoshlarimiz ongida shakllanadigan milliy g'urur nihoyatda mustahkamlanadi. Ana shunday muhim manbalardan biri-jadidchilik harakatidir. Ular to'g'risidagi boy manbalar bugungi kunda ko'plab topiladi.

Xorijiy davlatlarda, xususan Yevropa mamlakatlarida insonlar hayotining turli sohalarida, ma'naviy tarbiyaviy hayotida yuz berayotgan ma'naviy inqirozni xolisona tahlil qilgan tadqiqotchilar G'arb mafkurasi halokat sari borayotganligini har tomonlama asoslangan holda oshkora aytmoqdalar. Xususan, amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi P.J.Byukenenning keyingi davrda chop etgan kitoblari "Buyuk xonlik: Amerika suvereniteti va ijtimoiy adolat global iqtisodiyot tangrisiga qurbon etilganligi haqida" (1998), "G'arb halokati: aholining kamayishi va muhojirlikning kuchayishi mamlakatimiz va tamaddunimizga qanday tahdid

solmoqda” (2001), “O‘nglarning so‘llarga aylanishi” (2004) va “G‘arb halokati” kitoblarida AQShda vujudga kelgan vaziyatni chuqur va atroflicha o‘rganib, tahlil qilib, mazkur davlatining tanazulga yuz tutishini shuningdek, ma‘naviyati va madaniyatining yemirilayotgani, asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan qadriyatlar toptalayotgani, urf-odatlar yo‘qolayotgani bilan bog‘laydi va bunday holatlar tepasida turgan “madaniy inqlobchilar”ni P.Byukenen “zamonamiz tolibonlari” deb atagan ham kutilayotgan tahdidning yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni, ya‘ni o‘quvchi-talabalarni har tomonlama tarbiyalash uchun oldin qo‘yilmagan vazifalarni amalga oshirish talab etiladi. Ilgari buzg‘unchi va bunyodkor g‘oyalar o‘rgatilib kelingan bo‘lsa, bundan keyin olgan bilimlarini hayotga, amaliyotga targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiruvchi blogerlar qilib yetishtirish davr talabiga aylanmoqda. Tarbiya o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, talabalarni ijtimoiy faol shaxs, mukammal mutaxassis etib tarbiyalash talab etilmoqda.

Oxirgi yillarda butun dunyoda globallashuv milliy madaniyat bilan “ommaviy madaniyat” orasidagi to‘qnashuv maydoniga aylandi. M.Quronov, F.Esonboboevlarning “Gibrid olmadan Gibrid odamgacha” nomli risolasida “Ommaviy madaniyat” – bugungi kunda yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga intilayotgan murakkab mafkuraviy vositaga aylanmoqda. Shu bois oliy va professional ta‘limida hamda umumo‘rta maktablarida o‘quvchilar, talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ovvola ushbu tahdidning mazmun-mohiyatini bilishi lozimligi” [9] alohida ta‘kidlanadi. Mehnatni biznes, sevgini seks, yaxshilik qilishni moddiy yordam berishni zararli investitsiya, “resurslarni maqsadsiz sarflash”, hayo va andishaning “imkoniyatni boy berish”, ota-bobolarimiz o‘gitlarini “eskilik sarqiti”, deb targ‘ib qilishdi. Natijada insonni o‘z milliy qadriyatlarida, xalqidan ajratib, o‘z mentiga qo‘shib olmoqda va jahondagi barcha milliy madaniyatlarning yemirilishiga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda yoshlarni xalqimiz og‘zaki ijodiyoti, ta‘limi an‘analari asosida tarbiyalash, axloqiy, ma‘rifiy-estetik ruhda kamol toptirish har qachongidan ko‘ra ham dolzarbroq muammolardan bo‘lib qolmoqda. Bu sohadagi asosiy muammolar, amalga oshirilishi nihoyatda zarur bo‘lgan amaliy va nazariy ishlar, tashkiliy izlanishlar bizning nazarimizda quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni milliy odob-axloqiy tarbiyasida folklor, shuningdek qadimiy qadriyatlarimizda ifodalangan milliy va umumbashariy xislat-fazilatlar asosida tarbiyalashga erishish;

- xalq og‘zaki ijodi tom ma‘noda odobnoma, xalq ma‘naviyatining ajralmas qismidir. Chunki, xalq og‘zaki ijodining qaysi shakli bo‘lmasin, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, xalq axloqiy qarashlarining u yoki bu jihatlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Demak, xalq og‘zaki ijodi odobnomasi, uning ta‘lim-tarbiyaviy tomonlaridan

kundalik hayotimizda har qachongidan ham ko‘proq foydalana bilish davrimiz, istiqbolimiz talablaridandir;

- “O‘zbek xalq pedagogikasi”ning ko‘p jildli tarixini yaratishni vaqti keldi;

- ilmiy-nazariy tadqiqotlar va amaliy faoliyatida o‘zbek milliy ta’lim-tarbiya va an’analarining nafaqat axloqiy, ma’rifiy-estetik jihatlaridan foydalanish, balki uning ulkan qismi - xalq an’anaviy sporti, jismoniy tarbiya va folklor o‘yinlarining, shu jumladan, bayram sayillarining farzandlar jismoniy, aqliy tarbiyasi, baquvvatligi, chaqqonligi, epchilligi, muxtasar aytganda, har tomonlama aqliy-jismoniy rivojlanishining sinalgan an’analaridan maqsadga muvofiq foydalana bilish.

Jamiyat ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirish tarbiya, ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday ta’lim tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk bilimga yuksak ma’naviyatga zamin bo‘ladi va shaxsni ijtimoiy faol qilib tarbiyalashda poydevor vazifasini o‘taydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 30-oktabrdagi O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”, deb ta’kidlagan edi.

Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda[5].

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida barcha tarmoqlar kabi tarbiya sohasi ham innovatsiyaga muhtojligi bilinmoqda. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning amaliyotga tatbiqi yoshlar ongiga, tarbiyasiga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. Tarbiyaga befarq va loqayd millat, kerak bo‘lsa har qanday davlat ham tanazulga uchrashi muqarrar.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” asarida “Oltinchi ustuvor vazifa: biz yangi sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga intilmoqdamiz. Bunday yondashuv – bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevordir” deb ta’kidlashi bu sohada qiladigan ishlarimiz o‘ta dolzarbligini bildiradi.

Yangi O‘zbekiston barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va nayob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”[6] deb e’tirof etganligi mamlakatimiz, xalqimiz buyuk uyg‘onish davriga qadam qo‘yganligidan dalolat beradi.



Bularning hammasida azaliy qon-qonimizga singib ketgan adolat tantanasi, nohaqlikka va yovuzlikka nafrat o'z ifodasini topgan. Yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, ona diyorumizda yashagan barcha ulug' ajdodlarimiz (olimlar), shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, qahramonlar, davlat arboblari va rahbarlari kelajak avlod va uning tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelgan. Ular tomonidan jahonga mashhur bo'lgan ko'plab madrasalar, dorilfununlar va akademiyalar yaratilgan. Natijada, ularda ta'lim-tarbiya topgan donishmandlarimiz jahon fani va madaniyatiga hamda komil inson tarbiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz va ularni o'rganish orqali yoshlardagi milliy g'urur, hamda vatanparvarlik hissi yanada rivoj topmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2020-yil 30-oktabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda"gi nutqida "antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda birinchi Renessans davrida O'rta asrda yashagan Sharqning mashhur faylasuf olimlaridan Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqalar yunon olimlari asarlariga sharhlar yozdilar. Bu sharhlarda ular o'zlarining ilg'or fikrlarini olg'a surdilar.

O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirilar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz" – deb takidladi.

Yuqorida Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning bildirgan fikr va mulohazalaridan kelib chiqib, bu sohadagi ko‘p yillik olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijalari milliy tarbiyaning tarixiy bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkinligini ko‘rsatmoqda:

- Zardushtiyalar ta’limotiga asoslangan ta’lim-tarbiya;
- birinchi Renessans davrini (“Ilk uyg‘onish davri” ta’lim- tarbiyasi);
- “Islom madaniyatining oltin asri” ta’lim-tarbiyasi;
- ikkinchi Renessans davrini; “So‘nggi uyg‘onish davri” ta’lim-tarbiyasi;
- Jadidchilik harakatiga asoslangan ta’lim-tarbiya;
  - “Sho‘ro davri”! ta’lim-tarbiyasi;
  - Mustaqillik pedagogikasi;
  - Uchinchi Renessans davri ta’lim-tarbiyasi.

Endi qayd etilgan milliy tarbiyamiz bosqichlari negizida milliy tarbiyamizning ma’naviy asoslariga qisqacha to‘xtalamiz.

O‘tmishimizni chuqur o‘rganish kelajakka to‘g‘ri va aniq yo‘l topish imkonini beradi. Bu borada Abdulla Qodiriy o‘zining mashhur “O‘tgan kunlar” romanida “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra, mavzuni moziydan, yaqin o‘tgan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim”,-[12] deb bejiz aytmagan. Qolaversa, qaysi xalqning madaniy tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, o‘sha xalqning axloqiy go‘zalligi, urf-odat rang-barangligi beqiyos, ta’lim-tarbiya tizimi ildizlari ham shunchalik chuqur bo‘ladi. Har qanday madaniyat, axloq, urf-odat, an‘ana va ta’lim-tarbiya insoniy faoliyatning kechinmalari, sinovlari, boy hayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi, maqbullari avloddan-avlodga o‘tadi va kelajakdagi tarbiyaviy ishlardagi yo‘l-yo‘riqlarni belgilab olishda mustahkam ma’naviy asos bo‘ladi.

Uchinchi Renessans davri ta’lim-tarbiyasi, metadalogik asoslari, g‘oyasi, mazmun-mohiyati, imkoniyatlar Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar va nutqlarida asos solingan. Respublikamiz taraqqiyoti va kelajagi ta’lim-tarbiya sohasida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirib talabalarni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta’limi va milliy ta’lim-tarbiya talablari mos va amaliy hayotda o‘z o‘rnini topa olish darajasida ta’lim-tarbiya berishga bog‘liq.

Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ko‘proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog‘liq bo‘lib, u talabalarni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirishda mustahkam asos bo‘ladi.

### **Adabiyotlar**

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonun. 2016-yil 14-sentabr

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil. 29-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.

6. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.– Toshkent: O‘qituvchi. MU MChJ.2021. 184 b.

7. I.Sh.Alqarov. Ta’lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirishning pedagogik asoslari. I qism. Monografiya. T. Iqtisod-moliya. 2010 y.12 b.t.

8. 1001 savolga 1001 javob. Psixologiya fanlari doktori prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida (Yunesko, YuNFPA loyihasi asosida) –T. Mehnat. 2000. – 192 bet.

## **XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK AN‘ANALARINI SHAKLLANISH JARAYONLARI**

**Xurramov U.K. - Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining shakllanish jarayonlari, tarixi va ularning takomillashuv shart-sharoitlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** cholg‘u, xalq cholg‘ulari, an’anaviy cholg‘ular, ijrochilik, maktablar, musiqa asbobi.

## **ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ НА НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ**

**Хуррамов У.К. - преподаватель Термезского государственного  
университета**

**Аннотация.** В данной статье приводятся сведения об истории процессах формирования узбекского народного исполнения и условиях их совершенствования.

**Ключевые слова:** исполнение, народное исполнение, традиционное исполнение, школы исполнительства, музыкальный инструмент.

## PROCESSES OF FORMATION OF PERFORMANCE TRADITIONS IN FOLK INSTRUMENTS

**Khurramov U.K. - is a teacher at Termez State University**

**Annotation.** This article provides information about the processes of formation, history and conditions of development of Uzbek folk instruments.

**Key words:** instruments, folk instruments, traditional instruments, execution, schools, musical instrument.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochilik an‘analari o‘zi kabi tarixan boy va rang-barangdir. O‘rta osiyo xalqlari hayotida tarixiy rivojlanish taxminan bizning eramizgacha bo‘lgan birinchi ming yillikdan shakllana boshlangan. O‘rta osiyo xalqlari va ular olib boradigan faoliyat va hayoti to‘g‘risida Sharq xalqlari yodgorligi “Avesto” kitobida batafsil yoritib berilgan. Ayniqsa, unda xalq poetik va musiqa san‘atining mushtarakligi va shu asosda yaratilgan musiqiy-poyetik asarlar, O‘rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, aholining urf-odat, an‘ana va qadriyatlari, turli tuman baryram, tadbir va marosimlari, to‘y-tomosha va boshqalar arxeologik yodgorliklarda, turli qazilma-ishlari natijasida topilgan ashyolarda o‘z aksini topgan. Aholining o‘troqlashib, oila, ovul, mahalla va boshqa jamoalarni tashkil etishi, davrlar o‘sha aholining ijtimoiylashuvi va turli sinfiy jamiyatga o‘tilishi, asta-sekinlik bilan davlat birlashuvini paydo bo‘lishi aholining og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan turli epik qo‘shiqlar mazmuniga singganligi, arxeologik topilmalarda aks etganligi fikrimiz dalilidir[1].

O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik uchun mardonavor kurashlari, bu yo‘lda o‘z jonini qurbon qilgan cho‘pon Shiroqning jasorati tarixda o‘z aksini topgan. Shuningdek, sharq xalqlarining bebaho asari Firdavsiyning “shohnoma”si, jumladan, qahramonlar Rustam, Suxrob, Siyovushlarning jasorati, go‘zallik ramzi bo‘lmish malika Taxminaning muhabbati va boshqa qahramonlar to‘g‘risida afsonalar yaratildi.

Tarixiy manba hisoblanmish “Avesto”da aholining turli marosimlarda jamoa bo‘lib, olovga sig‘inib, uning atrofida qo‘shiq aytib, raqsga tushishi ko‘rsatilgan. XII-XV asr mutafakkirlarining aytishlaricha, O‘rta Osiyo xalqlarining asosiy bayrami hisoblangan “Navro‘z”da o‘tkaziladigan marosim va urf-odatlarda turli yegulik, taniq taomlar tayyorlashi, musiqiy cholg‘ularda kuy-qo‘shiqlar ijro etib, raqsga tushishini aks ettirilishi bu xudud xalqlarining musiqaga bo‘lgan munosabati yaqqol ko‘rsatilgan. Oddiy xalqning musiqaga bo‘lgan munosabati, keyinchalik musiqaning rivojlanishi, ilmiy-nazariy tadqiqotlar natijasida asrlar davomida o‘z aksini topdi. Muhammad Nishopuriy (“Musiqqa haqida risola”), Safiuddin Urmaviy (“Risolatush-sharafiya”), Qutbiddin Sheroziy (“Durat-ut toj-li g‘urra yat-diboj”), Mahmud Omuliy (“Nafois-ul-funun”, “Li-arois-ulyunon”), Mirsaid Alin Jurjoniy (“Maholid-ul-ulum”), Abdulqodir Marog‘iy (“Maqosid-ul-alxon”), Abdurahmon Jomiy (“Musiqqa haqida risola”), Al-Forobiy (“Kitob-ul musiqqa ul-kabir”), Ibn Sino (“Donishnoma”), Kamoliddin Binoiy (“Musiqqa haqida risola”), Mahmud Husayniy (“Musiqaning ilmiy va amaliy qonuni”), Najmiddin Kavkabi (“Musiqqa haqida

risolalar”), shuningdek, Darvesh ali Changiy va boshqalar tomonidan yaratilgan risolalarda qadimgi Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan musiqiy cholgʻular va aholi orasida sevib ijro etilgan aytimlar xususida qimmatli maʼlumotlar berilgan[3].

Eramizning IV asridan boshlab, quldorlik tuzimini yemirilishi va oʻz oʻrnini asta-sekin feodal tarqoqlik davriga boʻshatib berishi Sharq mamlakatlari ikki guruhga boʻlinib, turk va sharqiy Eron xalqlariga qoʻshilib yashash jarayoni boshlandi. Qadimgi Panjakent shahridan topilgan yorqin naqshlarda aks ettirilgan turli ziyofat va marosimlar tasvirlari, kumush laganda ishlangan ov manzarasi, raqqosaning haykali, cholgʻu sozlar tushirilgan lavhalar qadimgi Oʻrta Osiyo xalqlari orasida musiqa madaniyati yuqori boʻlganligidan dalolat beradi. Musiqa merosida mahalliy turklarning ijro etgan koʻnikmalari toʻgʻrisida “Kitobi Qoʻrqu”da koʻrsatilgan. Ushbu kitob turli xalqlarining yaratilgan qahramonlik eposlarining rivojlanishiga turtki boʻlgan. Saroy hayoti, toʻy-tomoshalar hamda xalqning qahramonlik harakati sharqning buyuk shoiri Abulqosim Firdavsiyning shoh asari boʻlmish “Shohnoma” asarida koʻrsatilgan. Firdavsiy tomonidan 30 yil davomida yaratilgan mazkur asarda xalqning hayoti va turmushi – Rustam, Suxrob, Siyovush, Eraj kabi xalq qahramonlari, goʻzallik, muhabbat timsoli – Taxmina, Sudoba kabi ayollar obrazi orqali aks ettirgan. Eng muhim jihati “Shohnoma”da oʻsha davr musiqasi torli va puflab chalinuvchi (nay, arfa, ud) kabi musiqa cholgʻulari toʻgʻrisida yozgan[3].

VIII-IX asrlar Arab xalifaligi davri yaʼni, islom dinining tarqalish davrida musiqa shariat qonun-qoidalari nuqtayi nazaridan qayta shakllandi. Islom dini musiqaga nisbatan ijobiy boʻlib, ommani haq yoʻlda boshqarishda aynan undan keng foydalanildi. Arab xalifaligi davrida darveshlarning zikr tushishi bilan bogʻliq musiqa ilmiga ahamiyat berildi. Musajiq nomi bilan mashhur boʻlgan birinchi arab qoʻshiqchisi Oʻrta Osiyoda oʻsha davrda mavjud boʻlgan mahalliy musiqani oʻzlashtirib, turli xil qoʻshiqlar ijro etgan. Mahalliy musiqachi ibn Moʻhriz esa arab baytlarida qoʻshiqlar kuylagan.

Arab xalifaligi davrida musiqa sanʼati rivoji Abdulfaraj Isfahoniyning “Qoʻshiqlar kitobi”da oʻz aksini topgan. Isfahoniy, Abdulfaraj Ali ibn Alhusayn ibn Muhammad al-Qurayshiy Alkotib al-Isfahoniy (897), Isfahon (967, Bogʻdod) arab musiqashunosi, shoir va olim. Ray viloyati hokimining kotibi, shahar qozisi, keyinchalik Halib shahrida Abbosiy amirlardan Sayfuddavla saroyida nodim boʻlib xizmat qilgan. Turli ilm sohalari boʻyicha 30 ga yaqin asar muallifi, bulardan yettitasi bevosita musiqaga bagʻishlangan. Falsafaga oid “Tolibiyalar qatli kitobi” asari bizgacha saqlangan. Bundan tashqari, mashhur arab shoir va adiblari Abu Tammom, Buxturiy va Abu Nuvoslarning asarlarini toʻplab, mukammal devon tuzgan. Asarlari ichida eng mashhuri 22 jildli “Kitob ul-agʻoniy” (Qoʻshiqlar kitobi) hisoblanib, u, asosan, VII-VIII asrlardagi sheʼriyat va musiqaga bagʻishlangan. Asar qadimgi va Oʻrta asr Turon, Eron xalqlari musiqa madaniyatiga tegishli maʼlumotlarga boy. Unda mashhur bastakor, sozanda va xonandalardan Borbad, Ibn Surayj, Ibrohim al-Mavsiliy, Ishaq al-Mavsiliy, Yunus Alkotib, Mansur Zalzal, Barsuma, sugʻdlik Alluvayhlar, shoirlardan Bashshar ibn Burd, Huraymiy, Xalif ibn Ahmar haqida batafsil maʼlumot berilgan. Kitobda musiqa nazariyasi va amaliyotining bir qancha masalalari (masalan, xusravoniy, taroiq, doston, savt, turli usullar, sheʼriy va musiqiy oʻlchamlar) yoritilgan[7].



IX asr mutafakkir va mashhur olimi, faylasuf Al-Forobiyning ham musiqa sohasida qilingan ishlari bebahodir. Ayniqsa, “Kitob-ul-musiqa-ul kabir” (Katta musiqa kitobi) asarida tovushning paydo bo‘lishidan tortib, usul, interval, uch tovushliklar (musiqa savodining turli qonun va qoidalari), tovushlarning xarakteri, musiqa asboblari to‘g‘risida ma‘lumot bergan. O‘sha davrlarda janglarga mo‘ljallangan cholg‘u asboblari ham mavjud bo‘lib, ayrimlarining ovozi baland, keskin, ba‘zilari ziyofat va raqslar, to‘y, quvnoq yig‘ilishlar, muhabbat qo‘shiqlari uchun maxsus turlari ham mavjud bo‘lgan. Ayrimlarining tovushi keskin va xazin bo‘lgan[11].

XI asrda fors tili rivojlanib, mahalliy xalq ushbu tilda so‘zlasha boshladi. Yillar davomida to‘xtovsiz urushlar esa madaniyat va san‘atni rivojlantirishga zarar yetkazdi. XII asrdan boshlab tasavvuf yo‘nalishi rivojlana boshladi. Bu borada Faxriddin ar-Roziy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy asarlarining o‘rni beqiyos bo‘ldi. XII asrdan boshlab XV asrgacha Kesh (Shahrisabz), Samarqand, Buxoro, Hirot shaharlari navbatma-navbat madaniyat va san‘at markazi bo‘lib keldi. Shu yillar dehqonchilik rivojlanib, hunarmandchilik san‘atining xilma-xil turlari paydo bo‘ldi. Musiqa oddiy mehnatkash xalq orasida keng rivojlangan, kuylangan, shu bois xalq musiqa ijodiyoti to‘g‘risida ko‘p tarixiy asarlar bundan dalolat berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida ashula, so‘z va raqs tushayotgan ijrochilar haqida ma‘lumotlar berilgan.

Safiuddin Abulmo‘min ibn Yusuf ibn Foxiri Urmaviy (1230) yoshligi o‘tgan Bog‘dod shahrida ilmiy-nazariy asarlarni yaratishda Forobiyning tovush, ritm, intervallarga bergan ma‘lumotlari, Ibn Sinoning musiqiy-estetik qarashlaridan bahramand bo‘ldi. 1252-yilda yozgan “Kitob ul-advor” deb nomlangan musiqiy risolasida bir qatori musiqiy cholg‘ular haqida qimmatli ma‘lumotlar bergan. Urmaviy birinchi bo‘lib “ud” musiqa asbobida lادلarning joylashishini aniqlab berdi hamda 12 maqomni bir tizimga kiritib, tovushlar joylashishi uchun notalar tizimini yaratdi. Harflar va sonlar orqali musiqa tovushlarini belgilash usulini ko‘rsatdi. Uning ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlari, estetik qarashlari sharq musiqasining rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda katta manba bo‘lib xizmat qildi[2].

XV asrning ikkinchi yarmida Hirot, Samarqand shaharlari madaniyat va san‘at markaziga aylandi. Movarounnahrda Xurosondan barcha ijod ahli kelgan va shu bilan birgalikda ijrochilik san‘ati, xonandalik, naqqoshlik, raqqoslik sohalari rivojlangan. Abdurahmon Jomiyning nomi o‘zbek va sharq musiqa madaniyatida musiqa haqidagi risolasi bilan mashhur bo‘lgan. A.Jomiy (1441-1492) o‘z asarida Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog‘niylarning musiqa nazariyasiga oid asosiy qonunlarini davom ettirdi. Jomiyning musiqa sohasida olib borgan tadqiqotlari, berilgan nazariy va amaliy bilimlari yillar davomida yirik asarlarning shakllantirishda asos bo‘lib kelgan. Buyuk shoir, olim, musiqashunos, bastakor O‘rta Osiyo musiqa madaniyatini yuksalishida o‘zining noyob iste‘dodi bilan hissa qo‘shgan, o‘n ikki maqomning she‘riy matn va musiqasini tartibga solgan Kavkabiyy (1532) Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Musiqa sohasida turli ilmiy risolalar yaratgan. Kavkabiyy mutafakkir olimlar – Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy kabilar fikriga tayangan holda O‘rta Osiyoda musiqa amaliyotini yaqinlashtirishga intilgan musiqashunoslardan biri hisoblanadi[2].

Kavkabiylar o'z asarlarini fors tilida yaratgan. Uning "Risolayi musiqiy" asari Shayboniy Ubaydullaxon buyurtmasi asosida yaratilgan. Risolada musiqa nazariyasidan ma'lumot keltirilgan, o'n ikki maqom tizimiga nazariy yondashgan, turli zarblarni keltirib, ularning xususiyatlariga ta'rif bergan. Maqomlarining ijro usuli to'g'risida so'z yuritadi. Qaysi maqom qay paytda ijro etiladi va insonga uning ta'sirini bayon etadi. Mazkur risola nusxalari Toshkent, Dushanbe va Sankt-Peterburg sharqshunoslik va san'atshunoslik institutlarida saqlanmoqda. Kavkabiylar o'z zamonida zabardast musiqa bilimdoni, yuqori iste'dodga ega bo'lgan shaxs sifatida mashhur bo'lgan. Atoqli musiqashunos Ishaq Rajabov Kavkabiylarning iste'dodligini quyidagicha zikr etgan: "Mavlono Kavkabiylar kabi mahoratli bastakor kam bo'lgan, maqom yo'llari asosida naqshlar, amallar va peshravlar yaratgan. Aniqsa, she'rlar tanlab ularni ustalik bilan ashulalarga bog'lagan"[2].

Musiqa asboblari to'g'risida sharq musiqashunosi, yirik olim, XVI asrning mutafakkiri Darvesh Ali Changiy o'zining asarida keng ma'lumot berib, unda musiqa asbobini barcha musiqa asboblarining podshohi deb ta'riflagan. Darvesh Ali Changiy (1547) ning birinchi ustozini olim Mirzo Ali bo'lib, adabiyot, tarix, musiqa fanlaridan saboq bergan. Bolaligi ijod ahli orasida o'tganligi, keyinchalik risolasida Ali Do'st Nayi, Mavlono Xusayn Kavkabiylar, Ja'far Qomusiy nomlari joy oldi [6].

Shayboniylarning davri Ubaydullaxon (1533-1539) hukmronligi jarayonida musiqa va san'at sohasiga alohida e'tibor berilgan edi. Hirotdan sozanda va xonandalar, shoir-u raqqoslar Buxoro va Movarounnaxrga kelib ijod qilishgan. Darvesh Ali Changiylarning otasidan keyingi ustozini Hoji Ja'far Qonuniy xonandalik, musiqa nazariyasi, kompozitsiya bilimlarini Hasan Kavkabiylardan oldi. Changiylarning musiqa qobiliyati, iste'dodi va mohir ijrochiligi to'g'risida qisqa muddat ichida shahar va undan tashqarisida ma'lum bo'ladi. Darvesh Ali Abdullaxon Shayboniy davrida yashab ijod qilgan davrni hayotining eng mazmunli va samarali davri deb hisoblaydi [8; 9]. Saroy majlislarida o'z asarlarini mohirona ijro etganligi uchun Changiylarning zamondoshlari uning iste'dodiga yuqori baho berganlar. Changiy "Risolayi musiqiy" asari (1572)ni tugatib, o'sha davr hukmdori Abdullaxon Shayboniyga tuhfa qiladi.

Changiy "Risolayi musiqiy" asarini ikki holatda yaratadi. Asarning bir qismi hikoya shaklida yozilgan bo'lib, qolgan qismi musiqiy nazariy tushuntirish shaklida keltirilgan. Asarning ikkinchi qismida qadim yunon olimlarining fikrlari, Forobiy, Ibn Sino, Dehlaviy musiqiy-estetik qarashlariga murojaat qilgan holda yaratilgan. Risola o'n ikki maqom qismidan iborat bo'lib, Changiy har bir qismiga alohida tushuncha berib borgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Shayboniylar uchinchi sulolasi Abdullaxon hukmronligi davrida Buxoro shahri madaniyat va san'at markaziga aylandi. Buxoro xalqi boshqa mamlakatlarga savdo ishlari bilan safarga chiqib, savdo-sotiq bilan bir qatorda madaniyat va san'atni ham chet elga tanishtirib, turli xalqlarning san'at namunalarini olib kelgan. Darvesh Ali asarida yozadi: Xon saroyida Chin mamlakatidan tashrif buyurgan Shoh-Mansur Buxoro shoirlari bilan bir qatorda g'azal ijod qilib, unga kuy bastalab va o'zi ijro etdi. Mohirona ijrosi uchun Abdullaxon qimmatbaho sovg'alar ulashdi[2].

Temuriylar saltanatidan so'ng yuzaga kelgan amirlik va xonliklar saroylarida musiqa ijrochilarini podshoh va amaldorlari, ayniqsa oddiy xalq tomonidan yuksak qadrlanganligini ko'rish ham mumkin. Saroy marosim va tadbirlarini yuqori saviyada, ko'tarinkilik kayfiyatida tashkil etishda musiqa san'ati asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Tarixdan ma'lumki, turli salb yurishlari, jangu-jadallarda, Ona-Vatan himoyasida askarlarning shijoatini oshirish, ularni ruhlantirish, jangovor kayfiyatini ko'tarishda musiqiy cholg'ularning o'rni beqiyos bo'lgan. Bunda dovul, membranafon, idiofon, ayerofon musiqa cholg'u guruhlaridan unumli foydalanilgan. Xalqning ijtimoiy turmush tarzini bayon etadigan mehnat, bayram va diniy marosim musiqa asarlarida ijro etilgan cholg'ular, undagi ijro uslublari xalqimizning san'atga bo'lgan qiziqishlari qay darajada bo'lganligini aks ettiradi. Bunga ko'plab qazilma topilmalar, tarixiy qo'l yozmalar va undagi tasvirlar dalil bo'la oladi[1].

Taniqli o'zbek cholg'ushunosi, dirijyor, professor Ashot Ivanovich Petrosyans (1910 - 1978) o'zbek musiqa madaniyatining taniqli vakili sifatida 40 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyo xalqlarining cholg'u asboblari takomillashtirish borasida samarali mehnat qildi. Uning rahbarligida va bevosita ishtirokida milliy cholg'u asboblari takomillashtirildi va qayta yaratildi. Cholg'u asboblari rivojlantirish sohasidagi ko'plab ishlar Petrosyans nomi bilan bog'liq holda jahon standartlariga muvofiq standart (temperatsiyalangan soz) tizimda o'rnatish, ularga musiqiy yozuvlarni joriy etish (1936), ayniqsa, o'zbek musiqa madaniyati tarixidagi birinchi ko'povozlik xalq cholg'ulari orkestrining yaratilishi va badiiy yo'nalishi (1938) keng omma orasida ko'povozlik musiqani targ'ib qilish va ularni jahon musiqa madaniyati yutuqlari bilan tanishtirishda juda ko'plab yaxshi natijalar qo'lga kiritilgan. Uning nomi O'zbekiston davlat konservatoriyasi xalq cholg'ulari kafedrasini va fakultetini tashkil etish va boshqarish, shuningdek 800 ga yaqin eksponatni o'z ichiga olgan musiqa asboblari muzeyini yaratish, musiqa sanoatida yangi bosqich – zamonaviy milliy asboblarni tayyorlash bilan ham bog'liq.

XX asrning 20-30-yillarida monodiya va unison ijro etish tamoyillariga asoslangan xalq cholg'u asboblarning katta ansambllari paydo bo'ladi. Ular juda ko'p konsert va ijro ishlarini bajarishdi. O'sha davrdagi ta'lim muassasalarida milliy cholg'u asboblari bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yildi. Darslar yetuk musiqachilar tomonidan bir guruh talabalarga an'anaviy (ustoz-shogird) usulda – eshitish qobiliyati yordamida yo'lga qo'yilgan. Xalq cholg'ulari eng ommaviy va ommabop musiqiy savodxonlikni keng targ'ib qilishda, polifonik ijrochilikni idrok etishda va xalq iste'dodlarini aniqlashda muhim rol o'ynashi kerak edi. Biroq, temperatsiyaning yo'qligi, cholg'ulardagi yetarlicha keng bo'lmagan tovushqatorlar, aksariyat cholg'u asboblarning zaif va ba'zilarining haddan tashqari kuchli ovozga egaliklari sababli sahnada ulardan foydalanishni cheklab qo'di, konsert repertuarini qisqarishi sabab bo'lardi. Bu esa boshqa xalqlarning asarlarini ijro etishga imkon bermas edi[10].

1938-yil noyabr oyidan boshlab o'zbek xalq cholg'ulari orkestri yaratilib, u nota asosida ijro etardi. 12 bosqichli teng temperatsiya asosida rekonstruksiya qilingan diatonik asboblardan xromatik asboblarga o'tish amalga oshirildi. Bir qator cholg'u asboblari sezilarli darajada takomillashtirildi, bu ko'p jihatdan ularning ijro va texnik imkoniyatlarini oshirdi: diapazon, tovush kuchi, tembr va boshqalar. Endi

butun orkestrning diapazoni kontroktavaning mi-sol tovushidan to'rtinchi oktaka sol tovushigacha kengaytirildi[10].

XX asr boshlarida O'zbekistonda cholg'u asboblari ikkita katta guruhga ajraldi. Bularning biri an'anaviy cholg'ular bo'lsa, ikkinchisi, xalq cholg'ulari. An'anaviy cholg'ular yakka, jamoaviy ansambl holda aholining keng qatlamida qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi xalq cholg'ulari orkestrlarda qo'llanildi.

O'zbek musiqiy merosi turli cholg'ularga boy va ularning har biri o'ziga xos tarixiy rivojlanish hamda takomillashish jarayonlaridan o'tdi. Cholg'u asboblarining kelib chiqishi, ishlatilishi va o'zaro muvofiqlashuvi masalalari bilan maxsus organologiya fanining dolzarb mavzusiga aylandi. Darhaqiqat, qaysi cholg'u asbobi bo'lmasin, mohiyatan musiqa san'atini takomillashtirishga, kuy, qo'shiq, ashula va raqslarning jozibasini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir[10; 11].

Cholg'u asboblarining umumiy ko'rinishi, parda tuzilishi va tembr-akustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasbkor qurollarini o'zlariga moslashtirish yo'lidagi izlanish va intilishlarining samarasidir[4]. Mana shu jarayon yurtimizda badiiy havaskorlik jamoalarning tashkil topishi, maxsus musiqa o'quv maskanlarning ochilishi hamda, mazkur o'quv bilim yurtlarida professional cholg'u ijrochilik maktablarini tashkil etish bilan bog'liqdir. Professional cholg'u ijrochiligi maktablarini amaliyotda qaror toptirishda kamopozitorlik ijodidan keng foydalanish asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Xususan kompozitorlar har bir cholg'u uchun yaratadigan asarlari ustida ishlar ekan ayniqsa o'zbek xalq cholg'ulari imkoniyatlarini ya'ni ijro etish uslublari, undagi ovoz tembrlari, kerak bo'lsa ijro etuvchining mahoratiga e'tibor beradi.

Shu jumladan o'zbek bastakorlik va xalq musiqa san'ati o'zining rivojlanish jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega bo'ldi. Shu o'rinda bastakorlarning yangi avlodi hisoblangan XX asrda yashab ijod qilgan Hamza, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Muxtorjon Murtazoyev, Muhammadjon Mirzayev, Fahriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov va shu kabi namoyandalari ham o'zlarining yaratgan asarlari bilan o'zbek musiqasi rivojiga yetarlicha va ulkan hissa qo'shdilar[11].

Xulosa sifatida aytish joizki, XX asrga kelib bastakorlik sohasining rivojlanishi bilan baravariga musiqa madaniyatimizda yangi yo'nalish ya'ni g'arb musiqa madaniyatining negizida shakllangan kompozitorlik sohasi ham o'z kamolotiga yega bo'la boshladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday musiqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini hamda ravnaqini topadi.

O'zbekistonda ham yevropacha musiqiy tafakkur oqimining ta'siri sezilmasdan iloji yo'q albatta. Chunonan XX asrning 30-yillarida ko'proq milliy kompozitorlarning rus kompozitorlari bilan birgalikdagi ijod namunalari xalq ommasiga taqdim etilishlari. Undan tashqari, kompozitorlik mahsuli hisoblangan turli musiqiy janrlardagi kompozitsiyalar, xususan opera, balet, simfoniya, poema, aratoriya, konsert va shu kabi jamoaviy tarkibda ijro etishadigan cholg'u orkestr, ansambl asarlari, hamda sonata, variatsiya, etyud kabi yakka tarkibda ijro etadigan

kamer-cholg‘u asarlari bunga omil bo‘ladi. 40-yillarga kelib milliy kompozitorlarimizning mustaqil faoliyatlarini kuzatishimiz mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Madrimov B. “O‘zbek musiqa tarixi”. – T., 2015
2. Yuldasheva N., Raxmatova N. “O‘zbek musiqa adabiyoti”. – T.: Iqtisodmoliya, 2016
3. Solomonova T. “O‘zbek musiqasi tarixi”. T.: O‘qituvchi, 1981
4. Matyoqubov O. “Maqomot”. – T.: Musiqa, 2004
5. Келдыш Г. “Музыкальный энциклопедическая словарь”. – М.: Советская энциклопедия, 1990
6. Raximov Sh. Musiqiy cholg‘ularning shakllanish jarayonlari va ularning ijrochilik asoslari. T.: Musiqa nashriyoti. 2020. 114 b.
7. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 1997
8. G‘ofurov M. “Cholg‘u ijrochiligi”. – T., 2016
9. Виноградов В. “Музыка народов Азии и Африки, том 4”. – М.: Советский композитор, 1984
10. Петросяц А. “Инструментоведение”. – T.: Ўқитувчи, 1980
11. Oripov Z. “Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar)”. T., 2008.

### **Internet saytlari**

13. Panjiyev Q. Surxondaryo viloyati o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti. San’atshunoslik fanlari nomzodi nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2010 y. 151 b.
14. <https://www.belcanto.ru/uzbek.html>
15. <https://ru.wikipedia.org>

## **OILAVIY MAROSIM QO‘SHIQLARINING UMUMNAZARIY MASALALARI**

**Panjiyev Q.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
san’atshunoslik fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalq musiqa ijodidagi xalq qo‘shiqlarning she’riy-umumnazariy masalalari, musiqiy-she’riy asoslari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, she’r, qo‘shiq, nazariy asoslar, folklor, formula, ohangdosh, aytim, so‘zdosh.

## **ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СЕМЕЙНО-ОБРЯДОВЫХ ПЕСЕН**

**Панжиев К.Б. – доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат искусствоведения**



**Аннотация.** В данной статье проанализированы поэтико-общечеловеческие вопросы, музыкально-поэтические основы народных песен в узбекском народном музыкальном творчестве

**Ключивие слова:** музыка, стихотворение, песня, теоретические основы, фольклор, формула, мелодия, поговорка.

## UNIVERSAL ISSUES OF FAMILY RITUAL SONGS

**Panjiyev Q.B. – Associate professor of the Department "Music education", candidate of art Sciences**

**Annotation.** This article analyzes the poetic-universal issues of folk songs in Uzbek folk music creativity, musical-poetic bases

**Key words:** music, poetry, song, theoretical bases, folklore, formula, consonant, idiom, consonant.

O‘zbekiston Respublikasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda [1]. Shu ma’noda, Harakatlar strategiyasi O‘zbekistonni tez sur‘atlar bilan o‘zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo‘ljallangan muhim dasturilamal, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishining to‘rtinchi va beshinchi bo‘limlarida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularni musiqa va san’atga jalb qilish maqsadida bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratish belgilab berilganligi o‘zbek xalq musiqa ijodini yanada rivojlantirish, bu borada samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etmoqda[1]. Chunki, har bir xalq o‘zining milliy mentaliteti, milliy o‘ziga xosligini saqlash va davom ettirishda yillar, asrlar davomida shakllangan va takomillashtirilgan musiqa ijodining o‘rni va hamiyati nihoyatda katta ekanligini yaxshi biladi.

O‘zbek xalq musiqa merosini o‘rganish[7]ni, nazarimizda, eng avvalo har bir mahalliy uslubning viloyat, tuman hududlarida qaror topgan qo‘shiqchilik an’analarini o‘rganishdan boshlash asnosida juda ko‘plab tadqiqotlar natijasida

qo'lg'a kiritilgan qimmatli ma'lumotlarni bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, shu tarzda jamlangan ma'lumotlar asosida Respublika o'zbek xalq musiqasining umumiy manzarasini ham tasavvur etish imkoni paydo bo'ladi. Bunda viloyatlar va tumanlarning geografik joylashgan o'rni, aholisi mehnat faoliyati, ijtimoiy hayoti, hayot tarzi va ularning bir-biriga o'zaro yaqinligi muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari bo'ylab qariyb bir asrdan buyon (1861-1972) musiqiy folklor ekspeditsiyasi uyushtirilishi natijasida aholidan juda qimmatli ma'lumotlar qo'lg'a kiritilishiga muvaffaq bo'lindi. Ekspeditsiya jarayonida mahalliy aholidan og'zaki nutq orqali olingan ma'lumotlar mavjud manbalarga qiyosan tahlil etildi. Ijrochilar haqidagi ma'lumotlar (tug'ilgan yili, joyi, millati, urug'i, ijro etilayotgan qo'shiqni kimdan va qachon, qaysi holatda eshitgan, oldin qanday aytilgan) ham to'plandi.

Jahon musiqa tarixidan ayonki, qo'shiqlar qadim zamonlarda ma'lum urug', qabila yoki elatning ijodiy faolligi mahsuli sifatida yuzaga kelgan hamda asrlar davomida muayyan o'zgarishlar bilan sayqal topgan. Ilmiy ibora bilan aytganda, xalq qo'shiqlari invariant-variant diallektik birligi asosida bizning davrgacha yashab kelgan. Mazkur sifatlar xalq milliy ma'naviy meros qadriyatlarini avloddan-avlodga an'anaviy tarzda og'zaki ijod orqali yetkazib berishda muhim o'rin tutib kelgan.

O'zbek milliy musiqasining ajralmas tarkibini tashkil etgan xalq qo'shiqchilik ijodiyotida ko'p asrlik musiqamizga xos parda-ohanglarini hamda ularning barmoq vaznli she'rlar bilan mushtarak kelishini ko'ramiz. Bu ijodiy jarayonda ayniqsa asrlar davomida muqimlashgan ohang tuzilmalari ahamiyatli omil sifatida yuzaga chiqadi. Shu bois musiqaning "jon tomiri"[12] bo'lgan ohang xususidagi tayanch holatlarni belgilab olamiz:

- ohang [2] bu ikki-uch tovushdan tashkil topgan va hissiy ifodaviylik kasb etuvchi kuy aylanmasi [5; 6.];


- binobarin, ohang musiqada tovush tuzilmalarining eng kichik birligi hamda ilk semantik asosi;

- ohang-xalq musiqa ijodi uchun "muhim asos bo'lgan kuy manbaidir"[5].

O'zbek musiqashunoslari xalq musiqasida asrlar davomida qo'llanib kelinayotgan bir qator muhim ohang asoslarini aniqlaganlar[6]. Ushbu ohanglarning ayrimlariga hatto obrazli tavsiflar ham berilgan. Masalan, "so'roq ohang", "mungli ohang", "dil yozdi ohang"[12], "yor-yor formulasi" [11], "yor-yor andozasi", "so'zdosh ohang"[10] kabi iboralar shular jumlasini tashkil etadi. Har bir ohang andozasi ma'lum vaziyat yoki sharoit yuzasidan xotiraga olinadi va invariant-variant birligida o'zining jonli ifodasini topadi. Bu jarayonda ohang qurilmalari muayyan so'z bo'g'inlari bilan uyg'unlashuvi asnosida xilma-xil ko'rinishlar kasb etadi. Ushbu holatlarni dissertatsiyaning birinchi bobida qayd etilgan tasnifot tartibiga muvofiq tavsif etish maqsadga molikdir.

O'zbek etnomusiqashunosligida erishilgan natijalardan ma'lumki, asrlar davomida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan oilaviy marosim ayimlari o'zgaras ohang andozalari asosida amalga oshiriladi[8]. Bu o'rinda ayniqsa, kichik tertsiya


qobig'idagi ohang invariantining ahamiyati alohida ta'kidlanadi[4; 11]. Ushbu andozani mutaxassislar "Yor-yor" formulasi yoki andozasi deb ham atashadi[3; 4]. Sababi, mazkur ohang tuzilmasi nikoh to'yi marosimlarida keng o'rin tutishidir. Quyida mazkur andozaning kuy chizmasini keltiramiz:



O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik ijodiyotida mazkur andozaning xilma-xil nazira ko'rinishlarini (muallif tomonidan 1999-2010-yillar davomida uyushtirilgan musiqiy folklor ekspeditsiya jarayonida) yozib olishga muvaffaq bo'ldik. Jumladan, Surxondaryo-Qashqadaryo qo'shiqchilik ijodiga oid namunalarda ushbu andozaning Farg'ona-Toshkent ko'rinishiga yaqin ijrolari bilan bir qatorda o'zgacha zuhurlarini ham ko'ramiz. Masalan, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubida yozib olingan quyidagi "Yor-yor"da andoza asosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda ohang pardasi III-bosqich (re)dan quyi tomon (III-II-I kabi) siljib, I-bosqich (si) tovushda to'xtam hosil qilishi aniq kuzatiladi [4: 9].



Mazkur andozaga misralari to'rt bo'g'inda kelgan she'r bog'lanishi asosida qo'shiqning o'lchovi va shunga mos ritm harakatlari muayyan ko'rinishga ega bo'ladi.


  
 Bis – mil - loh deb = 4  
 Bosh – la – di - go = 4  
 To'y se – ni - ki = 4  
 Yor – yo - ra - ho = 4  
 To'y se – ni – ki = 4  
 Os – to – na – si = 4  
 Til – lo – dan – ho = 4  
 Uy se – ni - ki = 4  
 Yor – yo - ra – ho = 4  
 Uy se – ni - ki = 4

“Yor-yor” andozasining shu kabi to‘rt bo‘g‘inli she‘rlarga bog‘langan ko‘rinishlarining qariyb barchasida o‘lchov–ritm jihatdan shunga o‘xshashlik holati qayd etildi [9]. Ayni paytda esa, barmoq vazni o‘zgarishiga bog‘liq andozaning o‘zgacha ko‘rinishlari ham aniqlandi. Buni, masalan, mazkur andoza qo‘llangan “Kelin salom”larda ko‘ramiz. “Kelin salom” aytimlarida ham andozaning asl ko‘rinishiga xos alomatlar yaqqol seziladi. Quyida keltirilgan har ikkala “Kelin salom” [2] namunalarida ohang andozasining dastlab ikkinchi bosqichidan “turtki” olib, so‘ngra III-II-I tarzida quyi harakatini ko‘ramiz. To‘g‘ri, nota misollaridagi namunalarning tayanch pardalari o‘zaro farq qiladi. Birinchi namunada “do” tovushiga, ikkinchisida esa “mi”ga tayanilgan. Bu hol ko‘rilayotgan masalaning mohiyatini o‘zgartirmaydi, chunki, xalq og‘zaki musiqa ijodiyotida invariant andozalarini har bir xalq vakili o‘z qobiliyati va kuylash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda (variant) ifoda etishi mumkin.

E‘tibor berilsa, ohanglar andozasining yuqorida ko‘rilgan “Yor-yor”lardan o‘lchov va usul-ritm jihatlaridan farq etishi ayon bo‘ladi. Buning asosiy omillari qatorida she‘r vazni yuzaga chiqadi. Filhol, “Kelin salom”larda asosan yetti bo‘g‘inli she‘rlarning kelishi tayanch andozaga o‘zgacha ta‘sir ko‘rsatgan va shunga muvofiq u 4/4 o‘lchovidagi ritmik tuzilmalarini hosil qilgan.

A – tir gul – ni gul qil – gan = 7  
 Ik – ki yosh – ni bir qil – gan = 7  
 Sa – lom, sa – lom ke – lin sa - lom = 8  
 Av – val xu – do – ga sa – lom = 7

E‘tiborli joyi shundaki, tavsif etilayotgan “uchlik” andozasi “Yor-yor”larda umumhajmi kichik seksta qamrovidagi mahzun tovushqatorni yuzaga keltirsa, “Kelin salom”larda esa asosan sof kvinta qamrovidagi tovushqator doirasida rivoj topadi:

“Yor-yor” andozasining boshqa mahalliy uslublaridan anchagina farqli ko‘rinishlari Respublikamizning ko‘pgina xududlarida yozib olingan nikoh to‘yi aytimlarida kuzatildi. Jumladan, Surxondaryo-Qashqadaryo va Buxoro-Samarqand mahalliy uslubiga xos “Yor-yor”da andozaning II-bosqich (mi) tovushi o‘rinda IV-bosqich (solъ) tovushi kelib, natijada kvarta sakramasi yuzaga keladi. SHu bilan birga andozani keyingi rivoji Respublikamiz viloyatlarida uchraydigan “Yor-yor”lar kabi kichik seksta doirasida xos rivojlangan .

Misol:



Mazkur “Yor-yor”da yuqoridagi namunadan farqli ravishda andoza harakati I-bosqich tovushi (sol)dan turib yuqori kvarta sakramasi bilan boshlanadi, ya’ni, “d” – “s”, so‘ngra asosiy tayanch “sol”ga nisbatan tertsiya tovushi bo‘lgan “si – bemol” (v) orqali kelinadi. Andozaning ushbu varianti sof kvarta oralig‘idagi tovushqator qobig‘i bilan qamralgan [9].

Ёр – ёр




Ўз қизини жойига бодом эксин ёр – ёр  
 Бодом шохи қайрилиб болам десун ёр – ёр  
 Токчадаги қайчини занг босибди ёр – ёр  
 Уйда ётган келинни гам босибди ёр – ёр

Shunga yaqin ko‘rinishni nikoh to‘yi marosimida o‘tkaziladigan qiz va yigit aytishuvida ham ko‘ramiz. Lekin bu o‘rinda andozaning murakkab rivoji ham bor. Ushbu aytishuvni kelin tomon bo‘lgan bir qiz boshlaydi. Bunda ko‘rilgan namunalar orasida ilk bor andozaga daxldor bo‘lmagan “tashqi” tovush (sol)ga tayanilib, so‘ngra andozaning “c – h – a” ko‘rinishiga ulanadi. Shuningdek, ushbu andoza, avvalgi namunalardan farqli bo‘lgan kichik septima darajasiga qadar tovushlar uyushmasini yuzaga chiqaradi. Bunga sabab, mazkur namunada “Yor-yor” andozasi xilma-xil parda bosqichlarida kelganligidir. Birinchi bor u “e – h – a” shaklida kelsa, ikkinchi bor quyi pardalarda “f – e – d” ko‘rinishda keladi. Turkum ko‘rinishga ega ushbu



“Yor-yor” aytishuvining ikkinchi va uchinchi qismlari ham andozaning shu kabi qo‘llanishi asosida ijro etiladi.

Misol:



An – di – ring dan che – cha – jon man – di – ring dan yor - yor

Andozaning oilaviy marosim aytimlarida tutgan o‘rni benihoya katta. SHu jumladan, ma‘lum o‘zgarishlar bilan kelishini “Kelin salom”, “Yor-yor, yorone” va allalarda kuzatish mumkin.

Ayollar musiqiy folklorini ilmiy idrok etishda “Alla”larning o‘rni ham ahamiyatlidir [13]. Respublikamiz hududlari bo‘ylab, 1980-yillardan boshlab uyushtirilgan musiqiy-folklor ekspeditsiyalari davomida mahalliy aholi vakillari ijrosida “Alla”larning turli namunalarini tinglab, magnit tasmlariga yozib olishga muvaffaq bo‘lingan. Ularning ba‘zilari ma‘lum bir aniq o‘lchovda ijro etilsada, ayrimlari ijrochining ixtiyori va imkoniyatidan kelib chiqqan holda erkin kuylanadi. Ijrochi o‘z ta’sirchanligini namoyish etish maqsadida “Alla”ni o‘zi xohlaganidek, goh so‘zlarni cho‘zib, goh qisqartirib ijro etadi [9].

Xususan, Surxondaryo viloyatida yashovchi Eshonqulova Muhabbat ijrosidagi “Alla” kvarta oralig‘ida kuylangan bo‘lib, tovushlar yuqoridan pastga harakatlanganini ko‘rish mumkin. Ijrochining asosiy maqsadi bolani uxlatish bo‘lsa-da, shu bilan birga o‘zining dard-alamlarini “Alla” orqali ifoda etadi:

### Алла

Алла десам юра – гим э – зила – ди ал – ла умрим ўтиб бормоқда ей

се – зила – ди ал – ла Ал – ла ай – тай жоним болам қу – лоқ сол – гин

ал – ла – ё бир кун чиқиш тор – ла – ри у – зи – ла – ди ал – ла

Saidmurodova Maryam ijrosidagi keyingi “Alla” past tovushlardan (birinchi oktava re, mi, fa) iborat bo‘lib, tertsiya oralig‘ida erkin kuylangan. Qorasuv jamoa xo‘jaligida yashovchi Ulug‘berdiyeva Irisoyning magnit tasmaga yozib olingan “Alla” qo‘shig‘i Toshkent-Farg‘ona uslubida ijro etiladigan “Alla”lar ohangiga xos bo‘lib, 4/4 o‘lchovda, doyra jo‘rligida ijro etilgan. Ya’ni, bu o‘rinda ikkilamchi

folklor ta'siri sezilarlidir. "Alla" qo'shig'ini tumanning ko'pgina qishloqlarida ham Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos ijro ustuvordir.

Hududda terma shakldagi "Alla"lar keng tarqalgan. Ayrimlari ma'lum aniq o'lchovda ijro etilsa-da, ba'zan erkin badiha tarzida ham kuylanadi

### АЛЛА

**Охиста**

Ток - қа чик - дим дў - ла - на - я ал - ла - ё ал - ла

3  
Кўш хўк - ки - зим жу - во - на - ё ал - ла - ё ал - ла.

Bunday ijrolar sirasiga to'y marosimi bilan bog'liq "O'lan", "Kelin salom", "Yor-yor"larning ayrim ko'rinishlarini ham kiritish o'rinlidir

### Ёр – ёр

Ҳай – ҳай ў – лан жон – ў – лан ў – лан – чи қиз ёр – ёр

ё – рей ё – рей от – ла – ниб – ди ё – рей.

Oilaviy marosimlarning o'ziga xos aytim shakllari motam marosimlarida ham uchraydi. Bunda og'ir judolik musibat tuyg'ulari "Yig'i", "Yo'qlov", "Sadr" aytimlari orqali o'z ifodasini topadi [9: 13]. Ular asosan ma'lum bir o'lchov asosida emas balki, aytuvchining imkoniyati darajasida erkin aytiladi.

### ЙЎҚЛОВ

**Жонлирок**

Мен ў - лай жу - ма ку - ни, жа - но - зам чик синчарх у - риб ме - ни бок кан О -

4  
на - жо - ним кол - син со - чи - ни ю - либ мен ў - лар ман

6  
о - хир бир кун о - нам кол - син со - чи - ни ю - либ

Ushbu aytimlar she'riy tarzda ham aytilishi mumkin. Namuna sifatida quyida marhumning marakalarida aytiladigan erkin vaznli aytimlardan birini keltiramiz.

Qa - ri o'1 - sa to - voq - to - voq osh bo' - lur =11

Yosh o'1 - sa ba - land tog' - lar past bo' - lur =10

Marhum agar yosh bo'lsa, ushbu she'riy aytim parchasi yig'i yuqoridan pastga yo'nalgan ovozda marosimga qatnashayotganlarga baland eshittirilib aytilgan. Ushbu aytim ohangida yuqoridan pastga qarab yo'nalgan "Yor-yor" andozasiga yaqinlik bor. Bu kabi aytimlar asosan yakka "go'yandachi" (forscha-so'zlovchi, rivoyat qiluvchi, aytuvchi, deguvchi) tomonidan aytilgan bo'lib, har bir jumla oxirida marosimda qatnashayotgan ayollar o'zlarining "mungli" ovozlari bilan aytuvchining so'zlarini "tasdiqlab" turishadi [7; 9].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek xalq musiqa merosida qo'shiqchilik ijodiyotining eng muhim ahamiyati shundaki unda ijro etiladigan kuy-qo'shiqlarning musiqa bilan she'rning o'zaro hamohangligidir. Bunda albatta, oilaviy marosim qo'shiqlarining ham umumnazariy ahamiyati bor. Yuqorida asoslanganidek, "uchlik" andozasi "Yor-yor"larda umumhajmi kichik seksta qamrovidagi mahzun tovushqatorni yuzaga keltirganligidir.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017 y., PF-4947, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son 448-modda.

2. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. – 444 b.

3. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari, Toshkent, Fan, 1959 y.

4. Alaviya M. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent, Fan, 1974 y.-221.

5. Азимова А. Вопросы синтаксиса восточной монодии. Т.: Фан, 1989. 62-67 с.

6. Азимова О. Вопросы синтаксиса восточной монодии: К истории его становления и развития. – Т.: Фан. 1998. 40-44 ст.

7. Асафьев Б. О Народной музыке. Л.: Музике, 1987.-224 с.

8. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi.- T.: O'qituvchi, 1994 -320 b.

9. Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y. – 62 b.

10. Norboyev N. O'zbek elining qabila va urug'lari haqida. Toshkent. 1997. - 86 b.

11. Karomatov F.M. Xalq muzikasi. Kitob: O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi T.E.Solomonova. T.: O'qituvchi. 1981. 27-34 b.

12. Mullajonov D. 1990 yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. San'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. (17.00.02-"musiqa san'ati" ixtisosligi. 2004 y., SITI kutubxonasi. Inv №1002, 156 b.

**CHAQIRIQQACHA HARBIIY TA'LIM YO'NALISHI  
TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Egamberdiyev I.Y. – Toshkent davlat pedagogika universiteti  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, nazariy-metodologik jihatlarini pedagogik-psixologik tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, axborot-kommunikatsiya, elektron ta'lim, prognostik metodlar, o'quv modullari.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ  
ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Эгамбердиев И.Ю. - преподаватель Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В статье анализируются педагогические возможности, теоретико-методологические аспекты, педагогические и психологические аспекты развития профессиональных компетенций слушателей допризывного военного образования.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, информация и коммуникация, электронное обучение, методы прогнозирования, учебные модули.

**PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF  
PROFESSIONAL COMPETENCES IN STUDENTS OF PRE-  
RECRUITMENT MILITARY EDUCATION**

**Egamberdiyev I.Y. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**


**Annotation.** This article analyzes the pedagogical opportunities, theoretical and methodological aspects, pedagogical and psychological aspects of the development of professional competencies of students of pre-service military education.

**Key words:** professional competence, information and communication, e-learning, prognostic methods, training modules.

Jahon ta'lim muassasalarida axborot- texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga zamonaviy talabalarlar tayyorlash uchun yuqori sifatli ta'lim berish modellarini amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Sohada kechayotgan integrallashuv jarayoni sharoitida axborot-texnologiya ta'limni amalga oshirishga, jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan elektron ta'lim platformalaridan foydalanish nuqtai nazaridan ochiq virtual ta'lim kurslarni yaratish. Obyektga yo'naltirilgan dinamik ta'lim muhiti hamda axborot-texnologik vositalar didaktik muhitni amalga oshirish sohasidagi eng mahsuldor loyihalarni tatbiq etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "ta'limni axborotlashtirish tushunchasi" atamalar izohli lug'atida ta'limni axborotlashtirish deganda qulay va sog'liqni saqlovchi shart-sharoitlarda qo'llaniladigan axborot va kommunikatsiyaviy texnologiyalari didaktik imkoniyatlarini qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik, dasturiy-texnologik ishlanmalarni yaratish va jadal foydalanish nazariyasi, texnologiyasi va amaliyoti bilan ta'lim sohasini ta'minlashga maqsadli yo'naltirilgan tashkil qilingan jarayon tushuniladi

**Kasbiy kompetensiyalarni** individga kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilim, malaka va ko'nikmalarni tatbiq eta olishga imkon beruvchi dolzarb funksional ko'rinishlarda mujassam bo'lgan nisbiy ichki yangi hosilalar tizimi (aqliy zahira, dasturlar va harakatlar algoritmi, shaxsiy xislatlar, qadriyatlar tizimi va h.) sifatida aniqlash mumkin. Hozirgi vaqtda talaba egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar tuzilmasi aniq mutahassislik uchun oliy kasbiy ta'limi davlat ta'lim standartlarida aniqlangan. Bu tuzilma talabalarlarni tayyorlash asosiy ta'lim dasturlari natijalariga qo'yiladigan talablarga ko'ra beriladi


(1.1-rasm).



CHXT talabalarida o'quv jarayonini axborot-texnologik ta'minlash vositalari orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni tuzilishini aniqlab, tuzilmaviy tahlil metodologiyasini tatbiq qilib, uning asosiy tarkibiy qismlari va o'rtasidagi




o‘zaro bog‘liqlikni qo‘llab, mazkur jarayonni rasmiylashtirish uchun pedagogikada texnologik yondashuv doirasida AllFusion Process Modeler dasturiy mahsulot instrumental vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu mahsulot minimal harajatlarda tahlilchiga murakkab funksional modellarni yaratishga beradi. modellashtirish) va IDEF3 (ishlar oqimini modellashtirish).



## 1.2-rasm –Axborot-texnologik vositalari orqali CHXT talabalarining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

Funksional modellashtirish metodologiyasida IDEF0 tizimi o‘zaro ta’sirdagi ishlar yoki funksiyalar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqiladi. Mazkur funksional yo‘nalganlik qat’iydir, sababi tizim tarkibiy qismlari ular boshqaradigan obyektlardan qat’iy nazar tahlil qilinadi. Bu talab modellashtirish tizim tashkil qiluvchilari o‘zaro ta’sirining aniq va tushunarli mantig‘ini qo‘llaydi. Bunda IDEF0 metodologiyasidagi model bo‘lib oldindan muayyan savollarga javob berishi kerak bo‘lgan grafik va matnli tizim ta’riflanishi hisoblanadi, modellarning ishlab chiqarish sohasida ish bilan qayta ishlov beriladigan yoki qayta o‘zgartiriladigan material (xom-ashyo) tushuniladigan ma’lumotlarning kirish oqimi (Input) bo‘lib talaba kasbiy kompetensiyalari rivojlanishiga boshlang‘ich darajasi xizmat qiladi. Shuningdek, boshlang‘ich bosqichda, talabalar harbiy tayyorgarlikning ilk davrida, ularning motivatsiyaviy tashkil qiluvchilarini, ya’ni taxsil oluvchilarning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liq o‘quv dasturining tarkibiy qismiga qiziqish darajasini aniqlash muhim.

2-jadval. **Harbiy topografiya” fani**



Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar talablariga mos, raqobatbardosh oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning xuquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Ta’lim va fan sohasini

rivojlantirish maqsadida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish" zarurligi belgilangan. Natijada sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim olish jarayonini takomillashtirishda axborot-texnologik vositalar asosida talabalarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi vaqtda talaba egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar tuzilmasi aniq mutahassislik uchun oliy kasbiy ta'limi davlat ta'lim standartlarida aniqlangan. Bu tuzilma talabalarlarni tayyorlash asosiy ta'lim dasturlari natijalariga qo'yiladigan talablarga ko'ra beriladi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son) <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. Азаров В.М. Патриотическое воспитание военнослужащих: проблемы и пути их решения // Военная мысль. - 2003. — № 1. - С. 56-65.

3. Бодалев А.А., Караковский В.А., Новикова Л.И. Психолого-педагогические проблемы воспитания в современных условиях // Педагогика. - 1991.-№5.-С. 11-19.

4. 3.Военная дидактика / Под общ. ред. Н.Е. Соловцова, Н.Д. Никандрова. — М.: В А им. Петра Великого, 2000.

5. Каменецкий С.Е., Смирнов А.В. К вопросу о понятиях методика и технология обучения // Наука и школа. - 2002. - № 1. - С. 59-60.

6. Кочнев В.А. Моделирование дидактических систем // Специалист. - 2000.-№1.

7. Военный энциклопедический словарь. – М.: Эксмо-Пресс,2007. – С.1024.

## **CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Xonimkulov A.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annatation.** Ushbu maqolada jahonda xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar ortib borayotgani, ayrim mintaqalarda qurolli to'qnashuvlar davom etayotgani, tahlikali vaziyat saqlanib qolayotgani har bir mamlakat yoshlarida harbiy vatanparvarlik ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy-

ma'naviy ruhiyatni o'stirish, Vatan taqdiriga ongli munosabatda bo'lishning ijtimoiy texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixalogik-pedagogik, harbiy vatanparvarlik, ilmiy-metodik tavsiyalar, harbiy-motivatsion tadbirlar.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА**

**Хонимкулов А.Р. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются растущая угроза международного терроризма и экстремизма в мире, угрозы национальной и глобальной безопасности, продолжающийся вооруженный конфликт в некоторых регионах, опасная ситуация, развитие военно-патриотических навыков у молодежи в каждой стране, развитие национальной и духовный дух. Реализованы социальные технологии осознанного отношения к судьбе Родины.

**Ключевые слова:** психолого-педагогический, военный патриотизм, научно-методические рекомендации, военно-мотивационная деятельность.

## **IMPROVING THE EDUCATION OF STUDENTS OF PRE- RECRUITMENT MILITARY EDUCATION IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM**

**Xonimkulov A.R. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annatation.** This article discusses the threat of international terrorism and extremism in the world, the growing threats to national and global security, the continuing armed conflict in some regions, the dangerous situation, the development of military patriotism in young people in each country, the development of national and spiritual spirit. The social technologies of conscious attitude to the destiny of the Motherland have been put into practice.

**Key words:** psychological-pedagogical, military patriotism, scientific-methodical recommendations, military-motivational activities.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborotning turli vositalari, internet tizimidagi asossiz ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, "dunyo

odami” tushunchalari butun bir avlodlarni o‘z tarixidan, axloqiy va ma’naviy burchlardan biri, kelajak haqida qayg‘urmaslikka – umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo‘q qilishga qaratilgan g‘oyalarni ma’lum ma’noda mujassamlashtiradi.

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a‘zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo‘lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e’tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo‘shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg‘usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rinda turadi.

Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya o‘ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta’kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an’analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta’kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’limi sohasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi[1] Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini ba fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu tadqiqot ishi asosida talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tariyalash orqali ularda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantirish maqsad qilindi va bu maqsadni amalga oshirish uchun maxsus metodologik vazifalar belgilab olindi. Bu vazifalar orqali talaba-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik xarakteri rivojlantirish, ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rishimizni taqozo qilmoqda.

Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini Vatan haqidagi tushunchalar tashkil qiladi. Vatan tushunchasi yo‘k joyda vatanparvarlik to‘g‘risida so‘z yuritib bo‘lmaydi. Vatan (arab. o‘sgan joy, yurt) – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i, yurt, diyor yoxud kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt[2] sifatida tariflanadi. Ushbu tushuncha xorijiy ilmiy manbalarda patriotizm (yunon. Patriotes – vatandosh, «patris» – Vatan) Vatanga muhabbat, tug‘ilib o‘sgan yurt bilan bog‘liqlik va unga sadoqat sifatida qo‘llaniladi. Patriotizm ko‘pincha o‘z Vatanning tarixi, madaniyati, qadriyatiga bo‘lgan



muhabbat sifatida talqin etiladi. Biroq patriotizmga nisbatan vatanparvarlikning mazmun jihatdan qamrovi ancha keng – u nafaqat o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, balki inson ozodligi yo‘lidagi xatti-harakatlardir.

Harbiy qomusiy lug‘atlarda harbiy vatanparvarlikning mazmuni «yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmandan himoya qilish» deb talqin etiladi[3]. Umuman olganda, harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta’rifda mujassam. Biroq fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo‘lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisa-jarayonlarning yangiligini baholash, fuqarolik pozitsiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitutsiyaviy burchini bajarishdan iborat»ligi ta’kidlanadi[4].

Harbiy vatanparvarlik insondan sabrli, chidamli, qat’iyatli, matonatli, jasurlik va mardlik fazilatlariga ega bo‘lishni shart qilib qo‘yish orqali u mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan ulug‘vorlikka olib chiqadi. Ya’ni inson harbiy vatanparvarlik orqali xudbinona vatanni sevishdan, vatan oldidagi axloqiy burchini anglashga o‘tadi, ulg‘ayadi.

Talabalar uchun vatanparvarlik tarbiyasining muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug‘vor, mas’uliyatli vazifa bo‘lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri – yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir.

Pedagogik jarayonda talabalarni vatanparvarligi, yurtga muhabbat tuyg‘usining chinakam e’tiqodga, chinakam aqidaga aylanishi uchun ularda tarixiy shaxslarni vatanparvarligi, vatan oldidagi qahramonligi o‘rgatish, psixologik ta’sir ko‘rsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish mumkin. Misol uchun, Shayx Najmiddin Kubro o‘zi bosh bo‘lib, xalqdan lashkar tuzib, Urganch fuqarosini dushmanga qarshi jangga ruhlantiradi. Beomon jangda Shayx bayroqni baland ko‘targan holda to so‘nggi nafasiga qadar uni qo‘lda tutib boradi. Dushmanlar bayroqni olish uchun shayxning barmoqlarini bir-bir kesib olishga majbur bo‘lgan ekanlar.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi insonda yuqori mudofaa ongini, Vatanning qurolli himoyasi uchun zarur bo‘lgan g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-psixologik va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha tizimli, maqsadga yo‘nalgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi.

<b>Qahramonlik-vatanparvarlik tarbiyasi</b>	<b>Milliy-vatanparvarlik tarbiyasi</b>	<b>Fuqarolik tarbiyasi</b>
Ajdodlarning jasoratlari uchun faxr-iftixor hissini tarbiyalashni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan.	O‘zining kichik Vatanga muhabbat hissini, milliy an’analar va madaniyatga hurmatli munosabatni	Bu huquqiy madaniyatni, aniq fuqarolik vaziyatini, o‘z xalqiga ongli va ixtiyoriy xizmat qilishga

	shakllantiradi, o'z xalqi uchun faxr hissini uyg'otadi.	tayyorlikni shakllantirishdir. Fuqarolik tarbiyasi insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuini ifodalovchi fuqarolik kabi ta'rif bilan tavsiflanadi.
--	---	--

**1-jadval. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida harbiy vatanparvarlik axloqini shakllantirishning usullari**

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikni ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Jamiyatda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat pedagogik-psixologik asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Shubhasiz, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini kuchaytirish bo'yicha faoliyat bugungi kunda mahalliy, hududiy xususiyatlarni, shuningdek foydalaniladigan kuchlar va vositalarni avvalgidan ko'ra ko'proq kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barcha sohalar kabi ma'naviy sohada ham yangicha yondashuvlar va munosabatlar shakllanmoqda. Zero, bu sohada bajariladigan ishlar, tadqiq qilishga muhtoj muammolar ancha yillardan beri yig'ilib kelmoqda edi. Bunday dolzarb vazifalardan biri vatanparvarlik tarbiyasidir. Yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolarni sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadada olib borilayotgan ishlar biz kutgan natijani bermayapti[5]. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasi muhim ekanligini, uni shakllantirish va takomillashtirish insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayon ekanligini uqtirib o'rgatib borishimiz lozim. Yoshlarni Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir.

Insonparvarlik shaxsga yo'naltirilgan muhitning rivojlanishiga o'qituvchilarning ishbilarmon madaniyati darajasi ta'sir ko'rsatadi, bular: kompetentlik, professionallik, jamoada ishlash malakasi, ijro intizomi, tashabbuskorlik, muloyimlik va boshqalar. Gumanitar pedagogik muhitni rivojlantirishning natijasi universitetning korporatsiya, ochiq ijtimoiy-madaniy tizim, kommunikatsiya va sog'lom hayot tarzi markazining shakllanishi hisoblanadi. Bundan talabalarda harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligini shakllantirish (rivojlangan insonparvarlik shaxsga yo'naltirilgan muhit sharoitida) umuman shaxs va xususan zaxira talabaining madaniyatiga talablarni amalga oshirish imkonini berishi kelib

chiqadi. Harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi jarayonida an'anaviy va innovatsion texnologiyalar birligini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Talabalar harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi jarayonida an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning birligidan foydalanish bir necha omillar bilan bog'liq: an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning o'ziga xosligi, pedagogik jarayonda ularni qo'llash xususiyatlari; ta'lim yili, ta'lim oluvchilarning mavjud tayyorgarliklari darajasi, talabalarning individual-shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda talabalar harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligining boshlang'ich bosqichida o'quv-tarbiya faoliyatida subyekt-obyektli yondashuv tarzda qo'llanilsa bu harbiy kasbning o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'ladi. So'ngra asta-sekin talabalarni o'zaro munosabatlarning boshqa darajasiga o'tkazish amalga oshiriladi, an'anaviy o'qitish va tarbiya texnologiyalarini o'zgacha qo'llash ta'lim oluvchilarning subyekt-subyektli munosabatlarda ijodiy mustaqil ishiga mo'ljallangan kelgusi innovatsion faoliyati uchun asos bo'luvchi baza sifatida xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O'zbekiston, 23.09.2020. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.444.
3. Военный энциклопедический словарь. – М.: Эксмо-Пресс, 2007. – С.1024.
4. Социологический словарь /Авт.-сост.: Осипов Г.В, Москвичев Л.Н., Чернощек О.Е. – М.: Норма, 2010. –С.608.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.140.

## **CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Uzoqov A.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishning pedagogik vositalarini yaratish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirish bo'yicha fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy, siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik, jinoiy, jazo, aksiyadorlik, moddiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarlik.

## РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Узаков А.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются идеи по совершенствованию технологии развития социальной ответственности студентов высших учебных заведений мира, созданию педагогических инструментов для развития их социальной инициативы, развития навыков эффективной организации социокультурной и коммуникативной деятельности, виды деятельности.

**Ключевые слова:** исторический, политический, философский, социологический, психологический, педагогический, уголовный, карательный, фондовый, материальный, профессионально-коммуникативный тренинг.

## DEVELOPMENT OF SOCIAL RESPONSIBILITY OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION

**Uzakov A.A. - Tashkent State Pedagogical University, student of pre-service military education**

**Annotation.** This article discusses the ideas on improving the technology of development of social responsibility of students of higher education institutions around the world, the creation of pedagogical tools for the development of their social initiative, the development of skills for effective organization of socio-cultural and communicative activities.

**Key words:** historical, political, philosophical, sociological, psychological, pedagogical, criminal, punitive, stock, material, professional and communicative training.

Jahon oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy ma'suliyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishning pedagogik vositalarni yaratish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy ma'suliyatni, axloqiy-estetik dunyoqarashni talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy madaniy asoslari, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati, texnokratik fikrlashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim mazmuni va harbiy pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, talabalarning ijtimoiy ma'suliyatini rivojlantirishning xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Natijada talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglanishiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatni munosabatni qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari kamayadi.

2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarorlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy ma'suliyatini rivojlantirishning nazariy asoslarida Gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarning tahlili bizga mas'uliyat (hissi) – ko'p aspektli hodisa ekanligi va shu sababli uni fanlararo darajada o'rganish zarur ekanligi haqidagi xulosa chiqarish imkonini beradi.

"Mas'uliyat" (ответственность) atamasining etiologiyasi, birinchidan, ushbu so'z rus tilida nisbatan yaqinda paydo bo'lganini; ikinchidan, bu so'zda "вещать" so'zida ildizi borligini va bu so'z esa eski slavyan tilidagi "вече" so'ziga borib taqalishi, va "maslahat, ko'ndirish ko'nish, rozilik" (совет, уговор, согласие) ma'nosini berishini; uchinchidan, mamlakat qomusiy adabiyotlarida ushbu atama rus xalqi madaniyati kontekstida qaraladi, va ko'p hollarda: kimgadir o'z harakatlari, amallari haqida hisobot berish zarurati, majburiyati degan ma'noni bildiradi. Shu munosabat bilan, mas'uliyatli bo'lish: qaysi bir sohada huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lish, yuqori darajada rivojlangan burch hissiga ega bo'lish, o'z majburiyatlariga (vazifalariga) jon-dili bilan astoydil munosabatda bo'lishni anglatadi; to'rtinchidan, ingliz, nemis va fransuz tillarida ma'noning biroz boshqacha rang, tusda talqin qilinishini hisobga olmaganda, uning talqini o'z majburiyatlarini, burchini bajarish, o'z hatti-harakatlari amallari uchun hisobot berish zarurati bilan belgilanadi[1].

Falsafada "mas'uliyat" tushunchasi shaxs, jamoa (kollektiv), jamiyat orasidagi o'zaro munosabatlarning obyekt, tarixiy muayyan konkret xarakteri tabiatini aks etadi, shaxsning o'z axloqiy burchini va huquqiy me'yorlarni bajarish bilan tavsiflanadigan jamiyatga nisbatan ijtimoiy va axloqiy-huquqiy munosabatini ifodalaydi.

Etika fanida "mas'uliyatga" shaxsni uning jamiyat tomonidan qo'yiladigan axloqiy talablarni bajarishi, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishdagi ishtirokining darajasi nuqtai nazaridan tavsiflaydigan kategoriya sifatida ta'rif beriladi.

Huquqda "mas'uliyat" tushunchasining mazmuni (ma'nosi) huquqning huquqshunoslikning o'zi qo'llanilayotgan (jinoiy, jazo, aksiyadorlik, moddiy, ma'muriy, fuqarolik) bo'limiga bog'liqligi. Bizga shaxslarning boshqa shaxsning subyektiv fuqarolik




huquqlarini buzish bilan bog‘liq nazarda tutilgan mas’uliyatlarini bajarmaslik yoki sohadagiday bajarmaslikning o‘rnatilgan belgilangan yuridik oqibatlarini sifatida tushuniladigan “fuqarolik mas’uliyati” (javobgarligi) yaqinroqdir.

Jamiyatshunoslik sotsiologiya tahlil qilinayotgan tushunchaga eng ko‘p e’tibor beradigan kam sonlik sohalardan biri hisoblanadi. Bu fanda ko‘p mualliflar “mas’uliyatni” muayyan majburiyatlarni shaxs yoki guruh tomonidan qabul qilinishi yoki ularga yuklatilishi, va shu asosda tegishli shaxs yoki guruhga talablarning qo‘yilishini tushunishadi.

Aksar hollarda mas’uliyat jamiyatshunoslar: insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini tushunishi, uning tartibsiz paydo bo‘lgan yoki jamiyat o‘rnatgan me’yorlarni tan olish va ularga rioya qilishni anglashi, o‘z amallari hatti-harakatlarini o‘zi uchun va tarofdagilar uchun oqibatlarini baholash, yo‘l qo‘yilgan xatoliklar holatlarida jazolarni qabul qilishga tayyorlik kabi bir necha komponentlarning o‘zaro aloqasi deb ko‘rsatilishi tushuniladi .

Psixologiyada “mas’uliyatga” individning faoliyat amallari ustidan bir joyga to‘plangan nazorat, uning differentsiatsiya qilingan shakllar yordamida proyeksiya qilinadigan (o‘ktaziladigan) me’yorlarni ijtimoiy xulq-atvorni kuzatish va baholash sifatidagi bajarishining mezoni sifatida qaraladi[2].

Muayyan mualliflarning mas’uliyat muammosi bo‘yicha ishlarining tahlili ham ushbu kategoriyaning tavsifiga bo‘lgan yondashuvlarning turli tumanligi va bitta kelishilgan ma’noga ega emasligini tushunish imkonini beradi. Ayrim mualliflar uni insonning o‘z burchini bajarishga bo‘lgan qobiliyati deb, boshqalari esa (T.F. Ivanova) uni shaxsning axloqiy-qadriyatga qaratilganligi bilan bog‘liq, individning o‘z xulq-atvorida umumqabul ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishga, o‘z majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va o‘zi oldida o‘z harakatlari amallari uchun hisob berishga tayyorlik sifatidagi irodaviy sifat deb ochib berishadi (A.I. Golubeva, L.S. Slavina). “Yaxshi internal nazorat”[3]. 1-jadval



2-jadval “Yaxshi internal nazorat”

**Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasining tavsifi xarakteristikasi.**

Ma’no-mazmun hosil qiluvchi	Me’yoriy-tartibga soluvchi	Yo‘naltiruvchi	Muvofiqlashtiruvchi
Ijtimoiy mas’uliyatni namoyish qilish g‘oyaviylik va axloq bilan yaqindan	Jamiyatning ma’naviy munosabatlarini ifodalash. Ma’naviy	Bu funktsiya yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy mas’uliyat hissi	Ushbu funktsiya ijtimoiy ahamiyatli maqsad, va unga

bog‘liq. Faqatgina u yoki boshqa ishni nima uchun bajaryotganini tushungan, o‘z burchini, majburiyatlarini har qanday holat va vaziyatlarda tushungan odamgina mas‘ul ijtimoiy pozitsiyani egallashi mumkin	ijtimoiy mas‘uliyatda shaxsni jamiyat foydasi uchun amallarni tanlashda yo‘l ko‘rsatadigan axloqiy talablarning butun to‘plami markaziy joylashishi tufayli, mas‘uliyatni anglash ijtimoiy munosabatlarning axloqiy tartibga solishning usullaridan biri ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.	shaxsda uning xulq-atvorini ushbu jamiyatning muayyan axloqiy qadriyatlarini nuqtai nazaridan baholaydigan va bir vaqtning o‘zida shaxsning ehtiyojlarining, uning amallarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq nazorat mexanizmi sifatida xizmat qiladigan yangi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi	erishish yo‘llari va usullarining sintezini ifodalashi bilan bog‘liq.
---	--	---	---

Shaxsning ijtimoiy mas‘uliyati muammosi doim dolzarb bo‘lib kelgan, falsafiy, ijtimoiy, yuridik va psixologik-pedagogik adabiyotlarda yoritib kelinmoqda.

Oliy Ta‘lim Muassasalari talabalarida ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirishda qayta qurishning boshlanishi bilan mutaxassisning mas‘uliyati ijtimoiy-siyosiy ma‘no kasb etadi. Yuksak fuqarolik nuqtayi nazarga ega, mamlakatda sodir bo‘layotgan demkoratik o‘zgarishlarga faol-tanqidiy munosabatda bo‘lgan, uning yangi taqdiriga mas‘uliyatni his qiladigan mutaxassisga talab paydo bo‘ldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi har bir odamni mas‘uliyatli bog‘liqlik tobelikka kiritish jalb qilish uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratdi. Bozor munosabatlari sharoitlarida ishlashning yangi uslubiga zarurat zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan talablarning ham o‘zgarishiga olib keldi. Kasbiy kompetenlikka, kasbiy burchni bajarish uchun mas‘uliyat hissiga va intilishga ega – tashabbuskor-mutaxassislar, tashkilotchilar, tadbirkorlar kabi mutaxassislarga talab paydo bo‘ldi. Bugungi kunda kasbiy faoliyatning har bir sohasida mutaxassisdan uning lavozimi uchun belgilangan majburiyatlardan ko‘proq mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati bilan bog‘oiq “shaxsiy mas‘uliyat hududini” kengaytirish talab etiladi.

Jamiyat o‘z taraqqiyotining zamonaviy bosqichida zarur bo‘lgan kasbiy sifatlarni selektiv tarzda saralab tanlab oladi.

Kasbiy ahamiyatli hususiyat sifatida mutaxassisning mas‘uliyati kasbiy hususiyalar sifatlarning yig‘indisidan ijtimoiy talab qilinganlik; kasbiy faoliyatning yuqori samaradorligiga erishishga yordam berish hissa qo‘shish va uning gumanistik yo‘naltirilganligi kabi mezoniy kriterial belgilarga ko‘ra ajratib ko‘rsatiladi.

Binobarin, yangi davrning o‘zi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zi modelni yaratish uchun muayyan qadriyat-ma‘no, mazmun g‘oyalarini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, bu olim Y.N. Bobkovaning nomzodlik dissertatsiyasida taklif qilgan dastlabki o‘smirlik yoshida ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantirish jarayonini modellashtirishga

bo'lgan ushbu yondashuvdir[5]. Ushbu modelda ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashning mazmuniga quyidagi komponentlar kiradi:

- kognitiv (shaxsning insonning sotsiumdagi huquqlar va majburiyatlari, xulq atvori me'yorlari va qoidadari, boshqa odamlar bilan munosabatlarni tartibga solish usullariga oid bilimlarni o'zlashtirishi);
- мотивационний (ijtimoiy mas'ul xulq atvor rag'batlari/motivlari iyerarxiyasi);
- irodaviy (o'z amallarini amalga oshirishga bo'lgan ma'naviy intilishlar, faoliyatni onglitarzda tartibga solishga turtki berish uyg'otish);
- faoliyatga asoslangan (insonning muayyan xulq atvor chizig'ini yo'lini ongli anlashga tayyorlikka bo'lgan qobiliyati va tayyorligi).

Xulosa qilib aytganda, muayyan mualliflarning mas'uliyat muammosi bo'yicha ishlarining tahlili ham ushbu kategoriyaning tavsifiga bo'lgan yondashuvlarning turli tumanligi va bitta kelishilgan ma'noga ega emasligini tushunish imkonini beradi.

Ayrim mualliflar uni insonning o'z burchini bajarishga bo'lgan qobiliyati deb, boshqalari esa (T.F. Ivanova) uni shaxsning axloqiy-qadriyatga qaratilganligi bilan bog'liq, individning o'z xulq-atvorida umumqabul ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga, o'z majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va o'zi oldida o'z harakatlari amallari uchun hisob berishga tayyorlik sifatidagi irodaviy sifat deb ochib berishadi (A.I.Golubeva, L.S. Slavina)[4].

### **Adabiyotlar**

1. Абульханова-Славская К.А. Социальное мышление личности: проблемы и стратегии // Психологический журнал. -1994. - № 4. - С. 12-15.
2. Байбородова Л.В. Формирование субъектной позиции учащихся в учебном процессе на этапе целеполагания // Совершенствование учебно-воспитательной работы в процессе модернизации общего образования. -Ярославль, 2003.-С. 157-161.
3. Бакриев А.А. Проблемы повышения ответственности взрослых за нравственное воспитание учащихся: Дис. ... канд. пед. наук. - Махачкала, 1972-180 с.
4. Барабанщиков А.В., Муцинов С.С. Педагогическая культура офицера. - М., 1985. - 159 с.
5. Кон И.С. Социология личности. - М., 1967. - 387 с.
6. Методика и технология работы социального педагога // Под ред. Галагузовой М.А., Мардахаева Л.В. - М., 2002. - 192 с.

## **AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA CHAQIRIQQACHA HARBIIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Xasanov M.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida

raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yoʻnalishlari, oʻqitishning variativ shakllari, chaqiriqqacha harbiy taʼlim yoʻnalishi talabalarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish boʻyicha tizimli ishlar olib borilishi haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** kompetensiya, raqobatbardosh, harbiy taʼlim, axborot-taʼlim muhiti, kommunikativlik, kasbiy kompetensiya.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

**Хасанов М.С. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются инновационные подходы к подготовке конкурентоспособных кадров на основе компетентностного подхода, различных форм обучения, планомерной работы по реализации механизмов развития профессионально-педагогической подготовки студентов в системе довоенного военного образования.

**Ключевые слова:** компетентность, конкурентоспособность, военное образование, информационно-образовательная среда, общение, профессиональная компетентность.

## **IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS OF PRE-RECRUITMENT MILITARY EDUCATION IN THE INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

**Khasanov M.S. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article discusses the idea of systematic work on the implementation of innovative approaches to the training of competitive personnel based on a competency approach, different forms of training, mechanisms for the development of professional pedagogical training of students of pre-service military education.

**Key words:** competence, competitive, military education, information-educational environment, communication, professional competence.

Bugungi kunda taʼlim muhitida chaqiriqqacha harbiy taʼlim yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari taʼlim tizimiga joriy etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida

raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlari, o‘qitishning variativ shakllari, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon oliy ta‘lim muassasalarida axborot-ta‘lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini ta‘minlash, ta‘lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy sifatlarni va kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni olib borilmoqda. Shu jihatdan, axborot-ta‘lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish va kasbga tayyorlashni xalqaro talablar asosida olib borish, ta‘lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, modulli ta‘limni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, axborot-ta‘lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining professionaligini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda axborot-ta‘lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining jarayonini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetent mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me‘yoriy asoslari yaratildi[1].

Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, kompetensiyaviy yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatini pedagogik texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 9-oktabr 2017-yildagi 809-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risidagi” Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-fevral 2018-yildagi 140-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash” konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ish muayyan darajada xizmat qiladi.



Respublikamizda axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda quyidagi vazifalarni qo'yish maqsadga muvofiqdir:

- axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiya mohiyati, mazmunining pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;
- axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalikning shakllanganlikligi mezonlarini takomillashtirish;
- axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarining modelini takomillashtirish;
- axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining o'qitish texnologiyalari orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish.

Respublikamizda axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda natijalarining ishonchliligi o'rganilayotgan jarayonning metodologik tamoyillari va idrok qilish metodlari aniqligi; tadqiqot maqsadlari, vazifalari va mantig'iga mos sinovdan o'tkazilgan metodika qo'llanilishi; empirik natijalar reprezentativligi, nazariy xulosa va amaliy tavsiyalar to'g'riligini tajriba-eksperimental tasdig'i; pedagogik amaliyotida olingan natijalarning qayta ishlab chiqilishi va ishlatilishi bilan shartlanganligidan iborat.

Respublikamizda axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish modeli, kasbiy kompetensiyalar, tuzilmasi, kasbiy kompetensiyaning kommunikativ, tashkiliy, refleksiv, motivatsion komponentlari o'rganilgani bilan izohlanadi.

Respublikamizda axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda natijalarining joriy qilinishi axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflari asosida quyidagicha bo'ladi:

- universal kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni sinergetik integratsiyalash asosida takomillashtirilgan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiya tuzilmasiga oid xulosa va tavsiyalardan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining tayyorlangan moduli bo'yicha o'quv-metodik resurslarni ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;
- mustaqil ta'limning komponentlari asosida rivojlantirilgan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalar iyerarxik darajasiga oid taklif va xulosalardan «Ommaviy qirg'in qurollari va undan himoyalaniish va Chaqiruvga qadar

boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan[3].

- o'qitishning reglamentlik tamoyiliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish modeliga oid taklif va xulosalardan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning elektron axborot ta'lim resursi yaratilgan;

- adaptiv va reproduktiv o'qitishga integratsiyalashuvi aniqlashtirilgan axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning modulli bosqichlariga oid taklif va xulosalardan o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv-metodik ta'minoti boyitilishiga xizmat qilgan[2].


Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligiga yo'naltirilgan texnologiya vositalari orqali shakllantirish"deb nomlanib, axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish modeli hamda modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish yoritilgan. Bunda axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga mos ravishda ta'lim shakllari va mazmun mohiyatini metodlari va vositalaridan foydalanish talab etiladi.


1-jadval. Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyati va kasbiy kompetensiyalari tuzilishi:

**Kasbiy ta'lim mazmuni va maqsadini aniqlash**

**Ish beruvchi tomonidan belgilanadi**



tayyorgarlik  
tayyorgarlik  
tayyorgarlik  
tayyorgarlik



Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini tabaqalashtirilgan o'quv rejalari va namunaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish muallifning bevosita rahbarligi va ishtirokida, tajribali mutaxassislarini jalb etgan holda amalga oshirildi. Tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlari o'rniga, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot bilan ishlashni qo'llash talablari hisobga olindi. Axborot-ta'lim muhitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv faoliyatida olib borayotgan kasbiy kompetensiya ularning, DTS va malakaviy talablar bilan axborot himoyasi bo'yicha mutaxassisga qo'yiladigan talablarga ko'ra ishlab chiqilganligini hisobga olib, tizimli-faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan o'quv fanini o'rganishga maqsadlarini ta'riflash imkoniyatiga ega bo'ldik. Aytilganlardan kelib chiqib, ko'rsatilgan fan maqsadlari ta'riflangan edi[4]:

- talabalarining qarashlari tizimni, bo'linmalar bilan bajariladigan vazifalarning o'ziga xosligini hisobga olib, himoyalangan telekommunikatsiya tizimlarini loyihalashtirish metodlari va vositalarini tanlashda shakllantirish;

- himoyalangan telekommunikatsiyaviy tizimlarni loyihalashtirish va amalga oshirilishi samaradorligini baholash sohasida talabaga kasbiy kompetensiyani tiklashda yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash;

- himoyalangan telekommunikatsiyaviy tizimlarni loyihalashtirish jarayonini boshqarish, telekommunikatsiyaviy tizimlar va himoya tizimlari matematik modellarini qurish hamda telekommunikatsiyaviy tizimlar va himoya tizimlari tavsiflarini baholash ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabalarda loyiha hujjatlarini loyihalashtirish va rasmiylashtirish jarayonini avtomatlashtirish zamonaviy vositalaridan foydalanish birlamchi amaliy ko'nikmalari va malakalarini ishlab chiqish;

- bitiruvchilarni himoyalangan telekommunikatsiyaviy tizimlarni loyihalashtirish, texnik topshiriqlar, texnik axborot himoyasi bo'yicha ishlarni olib borish rejalari va jadvalarini hamda zaruriy texnik hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish bo'yicha asosiy hujjatlar bilan ishlashga tayyorlash.

Fikrimizcha, fanli maqsadlar muhim kamchilikka ega, mazkur kamchilik shundan iboratki, ular aniq o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalana olinmaydi, chunki ularning ta'riflanishi ham o'ta umumiy xususiyatga ega. Bu ziddiyat o'qitish - modulli o'qitish maqsadlarining yanada quyi tavsiflanishida hal etilishi mumkin[5].

Xulosa qilib aytganda fan o'qitish moduli deganda aniq o'quv yurti o'quv rejasi umumiy tuzilmasiga kiritiladigan o'quv fani mavzusini (bo'lim) hisoblash qabul qilingan. Modul tushunchasiga yaqin bo'lib nafaqat mavzular, balki o'qitish mazmunli yo'nalishining tanlanishi hisoblanadi. Bu holda o'quv moduli – nafaqat o'quv dasturi bo'limi, balki ham didaktik tizimdir, unda bu modulni fan va umumiy o'qitishning butun tizimiga kiritilishini ta'minlovchi o'quv faoliyatining turli usul va vositalarining o'zaro ta'siri asosiy o'rin olgan .

## **Adabiyotlar**

1. Alexandra List, Eva W.Brante, Holly L.Klee. A framework of pre-service teacher's conceptions about digital literacy: Comparing the United States and Sweden // Computers & Education. – 148. – 2020. –P. 2-20.
2. Gabriela Kelemen. Ways to determine students to become competent teachers // Elsevier. SciVerse Science Direct.–47. – 2012. – P. 1911-1916.
3. Волков Е.П. Уклонения от исполнения служебных обязанностей как форма девиантного поведения офицеров: Автореф. дис... канд. социол. наук.. – М.: ВУ, 1998.
4. Герчикова В.В. Современное высшее образование: функции, реализация, перспективы. / Под ред. В.З. Когана. - Томск, 1988. - 163 с.
5. Каменецкий С.Е., Смирнов А.В. К вопросу о понятиях методика и технология обучения // Наука и школа. - 2002. - № 1. - С. 59-60.
6. Кон И.С. Социология личности. - М., 1967. - 387 с.
7. Методика и технология работы социального педагога // Под ред. Галагузовой М.А., Мардахоева Л.В. - М., 2002. - 192 с.
3. Бакриев А.А. Проблемы повышения ответственности взрослых за нравственное воспитание учащихся: Дис. ... канд. пед. наук. - Махачкала, 1972-180 с.

## **O‘ZBEKISTONDA SANOAT DIZAYNI IBTIDOSI**

### **Saloxidinov M.S. - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va Dizayn institutining mustaqil izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda, dizaynerlik sohasi alohida ahamiyat kasb etib turibdi. Bugun har bir sohaga: xoh u sanoat bo‘lsin, xoh u oddiy reklama roligi barchasida dizaynerlik mahorati mavjud. Ushbu maqolada muallif, dizayn sohasining kelib chiqishi va aynan sanoat dizaynining vujudga kelishi hamda mamlakatimizda bu sohaning ommalashishi haqida batafsil ma’lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** bronza davri, temir davri, renessans, dizayn so‘zining kelib chiqishi, sanoat, ishlab chiqarish.

## **НАЧАЛО ПРОМЫШЛЕННОГО ДИЗАЙНА В УЗБЕКИСТАНЕ**

### **Салокхидинов М.С. - самостоятельный исследователь Национального института искусства и дизайна имени Камолиддина Бехзода**

**Аннотация.** В то время, когда современные технологии стремительно развиваются, область дизайна приобретает все большее значение. Сегодня в

любой сфере: будь то промышленность или простая реклама, - у всех есть дизайнерские навыки. В этой статье автор дает подробную информацию о зарождении индустрии дизайна и зарождении промышленного дизайна и популярности этой индустрии в нашей стране.

**Ключевые слова:** бронзовый век, железный век, ренессанс, происхождение слова дизайн, промышленность, производство.

## **THE BEGINNING OF INDUSTRIAL DESIGN IN UZBEKISTAN**

**Saloxidinov M.S. - Independent researcher at the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod**

**Annotation.** At a time when modern technologies are rapidly evolving, the field of design is becoming increasingly important. Today, in every field: whether it is industry or a simple commercial, everyone has design skills. In this article, the author gives detailed information about the origin of the design industry and the emergence of industrial design and the popularity of this industry in our country.

**Key words:** Bronze Age, Iron Age, Renaissance, the origin of the word design, industry, manufacturing.

*Dizayn bu buyumlar ishlab chiqarish jarayoni,  
ulkan muammolarning oqilona va ijodiy yechimidir.*

*Brayen Xorrigan*

Insoniyat jadal taraqqiyot yoʻliga yuz burganidan buyon badiiy tafakkurga koʻproq ehtiyoj seza boshladi. Bu jarayon shunga olib keldiki, bugun sanʼat inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismiga aylandi. Chunki sanʼat hayotni chuqur oʻrganishda, uni goʻzallik meʼzonlari nuqtayi nazaridan idrok etishda hamda nafasat olamining nozik sir-asrorlarini anglash va his etishda yaqin koʻmakdoshdur. Sanʼat insonlarning obrazli tasavvuri, tafakkur dunyosining manbai boʻlib xizmat qiladi. Ayni paytda u hayotning badiiy tasviri, aks sadosidir. Oʻzbek milliy sanʼati, hususan sanoat dizayni boy tarixga, oʻzining koʻplab turlari, ajoyib turfa namunalariga ega. Ana shu qadim oʻtmishdan rivojlanib, takomillashib kelayotgan barhayot qadriyatlarimiz hozirgi turmushimizni yanada goʻzal, mazmunli qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

“Dizayn” soʻzining ifodasi italyanacha “disego” yaʼni dastlab Renessans asridan loyiha, chizma, tasvirlar va ish jarayonidagi gʻoyalar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi soʻzdan yuzaga keldi. Keyinchalik XVI asrda Angliyada “design” tushunchasi yuzaga kelib, gʻoya, chizma, bezak va shuningdek, loyihalash va konstruksiyalash kabilarni ifoda eta boshladi. Dizaynning torroq maʼnodagi yaʼni kasbiy tushunchasi yuqori isteʼmol va estetik sifatga ega sanoat mahsulotlarini



yaratish, inson uchun komfortli hayot muhitini – ijtimoiy, madaniy, ishlab chiqarish, buyum va jihozlar muhitini tashkillashtirish bo‘yicha badiiy loyihalash faoliyatidir.

Dizayn sohasidagi bilim va tushuncha barcha yoshdagi insonlar hamda ularning kasbi-kori uchun zaruriy bo‘lib, ularning ijtimoiy ongini shakllantirishda xususiy vositadir. Dizaynning insonning shaxs sifatida ma’naviy dunyosini, ijodiy potensialini shakllanishidagi beqiyos rolini baholash qiyindir. Ular har bir kishiga tilni, adabiyotni, tarixni bilish kabi zaruriyatdir.

Dizaynning ibtidosi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Inson dastlab qor, yomg‘ir va sovuq-issiqdan saqlanish vositalarini qidirar ekan, turli moslamalar yordamida hayvon terilariga ishlov bergan, o‘z qaddi qomatiga moslab, qulay kiyimlar ixtiro qilgan, shuningdek, oilasi bilan bemalol istiqomat qilish uchun uy qurib, uni o‘z ehtiyojiga ko‘ra moslab yashagan [1]. Keyinchalik asta-sekin o‘z kiyim-kechagi va xonadoniga ma’lum darajada bezak berib badiiylikka qadam qo‘ya boshlagan. Bu jarayon dizayn taraqqiyotining qadimiyligidan, nafosat olamiga inson tabiiy, ketma-ket holda kirib kelishidan dalolat beradi. Demak, inson taraqqiyotga har doim yuz tutib kelgan va bu jarayon shunday davom etaveradi.

Endi O‘zbekiston tarixida dizaynning, xususan, sanoat dizayni rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqsak.

O‘zbekistonda bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmdagi Tozabog‘yob madaniyati (atrofdagi kanal nomi) nomi bilan mashhur. Tozabog‘yob madaniyatiga mansub Ko‘kcha makoni atrofidan qadimiy mozorlar ochilgan. Qabrdagi o‘liklar bukchaytirib, boshlari g‘arbga qaratib qo‘yilgan. Bosh tomonda idishlar va bronza, zeb-ziynatlar topilgan. Umuman olganda, Tozabog‘yob madaniyatiga mansub yodgorliklar Xorazmda 50 dan ziyodi o‘rganilgan. Xorazmda tekshirilgan so‘ngi bronza davri yodgorliklari Amirobod madaniyati nomi bilan atalgan[2]. Bu davr yodgorliklari yarim yerto‘la, turarjoy, sug‘orish inshootlari izlari va qo‘lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlanadi.



Bronza davrida quyi Sirdaryo hududida kichik mozor-qo‘rg‘onlardagi oddiy qabrlarda sopol idishlar va bronza o‘q uchlari uchraydi. Katta mozor-qo‘rg‘onlardagi saklar urug‘ va qabila boshliqlarining qabrlarida yarog‘-aslaha, ot anjomlari va zebziynat buyumlari topilgan. Pomirdagi Alichur, Tomdi va boshqa yodgorliklarda temirdan yasalgan qilichlar topilgan. Qurol dastasining boshi yoysimon qayirib qo‘yilgan. Qo‘chmanchilarning mozor-qo‘rg‘onlarida harbiy boltalar, xanjarlar va bronza o‘qlari juda ko‘p uchraydi. Saklarning o‘qlari bargsimon, ikki yoki uch qirrali bo‘lgan. Miloddan avvalgi V - IV asrlarda bronza o‘qlar bilan birga temir o‘qlar ham tarqalgan. Saklarning ot anjomlari, o‘qlari va xanjarlari skif yarog‘-aslahalariga o‘xshaydi, Sharqiy Yevropa va Osiyo dashtlaridagi ko‘chmanchi qabilalar madaniyatini eslatadi. Bronzadan ishlangan san‘at buyumlarida ham yaqin xususiyatlar va katta o‘xshashlik bor.

Ilmiy adabiyotlarda quyi Zarafshon bronza davri yodgorliklari Zamonbobo nomi bilan ataladi. Ochilgan 46 ta qabr qoldiqlaridan 8 tasi juft, 28 tasi esa yakkaholda dafn etilgan jasad skeletlari qayd etildi. Hatto ikki qabrda kattalar yoniga yosh bola jasadi qo‘yilgani aniqlangan. Erkaklar qabrlaridan asosan o‘q-yoy paykonlari, pichoqlar, toshqurollar, ayollar qabrlarida esa sopol idishlar bilan bir qatorda bronza ko‘zgu, surmadon, upadon kabi pardoz buyumlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan turli shaklda ishlangan munchoq va marjonlar qayd etildi.

Zamonboboliklar asosan, dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirib, chaylasimon kulbalarda istiqomat qilganlar.


Birinchi mingyilikda temir davri boshlangan. Temir qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikda revolyutsion rol o‘ynadi. Endi temir yirik maydonlarda ishlash uchun imkon yaratdi; u hunarmandga shunday o‘tkir va mustahkam ish quroli bo‘ldiki, unga shu paytgacha mavjud materiallarning birortasi qarshi turolmas edi.



Inson uchun atrof-muhitga moslashishdan, uni o‘ziga moslashtirishga o‘ta boshladi. Yirik sug‘orish inshootlari qurildi. 1 kilometrgacha bo‘lgan kanallar qazildi. Mavjud maydonlardan unumli foydalanish kishilarni markazlashish uchun imkon

yaratdi. Farg‘ona, Zarafshon, CHirchiq vodiylarida, Xorazm, Baqtriya, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida yirik aholi punktlari vujudga keldi[3].

Hunarmandlik takomillashib, metallni qayta ishlash takomillashdi, qo‘l tegirmon (yorg‘uchoq) paydo bo‘ldi, devorlarga ganchdan ishlov berilla boshladi, paxsa va guvaladan imoratlar qurila boshladi. Uylar qurilishidagi turli-tumanliklar (yerto‘la, guvala, yog‘och paxsa) ibtidoiy jamoa tuzumi buzila borib uning o‘rnini sinfiy jamiyat egallay boshlagidan dalolat beradi. Dastlabki, shahar, davlatlar vujudga kela boshladi. (CHust, Dal‘varzin, Ashqoltepa, Elaton va Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi shaharlar.) O‘rta Osiyo xalqlari haqida yozma ma‘lumotlar mil. av.VIII asrda Yaqin Sharq manbalarida uchraydi. Ularda Mo‘g‘iliston cho‘llaridan Qrimgacha bo‘lgan territoriyada “skiflar” yashagani haqida ma‘lumot beradi. Rim tarixchisi Pompey Trog skiflarni “qadimiy qabila” (qadimiyligi jixatidan Misrga teng) deb atagan. Skiflar yashagan joylardan ko‘plab oltindan yasalgan hayvon haykalchalari topilgan.



Temir davrida ishlab chiqarishda buyuk texnika o‘zgarishlari yuz berdi.[4] Temir rudasining mis va qalayga nisbatan tabiatda seroblighi, mustahkam sifati uning ishlab chiqarishda va harbiy sohada tez va keng tarqalishiga olib keldi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida temir qurollardan foydalanishga o‘tish katta voqea bo‘ldi. Chunki dehqonchilik maydonlarini kengaytirishda temir asbob va qurollar (bolta, ketmon, kurak), ayniqsa, temir tishli omoch kabi mustahkam moslamalar paydo bo‘ldi. Temir davrida dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqib, alohida ishlab chiqarish. xo‘jaligiga aylandi.

Temirning keng tarqalishi bilan ishlab chiqarish xo‘jaliklarining rivojlanib borishi shubhasiz, ijtimoiy hayotni ham tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Yirik qishloqlar hunarmandchilik va o‘zaro ayirboshlash savdo markaziga aylanib, shaharlar qad ko‘tardi. Ular xom g‘isht va paxsadan bino qilingan baland va qalin devorlar bilan o‘rab olindi. Shunday qilib, temir va po‘lat buyumlardan keng ko‘lamda foydalanish O‘rta Osiyo shahar va qishloqlari taraqqiyotiga ham samarali ta‘sir etdi.

Dizaynning funksional vazifasi bugungi kunda nihoyatda cheksizdir. Chunki, u inson faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etadi. U har doim o‘z zamonasida jamiyatning madaniy darajasini belgilab hamda shu jamiyatning estetik ijtimoiy talablarini qondirib, ularning turmush tarzini xarakterlab kelgan. Biz arxeologik

materiallar orqali ma'lum bir jamiyatning moddiy ma'naviy va madaniy hayotining qanchalik taraqqiy qilganligini guvohi bo'lamiz. Bunda dizayn ma'lum tarixiy davrning barcha jabhalari taraqqiyotining oynasi, aksi sifatida ma'lumot beruvchi soha tarzida namoyon bo'ladi. Dizaynning har bir namunasi ma'lum davr yoki asrda ushbu buyum qanday qatlamdagi shaxslarga tegishli va shu davr taraqqiyoti darajasi haqida guvohlik beradi. Sanoat dizayni - dizayn, san'at va texnik faoliyat sohasi. Sanoat dizaynining maqsadi: sanoat mahsulotlarining rasmiy xususiyatlarini aniqlash, ularning funksional va tashqi fazilatlari. Odatda, sanoat dizaynini rivojlantirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Avlod g'oyasi
- Konseptual o'rganish
- Eskiz
- Uch o'lchovli modellashtirish
- Vizualizatsiya
- Dizayn
- Prototiplik

Ushbu kasblar: muhandislar, mexanika va san'atkorlar kabi professor-o'qituvchilar o'zlariga tegishli bo'lishi mumkin. Ular injutlarni yaratmaydilar, ixtirolar salomatligi uchun javobgar emaslar, ular ixtironi optimallashtirishadi, bu uning qimmatroq va go'zalligini tasvirlashga urinishadi. Dizaynerlar bozorda allaqachon muvaffaqiyatli bo'lgan tovarlarning eskizlarini tekshirishadi va namunalari tomonidan ularning eng yaxshi asarlarini yaratadi. Sanoat dizaynining san'ati aslida chuqur tarixiy ildizlarga ega, ammo oxir-oqibat bu yo'nalish faqat XX asrda keltirilgan. Ko'pgina tadqiqotchilar sanoat dizaynining kelib chiqishi va shakllanishining asosini birlashtirishadi. Natijada mahsulot shaxsiy xususiyatlarini yo'qotishni boshladi. Shuning uchun ba'zi odamlar har kuni bunday obyektlarning paydo bo'lishi o'zlarining ichki uyg'unligiga ta'sir qilishidan jiddiy qo'rqishni boshladilar. Sanoat dizayni zarurati shakllantirila boshlandi. Misol sifatida, XVIII asrda yashagan ingliz sanoatchisi Jozayia muzvid odatda beriladi. Bosma to'qimalarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanish sanoat shkalasi ehtimol tarixda birinchi marta o'z mahsulotlarining dizayni va tashqi ko'rinishi bo'yicha eng yaqin e'tiborni to'ladi. Biroq, 20-asr boshlariga qadar ko'p hollarda qilingan obyektlar oddiygina dekorativ elementlar bilan bezatilgan bo'lib, bu qo'lda yasalgan aholisi haqida eslatib o'tdi. Aytgancha, hunarmandlar, ishlab chiqarishning nisbatan kichik hajmiga ega bo'lishlariga qaramay, ularning ko'plab avlodlari uchun sanoat namunasi uchun juda foydali tajriba to'plangan. Darhaqiqat, ular ish paytida, mavzu va uning shakli va uning shaklini, moddiy, ishlab chiqarish texnologiyasi, funksional va estetik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqladilar.



Sanoat dizayni g'oyalarning samarali rivojlanishiga nazarda tutadi, hatto fotosuratlar bo'lsa ham, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladigan jarayon orqali. Sanoat dizayni tarixi umuman dizayndan biroz qisqaroq. Soha sohasida ishlaydigan birinchi dizaynerlar XVIII asrda ingliz hududida paydo bo'lgan. Kerilli to'qimalarni ishlab chiqarish ishlab chiqarishni rivojlantirishda o'z ishini ishlab chiqishda, ammo "sanoat dizayni" ta'rifini rivojlantirish bo'yicha ish bilan shug'ullanadigan "ProDizayna" ning dastlabki bosqichlari bilan bog'liq. Avvaliga u "sanoat dizayni" deb belgilangan. Bu yerda Germaniya Valter Gopiondan kelgan me'mor, o'sha paytda Germaniyaning Valerda sanoat dizayni maktabi inqilobchi bo'lgan. Endi bu hech qanday alohida narsa emas, keyin ushbu tadbir sohada va dizayn dunyosida to'ntarishni yakunladi[5].

Valter Gopius rassomchilik va texnologiya taqsimlanishi bilan bir qatorda rasman e'lon qildi. Globallashgan XXI asrning hozirgi bosqichida dizayn studiyalari faoliyatining yangi turi emas, chunki dizayn studiyalari faoliyatining uchta elementini o'z ichiga oladi: san'at, marketing va zamonaviy texnologiyalar. Inson ijodiy faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, sanoat dizaynida dizayner ustida ishlab chiqilgan obyekt yoki obyektlarga intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bor. Sanoat dizayner ijodining natijasi ixtiro, foydali model yoki sanoat namunalari tomonidan patent bilan himoyalangan bo'lishi kerak. Sanoat dizaynerining asosiy vazifasi sanoat dizaynini yaratish va mahsulotning ergonomikasini ta'minlash. Sanoat dizayneri turli sohalarda ishlashi mumkin: to'qimachilik mahsulotlari, xasanatxonalar va charm buyumlar, mebel va yog'och ishlab chiqarish, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish, metall buyumlar, mashina va kemalar, avtoulavlar, aviakompaniyalar ishlab chiqarish, avtoulavlar, samolyotlarni ishlab chiqarish, avtomobillar, samolyotlarni ishlab chiqarish, avtomobillar, aviakompaniyalar ishlab chiqarish, avtoulavlar, samolyotlarni ishlab chiqarish, avtomobillar, aviakompaniyalar ishlab chiqarish, avtoulavlar, aviakompaniyalar ishlab chiqarish, avtoulavlar, samolyotlar, kemalar va boshqalar ishlab chiqarish.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Xususan, birinchi tashabbus



bo'yicha yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etishga oid dastur loyihasi tayyorlangan. Unga muvofiq, 2019-2020-yillarda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha hududiy "yo'l xarita"larini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilangan. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta'mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari manzilli ro'yxati ham shakllantirilgan.

Davlatimiz rahbari dastur loyihasida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari yetarli emasligi, har bir shahar va tumanga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilgan soha namoyandalarining amaliy vazifalari aniq belgilanmaganini qayd etdi. Hududiy "yo'l xarita"lari ijrosini tizimli tashkil etish, to'garak va sinflarga qamrab olingan bolalarni rag'batlantirish, jumladan, har xil tanlovlar o'tkazish zarurligini ta'kidladi. Bir so'z bilan aytish mumkinki, bu sohada ayncha buyuk ishlarni amalga oshirsa bo'ladi. Dizayn, san'at, sanoat sohalari ham aynan Prezidentimizning e'tiboriga tushgani bejizga emas.

### **Adabiyotlar**

1. Т.Сит. по: Аронов В. Р. Теория проектирования Томаса Мальдонадо. Из XX в ХХИ век // Проблемы дизайна-6. — М.: НИИ теории и истории изобразительных искусств РАХ, 2011. — С. 20—23
2. Аронов В.Р. Дизайн в культуре XX века. 1945—1990. — М.: Издатель Дмитрий Аронов, 2013
3. Мальдонадо Т. Актуальные проблемы дизайна // Декоративное искусство СССР. — 1964. — № 7. — С. 18—20
4. Аронов В. Р. Ульмская школа. // Искусствознание 3-4/07. — М.: Издание государственного Института искусствознания, 2007
5. Хрестоматия по дизайну. — Тюмень: Институт дизайна, 2005.
6. Т.Сит. по: Глазичев В. Л. Дизайн как он есть. М.: европа, 2006.
7. Егамов О. Композитсиа. — Т.: "San'at", 2005. — 198-b.
8. Хидеяки Чинзиива. Гармония света, М.: Изд. "Астрель", -2003. — 86.
9. Тина Саттон. Гармония света. М.: Изд. "Астрель", 2004. — 110 с.
10. Кочегаров Б.Э. Промышленный дизайн учебное пособие Владивосток: изд. ДВГТУ, 2006. -293с.
11. Мунипов В.И., Зинченко В.П. Эргономика: человекоориентированное проектирование техники, программных средств и среды Учебник, М.: изд. Логос, 2001. — 351с.

12. Рунге В.Ф., Манусевич Ю.П. Эргономика в дизайне среди учебное пособие, М.: изд. Архитектура-С, 2005. -327с.
13. . Е.Н. Gombrich. The Story of Art. Abdullayev H. San'at tarixi. Toshkent, 2003. — 104 с . 35. Abdullayev N. “San'at tarixi”, Т., “San'at”nashriyoti, 2001.-96-b.
14. Рунге В. Ф. История дизайна, науки и техники. Учебное пособие: В 2-х кн.— М.: Архитектура-С, 2006. — Кн. 1. — С. 6
15. Михайлова А. С. Индустриальный дизайн как вид проектно-художественной деятельности в условиях развитого промышленного производства XX века: 1920—1980-э годы. Автореферат дис. канд. иск. М., 2009.
16. М.С. Кухта, В.И. Кумакин “Промышленный дизайн” Изд. Томского политехнического университета 2013г.10 стр
17. KabirovJ, SagdullayevA. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Т.,1990у.13-14 bet.
18. МухаммаджановА. R. Qadimgi Buxoro. Т.,1991-у.
19. Массон В.М. Средняя Азия в эпоху раннего железа: культурная и социально экономическая динамика // Раннежелезный век средней Азии и Индии. Ашхабад. 1984.
20. Е.М.Мухамadiyev, SH.X.Tugizov, K.B.Yunusova. Dizayn asoslari. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti 2017-у. 6-bet.

## **XX ASR TURKISTON TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MADANIY HAYOTNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Abduazimov A.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrda Turkiston zaminida ta'lim tarbiya masalalari, xalqning ta'lim olishi va ma'rifatli bo'lishi, mintaqa ziyolilarining o'lka xalqini vatanparlik ruhida tarbiyalash, insonparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvar qilib tarbiyalash g'oyasini rivojlantirish yo'llarining pedagogik ta'sir vositalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, yoshlar, ma'rifat, g'oya, mafkura, odob, ahloq, mustamlaka, jadid, ma'rifatparvar, siyosat, pedagogika

## **НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНО- КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ТУРКЕСТАНА В XX ВЕКЕ**

**Абдуазимов А.С. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы образования в Туркестане в XX веке, просвещения и просвещения народа, развития идеи воспитания народов региона в духе патриотизма, гуманизма, национализма, просвещения. Описаны средства педагогического воздействия способов.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, молодежь, просвещение, идея, идеология, этикет, мораль, колониализм, серьезность, просвещение, политика, педагогика.

## **SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF SPIRITUAL AND CULTURAL LIFE IN THE EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN IN THE XX CENTURY**

**Abduazimov A.S. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article deals with the issues of education in Turkestan in the twentieth century, the education and enlightenment of the people, the development of the idea of educating the people of the region in the spirit of patriotism, humanism, nationalism, enlightenment. The means of pedagogical influence of the ways are described.

**Key words:** education, upbringing, youth, enlightenment, idea, ideology, etiquette, morality, colonialism, seriousness, enlightenment, politics, pedagogy

XX asr Turkiston zaminida bo‘lib o‘tgan voqealar. Xalqning ta‘lim olishi va ma‘rifatli bo‘lish masalasi mintqa ziyolilarining diqqat markazida bo‘lgan. Chunki, barcha davlarda ham yosh-avlod tarbiyasi uning kelajagi xar qanday millat ni diqqatini chetda qoldirmagan. Xususan, Chor Rossiyasi XIX -asrning ikkinchi yarimida Markaziy Osiyo hududini to‘liq ishg‘ol qilgandan keyin maxalliy xalqlarni itoatda tutib turish va mustamlakachilik tizimini qaror toptirishda asosan xalq ta‘limi va millat tarbiyasi ustidan nazoratni qo‘lag olishga katta e‘tibor berdilar. Mustamlakachi xalqlar o‘lka ta‘lim tizimini izdan chiqarishda avvalo mafkuraviy siyosat «o‘zini oqlaganligini» ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Haqiqatdan xam, xar bir jamiyatning bugungi, eratsi va kelajagi yoshlar ta‘limining dolzarb ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh-avlod tarbiyasida xalq fidoyilari va ma‘rifatparvarlari masalasiga to‘xtalar ekan: “jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz,

ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” deb takidlaganlari ham bejiz emas.

Chunki, XX asr Turkiston o'lkasida mustamlakachilik tizimini qaror toptirishga xarakat qilgan Rossiya siyosatchilari maxalliy xalqarning asrlar davomida shakllangan ilmiy ma'naviy dunyoqarashining rivojlangan ta'limiy harakatlari ta'siriga duch keldilar. Mintaqaning ilm-ma'rifati rivojlangan hududlari Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xujand shahrlaridagi madrasalar nafaqat islom dininig ravnaqiga, balki Markaziy Osiyoda mintaqasida ilm-fan, ma'rifat, madaniyat-ma'naviyat va davlatchilikning takomillashishida ta'lim muassasalari o'zni muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mintaqa madrasalarida jahon taraqqiyotiga qaytarilmas xissa qo'shgan buyuk siymolar yetishib chiqqan. Asrlar davomida shakllangan ta'lim-tarbiya tizimini yo'q qilish uchun mustamlakachilarga katta g'oyaviy kuch va mustaxkam mafkuraviy uslub kerak edi. Jumladan, shuni xam aloxida ta'kidlash lozimki XIX-asrga ta'lim – tarbiya tizimida ko'pgina sabablarga ko'ra millatning yuksalishida madrasa va maktablarda o'qish sifatining samaradorligi pasayib ketgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'lim-tizimini rivojlantiruvchi kuchi bo'lgan avlodning kelajagiga to'xtalar ekan: “har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Chunki, barcha davrlarda ham o'sib kelayotgan yosh-avlodni kelajagi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutaffakirlari Axmad Fargoniy, Muxammad Xorazimiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulugbek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk simolarni bergan bu millat XIX-asr oxiri XX asr boshlariga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajasidan tushib ketdi?». Eng avvalo bu jarayon honliklarda ta'lim-tarbiya masalalarida rivojlanishning susayishi bilan bog'liqdir. Ularning o'zaro urushlarb ichki ziddiyatlar natijasida qishloqlarda madrasalar Turkiston o'lkasida ta'lim tizimining rivojlanishiga ta'sir etayotgan bir davrda, jamiyat rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Turkiston o'lkasida ta'lim-tizimini Rossiya manfaatlariga bo'ynsindirish uchun birinchi navbatda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman shaxsan o'zi juda katta ta'sir o'tkazdi. Chunki u xalqning ilm-ma'rifatga o'rgatadigan ta'lim-tarbiya maskanlaridan biri bo'lgan «madrasalarni aslo yoqtirmas edi» edi. Shu sababli o'lkada mutahassislar taklif qilgan ta'lim tizimini isloh qilish rejasiga ham o'zi ko'p o'zgartirishlar kiritish asosida ta'lim-tizimini qurish ishglari olib borildi. XIX-asrning

80-yillari boshlarida Turkiston o'lkasida aholining ilm-ma'rifatli qilish masalalari ikkinchi darajali rol sifatida qarala boshladi. Shu davrda o'lka aholisi ichidan xalqning ilm-ma'rifatli bo'lishida ma'rifatparvar olimlar o'z pedagogik qarashlarini aholiga targ'ib qila boshladi. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Suloymon o'g'li Cho'lpon, Mashriq Yunus o'g'li Elbeklar xalqni ilm-ma'rifatli qilishda o'z tashabbuslarini ilgari surib bordilar.

Abdulla Avloniy o'z pedagogik qarashlarida insonni kamolatga yetkazishda muhim omil xisoblangan aql, ilm va tajriba tufayli rivojlantirish masalalariga o'z qarashlarida ilgari surdi. Olim ilmning jamiyat tarqiyotiga ta'siri masalalariga to'xtalarekan: yoshlarga ilm sirlarini o'rgatishda kitob mutola qilishning roli juda katta ekanligini takidlab o'tgan. Avloniyning pedagogik – ma'rifiy faoliyatida uning murabbiy, ustoz bo'lib jamiyat hayotini yuksaltirish o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ilm-hunar, adob-ahloq, ma'naviyatli-yuksak insoniy fazilatlar asosida kamol toptirish haqida ta'kidlab o'tilgan.

Abdurauf Fitratning o'lka xalqini vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvar qilib tarbiyalash g'oyasini olmining bosh maqsadi bo'lgan. Marifatparvar olim xalqni ilm-ma'rifatli qilishda jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivoji muhim ahamiyatga molik ekanligi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Abdurauf Fitrat pedagogik qarashlarida ilmiy, adabiy, ma'rifiy asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surar ekan, ma'rifatni keng yoshishda o'zining vijdoniy burchi muhim o'rin tutadi. Xamza Hakimzoda Niyoziy pedagogik qarashlarida xalq maorifini demokratik asosida qayta qurish, maorifning yangi tizimini yaratish g'oyasini ilgarir suradi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlarni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ta'lim-tarbiyaning o'rni muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, maktab bolalarini ilmi, odobli qilib tarbiyalash va kasb-hunarga o'rgatish kerakligi, maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi lozimligini o'qtirish masalalariga to'xtalib o'tgan.

Abdulla Qodiriy o'z pedagogik faoliyatida millatparvarlikni ulug'laydi, har bir odam o'z xalqi va vataniga xizmat qilishi, xalq va millat manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'yishi kerakligi g'oyasini olg'a suradi. Olimning fikricha, har bir inson millatning bir qismidir, ota-ona uchun qayg'urish, do'stlarga saodatda bo'lish, adolat faqat davlat siyosatida emas, balki oila muhitida ham barqaror bo'lishi kerakligi to'g'risida to'xtalib o'tgan.

Abdulamid Suloymon o'g'li Cho'lpon Turkistonda keng yoyilgan ma'rifatchilik, jadidchilik harakatining atoqli nomoyondalaridan bo'lgan. Cho'lpon o'z ijodi boshlangan davrdan boshlab jadidlik g'oyalarining faol targ'ibotchisi sifatida, asarlarida insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi fikrlar o'z davri ta'lim tarbiyasida alohida o'rin tutgan. Chunki olim yoshlar ma'rifiy dunyoqarashiga ongi



rivojlanishida kuchli ta'sir ta'im va tarbiyadir, yoshlar o'tmish allomalarining buyuk hayot yo'li, yoshlarni barkaml qilib yetishtirishda muhim o'rin tutadi deb takidlaganlar.



### **1.rasm. Oilada tarbiyaviy muhitni shakllantirishda mutafakkirlar qarashlari**

Xususan, ta'lim-tarbiya berishda avvalo yosh-avlodning qiziqishi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Chunki, bola tarbiyasida, ota-ona farzand burchi masalasiga to'xtalar ekanmiz, Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida ma'rifatparvar olimlardan o'z g'oya va qarashlarida sharq mutafakkirlarining fikrlarini keltirishni afzal bilaganlar.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi
3. Abdulla Avloniy .Birinchi muallim.: Toshkent. 1915 y.262-263-b.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar — T.: «Ma'naviyat», 2000.
4. Abdulla Qodiriy. O'tgkunla. G'aur G'ulom ashii. 1994 y.312-314 b.
5. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash / Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 14-61

### **KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA GRAFIK VA EKSPERIMENTAL MASALALAR YECHISH**

**Sultonova O'.N. – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalariga kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy masalalar yechish ko'nikmasini shakllantirish hamda amaliyotda undan qanday foydalanish usullari ko'rsatilgan.

**Kalit soʻzlar:** koordinata, absissa, ordinata, grafik usul, toʻgʻri chiziq, parabola tenglamalar, elektr zanjir, ampermetr, voltmeter, ichki qarshilik.

## **РЕШЕНИЕ ГРАФИЧЕСКИХ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ЗАДАЧ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

**Султанова У.Н. - доцент Термезского филиала Ташкентского  
государственного технического университета имени Ислама Каримова,  
кандидат педагогических наук**

**Аннотация.** В статье изложены методы формирования и использования на практике навыков решения практических задач студентами высших образовательных учреждений на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** координата, абсцисса, ордината, метод графиков, прямая, параболические уравнения, электрическая цепь, амперметр, вольтметр, внутреннее сопротивление.

## **SOLVING GRAPHIC AND EXPERIMENTAL PROBLEMS ON THE BASIS OF COMPETENCY APPROACH**

**Sultanova U.N.- Associate Professor of Termez branch of Tashkent State  
Technical University named after Islam Karimov, Candidate of Pedagogical  
Sciences**

**Annotation.** The article shows how to develop students' ability to solve practical problems based on a competency-based approach and how to use it in practice.

**Key words:** coordinate, abscissa, ordinate, graph method, straight line, parabolic equations, electric circuit, ammeter, voltmeter, internal resistance.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida grafik va eksperimental masalalar yechishning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) Agar kattaliklar orasidagi bogʻlanishlar grafigi berilgan boʻlsa, u holda uni tushuntirish, har bir boʻlimdagi bogʻlanishni xarakterini oʻrganish kerak; 2) Masshtabdan foydalanib, grafikdan izlanayotgan kattaliklarni (absissa va ordinata oʻqlaridagi qiymatlarini) topishi kerak; 3) Agar bogʻlanish grafigi berilmagan boʻlsa, u holda maxsus jadvalardan yoki masalaning shartidan olingan qiymatlariga koʻra grafik tuziladi. Buning uchun koordinatalar oʻqlari chiziladi, ularda maʼlum masshtab tanlanadi, jadvalar tuziladi, shundan keyin koordinata oʻqlari boʻlgan tekislikka

tegishli ordinata va absitsissalarga mos nuqtalar qo'yiladi. Bu nuqtalarni birlashtirib, fizik kattaliklar orasidagi bog'lanish grafigi yasaladi, so'ngra yuqorida aytib o'tilgan tartibda o'rganiladi.

Misol tariqasida quyidagi masalani ko'ramiz.

**1-masala.** 1-rasmda berilgan grafikdan foydalanib jismlarning qanday harakatlanganligini aytib bering va har bir harakat uchun tezlik formulasini yozing [1].

Talabalar mustaqil ravishda grafikka qarab, harakatni tahlil qilishadi.

Grafikning har bir ko'rinishini alohida tahlil qiling.

Grafikdagi harakatlar talabalar tomonidan quyidagicha tahlil qilinadi:

1. a) Agar vaqt o'tishi bilan tezlik ortsa, harakat tezlanuvchan.
- b) Agar vaqt o'tish bilan tezlik kamaysa sekinlanuvchan.
- s) Agar tezlik doimiy qolsa tekis harakat bo'ladi.

2. O'zgaruvchan harakat uchun  $a = \frac{\Delta g}{\Delta t}$  (1) tezlanish aniqlanadi.


3. Tekis o'zgaruvchan harakat uchun tezlanish formulasidan tezlik formulasi yoziladi.

$$g = g_0 + a \cdot t \quad (2) \text{ bo'ladi.}$$

4. Grafikdan doimiy kattaliklar aniqlanadi: Tezlik o'qidan  $g_0$  va hisoblash

yo'li bilan  $a = \frac{\Delta g}{\Delta t} = \frac{g_2 - g_1}{t_2 - t_1}$  (3) topiladi.  $g_0$  va  $a$

ning qiymati umumiy formulaga qo'yiladi.



Talabalarning javoblari asosida xulosaga kelish uchun o'qituvchi talabalarning olgan nazariy bilimlari asosida grafiklarni qanday tahlil qilgani,

ularning mustaqil fikrlashlari asosida grafiklarning tahlili ko'rib chiqiladi. I - grafikda boshlang'ich tezligi nolga teng bo'lgan tekis tezlanuvchan harakat.

II - boshlang'ich tezligi 2 m/s ga teng bo'lgan tekis tezlanuvchan harakat.

III - boshlang'ich tezligi 7m/s bo'lgan tekis sekinlanuvchan harakat.

IV – boshlang'ich tezligi nolga teng, bo'lgan tekis tezlanuvchan harakatning xususiy holi.

V – tezligi  $v = 4$  m/s teng bo'lgan tekis harakat.

YUqoridagi xulosalarga ko'ra, tezlanishlar qiymatlarini tezlik formulasiga qo'yib, tenglamalar yoziladi:

$$\text{I } g_0 = 0; a = \frac{7m/c}{5c} = 1,4m/c^2; g = 1,4t$$

$$\text{II } g_0 = 2m/c; a = \frac{7m/c - 2m/c}{5c} = 1m/c^2; g = 2 + t$$

$$\text{III} \quad g_0 = 7M/c; a = \frac{0M/c - 7M/c}{6c} = 1,2M/c^2; \quad g = -7 + 1,2t$$

$$\text{IV} \quad ; a = \frac{7M/c}{5c - 2c} = 2,33M/c^2 \quad v = 2,33(t_2 - 2)$$

V ;  $a = 0$  tekis harakat. Uni tezlanishi 0 ga teng bo'lgan tekis o'zgaruvchan harakatning xususiy holi sifatida qarash mumkin.

bo'ladi deb tahlil etiladi. Bu fikrlar orqali grafik asosida masala to'liq ishlangan hisoblanadi.

Talabalar masalalarni mustaqil ravishda echish orqali:


- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;
- fizik kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni o'rganadi;
- fizikaning qonunlarini ongli ravishda o'zlashtirishiga erishadi;
- masalaning shartiga qarab grafik yasash qobiliyati paydo bo'ladi;
- grafiklarga qarab fizik kattaliklarni berilganlarini yozib olishga o'rganadi.

Eksperimental masalalarni yechishda tajribalar maktab demonstratsion eksperimentning barcha shart-sharoitlariga amal qilgan holda qo'yilishi kerak. Bunda asboblar va hodisalarning yaxshi ko'rinayotganiga alohida e'tibor berish kerak. Eksperimentni bajarish jarayoniga o'qituvchining o'zi rahbarlik qilish zarurdir. Demonstratsion eksperimental masalalarga misol keltiramiz.


**2-masala.** Qayiq suv sathidan  $h = 6m$  balandda joylashgan silindirik barabanga o'zgarmas tezlik bilan o'ralayotgan arqon yordamida ko'lining qirg'og'i tomonga tortilayapti (1.3-rasm).  $g_q$  qayiq tezligining  $L$  arqon uzunligiga bog'lanishini toping. Xususan, qayiqning  $L = 10m$  bo'lgan paytdagi tezligini va bu vaziyatdan  $t = 1sek$  vaqt davomida siljiydigan masofasini aniqlang [2].

Berilgan:  $h = 6m$ ;  $g = 1m/s$ ;  $L = 10m$ ;  $t = 1s$ .

Topish kerak:  $g_q = ?$ ;  $\Delta s = ?$



2.1-rasm



2.2-rasm

*Yechilishi:* Juda kichik  $t$  vaqt oralig'i davomida qayiq A nuqtadan B nuqtaga  $s - s_1 = g_q t$  masofa qadar siljigan bo'lsin (2.1-rasm). Xuddi shu vaqtda AD vaziyatdagi arqon BD vaziyatni oladi, bunda uning uzunligi  $L - L_1 = g t$  kattalikka kamayadi.  $t$  vaqtning juda kichik qiymatida  $\alpha$  burchak ham kichik bo'ladi. Shuning uchun BCD teng yonli uchburchakdagi  $\beta$  burchak  $90^\circ$  dan juda kam farq qiladi. Binobarin, ABC uchburchakni to'g'ri burchakli deb hisoblash va

$$\frac{L - L_1}{s - s_1} = \frac{g t}{g_q t} = \frac{g}{g_q} = \cos \gamma$$

deb yozish mumkin; bundan  $g_q = \frac{g}{\cos \gamma}$ . Qayiq qirg`oqqa yaqinlashgan sari  $\gamma$

burchak kattalashadi va  $g_q$  ortadi. 2.1-rasmdan ko`rinib turibdiki,  $\cos \gamma = \frac{s}{L} = \frac{\sqrt{L^2 - h^2}}{L}$ .

Shuning uchun  $L = 10m$  da


$$g_q = \frac{gL}{\sqrt{L^2 - h^2}} = 1,25m/s.$$

Qayiqlarning siljish masofasini topish uchun tekis harakatda bosib o`tilgan yo`l formulasi  $s - s_1 = g_q t$  ni faqat  $t$  vaqt oralig`i yetarlicha kichik bo`lib, bu vaqt davomida qayiqlarning tezligi sezilarli o`zgarib ulgurmagandagina qo`llash mumkin:

$$\Delta s = s - s_1 = \sqrt{L^2 - h^2} - \sqrt{L_1^2 - h^2} = \sqrt{L^2 - h^2} - \sqrt{(L - g t)^2 - h^2} = 1,25m$$

$$Javob : g_q = 1,25m/s ; \Delta s = 1,25m$$

**3-masala.** Galvanik elementlar batareyasiga 24 Om qarshilik ulanganda zanjirdagi tok kuchi 1,5 A edi, 12 Om qarshilik ulanganda esa tok kuchi 2,7 A bo`ldi. Batareyaning EYuK ini va ichki qarshiligini toping. Imkoni bo`lsa, shu ishni tajribada qilib ko`ring. Buning uchun qarshiliklari ma`lum bo`lgan ikkita rezistordan va ampermetrdan foydalaning [3].




3- rasm.

Masalaning shartiga ko`ra yig`iladigan elektr zanjirining prinsipial sxemasi

Berilgan:  $R_1 = 24 \text{ Om}$ ,  $I_1 = 1,5 \text{ A}$ ,  $R_2 = 12 \text{ Om}$ ,  $I_2 = 2,7 \text{ A}$ ,  $\varepsilon = ?$ ,  $r = ?$

Masalani yechish ketma-ketligini quyidagi tartibda tizimlashtirish o`quvchining masalada kechayotgan fizik jarayonni yaqqol ko`z oldiga keltirishi uchun yordam beradi.





Masalani yechish algoritmi

Hisoblashlarga ko'ra  $\varepsilon = 27 \text{ V}$ ,  $r = 3 \text{ Om}$  ekanligini aniqlash mumkin.

Eksperimental masalalarni yechishda tajriba va kuzatishlarni o'quvchilarni o'zlari mustaqil ravishda olib borishlari natijasida o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalari shakllanadi va rivojlanadi.


**4-misol.** Bir-biridan 30 sm masofada joylashgan ikkita parallel sim bo'yicha bir xil yo'nalishda o'zgarmas tok o'tadi. Sim mahkamlangan tayanchlar orasidagi masofani (simlarning uzunligi) 50 m. Simlardagi tok kuchi 150 A. Simlarning o'zaro ta'sir kuchi modulini va yo'nalishini aniqlang [5-6]

*Berilgan:*  $I_1 = I_2 = I = 150 \text{ A}$  - har bir simdagi tok kuchi;  $a = 0,3 \text{ m}$  - simlar orasidagi masofa;  $l = 50 \text{ m}$  - tayanchlar orasidagi masofa; jadvaldan:  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H/m}$  - magnit doimiysi;  $\mu = 1$  - havoning magnit singdiruvchanligi.

*Topish kerak:* F-simlarning o'zaro ta'sir kuchini (moduli va yo'nalishini).

*Yechilishi.* Simning aktiv qismi uzunligi sifatida tayanchlar orasidagi masofani qarab chiqamiz.  $l \gg a$  ni hisobga olib, simni cheksiz uzun deb hisoblash mumkin, u holda o'zaro ta'sir kuchini quyidagi formuladan topamiz:

$$F = \mu_0 \mu \frac{I^2 l}{2\pi a}; F = \frac{4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H/m} \cdot 1 (150 \text{ A})^2 50 \text{ m}}{2\pi \cdot 0,3 \text{ m}} = 0,75 \text{ N}.$$



12.1- rasm

Simlarga ta'sir etuvchi kuchning yo'nalishini aniqlash uchun 12.1-rasmdan foydalanamiz. Simlar orasida (ichki tomonda) magnit maydon zaiflashadi (induksiya chiziqlari bir-biriga qarab yo'nalgan), tashqi tomonda ikkala simning maydon induksiyasi chiziqlari bir xil yo'nalishga ega - bu yerda maydon kuchaygan, demak, bir xil yo'nalgan tokda simlar o'zaro tortishishi kerak.

*javobi.* Simlarning o'zaro tortishish kuchi 0,75 N ga teng.

**Xulosa.** Talabalar masalalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida yechish natijasida matematik savodxonlik o'z-o'zini tekshirish ilmiy bilimlar to'plamiga, texnik salohiyati ortib mustaqil ravishda masalalarni yecha oladi. Buning natijasida:

- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;
- fizik kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni o'rganadi;

- fizikaning qonunlarini ongli ravishda o'zlashtirishiga erishadi;
- masalaning shartiga qarab grafik yasash qobiliyati paydo bo'ladi;
- grafiklarga qarab fizik kattaliklarni berilganlarini yozib olishga o'rganadi;
- elektr zanjirlar chizish va elektr sxemalarni ulanishlarini o'rganadi;
- nazariya bilan amaliyotning hamohang tushunish lozim ekanligini anglay boshlaydi.

### **Adabiyotlar**

1. В.С.Волкеньштейн. Сборник задач по общему курсу физики. Москва. Наука, 1985 г.- 384 стр.
2. R.A.Gladkova, N.I.Kutilovskaya. Fizikadan savol va masalalar to'plami. Toshkent. O'qituvchi, 1988 y. – 320-bet.
3. M.Ismoilov. Elementar fizika masalalari. Toshkent. O'qituvchi, 1993-y. – 325 bet.
4. A.A.Chertov, A.A.Vorobyev. Fizikadan masalalar to'plami. Toshkent. O'zbekiston, 1997 y. – 604 bet.
5. K.A.Tursunmetov, A.M.Xudoyberganov va boshq. Fizikadan masalalar to'plami, Toshkent. O'qituvchi, 2001 y. – 180 bet.
6. M.X.O'lmasova. Mexanika va molekulyar fizika. I, II, III-kitob, Toshkent. O'qituvchi , 2007 y. – 270, - 320, - 290 bet.
7. Elektronmaya pochta:[softphysicon.ru](mailto:softphysicon.ru)
8. [www:http://www.physicon.ru](http://www.physicon.ru)
9. <http://irodov.nm.ru/other/volkenshtein.htm>
- 10.<https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-sa.html?page=5>
- 11.<https://www.google.com/search?>

## **KREATIVLIK-BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRUVCHI KATEGORIYA SIFATIDA**

### **Qorayeva L.Z. - Navoiy viloyat XTXQTMOHM o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisining idroki, tafakkuri, shaxsini shakllantirishda ijodkorlik muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** idrok, bilish faolligi, tafakkur, shaxsni shakllanishi, ijodiy yo'naltirilganlik.

## **ТВОРЧЕСТВО КАК КАТЕГОРИЯ, РАЗВИВАЮЩАЯ ЛИЧНОСТЬ РЕБЕНКА**

**Караева Л.З.-переподователь РЦППКНО Навоийской области**

**Аннотация.** В статье рассматривается значение творческого мышления в формировании познания, личности младшего школьника в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** восприятие, познавательная деятельность, созерцание, формирование личности, творческая направленность.

## **CREATIVITY - AS A CATEGORY OF A CHILD'S DEVELOPMENT**

**Qorayeva L.Z. -Advanced and re-training center for public education staff of Navoiy regional, Lecturer**

**Annotation.** This article considers the importance of creativity in the formation of cognition, thinking, personality of primary school students in the educational process.

**Key words:** perception, cognitive activity, contemplation, personality formation, creative orientation.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllanmagan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi sayoz bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishda ularning psixologik xususiyat va jihatlari inobatga olish talab etiladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning yangi bilim va tushunchalarni yaxshi o'zlashtirishlari, ya'ni bilish faolligining ortishi va ularning ta'lim va tarbiya olishlari aynan ushbu omillarga bog'liqdir. Bu psixologik xususiyatlar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday obyekt, subyekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi, uni atrof muhitning sirli olami, sehri, jilolanishi, jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zayif tomonlari ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari idrokning salbiy xususiyati obyektlarni bir-biridan farqlashdagi zayiflikdir. Ular ko'pincha o'rganiladigan materialni noaniq, hatto, noto'g'ri idrok qiladilar. Buning oqibatida aynan o'xshash harflar, so'zlar, narsalar tasviri, shakli, fazoviy joylashuvlarning farqini to'la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, "Q" bilan "K" harflarini "o'qish" bilan "uqish" so'zlarini bir-

biridan farqlamaydilar. Baʼzan esa ular kattalarning idrok koʻlami qamrab olmaydigan narsalarni payqaydilar. Bolalarda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zayifligi uchun ular taʼlim jarayonida koʻpincha xatoga yoʻl qoʻyadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib tasodifiy belgilarga eʼtibor beradilar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati juda chegaralangandir.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilar idrokining yani bir xususiyati xilma-xil, yorqin boʻyoqlar, yaqqol tasvir va his-tuygʻuga boyligidir. Shuning uchun ular avvalo yorqin his-tuygʻu uygʻotadigan narsa va hodisalarni idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar, diametrik shaklga koʻra, jonli “jozibador” tasvirlar yorqin his-tuygʻu tarzida aks etadi. Koʻp fiziolog va psixologlarning fikricha, yorqin rangli tasvirlarni idrok qilish ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni vaqtincha toʻxtatib qoʻyadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun boshlangʻich sinf darsliklarining juda koʻp suratlar bilan bezatilishi ham maʼqul emas. Chunki bunda oʻqish surati sekinlashadi, xatolar koʻpayadi, suratlarining koʻpligi bolalarni matndan chalgʻitadi. Bolada muayyan oʻqish malakalari hosil boʻlgandan keyin kitob varaqlarini suratlar bilan bezatish esa uning nutqi oʻsishiga, mavzu va fanga qiziqishi ortishiga yordam beradi.

Taʼlim jarayonida boshlangʻich sinf oʻquvchisining idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan perseptiv faoliyat darajasiga koʻtariladi. Bola oʻqituvchining rahbarligida shaxsiy idrokni tashkil etish, oʻz oldiga vazifa qoʻyish, idrok mahsulini nazorat qilish va hokazalarni oʻrgana boradi. Oʻquvchi taʼlimning dastlabki bosqichida oqilona idrok etish uchun, keyinchalik esa oʻsha narsani toʻgʻri idrok etish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad boʻlsa, harakat qilish idrokning sharti vazifasini bajaradi.

Taʼlim jarayonida idrok maqsadga muvofiq perseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada oʻquvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli 1- sinfda soʻz biron narsani atash bilan chegaralangan boʻlsak, keyinchalik u oʻrganilayotgan obyektning umumiy maʼnosini anglata boshlaydi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining perseptiv faoliyatida fazo, vaqt va harakatni idrok qilishning oʻziga xos xususiyatlari bor. Bolalarda hayot tajribasining yetishmasligi, bilim saviyasining qashshoqligi, tasavvur obrazlarining zayifligi tufayli idrokning mazkur shakllari juda cheklangan boʻladi. Ular kundalik turmushda qoʻllaniladigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklanishi sababli ilmiy fazoviy atamalarni, masalan, togʻlarning balandligi, fazo bilan yer oʻrtasidagi masofa, dengiz va koʻllarning hajmi va boshqalarni idrok etishda qiynaladilar.

Taʼlim jarayonida va kattalarning yordami bilan turmush tajribasining ortishi tufayli bolalarda fazo, vaqt va harakatni idrok qilish koʻlami kengayadi, ular vujudga kelgan savollarga javob topa boradilar. Bundan tashqari, ularning nazariy bilimlari amaliy faoliyatda sinab koʻrish orqali ham boyib boradi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ixtiyoriy ongli diqqati o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlari uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori sinf o'quvchilarining bilim olish motivlari uzoqni ko'zlagan motivga kirsam, boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivlari voqelik va reallikka bog'liq motivlardir. Bolalarda ixtiyorsizlik diqqati durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning materiallarining yaqqolliigi, yorqinliigi, jozibadorliigi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quvchilarning turli tumanliigi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan, bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish, mavhumlashtirish va umumiyashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar, xalal beruvchi alomatlardan qutilish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi, bola tashqi belgilarga e'tibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki, ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog'lanib kelsa, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladi va intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik, ya'ni tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sirida beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quvchilarning materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi[1].

1 va 2-sinf o'quvchilarida diqqatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va obyektga uzoqroq tuta olmaydilar. Bunda tormozlanish bilan qo'zg'alish o'zaro nomuvofiq harakat qiladi. O'qish mashg'ulotida tutilish, to'xtab qolish, qiroat suratining kamayishi, tovushning tebranishi va pasayishi, ba'zida harf, ibora, gaplar tushib qolish hollari mana shu fiziologik mexanizm ta'sirida paydo bo'ladi.

Qator tadqiqotlar 1 - va 2 - sinf o'quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o'tirishi, o'z diqqatini muayyan obyektga to'plashi va unda ishlab turishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mashg'ulotlarda bolalarni harakatga keltiruvchi harakatli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolish (xotira) uchun muayyan intilishni tarkib toptirish, ularga eslab qolishning usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini o'rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekishirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilariga eslab qolish va



eslash usullari o'rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat hisoblanadi. Lekin o'quvchilar materialni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchisining hayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tevarak - atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xayolning xususiyatlaridan yana bir hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o'zaro aralashib ketishidir. O'quvchilar xayolparastligi, fantaziya berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishda tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Tafakkurning xususiyatlarini o'rgangan olimlar bolaning tafakkurini quyidagi uch yo'nalishda tadqiq qilganlar:

- tafakkurning yosh davriga xos xususiyati,
- uning rivojlanishi,
- tushunchalarni shakllantirish omillari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalar-da, oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va xodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi.

Bola rivojlanishining muayyan davri uchun xos bo'lgan psixologik asoslarga tayangan holda, ularda xosil bo'lgan ko'nikma va malakalarning sifati baholanishi lozim. O'quvchilarga turli holatlar va bilish shakllarining mohiyatini anglatgan holda o'rganish jarayoni o'quvchining har bir yoshiga xos taraqqiyot darajasiga nisbatan verbal va noverbal xarakter kasb etishi mumkin[6].

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari davriga xos ahamiyatli tomon shundaki, bolaning bog'cha yoshi davrida to'plagan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg'aya boshlaydi. Jenevalik psixolog Jan Piajening ma'lumotlariga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi hohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'lib boradi. Bu davr ba'zan "kichik maktab yoshidagi bolalar" iborasi bilan ham ishlatiladi.

Kichik maktab yoshidagi bola 6-7 yoshdan boshlab 10-11 yosh atrofida bo‘lib, unga asosan 1-4-sinf o‘quvchilari, ya’ni boshlang‘ich ta’lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

- maktabgacha davrdagi bola o‘quvchi maqomi darajasiga yetadi,
  - barcha tana a’zolari rivojlanish bosqichida bo‘lib, lekin suyaklari hali to‘liq qotib ulgurmagan bo‘ladi,
  - psixologik qo‘zg‘alishi va tormozlanishi tez o‘zgaruvchan bo‘ladi,
  - o‘yin faoliyatidan ko‘proq o‘qish faoliyatiga o‘tishi talab etiladi,
  - maktabga borishga doir psixologik yo‘nalish olish ishlari amalga oshiriladi,
- Shuningdek, endigina maktabga qadam qo‘ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning kun tartibi o‘zgarishi,
- o‘qituvchilar bilan tengdoshlari (sinfdozlari) bilan muloqatda bo‘lishi,
- egallagan bilimlarini amalda qo‘llashi va h.k.

O‘quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo‘lga qo‘yish uchun avvalo ularning xarakter xislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir [5]. Har bir o‘quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o‘zlashtirganligini aniqlamay turib ular bilan yakkama–yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

O‘zining “Pedagogik jarayon” asarida P.F. Kapterev “o‘qitish, ta’lim berish, o‘rgatib qo‘yish (ko‘nikma hosil qildirish), tarbiya berish, o‘git berish, pand-nasihat berish, tanbeh berish (jazo berish) va boshqa ikkilamchi ko‘p ma’noli so‘zlar butun pedagogik jarayonning turli xususiyatlari, tomonlari va hodisalarini (moment, lahzalarini) anglatadi”, deb yozadi[2]. O‘z maqsadiga ko‘ra, maktabning umumta’lim kursi shaxsni har tomonlama kamol toptirish maqsadida ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatni ta’minlashga mo‘ljallangan edi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Buyuk allomalarimiz ta’kidlaganlaridek, kishining fe’l-atvori xammadan ko‘ra hayotning dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo‘lgan sifatlar, mustahkam o‘rnashib kishinin ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas’uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o‘qituvchining har bir gapi, har bir xatti-harakati ta’sir ko‘rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatidan jiddiy ta’sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, u bergan topshiriqlarni bekami-ko‘st bajarishga intiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrok etish, xotira, hayol, tafakkur singari bilish faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning:

- kuzatish natijasida bolalarning shakl va ranglarni yaxshi bilishi,
- diqqati ahamiyatli narsalarga tez qaratiladi,
- eslab qolishi asosan ko‘zga ko‘rinadigan, emotsional ta’sir kuchi bo‘lgan narsalarga qaratilganligi,

- xayol etishi reproduktiv, o'xshashga harakat etishi,
- fikrlash darajasi ko'rgazmali-obrazlilik bilan bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga har qanday maktabning asosiy elementlarini birlashtirishdan (kombinatsiyasidan) eng avvalo uning ta'lim kuchi bog'liq bo'ladi, agar ushbu birikish (uyg'unlik) bo'lmasa, ijtimoiy tarbiyadagi kamchiliklarni (bo'shliqni) yopib, yashirib turadigan bir bezak bo'ladi xolos[5]. V.A. Slasteninning fikriga ko'ra, pedagogika nuqtayi nazaridan pedagogik jarayon - asosiy negiz tushunchadir. Vaholanki, "ta'lim jarayoni" va "pedagogik jarayon" so'z birikmalari (tushunchalari) sinonim hisoblanadi, chunki pedagogikaning predmeti sifatida ta'lim pedagogik jarayondir[4]. Ijodkorlik bilan mohirona yo'l topa olishi lozim. Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayonga dinamik tizim sifatida qaraladi. Uning dinamikasi va harakati asosiy ishtirokchilar faoliyatlarining o'zaro ta'siri yoki almashinuvi bilan belgilanishi hisobga olinsa, pedagogik jarayonni subyektlarning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan rivojlanayotgan o'zaro faoliyati sifatida tushunish mumkin, - deb ta'kidlaydi V.A. Slasten[3].

Demak, pedagogik o'zaro faoliyat pedagogik jarayonning mohiyatga xos muhim xususiyatidir. Boshqa har qanday o'zaro faoliyatdan farqli o'laroq, ushbu o'zaro faoliyat pedagog va tarbiyalanuvchilar (tarbiyalanuvchi) o'rtasidagi oldindan o'ylab qo'yilgan aloqa (uzoq muddatli yoki vaqtinchalik) bo'lib, uning natijasi munosabatlar hisoblanadi. Pedagogik o'zaro faoliyat tarkibiga pedagogik ta'sirning, uning tarbiyalanuvchi (o'quvchi) tomonidan faol idrok etilishi va o'zlashtirilishini va tarbiyalanuvchining pedagogga va o'ziga javob reaksiyalari sifatidagi bevosita yoki bilvosita ta'sirlarida (o'z-o'zini tarbiyalashda) namoyon bo'ladigan o'z faoliyatining birligini (yaxlitligini) o'z ichiga oladi[3]. Shu asnda, o'rganilayotgan jarayonning individuallashtirish va ijodiy yo'naltirilganlik darajasidan ko'p jihatdan shaxsning nafaqat rivojlanishini, balki uning o'z-o'zini shakllantirishini ham bog'liq bo'ladi. Bu qonuniyat individual-ijodiy yondashuv sifatida ta'lim metatamoyilining (metaprinsipining) asosini tashkil etadi. Ushbu qonuniyat turli faoliyatlarni bevosita rag'batlantirishni, rivojlanishning optimal natijasiga erishish o'z-o'zidan harakatda bo'lishni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Individual-ijodiy yondashuv shaxsning o'z salohiyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirish, uning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va shakllantirish uchun sharoit yaratishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan, shaxsning rivojlanishida boshqa kishilarning yetakchi rolining o'rnini aks ettiruvchi tashxisiy (diagnostik) tamoyil kelib chiqadi. Pedagoglar, ota-onalar va boshqa ahamiyatga ega bo'lgan kattalar bola uchun qiyinchilik, murakkablik darajasi oshib boruvchi vazifalarni qo'yishadi, ularning hal qilish va albatta, shaxsiy o'sishini ilgari surish uchun shart-sharoitlar yaratishadi. L. S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, bolaning rivojlanishi (boshqa rivojlanish turlaridan farqli o'laroq) inson tajribasini hamkorlikda o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Demak, istiqbolni (kelajakdagi muvvafoqiyatni) belgilash uchun “rivojlanishning ertangi kunini” ham bilish zarur.

Boshqa soʻzlar bilan aytganda, bolani (oʻz rivojlanishining, pedagogik jarayonning) subyekti deb tan olish ragʻbatlantirilganlik, ijodiy yoʻnaltirilganlik, shaxsning kreativlikni shakllantirish yoʻnalishida oʻz shaxsiy oʻzgarishlariga nisbatan javobgarligi kabi fenomenlar bilan bogʻliq.

Asta-sekin oʻzgarishlar ikki yoʻl bilan: yaʼni. bolaning psixik (ruhiy) rivojlanishi tomoni sifatida; va “bola tomonidan mustaqil amalga oshirilmasdan, balki kattalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan” birgalikda amalga oshiriladigan hamkorlikning tashqi uchrash maydonining yaqin kelajakdagi shakllantirish hududida (zonasida) amalga oshiriladi[3].

Umumlashtirilgan holda kreativlikni shakllantirish samaradorligi koʻp jihatdan pedagogik, ijtimoiy va tashkiliy shart-sharoitlarning birligiga (uygʻunligi, yaxliligiga) bogʻliq boʻlib, ularga koʻra ilk yosh bosqichlarida kreativlikka universal (umuminsoniy) qobiliyat sifatida qarash va shakllantirish mantiqan toʻgʻri boʻladi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson maʼnaviyatining ajralmas qismi boʻlib shaxsni oʻz-oʻzini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega boʻlgan bilimlarning koʻp qirrali ekanligida emas, balki yangi gʻoyalarga intilishda va oʻrnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va oʻzgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon boʻladi degan xulosaga keldik.

### **Aadabiyot**

1. Кенжаева Д.Т. Олий педагогик таълим жараёнида баркамол шахсни шакллантиришнинг назарий-амалий асослари: Пед.фанл.номз. дисс. – Т.: 2007. – 179 б.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Педагогика, 1989. – 75 с.
3. Боймуродова Г.Т. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигининг технологик тизими. Пед. фан. ном.дис. Автореферати.– Тошкент:2009. –Б- 24
4. Риданова И.И. Основы педагогического общения. – М.: Логос, 2005. – С.176.
5. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания / К.Д. Ушинский // Ушинский К.Д. Собрание сочинений. - М.: Просвещение, 1950. - Т. 8. - С. 302 - 324.
6. Волков И.П. Уроки творчества //Воспитание школьников, 1987, №1, с. 20-23.

**Bosh muharrir:**

Umarov Alisher Yusbjanovich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

**Tahrir hay‘ati:**

Asqarov A.A., Djurayev R.X., Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A.,  
Xaliqov A.A., Djamilova N.N., Mamarajabova Z.N., Masharipova U.A.,  
Ishquvvatov V.T., Xalilova N.I., Nurullayev M.E., Ergashev J.B., Rahimov V.Sh.,  
Maqsudova G.O., Axmedova N.M., Kurbanova Sh.I., Xo‘janazarov O‘.E.,  
Djurakulova E.S., Abdug‘aniyev O.T., Isakulova N.J.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy

**e-mail: [tdpuia@mail.ru](mailto:tdpuia@mail.ru)**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr”  
bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1/8</sup>

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy